4. Селтманн Р., Конеев Р.И., Диваев Ф.К., Халматов Р.А. Новые данные об абсолютном возрасте магматизма и золотого оруденения в Узбекистане //Геология и минеральные ресурсы. - 2014. - № 2. - С. 10-15.

ЁНБОШ УЧАСТКАСИ, ҚОПҚОҚЛИ ВА БЕШҚУДУҚ КОНЛАРИ ТОҒ ЖИНСЛАРИДАГИ АСОСИЙ ВА ҲАМРОҲ ЭЛЕМЕНТЛАРНИНГ ГЕОКИМЁВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Махаммадиев Э.М.*, Жуманиёзов Д.И.**, Каримова Ф.Б.**

**Ўзбекистон Республикаси Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги, e-mail: Mahammadiyev@mingeo.uz*

*** Ҳ.М.Абдуллаев номидаги Геология ва геофизика институти, e-mail: denisbey@list.ru;karimova.ingeo@mail.ru*

Annotatsiya. Ёнбош участкаси, Қопқоқли ва Бешқудуқ конлари тоғ жинсларидаги асосий ва ҳамроҳ элементларнинг геокимёвий тарқалиш хусусиятлари келтириб ўтилган. Тезисда ўрганилаётган ҳудуддан дала-тадқиқот ишлари мобайнида олиб келинган 50 дан ортиқ турли тарқибдаги тоғ жинсларининг пробир ва ICP масс-спектрометрик таҳлил натижалари келтирилган.

Аннотация. Приведены особенности геохимического распределения основных и сопутствующих элементов в горных породах Янбашского участка, месторождений Капкакли и Бешкудук. В тезисе представлены результаты пробирного и ИСП масс-спектрометрического анализа более 50 образцов горных пород различного состава, отобранных на исследуемой территории в ходе полевых работ.

Abstract. The geochemical distribution characteristics of primary and accompanying elements in the rock formations of the Yonbosh section, Qopqoqli and Beshquduq deposits are presented. The thesis includes the results of assay and ICP mass spectrometric analysis of more than 50 rock samples of various compositions, collected from the study area during field research.

Жаҳон амалиётида сўнги йилларда асл, нодир металлар ва ноёб ер элементлари конларини башоратлаш, геологик-қидирув ишларини самарали ташкил этиш, тоғ жинслари ва маъдан ҳосил бўлишнинг замонавий илмий назариясини ҳамда яширин конларни қидирув-башоратлаш меъзонларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этиб келмоқда. Бугунги кунда ривожланган мамлакатларда маъдан конларини қидиришнинг минералогик, петрологик-геокимёвий меъзонларини ишлаб чиқиш борасида олиб борилган тадқиқотлар натижалари фойдали қазилма конларини ҳосил бўлишидаги роли башорат-қидирув меъзонларини ишлаб чиқиш каби бир қатор муаммоларни ҳал қилишда муҳим ахборот манбаси бўлиб хизмат қилади.

Сўнгги йилларда мамлакатимиз хукумати геология соҳаси фаолиятини ривожлантириш борасида дунё стандартларига мос келувчи инновацион ва замонавий тажрибалар асосида фойдаланган ҳолда кенг қамровли чора тадбирлар амалга оширмоқда. Бу эса ҳукуматимиз томонидан соҳани тубдан қайта ислоҳ этиш ва замонавийлаштириш борасида бир қатор, жумладан Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича


Ҳаракатлар стратегиясида “... алоҳида ҳудудларда табиий ва минерал ҳомашё салоҳиятидан комплекс ва самарали фойдаланишни таъминлаш ...” вазифалари белгилаб берилган.

Зиёвуддин тоғларида интрузив жинслар кенг тарқалган, улар протерозой, мезокайнозой системаси ётқизиқлари ичида шток кўринишидаги таналар ва турли таркибли дайкалардан иборат. Зиёвуддин тоғларида А.С.Аделунг, Х.Н.Баймухаммедов, Е.И.Барковская, Э.С.Сорокин, Э.П.Изох, З.А.Юдалевич, Н.А.Лосев, Г.К.Ляшенко, В.Г.Горев, Э.Б.Бертман, И.В.Мушкин, А.Ф.Свириденко, И.Ҳ.Ҳамрабаев, М.С.Карабаев, А.К.Оролов, Э.М.Амиров ва бошқалар томонидан кенг қамровли ишлар олиб борилган.

Зирабулоқ-Зиёвуддин тоғларининг олтин минераллашуви гранитоид интрузиясининг иккинчи ва учинчи фазаларидан 10-15 км гача масофада жойлашган бўлиб, кучли метаморфлашган жинслар орасида учрайди. Олтин ва мис минераллашуви субвулканик дайкаларнинг ривожланиш жойи билан характерланади. Скарн-сульфид ва кварц-сульфид минераллашуви дайка танасида, контактларда ва дайкалардан маълум масофада жойлашган.

Зирабулоқ-Зиёвуддин тоғларининг олтин минераллашуви диоритли порфиритлар, малхит-спецсартит туридаги лампрофирлар ва дацитли порфирларнинг субвулканик дайкалари билан ҳам бирга келади (Боймуҳамедов, 1960).

В.С.Корсаков, Е.И.Барковская, Э.С.Сорокинлар бошчилигида Зирабулоқ-Зиёвуддин тоғларида 1:25 000 миқиёсдаги хариталаш ишлари олиб борилган ва натижада худуднинг пелеозой кесимининг ёши ва тузилиши, интрузив магматизмнинг таркиби ва ривожланиш давомийлиги, метаморфик ҳамда тектоник жараёнлар, палеозой қатламли ва чўқинди ётқизиқларда олтин, мис, қалайи ва бошқа металларнинг намоёни (Чолқудуқ мис намоёни. 1963й; Зирабулоқ интрузивида ниобий, тантал, бериллийларнинг миқдори юқори бўлган майдонлар, 1967 й; Бешқудуқ, Лохли, Ялаконсой истиқболли майдонлар, 1970й; Майзак ва Ёмончисой вольфрам, Ёнтоқли олтин маъдан намоёни, 1974-1977й) борасида янги маълумотлар олинган.



1-расм. Зиёвуддин тоғларининг схематик геологик харитаси (В.С.Корсаков, Э.С.Сорокин, Е.И.Барковская ва б. 1984 й). 1–замонавий ҳосилалар, 2–неоген системаси (гиллар ва қумтошлар), 3–палеоген системаси (мергеллар, гиллар, алевролитлар, қумтошлар ва оҳактошлар), 4–бўр системаси (гиллар, алевролитлар, қумтошлар, гравелитлар, конгломератлар), 5–карбон системаси (қумтош-сланецли ётқизиқлар), 6–девон системаси (қумтош-сланец ва карбонатли ётқизиқлар), 7–силур системаси (қумтош-сланецли ётқизиқлар, мармарлар, мармарлашган оҳактошлар ва доломитлар), 8–ордовик системаси (қумтош-сланецли ётқизиқлар), 9–протерозой системаси ётқизиқлари, 10, 11, 12–интрузивлар (I – Чайдароз, II – Қўшқудуқ, III – Майзак, IV – Оқмозор, V – Гунжак, VI – Қарноб), 13–ер ёриқлари.

1-жадвал.

Тоғ жинсларида тарқалган элементларнинг ихтисослашув бўйича корреляцияси


№	№ проб	Тоғ жинсларининг номи	Cu	Zn	As	Se	Mo	Ag	Sn	Ta	W	Au	Pb	Bi
1	Дз-01	Кварц томири	77,598	15,787	9801,874	21,173	7,862	1,147	3,440	0,012	6,891	0,05	5,874	0,457
2	Дз-02	Гематитлашган сланец	214,315	89,043	41,277	1,081	8,830	0,219	2,096	0,007	2,898	0,010	3,156	0,422
3	Дз-03	Кварц томири	137,197	91,625	653,272	3,838	15,950	7,488	28,615	0,069	5,254	0,350	125,792	0,693
4	Дз-04	Сланец	54,564	52,067	1183,897	3,828	16,785	23,664	6,810	0,061	7,065	1,014	1907,403	1,446
5	Дз-05	Кварц томири	68,121	98,275	1573,003	1,564	16,610	5,579	3,936	0,122	8,419	0,500	40,619	0,560
6	Дз-06		135,390	82,921	47,843	3,192	14,345	0,275	2,414	1,079	2,996	0,005	20,099	0,480
7	Дз-07		96,897	109,193	87,943	4,002	20,754	0,744	3,041	0,381	2,547	0,050	39,978	0,422
8	Дз-08	Кварц-маъданли томир	92,542	325,150	457,985	7,505	34,437	1,093	3,065	0,480	4,476	0,050	22,379	0,859
9	Дз-09	Кварц томири	127,459	95,762	72,243	11,171	32,021	0,309	2,991	0,025	2,965	0,005	24,999	0,511
10	Дз-10		108,059	149,139	922,496	2,371	19,125	2,147	3,459	0,064	9,067	0,050	115,400	1,011
11	Дз-11	Метасоматит	60,963	46,237	5724,358	7,224	14,346	26,277	4,075	0,029	4,540	1,000	165,543	0,564
12	Дз-12		64,483	62,643	386,244	9,900	1034,810	1,541	2,457	0,191	8,196	0,050	87,120	0,531
13	Дз-13	Сланец	125,242	79,033	19,444	0,406	14,108	0,226	3,498	1,928	2,918	0,005	10,689	0,466
14	Дз-14	Темирлашган сланец	64,268	76,538	70,334	0,083	14,028	0,247	3,347	0,206	12,135	0,005	16,584	0,541
15	Дз-15	Кварц томири	53,607	54,504	43,115	1,305	16,979	1,621	2,728	0,004	4,685	0,050	32,835	0,520
16	Дз-16	Темирлашган кварц томири	74,721	44,806	129,098	2,154	16,545	0,853	2,637	0,013	3,764	0,005	23,763	0,553
17	Дз-17а	Альбит-актинолит-эпидотли сланец	63,810	49,770	37,014	0,763	12,958	0,922	4,329	0,098	3,962	0,005	24,629	0,669
18	Дз-18	Метасоматит	142,139	86,193	44,706	11,556	10,993	1,462	1,798	0,058	3,314	3,300	19,272	0,596
19	Дз-19	Сланец	271,757	76,758	1366,531	6,897	13,194	1,021	3,272	1,089	3,469	0,005	15,047	0,453
21	Дз-21	Альбит-актинолит-эпидотли сланец	95,954	77,450	10,743	0,191	14,146	0,258	3,870	1,876	3,418	0,005	3,051	0,490
23	Дз-23	Альбит-актинолит-эпидотли сланец	107,386	109,081	0,606	3,515	28,972	0,963	4,084	5,779	1,083	0,005	14,803	0,081
24	Дз-24	Кварц-мусковитли сланец	41,602	118,349	50,577	0,285	26,332	1,017	4,009	2,191	0,096	0,050	14,162	0,066
28	Дз-28	Сланец	166,762	142,089	732,502	6,669	30,050	1,795	4,818	54,591	5,182	0,100	24,180	0,195
29	Дз-29	Кварц томири	63,067	106,589	384,016	3,073	28,002	1,746	3,045	4,497	1,624	0,050	12,754	0,136
30	Дз-30	Кварцит	76,206	111,411	195,041	0,141	28,996	1,019	10,309	9,691	1,843	0,075	24,652	0,372
31	Дз-31	Сланец	84,051	126,113	237,423	6,485	28,664	2,159	5,177	0,462	0,249	0,150	19,597	0,024
32	Дз-32	Маъданли кварц томири	149,360	116,120	348,400	34,975	32,796	3,625	3,763	0,059	0,083	1,080	20,322	3,566
33	Дз-33	Сланец	184,028	216,951	26,555	3,788	28,552	1,378	3,060	5,479	0,125	0,005	17,788	0,394
34	Дз-34	Кварц томири	160,978	116,822	490,338	6,633	28,000	1,271	2,621	3,047	0,036	0,050	17,088	0,327
35	Дз-35		115,116	214,990	4064,628	14,416	32,098	6,863	6,922	0,144	1,075	0,260	161,770	1,978
36	Дз-36	Сланец	104,164	143,710	1780,575	1,510	32,160	2,204	5,196	0,261	0,539	0,380	30,920	0,067
37	Дз-37а	Кварц томири	62,871	108,063	591,171	3,849	27,964	2,181	3,755	3,673	0,325	0,100	31,200	0,326
38	Дз-38		177,349	117,265	263,204	115,287	28,064	74,328	10,056	18,732	2,862	24,800	890,962	25,501
39	Дз-39	Сланец	198,958	178,426	1040,677	26,901	37,136	2,275	6,850	0,093	1,008	0,350	227,298	16,071
40	Дз-40		103,090	127,932	1229,980	1,048	29,606	2,501	7,838	2,643	2,075	0,100	67,261	1,534
Тоғ жинсларининг ўртача миқдори			**110**	**147**	**856**	**8**	**48**	**5**	**5**	**3**	**3**	**1**	**112**	**2**
Кларк сони (А.П.Виноградов, 1962й.)			**47**	**83**	**1,7**	**0,05**	**1,1**	**0,07**	**2,5**	**2,5**	**1,3**	**0,0043**	**16**	**0,009**
Кларк концентрацияси			**2,33**	**1,77**	**503,55**	**167,06**	**43,60**	**66,59**	**1,98**	**1,27**	**2,47**	**204,50**	**7,02**	**178,99**
Элементларнинг геокимёвий қатори			**Cu-Zn-As-Se-Mo-Ag-Sn-Ta-W-Au-Pb-Bi**											

2-жадвал

Тоғ жинсларидаги элементларнинг ICP масс-спектрометрик таҳлил натижалари бўйича корреляция коэффициентлари (%)

T/p	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
	Cu	Zn	As	Se	Mo	Ag	Sn	Ta	W	Au	Pb	Bi
Cu	1,00	-0,10	-0,09	0,28	-0,13	0,09	0,09	0,20	-0,15	0,20	-0,06	0,31
Zn	-0,10	1,00	-0,11	-0,03	-0,04	-0,06	-0,01	0,08	-0,23	-0,04	-0,03	-0,01
As	-0,09	-0,11	1,00	0,10	-0,05	0,12	0,01	-0,08	0,22	-0,02	0,05	-0,02
Se	0,28	-0,03	0,10	1,00	0,02	0,84	0,16	0,24	-0,06	0,94	0,36	0,90
Mo	-0,13	-0,04	-0,05	0,02	1,00	-0,04	-0,09	-0,04	0,25	-0,03	-0,01	-0,02
Ag	0,09	-0,06	0,12	0,84	-0,04	1,00	0,27	0,22	0,07	0,91	0,62	0,77
Sn	0,09	-0,01	0,01	0,16	-0,09	0,27	1,00	0,07	0,03	0,19	0,20	0,21
Ta	0,20	0,08	-0,08	0,24	-0,04	0,22	0,07	1,00	0,00	0,26	0,05	0,19
W	-0,15	-0,23	0,22	-0,06	0,25	0,07	0,03	0,00	1,00	-0,01	0,20	-0,08
Au	0,20	-0,04	-0,02	0,94	-0,03	0,91	0,19	0,26	-0,01	1,00	0,42	0,84
Pb	-0,06	-0,03	0,05	0,36	-0,01	0,62	0,20	0,05	0,20	0,42	1,00	0,39
Bi	0,31	-0,01	-0,02	0,90	-0,02	0,77	0,21	0,19	-0,08	0,84	0,39	1,00

Келтирилган жадвалда тоғ жинсларида маъданли элементларнинг тарқалишидаги ўзаро боғлиқликлари аниқланди.



2-расм. Cu, As, Se, Ag, Sn, Ta, W, Au ва Pb элементларнинг маъданли элементлар билан корреляциявий гистограммалари.

Хусусан, қуйидаги жуфтликлар учун, алоҳида элементларнинг ўзаро боғлиқликлари мавжуд эканлиги маълум бўлди (%): **мис** билан – селен (0,28), кумуш-қалай

(0,09), тантал-олтин (0,20), висмут (0,31) фоиз бир-бирига боғлиқ эканлиги ва руҳ, маргимуш, молибден вольфрам, қўрғошин билан бирга боғлиқ эмаслиги; **маргимуш** билан – селен (0,1), кумуш (0,12), вольфрам (0,22), қўрғошин (0,05) боғлиқ эканлиги ҳамда мис, руҳ, молибден, тантал, олтин ва висмут билан бирга учрамаслиги; **селен** билан – мис (0,28), маргимуш (0,1), молибден (0,02), кумуш (0,84), қалай (0,16), тантал (0,24), олтин (0,94), қўрғошин (0,36) ва висмут (0,90) миқдорни ташкил қилади ҳамда селеннинг руҳ ва вольфрам билан бирга учрамаслиги; **кумуш** билан – ўрганилаётган ҳудудда молибден ва руҳдан ташқари барча элементлар боғлиқ эканлиги; **қалай** билан – ҳам руҳ ва молибден бирга учрамаслиги ҳамда қолган бошқа элементлар билан корреляцияси ҳосил қилиши аниқланди. Энг кўп пропорцияда кумуш, селен, олтин, қўрғошин ва висмут келиши; **тантал** билан – фақат маргимуш ва молибден бирга учрамаслиги, қолган элементлар билан тўғри боғланиши; **вольфрам** билан – маргимуш (0,22), молибден (0,25), кумуш (0,07), қўрғошин (0,20) миқдорда боғлиқ эканлиги; **олтин** билан – мис, селен (0,94), кумуш (0,91), қалай, тантал, қўрғошин ва висмут (0,84) элементлари бирга келиши; **қўрғошин** билан – маргимуш (0,05), селен (0,36), кумуш (0,62), қалай (0,20), тантал (0,05), вольфрам (0,20), олтин (0,42) ва висмут (0,39) миқдор ҳисобида бир бири билан келиши ҳамда **висмут** билан – руҳ, маргимуш ва вольфрам тескари пропорцияда эканлиги ва висмутнинг мис (0,31), селен (0,90), кумуш (0,77), қалай (0,21), тантал (0,19), олтин (0,84) ҳамда қўрғошин 0,39 фоиз миқдорда боғлиқ эканлиги маълум бўлди.


Олинган 41 та намунадан 31 таси олтин ва кумушга пробир таҳлил қилиш учун топширилди. Олинган намуналарнинг 7 тасида олтин аниқ миқдорлари келтирилган: Дз-04 намунада 0,42 г/т, Дз-11 да 1 г/т, Дз-18 да 3,3 г/т, Дз-32 да 1,08 г/т, Дз-35 да 0,26 г/т, Дз-36 да 0,38 г/т, Дз-38 да 24,8 г/т олтин келяпти. Дз-18 намуна кучли ўзгарган контакт жинс бўлиб, асосини темирлашган ва лимонитлашган кварц ташкил қилади. Тоғ жинси кучли дарзланган. Намунада майда сульфид доналари кузатилади. Дз-38 намуна кучли темирлашган, оксидланган ва лимонитлашган кварц томири, сланецларни ёриб чиққанлиги сабабли кварц томирида минераллашган сланец қолдиқлари учрайди, шу сабабли тоғ жинсида олтиннинг миқдори кўп келяпти (3-расм).




3-расм. Намуна Дз-38. Ўзгарган кварц томири

Олинган намуналарнинг ICP-масс-спектрометрик натижаларига кўра деярли барча тоғ жинсларида мис (5 мартагача), руҳ (18 мартагача), кадмий (38 мартагача), олова (12 мартагача), қўрғошин (120 мартагача), никель, хром ва висмут, маргимуш, селен ва германийнинг миқдори кларк сонидан бир неча минг марта юқори эканлиги аниқланди.

Биргина мис қазиб олиш мамлакатимизда ундан маҳсулотлар ишлаб чиқаришга катта эътибор қаратилмоқда. Мис қазиб олиш саноати ва унга алоқадор тармоқларга иқтисодиётнинг ҳақиқий драйверлари сифатида қаралмоқда. Албатта мис конлари ва миснинг катта заҳиралари Шарқий Ўзбекистон билан боғлиқ, аммо мис, қўрғошин ва руҳ Ғарбий Ўзбекистонда ҳам етарлича хом-ашё базасида мухим аҳамият касб этади.



Олинган таҳлил натижаларига асосан диаграммада Зиёвуддин маъданли майдонининг Ёнбош участкаси 9 маъдан танаси, Қопқоқли кони 16 маъдан танаси ва Бешқудуқ кони 26, 27 ҳамда 81 маъдан зоналарида олтин-кумуш саноат аҳамиятини касб этади.



Ноёб ер элементларининг қўшиб ҳисоблагандаги умумий миқдори келтириб ўтилган. Унга кўра фақат битта Дз-33 (кучли ўзгаришга учраган кварц томири) намунасида 370 г/т НЕЭ келтирилган.

Хулоса қилиб айтганда олинган тоғ жинслари ичида келаётган висмут, маргимуш ва селен олтин маъданлашуви билан изоҳлаш мумкин. Юқорида келтирилган олтиннинг спектрозолотометрик ва пробир таҳлил натижаларида келган олтин миқдори бўлган тоғ жинслари таркибида висмут, маргимуш ва селен бирга келиши ва уларда висмут 2800 мартагача, маргимуш 5800 мартагча ва селен 2300 мартагача кларк сонидан юқори эканлигини кўриш мумкин. Аслини олганда Республикамиз олтин конларининг деярли барчасида висмут, маргимуш ва селеннинг миқдори юқори келади. Чунки бу элементларнинг барчаси сульфид минераллари билан боғлиқ ҳолда учрайди (пирит, халькопирит, арсенопирит, сфалерит, галенит, магнетит ва бошқалар). Мис, руҳ, кадмий, олова ва қўрғошин саноат аҳамиятини касб этади. Миснинг тоғ жинсларида юқори миқдорда келиши, олинган намуналарнинг кучли темирлашгани, малахитлашгани ва намуналарда мис купоросининг кўп миқдорда учраши сабаб бўлганини айтиш мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:
1. Абдуллаев Х.М. Генетическая связь оруденения с гранитоидными интрузиями. - М.: Госгеолтехиздат, 1954. - 294 с.
2. Баймухамедов Х.Н. Субвулканические дайки Зирабулак-Зиаэтдинских гор и их отношение к золоторудной минерализации района //Узб. геол.журн. - 1960. - № 2. - С. 58-64.
3. Оролов А.К., Карабаев М.С., Амиров Э.М. Зиёвуддин тоғлари скарнларининг таркиби ва ҳосил бўлиш шароитлари (Майзак ва Гунжак интрузивлари) // Геология ва минерал ресурслар №1, 2022. – 25-30 б.
4. Петрография Узбекистана // Хамрабаев И.Х. (главный редактор), Исамухамедов И.М., Раджабов Ф.Ш., Головин Е.М., Висьневский Я.С. Т.: Наука. - Кн. 2 - 1964. - 445 с.

БАЗАЛЬТОВЫЙ ВУЛКАНИЗМ ВЕРХНЕГО ПАЛЕОЗОЯ ЧАТКАЛО-КУРАМИНСКОЙ АКТИВНОЙ ОКРАИНЫ

Рафиков Я.М.*
**Институт геологии и геофизики им. Х.М. Абдулаева*

Аннотация. В статье Рафикова Я.М. «Базальный вулканизм верхнего палеозоя Чаткало-Кураминской активной окраины» расссмотрена эволюция базальтового вулканизма Чаткало-Кураминской активной окраины, где выявлено, что в начале вулканизма был толеитовый тренд (даудабинский, уинский комплексы), в остальных временных срезах преобладает щелочной, субщелочной и редко известково-щелочной, а в конечной стадии базальтового вулканизма вновь толеитовый тренд.

Рассматриваемый вулканизм в различные периоды верхнего палеозоя составляет 14 % от общего объёма вулканизма. Базальты, стоящие в начале эволюционного ряда вулканизма, ближе всего к первичным магмам, механизм генерации которых нельзя считать до конца выясненным, что подтверждается разнообразными гипотезами их происхождения. Наиболее достоверная информация об условиях магмообразования появляется с момента обособления очагов базальтовой магмы откуда она поступает в верхние части литосферы. Вариации о составе базальтов обусловлены различием физико-химических параметров первичных магм и их изменениями в процессе эволюции. Условия образования базальтовых магм не ограничены только такими факторами как температура, давление и составом флюидов. Необходимо определиться также в отношении особенностей субстрата в зонах магмогенерации. О его составе можно судить по геофизическим данным, глубинным включениям в базальтах, изотопно-геохронологическим, петрохимическим данным, анализу распределения титана, суммы железа, магния, хрома, никеля, кобальта, калия и некоторых других элементов. Высокое количество титана, хрома, отношение Ni\Co (от2,5 до 5), железа, магния в базальтовой магме зависит от глубины выплавления субстрата, что характерно для первых мантийных выплавок. О природе водосодержащих минералов в породах зон магмогенерации можно также судить по отношению калия к рубидию. Базальты толеитового известково-щелочного ряда отличаются более высокими величинами этого отношения (610-670) от базальтов субщелочного ряда с K/Rb=470, что свидетельствуют о заимствовании литофильных элементов из мантийных субстратов более глубинного облика, в состав которых, возможно, наряду с амфиболом входит также флогопит. Таким образом, на основании вышеперечисленного, можно утверждать, что в различных геодинамических этапах и типах пород наблюдается многочисленный пестрый ряд от мезо до лейкобазальтов и формирование их происходит на разных глубинах при значительных вариациях флюидного давления и состава магмообразующего субстрата.

В Чаткало-Кураминской активной окраине проанализированы базальты различных временных срезов, однако генезис их не рассматривался. Главное различие типов базальтов

заключается в химическом составе, обусловливающем особенности их минеральных парагенезисов. В первую очередь, базальты разделяются на основании содержания щелочей и тренде щелочности по отношению к кремнезему- на базальты нормальной щелочности и щелочные. Вторые содержат недонасыщенные кремнеземом силикаты, согласно нормативному или модальному составам. Группа базальтов нормальной щелочности разделяются на 2 типа: высокомагнезиальные (бонинитовые) и магнезиально-железистые. Последние по железистости разделяются на толеитовые и известково-щелочные. Щелочные базальты делятся на группу повышенной щелочности (субщелочные) и собственно щелочные в зависимости от наличия или отсутствия модальных фельдшпатоидов. В зависимости от характера щелочности все типы базальтов могут быть разбиты на подтипы. В базальтах нормальной щелочности наиболее устойчивый признак наличие в них калия. Выделяются низко, средне и высококалиевые базальты, которые соответствуют натриевым (низкокалиевым) $Na_2O/ K_2O>4)_2$, ($N_2O+K_2O=4$-1) и калиевым ($Na_2O/K_3O<1$) подтипам. Границы для определения подтипов по калиевости намечены Гиллом (1981г.) на основании статистических данных 2600 анализов андезитов они экстрапонированы в основную и кремнекислую масти диаграммы. Таким образом, выделяются главные четыре типа базальтов (с некоторыми подтипами) – толеитовые, известково –щелочные, субщелочные и щелочные.

В Чаткало-Кураминской активной окраины проявление раннедевонского вулканизма связано с взаимодействием локальных зон субдукции океанической плитой туркестанского палеокеана с континентальной плитой Казахстано- Киргизского микроконтинента. Раннедевонский вулканизм проявился в двух меридионально вытянутых рифтоподобных структурах, обрамленных зонами глубинных разломов с которыми связаны пояса даек, свидетельствующие о горизонтальном растяжении. Рифтогенные структуры –это Моголтауская, Курусай-Джангалинская, Алмалыкская, Болгалинская, Сукокская.

Выделенный рифт относится к группе континентальных эпиплатформенных-типа «щелевых». Для них характерна большая глубина (2-4км), незначительная ширина, невысокие краевые поднятия.

Континентальный раннедевонский вулканизм делится на комплексы: катрангинский (базальт–андезит-риолит) и калканатинский (риолит). Удельный вес базальтов рассматриваемых комплексов варьирует от 9-14% в районах Калканаты, Сукока. Базальты, трахибазальты находятся в подошве разрезов и представлены стратифицированными покровами (эффузивная, эксплозивная фация), редко это силлообразные афировые базальты мощностью от 1,5 до 4 м. Выделяют 3 типа базальтов: 1 тип-оливин-пироксен-плагиоклазовые, второй тип-пироксен-плагиоклазовый, 3 тип – состоит из вкрапленников титаномагнетита, образующих включения в плагиоклазах 1 генерации редко встречается роговая обманка и биотит. Основная масса микролитовая, состоит из плагиоклаза, пироксена, калиевого палевого шпата и магнетита. Важная особенность базальтов порфировый облик, многостадийность кристаллизации вкрапленников, наличие гидроксилсодержащих минералов, а также магнетита и титаномагнетита.

Комплекс уя исследован В.П.Коржаевым, Я.М.Рафиковым, К.А.Рахмановым, А.Р.Ярмухамедовым и др. Он сохранился отдельными изолированными выходами вдоль зоны Угам-Кумбельского разлома, прилегая к краевым частям субмеридионального Тереклинского грабена. Геологическое взаимоотношение пород комплекса с нижележащими визейскими известняками разное. Так в Кураминском и Чаткальском хребтах они залегают на визейских известняках, а в хребте Каржантау (р. Уя) контакт тектонический. Комплекс уя имеет двухчленное строение. Для нижней части характерен карбонатно-терригенный состав, для верхней-карбонатно-терригенно-вулканогенный. Вулканогенные образования, завершающие разрез мощностью от 30 до 350 м. В хребте Каржантау эффузивная фация представлена трахибазальтами мощностью 25-75 м, замещается глыбовыми и бомбовыми туфами аналогичного состава мощностью 150 м, а

разрез завершается экструзией трахитов. В пределах Тереклинского грабена (район горы большой Чимган, басс. рек Мазарсай, Карааарча, Кургант) вулканогенная часть разреза представлена разнообломочными туфами, лавами трахибазальтов и трахиандезитобазальтов мощностью от 100 до 350 м. Субвулканическая фация уинского комплекса представлена силлами и мелкими штокообразными телами трахибазальтов мощностью от первых десятков метров, протяженностью до 250-400. Они прорывают визейские известняки (Чаткальский хребет, басс.р. Бельдерсай и Кураминский хребет) и терригенные образования комплекса (хр. Каржантау, басс. р. Уя). Жерловая фация представлена центрами извержений, которые приурочены к зоне Кенкольского разлома (район горы большой Чимган, Азалсай, Ташкескен). По данным В.А. Арапова и др. это некки овальной формы, размером 100-300х250-500м, выполненные лавами, кластолавами, эруптивными брекчиями трахибазальтов или трахиандезибазальтов. Вулканогенные породы уинского комплекса сложены преимущественно трахибазальтами и трахитами, количество которых невелико. В петрохимическом отношении базальты комплекса предыдущими исследователями относились к калиевым. Отмечено, что среди щелочей калий преобладает над натрием. По типу щелочности породы относятся к калиево-натриевой серии, но имеют 2 ветви: натриевую и калиевую, при этом оливин-пироксеновые трахибазальты натриевой серии, а пироксен-плагиоклазовые калиевые. Но самое главное, повышенное содержание MgO до 8,4%, что указывает на мантийный источник уинского вулканизма.

Вулканогенные образования минбулакского комплекса относятся к наиболее распространенным. Они развиты преимущественно в пределах Тереклинского и Гавасайского грабенов. Значительные поля вулканитов сохранились на Ангренском плато. Обнажающаяся на поверхности площадь выходов пород составляет 484,6 км^2. Базальные слои с несогласием залегают на различных горизонтах вулканогенно-осадочной толщи раннего девона. В Гавасайском рифте вулканогенные образования перекрывают карбонатную толщу раннего карбона и, в свою очередь, прорываются гранитоидами карамазарского комплекса.

Рассмотрим наиболее важные, с нашей точки зрения, особенности химизма пород. На диаграмме SiO_2-(Na_2O+K_2O) фигуративные точки преобладающих составов от трахибазальтов до трахиандезитов. Значительная часть точек располагается в ряду щелочно-земельных пород, что характерно для известково-щелочных серий. Другая часть их наблюдается в поле пород повышенной щелочности.

Пространственно-временные взаимоотношения известково-щелочных пород весьма сложны; часто они чередуются в разрезе комплекса, иногда отмечаются латеральные взаимопереходы. Из анализа строения разрезов в свете петрохимических данных, щелочные разновидности пород более поздние образования, чем известково-щелочные. Подобные взаимоотношения щелочно-земельных и субщелочных пород указывает на возрастание роли щелочных компонентов в процессе формирования продуктов отдельных циклов, что подтверждается данными петрографических исследований. Соотношение Na_2O и K_2O в различных типах пород колеблется от 0,26 до 4 и они относятся к калиево-натриевому. Трахибазальты комплекса высокоглиноземистые. Известково-щелочной (боуэновский) характер отчетливо виден на соответствующих петрохимических диаграммах. Например, на диаграмме AFM фигуративные точки пород формации образуют компактную группу, локализованную в поле гиперстеновой (известково-щелочной) серии, по Х.Куно. Подавляющее большинство точек располагается ниже дискриминантной линии Т.Н. Ирвина и В.Р.Барагара, разделяющей толеитовые и известково-щелочные серии пород. Эволюция средне-каменноугольного вулканизма Чаткало-Кураминской зоны соответствует известково-щелочному типу

Базальты надакского комплекса на территории Кураминской зоны развиты в пределах Лашкерекской и Адрасманской кольцевых депрессий в Алтынтопканском, Алмалыкском, северо-восточной части Шаваз-Дукентского, Кумушканского грабенах. По

петрографическому анализу базальтоидов Шаваз-Дукентского грабена они в оасновном относятся к лейкократовым базальтам высокоглиноземистым. Химический состав базальтоидов северо-восточной части грабена представлен химическими анализами, при этом мы использовали диаграму щелочности, в первую очередь K_2O при фиксированном содержании SiO_2, K_2O-SO_2 (Le MaitreR.W.1989). По содержанию калия все рассматриваемые базальты высококалиевой серии, т.е. по типу щелочности высокоглиноземистые базальты и трахибазальты относятся к калий-натриевому ряду.

В раннепермскую эпоху на территории Кураминсой активной континентальной окраины Срединного Тянь-Шаня мощно проявился базальтовый, субщелочной вулканизм, продукты которого обьединены в шурабсайский комплекс. Эта ассоциация формируется обычно на позднем этапе магматизма или при отраженной активации.

Вещественный состав вулканитов Кумлай- Коксарекского и Чадакского грабенов принципиально одинаков, поэтому их петрографические особенности приводятся совместно. Базальты в вулканоструктурах распределены равномерно 33-32 % соответственно. По минералогическому составу среди них выделяются плагиоклазовые, плагиоклаз –пироксеновые, двупироксеновые петрографические разновидности. Отметим, что объём базальтов в этом вулканокомплексе составляет одну треть разреза, что не наблюдается во всех других верхнепалеозойских комплексах, где присутствуют базальты. Таким образом, в Кураминской континентальной окраине наиболее мощный базальтовый вулканизм проявился в раннепермскую эпоху. По химическому составу базальты формации принадлежат к субщелочному калиево-натриевому ряду. В большинстве структур они характеризуются высокой кремнекислотностью, щелочностью (5,75-6,3%) глиноземистостью ($A1_2O_3$>17%) и соответственно обеднены MgO и CaO. Породы близки к производным высокоглиноземистой серии (за исключением щелочей).

Равашский комплекс находится в Кугалинской рифтовой структуре и расположен в зоне сочленения Кураминского хребта с Чаткальским. Площадь его около 200км^2. Контролируется системой различно ориентированных крупных разломов глубинного заложения (Чаркасар-Кураминский, Коксарек Чаватинский, Мискан-Акташский) и имеет в плане прямоугольную форму. Рифт на современно этозивном срезе глубоко эрозирован. Сохранившаяся часть структуры фиксируется разломами заполненными в основном трещинами экструзивными, субвулканическими телами и дайками риолитов, относящихся по возрасту к кызылнуринскому комплексу (P_1), обрамляющему его по периферии. Северо-западная часть рифта срезана субщелочными гранитами, лейкогранитами арашанского комплекса (P_1). В структуре условно выделяются два блока: западный, где обнажается фундамент, представленный вулканитами базальт – андезит –дацитового комплекса (C^b_2) и интрузированный гранитоидами карамазарского комплекса (C_2). Восточный и юго-восточный блок рифта сложен бимодальной ассоциацией пород равашского комплекса (C_2) долеритами, миндалекаменными базальтами, трахилиоритами, лиоритами и их туфами. Они залегают с размывами и конгломератами в основании на вулканогенных породах среднекарбонового комплекса. В строении бимодального комплекса, по данным Б.Д. Болгаря, Г.Н. Ситкевич, В.П. Коржаева и Я.М. Рафикова выделяются 6 пачек.

Нижняя базальная сложена конгломератами и песчаниками с горизонтами пепловых туфов и лав риолитов мощностью до 200м. Вторая, четвертая и шестая пачки мощностью до 350,50,100м соответственно представлены псаммитовыми туфами, игнимбритами риолитов и трахириолитов с единичными прослоями туфов базальтового состава мощностью 1,5-20 м. В строении третьей (70-240 м) и пятой (200—300 м) пачек значение имеют выдержанные покровы и силлы долеритов миндалекаменных базальтов мощностью от 10 до 130м. Общая мощность всей толщи в районе оз. Кугалы 1100-1200м.

Состав рассматриваемой ассоциации определяют породы, резко различающиеся по содержанию кремнезема. Это базальты с одной стороны - трахириолиты, риолиты – с другой. Вулканиты промежуточных составов практически не отмечаются. Соотношение между кислыми и основными породами в различных разрезах изменяются от 1:1 до 1:2. Для

изучаемых пород характерно содержание щелочей и уменьшенное значение MgO, т.е. наблюдается фенеровский тренд и частично толеитовый. Толеитовый тренд наблюдается также на диаграмме $FeO/MgO-SiO_2$ которая является классификационной при разделении толеитовых и известняково-щелочных серий и основана на различном обогащении в трендах железом.

Результаты расчетов нормативных составов расматриваемых базальтов по CIPW, широко применяемой в процессе петрохимических исследований, использованы при построении диаграммы OI-Di-Hy-Q, отражающей положение точек составов пород в объёме упрощенного базальтового тетраэдра Г. Йодера и Т. Тилли в проекции на плоскость без плагиоклазовых парагенезисов. Базальты Кугалинского рифта варьируют от кварц – до оливин–нормативных составов.

Анализ классификационных диаграмм, построенных по химическим и нормативным составам, свидетельствуют, что долериты и базальты Кугалинской депрессии относятся к промежуточным и толеитовым сериям, что ранее для Кураминской зоны не было установлено. Особенность изученных пород заключается в высоком содержании TiO_2, натриевом типе щелочности, феннеровском тренде дифференциации и пониженном значении кремнезема.

В 1964 г. Н.И. Соловьевым выделен вулканогенно-осадочный кучарский комплекс на левом борту р. Гава. Кучарский комплекс распространен в южной части предгорной полосы, протягиваясь по левобережью р. Гава до Коккозосая. Его нижняя граница определяется несогласным залеганием на различных горизонтах вулканитов шурабсайского комплекса

Кучарская толща состоит из нижней пачки, сложенной терригенным материалом, и второй, представленной экструзией трахидацитов и субвулканическими телами долеритов. Долериты кучарской толщи прорывает субвулканическое изометричное тело долеритов размером 80×300м. Оно имеет четкие секущие контакты с терригенной пачкой, а также с экструзией трахидацитов. Химический состав кучарских долеритов относится к известково-щелочной серии натриевого ряда, характеризуются повышенными титанистостью, железистостью, известковистостью, пониженным содержанием

Раннепермские щелочные базальтоиды и лампрофиры выявлены в 1964г. И.В. Мушкиным в верховьях реки Карабау. Аналогичные породы выделены Л.Ш. Юсуфбаевым и Ю.Х. Ахмедуллиным в верховьях рек Акча и Шаваз площадью 12км^2, а также Р. Ахунжановым и др. на правом борту р. Ангрен. Эруптивные брекчии оливиновых трахибазальтов тяготеют к Чилтенскому и Куакольскому разломам глубинного заложения. Среди трахибазальтов наряду с секущими отмечаются и покровные залегания (Б.Л. Рыбалов 1984г.), они прорываются трахириолитами кызылнуринского комплекса.

Петрохимически оливиновые трахибазальты относятся к субщелочной серии калиевого ряда (K_2O до 5,4%), не насыщены кремнеземом и с повышенным содержанием магния до 12,10%, в связи с чем можно предположить, что расплав был мантийным. По химическому составу лампрофиры р.Карабау выделяются высоким содержанием K_2O (8,20%), MgO (10,2%). Рассматриваемые породы на диаграмме SiO/CaO относятся к орендитовому ряду и сопоставимы с лампроитами Кошмансайской диатремы.

Выводы: В процессе исследования выделены четыре типа базальтов: щелочные, субщелочные, известково-щелочные, толеитовые. Толеитовая серия проявилась в начале вулканизма Чаткало-Кураминской активной окраины (даудабинского и частично катрандинского комплексов), а в конце вулканизма лампроитовые дайки и некки. В основном базальтовый вулканизм характерен высокоглиноземистыми, щелочными, известково-щелочными и субщелочными базальтами.

ЎЗБЕКИСТОН ТОҒ ЖИНСЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ АТЛАСИ

Рустамов А.И.*, Жуманиёзов Д.И.**

**Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги, e-mail: info@uzgeolcom.uz*

*** Ҳ.М. Абдуллаев номидаги Геология ва геофизика институти, e-mail: denisbey@list.ru*


Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston tog‘ jinslarining milliy atlasini yaratish va shu sohadagi Institutning olib borayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Unda asosan, tog‘-kon sanoati va geologiya sohasida ishlab chiqarishdagi regional geologik tasvirlash ishlarini olib borish jarayonida turli miqyosdagi xaritalar tuzishda, geologik qidiruv ishlarida va metallogenik bashoratlash ishlarini o‘tkazishda hamda oliy o‘quv yurtlarining geologiya mutaxassislari, talabalar uchun tog‘ jinslarini petrografik aniqlovchi qo‘llanma yaratish muxim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация. В статье представлена информация о создании Национального атласа горных пород Узбекистана и научно-исследовательских работах, проводимых Институтом в этой области. В ней подчеркивается важность создания петрографического руководства по определению горных пород для геологов-специалистов и студентов высших учебных заведений. Такое руководство имеет большое значение при проведении региональных геологических съемочных работ в горнодобывающей промышленности и геологии, составлении карт различного масштаба, проведении геологоразведочных работ и металлогенических прогнозов.

Abstract. The article provides information on the creation of the National Atlas of Rocks of Uzbekistan and the research work being conducted by the Institute in this field. It emphasizes the importance of creating maps of various scales during regional geological surveys in the mining and geological industries, as well as for geological exploration and metallogenic forecasting. Additionally, it highlights the significance of developing a petrographic guide for rock identification, which would be valuable for geology specialists and students in higher educational institutions.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016-йил 13-сентябрдаги ПҚ-2589-сон “Ер қаърини геологик ўрганиш соҳасидаги тадқиқотларни ташкил этишни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” Қарорида Ҳ.М.Абдуллаев номидаги Геология ва геофизика институти *Ер қаърини геологик ўрганиш соҳасида ўтказилаётган тадқиқотларнинг илмий савияси ва самарадорлигини тубдан ошириш, уларнинг республика минерал-хомашё базасини кенгайтиришга йўналтирилган амалий ишланмалар ҳамда геология-қидирув ишларини амалга ошириш билан ўзаро мустаҳкам алоқасини таъминлаш мақсадида* Институтнинг амалга ошириши керак бўлган муҳим вазифаларидан бири “Геология ва унга алоқадор соҳалар бўйича халқаро стандартлар даражасида юқори малакали кадрлар тайёрлашда, олий таълим муассасалари ўқитувчилари ва мутахассисларининг малакасини ошириш ҳамда қайта тайёрлашда иштирок этиш” ҳисобланади.

“Ҳ.М.Абдуллаев номидаги Геология ва геофизика институти” ДМнинг бир гуруҳ олимлари томонидан 2024-йилда “Ўзбекистон магматик тоғ жинсларининг атласи” ўзбек, рус ва инглиз тилларида яратилди (1-расм). Атласда Ўзбекистоннинг бир нечта магматик комплексларидан олинган тоғ жинсларининг расмлари, уларнинг макроскопик таснифи ва шаффоф шлифлар фотосуратлари ҳамда уларнинг петрографик тавсифи келтирилган.



1-расм. Муаллифлар: А.А.Қурбонов, Р.Т.Долимов, К.М.Илешов ва Х.Д.Ишбаев.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 8-июндаги “Давлат геология ва минерал ресурслар қўмитаси тизимида Геология фанлари университети фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4740-сонли Қарорининг 2-бандида кўзда тутилган Университетнинг асосий вазифалари ва фаолият йўналишлари 9-қисмида “фойдали қазилмалар намуналари коллекцияларини йиғиш, сақлаш ва тўлдириб бориш, ноёб ва илмий-маърифий аҳамиятга молик бошқа экспонатларни яратиш, шунингдек, ер ости бойликлари ва геологик хилма-хиллик тўғрисидаги маълумотларни жамоатчилик орасида кенг тарғиб қилиш” белгиланган.

Мазкур Қарорда, шу пайтгача республикада ер қаърини комплекс геологик ўрганиш, узоқ истиқболга мўлжалланган минерал-хом ашё базасини ривожлантириш ва қайта тўлдириш дастурларининг самарали бажарилишини таъминлаш, ер ости бойликларидан оқилона, унумли фойдаланиш ва уларнинг инвестициявий жозибадорлигини янада ошириш соҳасида давлат сиёсатини амалга ошириш бўйича ягона геология хизматини ташкил қилиш юзасидан бир қатор комплекс чора-тадбирлар амалга оширилди.

Шу билан бирга, келгусида геология соҳасида фойдали қазилмалар захираларини кўпайтириш ва улардан самарали фойдаланишни таъминлаш, энг аввало ҳудудларда замонавий саноат ишлаб чиқаришини ташкил этишда етарли хомашё базасини яратиш учун бир нечта вазифалар белгилаб берилди.

Шундан келиб чиққан ҳолда, Геология фанлари университетнинг асосий вазифалари ва фаолият йўналишларидан бири этиб “фойдали қазилмалар намуналари коллекцияларини йиғиш, сақлаш ва тўлдириб бориш, ноёб ва илмий-маърифий аҳамиятга молик бошқа экспонатларни яратиш, шунингдек, ер ости бойликлари ва геологик хилма-хиллик тўғрисидаги маълумотларни жамоатчилик орасида кенг тарғиб қилиш” белгиланди.

“Ҳ.М.Абдуллаев номидаги Геология ва геофизика институти” ДМнинг 2021-йил учун объектлар бўйича геологик топшириқлари ҳамда Ўзбекистон Республикаси тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги Илмий-техник кенгаши “Регионал геология, қаттиқ фойдали қазилмаларни излаш, баҳолаш ва қидириш” секциясининг 2021-йил 18-июндаги 04-89-сонли баённомаси билан “Ўзбекистоннинг тоғ-маъданли ҳудудлари тоғ жинслари, минераллари ва маъданларининг эталон намуналар коллекциясини ҳамда уларнинг электрон базасини яратиш” номли лойиҳа Институтнинг Петрология лабораториясига юклатилди.

Эталон намуналар коллекциясини ҳамда уларнинг мобил иловаси яратиш бугунги кунда долзабр муаммолардан бири саналиб келган ва бугунга қадар бу масала аниқ бир тизимлаштирилмаган.

Эталон намуналар коллекцияси, уларнинг электрон базаси ва мобил иловасида рангли фотосуратлар, тоғ жинсининг расми, олинган жойи ёки шаффоф шлиф, аншлифларда тарқалган минераллар батафсил бир тизим остида ёритилмаган.

Мазкур лойиҳанинг асосий мақсади қилиб Ўзбекистоннинг тоғ-маъданли ҳудудлари 6 қисмга ажратиб олинди (2-расм): Тошкент олди (Чотқол-Қурама тоғлари), Нурота (Шимолий ва Жанубий Нурота), Марказий Қизилқум, Жануби-Ғарбий Ўзбекистон (Зирабулоқ-Зиёвуддин тоғлари), Султонувайс тоғлари, Жанубий Ўзбекистон (Молғузор, Ҳисор тизмасининг жануби-ғарбий тармоқлари ва Қоратепа) тоғ-маъданли худудларидаги магматик, метаморфик ва чўкинди тоғ жинсларининг, минераллар ва маъданли намуналарининг эталон коллекцияларини ҳамда уларнинг мобил иловасини яратиш белгилаб берилди.

Тоғ-кон саноати ва геология соҳасида ишлаб чиқаришдаги регионал геологик тасвирлаш ишларини олиб бориш жараёнида турли миқёсдаги хариталар тузишда, геологик қидирув ишларида ва металлогеник башоратлаш ишларини ўтказишда ҳамда олий ўқув юртларининг геология мутахассислари, талабалар учун тоғ жинсларини петрографик аниқловчи ўқув қўлланма сифатида чоп этиш ва йиғиб олинган хар бир эталон намуналар коллекциясини геология мутахассислари олий ўқув юртлари талабалари ўқув амалиёт жараёнларида фойдаланиш учун топшириш белгиланган.


Лойиҳадан кўзланган асосий вазифалар этиб қуйидагилар белгиланди:

-маъданлар, магматик, метаморфик ва чўкинди тоғ жинслари тарқалган минтақаларда дала тадқиқот ишларини ўтказиш;

-эталон коллекция учун яроқли намуналар тўпламини жойларга боғлаган ҳолда (географик координаталари билан) батафсил геологик кузатув нуқталарини тузиш;

-намуна олинган ҳудудлар кесимида алоҳида литологик-фациал, минералогик-петрографик кесмалар тузиш ҳамда тоғ жинслари, минераллар ва маъданли намуналардан шаффоф ва аншлифлар тайёрлаб, уларни батафсил макроскопик ва микроскопик таснифлаш;

-коллекция учун олинган тоғ жинслари, маъданлар ва типоморф минералларнинг қисқача макроскопик тавсифини келтириш ҳамда шаффоф шлиф ва аншлифларнинг юқори сифатли рақамли эталон фотосуратлар базасини яратиш ва бошқалар.



2-расм. Лойиҳанинг шарҳли харитаси

Лойиҳа ишларни бажаришда асосан қуйидаги методикалардан фойдаланилди:

-эталон намуналар коллекцияси Ўзбекистоннинг 6 та тоғ-маъданли худудларидаги магматик, метаморфик ва чўкинди тоғ жинсларининг, минераллар ва маъданли намуналари хар бир ҳудуднинг 1:25 000 ва 1:50 000 миқёсдаги геологик хариталарида келтирилган легендалари асосида йиғиб олинган;

-геологик тасвирлашда қўлланиладиган услубий йўриқнома ва услубий кўрсатмаларга асосланган;

-геологик тасвирлашда қўлланиладиган усуллардан ташқари магматик, метаморфик ва чўкинди тоғ жинсларини ялпи намуналайдиган петрографик-минералогик-геокимёвий усуллар мажмуаси қўлланилган;

-хар бир олинган тоғ жинсининг тўлиқ кимёвий таркиби (%), ICP–масс-спектрометрик таркиби (г/т) ва қисқартирилган спектрал таҳлил (%) натижалари келтирилган;


Бундан ташқари мазкур эталон намуналар коллекциясини яратиш учун “Каталог интрузивных массивов Узбекистана” I-II китоблар, “Петрография Узбекистана” I-II китоблар ва “Минералы Узбекистана” I-IV китоблари келтирилган ҳудудларда дала тадқиқот ишларини олиб борган ҳолда бажарилган.

Мазкур лойиҳа доирасида олинган хар бир тоғ жинсининг ICP–масс-спектрометрик таркибида акс этган элементлар 1950-йилдаги А.Н.Заварицкий классификацион жадвали асосида алоҳида 10 та гуруҳларга (тоғ жинсини ташкил қилувчи элементлар; темир гуруҳи элементлари; нодир элементлар гуруҳи; металлик маъдан элементлар гуруҳи; металлоген ва металлоидлар гуруҳи элементлари; магматик эманация элементлари; радиоактив элементлар ва ноёб ер элементлари гуруҳи) бўлиниб, алоҳида элементлар таркиби г/т ларда келтирилган.

Тоғ жинслари, минераллар ва маъданли намуналарнинг эталон коллекциясини яратиш энг аввало геология соҳасидаги мутахассислар, таълим олаётган олий ўқув ютларининг талабалари амалиёт машғулотларида тоғ жинси тўғрисида кўникма ва тасаввур ҳосил қилиши учун мухим омил ҳисобланади.

Лойиҳа ишларини олиб бориш жараёнида маъданлар, магматик, метаморфик ва чўкинди тоғ жинслари тарқалганда дала тадқиқот ишларини ўтказиб, илмий изланишлар ва

эталон коллекция учун яроқли намуналар тўпламини жойларга боғлаган ҳолда батафсил геологик кузатув нуқталаридан, намуна олинган ҳудудлар кесимида алоҳида литологик-фациал, минералогик-петрографик кесимлар тузилди ҳамда тоғ жинслари, минераллар ва маъданлар намуналари бўйича шлифлар тайёрлаб, улар батафсил макроскопик ва микроскопик таснифлаб чиқилди (3-расм).



3-расм. **Муаллифлар: Жуманиёзов Д.И., Каримова Ф.Б., Хўжжиев М.О., Илешов К.М., Қурбонов А.А., Самандарова Ш.Й.**

Ўтказилган илмий тадқиқот ва дала ишлари натижасида Тошкент олди (Чотқол-Қурама тоғлари), Марказий Қизилқум, Жануби-Ғарбий Ўзбекистон (Зирабулоқ-Зиёвуддин тоғлари), Султонувайс тоғлари, Жанубий Ўзбекистон (Молғузор, Ҳисор тизмасининг жануби-ғарбий тармоқлари ва Қоратепа) тоғ-маъданли худудларидаги магматик, метаморфик ва чўкинди тоғ жинсларидан, минераллар ва маъданли намуналарининг эталон коллекцияларидан 1200 тадан ортиғи бир нечта олий ўқув юртларининг геология мутахассислари, талабалар учун ўқув қўлланма сифатида фойдаланиш учун топширилди (4-расм).

Дала тадқиқот ишлари натижасида Ўзбекистоннинг 6 та тоғ-маъданли ҳудудларидан олиб келинган эталон намуналар коллекцияси акс этувчи тоғ жинсларининг петрографик аниқловчи қўлланмасининг android (APK) ва appstore (IOS) тизимларида тест режимида ишлайдиган мобил иловаси синов тариқасида ишга туширилди.

Мазкур лойиҳанинг давоми сифатида Ўзбекистон тоғ жинсларининг миллий атласини яратиш бўйича фундаментал иш олиб бориш мақсадга мувофиқ бўлади. Лойиҳа ишларини олиб бориш 3 та этапдан иборат бўлади: I-этап Шарқий Ўзбекистон, II-этап Ғарбий Ўзбекистон ва III-этап Жанубий Ўзбекистон.



4-расм. Тарқатилган эталон намуналар коллекцияси

Бу сингари лойиҳаларни олиб боришда жаҳон амалиётига назар ташлайдиган бўлсак, МДҲ давлатларидан тортиб Европа мамлакатларининг геология соҳасида тоғ жинсларининг миллий атласлари мавжуд (5-расм) ва улар катта катта давлат дастури доирасидаги лойиҳалар ҳисобидан олиб борилган.



5-расм. Дунё миқёсида чоп қилинган миллий атласлар

Бунга биргина мисол қилиб Россия Федерацияси геолог олимлари томонидан ўзида 3000 дан ортиқ турли таркибдаги тоғ жинсларини мужассамлаштирган виртуал эталон намуналар коллекцияси ва “Справочное пособие по кристаллическим породам России” яратилганини келтиришимиз мумкин.

Ҳозирги вақтда геология соҳасида юқори малакали кадрларни тайёрлаш самарадорлигини ошириш учун олий ўқув юртлари, илмий-тадқиқот институтлари, шунингдек ишлаб чиқариш корхоналари геологларини Ўзбекистоннинг геологик жараёнлари, минераллари, тоғ жинслари ва маъданлари ҳақидаги барча мумкин бўлган маълумотларни ўз ичига қамраб олган кўргазмали ўқув материаллари билан таъминлаш зарурати тобора ортиб бормоқда.

Қолаверса Ўзбекистон геолог олимларининг сўнгги йиллардаги ютуқлари ва илмий қарашларини акс эттирувчи “Ўзбекистон геологияси” дарслиги ҳанузгача мавжуд эмаслиги ҳам сир эмас.

Шунинг учун ҳам Ўзбекистон тоғ жинслари миллий атласи шаклида ноёб ва кенг қамровли илмий иш яратиш зарур. Бу ишни барча илмий-тадқиқот институтлари, олий ўқув юртлари олимлари ҳамда геология корхоналари мутахассислари иштирокида жамоавий тарзда амалга ошириш лозим.

Яратили керак бўлган Атлас уч жилддан иборат бўлиши керак: Ўзбекистон магматик тоғ жинслари атласи, Ўзбекистон метаморфик тоғ жинслари атласи ва Ўзбекистон чўкинди тоғ жинслари атласи. Атласнинг ҳар бир жилти аниқ тоғ жинси ва минерал ёки маъданлар ҳақидаги барча маълумотларни ўз ичига олиши керак бўлади. Унда тоғ жинсиларининг рангли тасвирлари, юқори аниқликдаги фотосуратлари, аниқ намунавий кесимлардаги кўринишлари, намуналар, сайқалланган ва шаффоф шлифлари ҳамда тоғ жинси ёки минералларнинг турли таҳлил натижаларини қамраб олиши керак бўлади.

Замонавий таҳлиллар натижаларига асосланган Атласда кимёвий ва минерал таркиблари, петрографик хусусиятлари, ранг тусларининг ўзгарувчанлиги акс эттирилиши керак, турли хил рангларнинг пайдо бўлиш сабаблари тушунтирилиши лозим бўлади. Шунингдек, ҳар бир аниқ ҳолат учун матнли изоҳлар билан бирга ҳудудий боғлиқлик, ёши ва стратиграфик хусусиятлари ҳам ёритилиши керак.

Ўзбекистон тоғ жинслари миллий атласини яратиш билан бирга “Каталог интрузивных массивов Узбекистана” ва “Петрография Узбекистана” китобларини замонавий талқинда, янги таҳлил усулларидан фойдаланган ҳолда ва юқори аниқликдаги фотосуратлар ёрдамида чоп қилиш имконини беради.

Ўзбекистон тоғ жинсларининг миллий атласининиг биринчи босқичини яратиш билан бирга Чотқол-Қурама тоғ-маъданли ҳудудларининг 40 тага яқин интрузив массивларида тарқалган магматик, метаморфик ва чўкинди намуналарни геологик, минералогик-петрографик ва геокимёвий усуллар ёрдамида тавсифланади ва “Каталог интрузивных массивов Узбекистана” кўринишидаги ўзбек, рус ва инглиз тилларида янгиланган нусхалари чоп қилинади ҳамда Ўзбекистон тоғ жинслари миллий атласининг android (APK) ва appstore (IOS) тизимларида ишлайдиган мобил илова ҳамда интернет тармоғида сайт (Web-sahifa) яратилади.

ЭВОЛЮЦИЯ МАГМАТИЗМА ХРЕБТА СУЛТАНУВАЙС И ЕГО РУДОНОСНОСТЬ

Тошпулатов Ш.Т. *, Раимов З.И. *

**АО «Узбекгеологоразведка» («Региональная ЦГСЭ» Каракалпакская ПЭ)*

E-mail: tshierali@mail.ru; zraimov@mail.ru

Аннотация. Ишда Султонувайс тизмасининг мураккаб шарьяж-сурилмали тузилиши кўрсатилган. Ҳар бир тектоник бирлик (шарьяж) доирасида ривожланган магматик формацияларнинг тавсифи берилган, уларнинг маъданлилиги тавсифланган, ҳар бир террейн доирасида магматизмнинг эволюцияси кўрсатилган.

Аннотация. В работе показано сложное шарьяжно-складчатое строение хребта Султанувайс. Дана характеристика магматическим образованиям, развитым в пределах каждой структурной единицы (шарьяжа), охарактеризована их рудоносность, показана эволюция магматизма в пределах каждого террейна.

TiO_2	2,60	2,68	2,75	3,08	0,80	0,68
Al_2O_3	17,17	18,11	17,2	19,8	16,27	16,41
Fe_2O_3	8,37	9,39	8,28	12,5	3,62	6,88
FeO	5,45	6,95	5,07	2,64	6,48	3,06
MnO	0,21	0,08	0,09	0,13	0,19	0,17
MgO	6,94	10,8	8,50	6,44	1,26	1,12
CaO	8,56	4,48	4,34	3,12	11,2	9,97
Na_2O	1,05	0,25	0,42	0,63	4,33	4,17
K_2O	3,65	2,95	3,78	2,40	1,29	2,74
P_2O_5	0,68	0,80	0,66	0,87	0,66	0,60
P.p.p	5,86	6,60	4,20	4,60	11,08	6,71
CO_2	2,53	1,71	2,90	0,20	7,42	2,81
H_2O	2,06	2,78	0,76	4,4	0,15	0,16
SO_3	0,10	0,10	0,10	0,10	0,17	0,10
∑	100,84	100,5	100,79	100,31	99,69	100,07
al’	0,83	0,67	0,79	0,92	1,43	1,48
f’	23,36	29,82	24,6	24,66	12,16	11,74
K_f	66,57	60,21	61,10	70,16	88,91	89,87
Na_2O+K_2O	4,70	3,20	4,20	3,03	5,62	6,91
Na_2O/K_2O	0,29	0,08	0,11	0,26	3,36	1,52
Fe_2O_3/FeO	1,54	1,35	1,63	4,73	0,56	2,25
Kvars	0,36	5,72	17,36	17,97	5,34	1,27

Plagioklaz	30,92	8,3	1,46	13,86	40,98	53,25
Ortoklaz	21,57	17,43	22,34	14,18	7,62	16,19
Korund	3,42	12,24	12,83	13,04	6,16	-
Diopsid	-	-	-	-	-	6,02
Gipersten	17,29	27,27	21,17	16,04	10,38	-
Vollastonit	-	-	-	-	-	0,87
Olivin	-	-	-	-	-	-
Rutil	-	-	-	0,27	-	-
Ilmenit	4,94	5,09	5,22	5,34	1,52	1,29
Magnetit	9,67	13,61	8,01	-	5,25	7,53
Gematit	1,70	-	2,76	12,5	-	1,69
Apatit	1,58	1,85	1,53	2,02	1,53	1,39
Pirit	0,21	0,21	0,21	0,21	0,36	0,21
Kalsit	5,75	3,89	6,19	0,45	16,87	6,39

Izoh. 1-4 – epileysitli traxibazaltlar, 5, 6 – nefelinli tefritlar.

Glinozemlik koeffitsienti bo‘yicha nefelinli tefritlar (dayka) yuqori glinozemlidir, aynan shu jinslarda femiklik koeffitsienti 90% gacha yetadi, natriy kaliydan ustunlik qiladi (jadvalga qarang).

Ishqorli bazaltoidlarning seriyalari bo‘yicha epileysitli traxibazaltlar yuqori kaliyli seriyaga va nefelinli tefritlar esa natriyli seriyaga mansubligi yaqqol ko‘rinadi.

Xulosa. Qoratosh portlash mo‘risida turli olivin-piroksen-plagioklazli porfirli jinslar, eruptivli brekchiyalar uchraydi. Aksessor va ma’danli minerllardan tashqari, olmosning potensial sputnik minerallaridan granat, olivin, diopsid, xromshpinelid, korund, muassanitlar keng tarqalgan. Portlash mo‘risini hosil qiluvchi jinslar past kremnezemli, yuqori glinozemli, yuqori kaliyli va natriyli seriyalarga mansub bo‘lib, korund normativli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мушкин И.В. Петрология верхней мантии Южного Тянь-Шаня - Т.:Фан, 1979. - 136с.
2. Ахмедов Н.А. Перспективы алмазоносности Республики Узбекистан //Геология и минеральные ресурсы, 2006. № 1. - С.28-30.
3. Головко А.В., Диваев Ф.К. Алмазоносность щелочных базальтоидов Западного Узбекистана //Мат-лы Междунар. конф. Геохимия магматических пород. Школа «Щелочной магматизм Земли». - Крым, 2010.
4. Ахунджанов Р., Каримова Ф.Б., Зенкова С.О., Сайдиганиев С.С. О рудоносности лампрофиров Чаткало-Кураминского и Нуратинского регионов (Западный Тянь-Шань) // Геология и минеральные ресурсы. 2013. № 6. – С. 9-22.
5. Мамарозиков У.Д. Внутриплитный магматизм и рудообразование Чаткало-Кураминского региона (Срединный Тянь-Шань). Т.: Navro'z, 2020. - 321 с.
6. Ишбаев Х.Д., Далимов Р.Т., Шукуров А.Х., Косбергенов К.М. Оценка роли даек в формировании сульфидно-редкометалльного и серебро-полиметаллического оруденение полосы Койташ-Угат (Северный Нуратау) // Геология и минеральные ресурсы. - 2019. - № 3. - С. 9-17.

O‘RTALIQ KONI MA’DANLASHUV ZONALARIDA ASOSIY VA HAMROH ELEMENTLARNING TARQALISH XUSUSIYATLARI

Amirov E.M.*, Orolov A.K.**, Yusupov A.B.**
**Geologiya fanlari universiteti, E-mail: amirov.7992@gmail.com*
***H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti,*
E-mail:orolovak92@gmail.com

Annotatsiya. O‘rtaliq koni ma’danalari va minerallashuv zonalarida ma’danli elementlarning tarqalish xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltrilgan. Maydon va yondosh hududlar uchun oltin-kumushga ishonchli geokimyoviy qidiruv darakchilari aniqlangan.

Аннотация. Приведены сведения об особенностях распределения рудных элементов в рудах и зонах минерализации месторождения Урталик. Для площади и прилегающих территорий определены достоверные геохимические поисковые признаки на золото-серебро.

Abstract. Data on the distribution of ore elements in the ores and mineralization zones of the Ortalyk deposit are presented. For the area and adjacent territories, reliable geochemical prospecting indicators for gold and silver have been identified.

Alohida maydonlar bo‘yicha o‘tqazilgan petrologik-geokimyoviy tadqiqotlar ma’danli foydali qazilmalarni izlashda yuqori samarador usullardan biri hisoblanadi. Chunki, yer po‘stida kimyoviy elementlar keng miqyosli tarqalish oreollarini shakllantiradi va ular alohida ma’danli maydonlardagi turli tarkibli tog‘ jinslarining moddiy tarkibi o‘rganilganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu borada ayniqsa, magmatik majmualar ma’dandorligining petrologik-geokimyoviy mezonlari yo‘nalishidagi ilmiy maktabning asoschisi [1], fan arbobi, geolog olim, akademik Ibrohim Hamraboyevich Hamraboyevning erishgan yutuqlari ajralib turadi. Uning “Magmatik majmualar ma’dandorligining petrologik-geokimyoviy mezonlari” (1969) nomli monografiyasida bu kabi tadqiqotlarga doir bir qator ilmiy natijalar keltirilgan. Olim 1953-yilda Shimoliy Nurota tog‘lari markaziy qismlari janubiy yonbag‘rlarida granitoid intruziyalardagi postmagmatik o‘zgarishlarni o‘rganish jarayonida Zarmitan oltin konini dastlabki belgilarini aniqladi. Keyinchalik maydonda keng qamrovli geologik tadqiqotlar olib borilishi natijasida 1966-yilda O‘rtaliq, 1972-yilda G‘ojumsoy maydonlari ajratildi va batafsil o‘rganishlardan so‘ng kon sifatida tasdiqlandi [2].

Maydonni o‘rganishga qaratilgan turli maqsaddagi geologik tadqiqotlar so‘nggi yillarda ham to‘xtagani yo‘q, balki 2010-yili 4-gidrometallurgiya zavodi qurilishi va uni mineral xomashyo bazasi bilan ta’minlash maqsadida bu hududda izlanishlar yildan-yilga ortib bormoqda. Yondosh hududlardan yangi ma’dan namoyonlari va nishonalari (To‘qmon, Qoraqo‘zi va b.) aniqlanmoqda.

Tadqiqot maydonida hamda yondosh hududlarda aniqlangan oltin konlarida, ma’dan namayonlarida bugungi kunga qadar qamrovchi tog‘ jinslarida, ma’danli tanalarda va ma’dan oldi o‘zgargan zonalarida asosiy va hamroh elementlarning tarqalish xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan va oltin ma’danlashuvini bashorat qilishga oid turli xildagi mineralogik-geokimyoviy mezonlar ishlab chiqilgan [3].

Tadqiqotlar davomida Zarmitan ma’danli maydoni O‘rtaliq koni endogen (birlamchi) ma’danlashuv zonalarida tarqalgan tog‘ jinslari tarkibidagi asosiy va hamroh elementlarning tarqalish xususiyatlari o‘rganildi. Tog‘ jinslarida asosiy va hamroh komponentlarning yuqori miqdori burdalanish zonalari bilan chegaralangan metasomatik (xloritli, dala shpatili, berezitli, gumbeitli va b.) o‘zgargan va tomirli-kvarslashgan granosiyenitlar, turli tarkibli slaneslar, metaqumtosh va metaalevrolitlarda uchraydi.

1-jadval

O‘rtaliq koni ma’danlari va minerallashgan zonalarida (umumlashtirilgan) asosiy va hamroh elementlar tarqalishining o‘rtacha miqdori, klark konsentratsiyasi va o‘zaro korrelyatsion bog‘liqligi

(mass-spektrometr (ICP-MS) tahlili, g/t, 45 ta namuna)

Elementlar	Cu	Zn	As	Se	Mo	Ag	Sn	Sb	Te	W	Au	Pb	Bi	Th	U
O‘rtacha miqdor	17,2	153	649,1	4,89	5,9	6,2	4,86	32,45	0,09	25,88	3,09	334,6	13,9	7,21	5,04
Elementlar klarki [4]	55	70	1,8	0,05	1,5	0,07	2	0,2	0,001	1,5	0,004	12,5	0,17	9,6	2,7
KK	0,31	2,2	361	97,9	3,9	88,3	2,43	162,2	91,78	17,25	771,3	26,77	81,8	0,75	1,87

Elementlarning ma’danlar va minerallashgan zonalarda to‘planish intensivligining geokimyoviy qatori:

(Au-As-Sb-Se-Te-Ag-Bi)-Pb-W-Mo-Sn-Zn-U-Th-Cu


Ma’danlar va minerallashgan zonalarda oltin, kumush va hamroh elementlarning o‘zaro korrelyatsion bog‘liqligi

	Cu	Zn	As	Se	Mo	Ag	Sn	Sb	Te	W	Au	Pb	Bi	Th
Zn	0,24													
As	-0,15	0,39										Juda yuqori (0,90-1,00)		
Se	-0,17	0,29	0,81									Yuqori (0,70-0,90)		
Mo	0,38	0,12	-0,09	0,09								Sezilarli (0,50-0,70)		
Ag	-0,15	0,11	0,43	0,72	-0,05							O‘rtacha (0,30-0,50)		
Sn	-0,04	0,07	-0,21	-0,21	-0,04	-0,03						Kuchsiz (0,10-0,30)		
Sb	-0,09	0,52	0,73	0,72	-0,07	0,70	0,03					Bog‘liqmas (0,10 dan past yoki manfiy ko‘rsatgichlar)		
Te	-0,04	-0,08	0,23	0,32	-0,09	-0,01	-0,27	-0,02						
W	-0,12	-0,14	-0,11	-0,08	-0,04	0,06	0,01	-0,03	-0,11					
Au	-0,18	0,40	0,69	0,86	-0,06	0,85	-0,01	0,89	0,07	-0,02				
Pb	-0,14	0,66	0,67	0,74	-0,05	0,67	0,05	0,88	0,00	-0,05	0,93			
Bi	-0,09	0,15	0,72	0,74	-0,06	0,48	-0,12	0,76	0,21	-0,08	0,77	0,70		
Th	0,14	0,00	-0,24	-0,24	-0,02	-0,12	0,18	-0,12	-0,20	-0,06	-0,12	-0,05	-0,14	
U	0,06	0,29	0,00	0,07	0,31	-0,02	0,01	0,04	-0,17	-0,15	0,14	0,26	0,05	0,75

Oltin-kumushli (probirli) tahlil natijalariga ko‘ra O‘rtaliq koni ma’danlarida oltin miqdori 0,40-234,4 g/t (o‘rtacha – 4,07 g/t), kumush 7,30-364,7 g/t (o‘rtacha – 79,51 g/t), mass-spektrometr (ICP-MS) tahlili bo‘yicha ma’danlar va minerallashgan zonalarda - oltin 0,17-21,90 g/t (o‘rtacha – 3,09 g/t), kumush 0,25-10,00 g/t (o‘rtacha – 88,3 g/t). Ma’danlar va minerallashgan zonalardagi asosiy va hamroh elementlarning o‘rtacha miqdori, klark kontsentratsiyasi ([4] bilan solishtirilgan) va o‘zaro korrelyatsion bog‘liqligi 1-jadvalda keltirilgan. Unga ko‘ra oltin (Au-771), margimush (As-361), surma (Sb-162), selen (Se-98), telur (Te-92), kumush (Ag-88), vismut (Bi-82) elementlari nisbatan yuqori klark kontsentratsiyalari (KK) bilan tavsiflanadi. Bu elementlar ma’dan hosil bo‘lishi bilan bog‘liq gidrotermal jarayonlarda gipogen mineral hosil bo‘lishining oltin-kumushli bosqichida shakllangan sof kumushli, oltin-kumushli, oltin-gyositli, tetradimit-telurovismutli paragentik mineral assotsiatsiyalar bilan bog‘liq [5]. O‘rtaliq koniga yondosh Zarmitan konining geokimyoviy profilini oltin, volfram, vismut, kumush, mis, rux, qo‘rg‘oshin, surma kabi elementlar belgilashi qayd etilgan. U konning asosiy foydali qazilmalari oltin va kumush, yo‘ldosh elementlar volfram, qo‘rg‘oshin, rux, surma bilan ifodalanadi [6]. Ma’danli maydonda tadqiqot olib borgan boshqa tadqiqotchilar spektral tahlil natijalariga o‘zgargan granosiyenitlarda, slanes va qumtoshlarda As, W, Mo, Bi, Pb, Zn, Cu, Sb larning maksimal miqdorlarini qayd etishgan [2]. Ma’danlar va minerallashgan zonalarda margimush, surma va selen elementlarining kontsentratsiya darajasi yuqori ekanligi hududda ma’dan hosil bo‘lish jarayonlari nisbatan yuqori haroratda namoyon bo‘luvchi mahsuldor mineralogik-geokimyoviy assotsiatsiyalar tufayli amalga oshganligidan dalolat beradi. Kumushning klark kontsentratsiyasi nisbatan yuqori (88). Bu elementlarning o‘zaro nisbatiga ko‘ra oltin miqdori mos holda kumushnikidan to‘qqiz barobar ko‘proq (Au/Ag=9). Maydonga yaqin ma’danli obyektlarda chuqurlik ortishi bilan oltin-kumush nisbati (Au/Ag) qiymatining oshishi kuzatilishi, bu bilvosita

konning yer yuzasiga yaqin qismlariga qaraganda chuqur gorizontlarda sof oltin probasining yuqoriligi avvalgi tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan [3].

Ma’danlar va minerallashgan zonalarda oltin qo‘rgo‘shin (0,93) bilan juda yuqori, surma (0,89), selen (0,86), kumush (0,85), vismut (0,77) bilan yuqori, margimush (0,69) bilan sezilarli, rux (0,40) bilan o‘rtacha ijobiy korrelyatsion bog‘liqlik hosil qilgan (5.4.3-расм). Kumush esa selen (0,72), surma (0,70) bilan yuqori, qo‘rg‘oshin (0,67) bilan sezilarli, vismut (0,48), margimush (0,43) bilan o‘rtacha ijobiy bog‘lanish hosil qilgan. Margimush, selen, telur, vismut elementlarining hamroh elementlar bilan o‘zaro bog‘liqliklari 1-rasmda keltirilgan.



a b d

e f g

1-rasm. Ma’danlar va minerallashgan zonalarda oltin (a), kumush (b), margimush (d), selen (e), telur (f) va vismutning (g) hamroh elementlar bilan korellyatsion bog‘liqligi gistogrammalari

Xulosa. Olingan geokimyoviy ma’lumotlarga ko‘ra tadqiqot maydonidagi ma’danlarda va minerallashgan zonalarda oltin, margimush, surma, selen, telur, kumush, vismut elementlarining miqdori yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Ma’danlar va minerallashgan zonalarda oltin Pb, Sb, Se, Ag, Bi, As, Zn bilan, kumush esa Se, Sb, Pb, Bi, As bilan ijobiy bog‘lanish hosil qilgan. Qayd etilgan elementlar maydonda va unga yondosh hududlarda Au-Ag uchun ishonchli geokimyoviy qidiruv darakchilari bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон геология илмий мактаблари. Тошкент.: “Lesson Press” МЧЖ. 2022. – 314б.
2. Тилляев Х. Зармитан // Монография. “Институт археология АН РУз”. Самарканд, 2014. - 152 с.
3. Пирназаров М.М. Чармитон конидаги олтин маъданлашувининг минералогик-геокимёвий излаш ва баҳолаш мезонлари // Ўзбекистон Мустақиллиги - унинг фани ва технологияларини ривожлантириш кафолати / V-Республика илмий конференция маърузалари тўплами. - ЎзР ФТДК ва ОАК, Тошкент, 2001. - I-том - 134-138 бетлар.
4. Taylor, S.R. Abundance of chemical elements in the continental crust: a new table. - Geochimica et Cosmochimica Acta. – 1964. – 28. - pp. 2273-285.
5. Цой В.Д., Королева И.В., Алимов Ш.П. Природные типы руд золоторудных месторождений Узбекистана. “ГП НИИМР”. Ташкент, 2015. -156 с.
6. Рудные месторождения Узбекистана. Ташкент.: ГИДРОИНГЕО, 2001. - 661 с.

QORATOV INTRUZIVIDAGI BIOTITLI GRANITLARNING PETROGRAFIK XUSUSIYATLARI

O‘ng‘alboyev A.F.*
**Geologiya Fanlari Universiteti, aliniyozfazliddinovich@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqoladaQoratov intruzividagi biotitli granitlarning petrografik xususiyatlari o‘rganilgan. Intruzivning mineralogik tarkibi, struktura va tekstura xususiyatlari mikroskop ostida tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida jinslarda kvars, kaliy dala shpati, plagioklaz va biotit minerallari asosiy tarkibiy qismlar sifatida aniqlangan. Shuningdek, seritsitlashuv, xloritlashuv va biotitlashuv kabi ikkilamchi o‘zgarishlar qayd etilgan. Olingan natijalar intruziv jinslarning geologik rivojlanishini tushunishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация. В данной работе исследованы петрографические особенности биотитовых гранитов Каратауского интрузива. Минеральный состав, структура и текстура пород были изучены под микроскопом. Установлено, что основными компонентами пород являются кварц, калиевый полевой шпат, плагиоклаз и биотит. Также зафиксированы вторичные изменения, такие как серицитизация, хлоритизация и биотитизация. Полученные результаты имеют важное значение для понимания геологического развития интрузивных пород.

Abstract. This study investigates the petrographic characteristics of biotite granites from the Qoratov intrusive. The mineral composition, structure, and texture of the rocks were analyzed under a microscope. The results revealed that quartz, potassium feldspar, plagioclase, and biotite are the main components of the rocks. Secondary alterations such as sericitization, chloritization, and biotitization were also observed. These findings provide significant insights into the geological evolution of the intrusive rocks.

Shimoliy va Janubiy Nurota tog‘larida barcha magmatik hosilalar uzoq va keng ko‘lamda davom etgan varisiyskiy (gersin) tog‘ burmalanishi natijasida shakllangan bo‘lib, ushbu hududda asosan granitlar, granodioritlar va shunga o‘xshash granitoidli magmatik hosilalari shakllangan.Nurota tog‘lari qadim zamonlardan boshlab insoniyat tomonidan o‘rganilib kelingan va H.M.Abdullayev, I.H.Hamraboyev, T.N.Dolimov kabi olimlar hududni o‘rganishda ulkan hissalarini qo‘shgan. Qoratov intruzivi Janubiy Nurota tog‘ining janubi-g‘arbiy tarmog‘i bo‘lgan Qoratovtog‘ikamarida joylashgan bo‘lib, varisiyskiy (gersin) tog‘ burmalanish va ko‘tarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan shakllanishning bir qismini tashkil etadi. Qoratov intruzivida asosan kvarsli dioritlar,biotitli granitlar, yirikva o‘rta donaligranit porfirlar va leykogranitlar kabi tog‘ jnislarini o‘z ichiga olgan murakkab shakllanishlarni hosil qiladi[1]. Intruzivning shakllanishi jarayonida ordovik hamda silur davri qumtoshlari, alevritlari va slaneslarini yorib chiqib, ular bilan mos kelmaydigan nomuvofiq shakllanishni yuzaga keltirgan.Intruzivning hosil bo‘lish vaqti karbon davrining oxiri C_3 va perm P_1 davrining boshlariga to‘g‘ri keladi. Uning mutlaq yoshi K-Ar usulida porfirli granitlardan, (270 ± II million yil, F.A.Asqarov) aniqlangan [2].

Qoratov intruzivida eng ko‘p tarqalgan tog‘ jinslar: porfirli granitlar, leykogranitlar va biotitli granitlardan iborat. Porfirli granit butun intruziv bo‘ylab keng tarqalgan. Leykogranit intruzivning janubiy, jabubi-g‘arbiy qisimlarida kichik maydonlarda shakllangan. Biotitli granit intruzivning ko‘plab qismlarida tarqalgan, asosan g‘arbiy, shimoli-g‘arbiy qismida ko‘proq uchratish mumkin. Biotitli granitning tashqi ko‘rinishi pushti-qizg‘ish rangga ega, strukturaviy tuzilishi yirik donali, teksturasiyaxlit. Mikroskop ostida granit tuzilishi bilan tavsiflanadi, mineralogik tarkibi: KDSH (24%), plagioklaz (27%), kvars (43%) (1-jadval). Jins intensiv ravishda metasomatik o‘zgarishga uchragan. Ikkilamchi o‘zgarishlarda biotitlashuv, serisitlashuv, xloritlashuv, albitlashuvda namoyon bo‘ladi.


1-Jadval

Yarim miqdoriy rentgen fazasini tahlil qilish orqali jinslarning umumiy mineral tarkibini aniqlash natijalari

T/r	Tog' jinsi	Kvars	KDSH	Plagioklaz	Slyuda	Xlorit
1	Granit	40	16	31	9	4
2	Granit	43	24	27	2	4
3	Porfirsimon plagiogranit	34	4	52	8	2
4	Plagiogranit	34	-	55	-	11
5	Kvarsit	100	-	-	-	-

Kaliy dala shpati pertit tuzilishiga ega bo‘lgan katta donalar bilan ifodalanadi. Kaliyli dala shpatining rangi jigarrang, pelitlashuv jarayonidan keyin kesishgan nikollarda mineral tarkibida kulrang interferensiya ranglariga ega.

Plagioklaz ko‘pincha cho‘zilgan prizmatik donalarda uchraydi, ba’zida tartibsiz va subizometrik shaklga ega. Plagioklaz donalarida har doim polisintetik egizaklar kuzatiladi. Ko‘pgina plagioklaz donalari seritsit bilan intensiv ravishda o‘rin almashgan.



a b

1-rasm. Biotitli granit: a- bir nikolda, b- kesishgan nikollarda

Kvars jinsda rangsiz, shaffof. Kvarsning yirikdonalari uchunkesishgan nikollarda to‘lqinli so‘nish kuzatiladi. O‘rganilayotgan jinsdagi kvars keng tarqalishga ega, u donalararo bo‘shliqda, tartibsiz, ksenomorf donalar shaklida uchraydi.

Biotit jinsda yangi ko‘rinishda hosil bo‘lgan va ikkilamchi mineraldir. Ukvarsning yirik donalarikontaktidanozik va zich nuqta ko‘rinishida uchraydi. U mayda tartibsiz varaqalar hosil qiladi va odatda keskin pleoxroizmga ega: to‘q jigarrangdan jigarrang-sariq ranggacha. Uning o‘lchamlari taxminan 0,02-0,03 mm[3].

Biotitli granitni mikroskop ostida o‘rganish mobaynida eng yirik o‘lchamdagi mineral kaliyli dala shpati ekanligi ma’lum bo‘lib, jinsda yirik o‘lchamdagidonalar shakllanganligi aniqlandi. Plagioklazlar prizmatik shaklda namoyon bo‘lib polisintetik qo‘shaloqlar hosil qilgani ko‘rildi. Biotit minerallari mayda donalitartibsiz varaqalar shaklidashakllanib alohida, ko‘p holarda kvars minerali bilannozik va zich nuqta ko‘rinishidastrukturaviy shakllar rivojlantirgani topildi.Jinsdagi kvars minerallari eng ko‘p tarqalgan mineral bo‘lib, u minerallar orasidagi bo‘shliqlarda ksenomorf shaklda shakllanganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Изох Э.П., Юдалевич З.А., Пономарева А.П. идр. Формационный анализ гранитоидов Западного Узбекистана / Наука, Новосибирск, 1975. – 520 стр.

2. Каталог интрузивных массивов Узбекистана. Ч. 2. - Т.: Фан, 1975. - 431 с.

3. Чернышов А.И., Тишин П.А., Вологдина И.В. Структуры и текстуры магматических и метаморфических горных пород : учеб. пособие. – Томск : Издательский Дом ТГУ, 2018. – 136 с.

QO‘SHRABOD INTRUZIVI ENDO- VA EKZOKONTAKTLARIDA ASOSIY VA HAMROH ELEMENTLARNING TARQALISH XUSUSIYATLARI (SHIMOLIY NUROTA)

Orolov A.K.*, Amirov E.M.**, Yusupov A.B.*

**H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti, E-mail:orolovak92@gmail.com*

***Geologiya fanlari universiteti, E-mail: amirov.7992@gmail.com*

Annotatsiya. Qo‘shrabod intruzivining endo- va ekzokontaktlarining ma’danlashuv zonalarida asosiy va hamroh elementlarning tarqalish xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltrilgan. Maydon uchun oltinga ishonchli geokimyoviy qidiruv darakchilari aniqlangan.

Аннотация. Приведены данные об особенностях распространения основных и сопутствующих элементов в зонах оруденения эндо- и экзоконтактов Кошрабадского интрузива. Для площади определены надежные геохимические индикаторы поиска золота.

Abstract. Data on the distribution patterns of primary and associated elements in the mineralization zones of the endo- and exocontacts of the Koshrabad intrusion are presented. Reliable geochemical indicators for gold prospecting have been identified for the area.

“Bir mintaqaning granitoid va cho‘kindi-metamorfik jinslari tarkibidagi deyarli bir xil elementlarning uchrashi – yer po‘stida keng ko‘lamda elementlar migratsiyasi mavjudligi hamda ularni batafsil o‘rganish kerakligiga asos bo‘ladigan belgi sifatida hisoblash mumkin”

(akademik I.H.Hamraboyev)

Qo‘shrabod intruzivi endo- va ekzokontaktlari bo‘yicha geologik tadqiqotlar olib borildi. Bunda intruzivning o‘zidan, turli tarkibli daykalardan, kvarslashuv zonalaridan va qamrovchi jinslardan namunalar olinib, ularning tarkibidagi asosiy va hamroh elementlarning tarqalish xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Qo‘shrabod granitoid intruzivi deyarli 210 km^2 maydonni egallagan bo‘lib, murakkab tuzilishi bilan ajralib turadi. U turli tarkibdagi magmatik jinslardan - ishqorlidan nordon hosilalargacha, daykalar majmuasi – mahsulotlaridan iborat uchta fazani tashkil qiladi: gabbro-siyenitlar, granosiyenitlar va granitlar. Ikkinchi fazaning porfirsimon yoki rapakivisimon granosiyenitlari va birinchi fazaning traxitoidli va melanokratli siyenitlari eng ko‘p tarqalgan. Shuningdek, uchinchi fazaning asoslidan nordon tarkibligacha bo‘lgan daykali jinslari ham keng rivojlangan [1]. Namunalar magmatik jinslardan granosiyentilar, granitlar (leykogranitlar), dioritlar, diabazlar, aplitlar, lamprofirlar, qamrovchi jinslardan alevroslaneslar, metaalevrolitlar, metaqumtoshlar, kremniyli slaneslar, rogoviklar, uglerodli-kremniyli slaneslar, gilli (alevrolitli) slaneslar hamda kvars tomirlaridan olingan.

Qo‘shrabod intruziv majmuasining oltin minerallashuviga geokimyoviy ixtisoslashuvi (Hamraboyev, 1958, 1969; Yudalevich, Sandomirskiy, 1973; Tillyayev, 1974; Dautov, 1974) ma’danlashuvni nazorat qilishning magmatik omiliga tegishli bo‘lib, u aksessor minerallar orasida

sof oltinning mavjudligi va uning konsentratsiyasining eng nordon jinslarda ortib borishi bilan tasdiqlanishi qayd etilgan.

Oltin-kumushli (probirli) tahlil natijalariga ko‘ra Qo‘shrabod intruzivi endo- va ekzokontaktlarida tarqalgan jinslarda oltin miqdori 0,20-94,2 g/t (o‘rtacha – 0,40 g/t, bu yerda <0,2 g/t qayd etilgan namunalar hisobga olinmagan), kumush 5,40-43,90 g/t (o‘rtacha – 14,60 g/t, bu yerda <5,0 g/t qayd etilgan namunalar hisobga olinmagan). Mass-spektrometr (ICP-MS) tahlili bo‘yicha minerallashgan zonalarda - oltin 0,051-57,40 g/t (o‘rtacha – 0,74 g/t), kumush 0,11-19,10 g/t (o‘rtacha – 1,21 g/t). Hududda oltinning yuqori qiymatlari temirlashgan alevroslaneslar, kvars tomirlari, metasomatik o‘zgargan granosiyenitlarda va qisman lamprofir daykalarida qayd etildi. Kumushning ham e’tiborga molik miqdorlari yuqoridagi jinslarda hamda qisman temirlashgan metaalevrolitlarda, magmatik jinslarning kontakt zonalarida aniqlandi. X.Tilyayev [1] Zarmitan ma’danli maydoni atrofida tarqalgan submeridional yo‘nalishdagi lamprofir daykalarini Au, Ag, As minerallashuvi bilan bog‘liqligini qayd etgan. T.J.Tulegenov, M.M.Pirnazarov, N.F.Hamidullayev, I.O.Hamroyevlar [2] hududdagi asosiy ma’danlashuv berezitlashgan va gumbeitlashgan granosinetlar bilan bog‘liq, chuqur gorizontlarda gumbeitlar kvars tomirlari bilan, berezitlar esa sulfid-kvarsli, sulfidli shtokverklar bilan birga uchrashini ta’kidlashgan.

1-jadval

Qo‘shrabod intruzivi endo- va ekzokontaktlarida (umumlashtirilgan) asosiy va hamroh elementlar tarqalishining o‘rtacha miqdori, klark konsentratsiyasi va o‘zaro korrelyatsion bog‘liqligi

(mass-spektrometr (ICP-MS) tahlili, g/t, 153 ta namuna)

Elementlar	Cu	Zn	As	Se	Mo	Ag	Sn	Sb	Te	W	Au	Pb	Bi	Th	U
O‘rtacha miqdor	53,4	108	196	4,34	8,86	1,21	2,31	88,47	0,07	20,66	0,74	115,8	0,87	9,27	4,61
Elementlar klarki [3]	55	70	1,8	0,05	1,5	0,07	2	0,2	0,001	1,5	0,004	12,5	0,17	9,6	2,7
KK	0,97	1,55	109	86,7	5,91	17,2	1,16	442	72,79	13,77	186	9,27	5,14	0,97	1,71


Elementlarning ma’danlar va ma’danlashuv zonalarida to‘planish intensivligining geokimyoviy qatori:
(Sb-Au-As-Se-Te-Ag)-W-Pb-Mo-Bi-U-Zn-Sn-Th-Cu

Ma’danlar va ma’danlashuv zonalarida oltin, kumush va hamroh elementlarning o‘zaro korrelyatsion bog‘liqligi

	Cu	Zn	As	Se	Mo	Ag	Sn	Sb	Te	W	Au	Pb	Bi	Th
Zn	0,30													
As	0,23	0,02										Juda yuqori (0,90-1,00)		
Se	0,79	0,43	0,09									Yuqori (0,70-0,90)		
Mo	0,45	0,57	0,33	0,42								Sezilarli (0,50-0,70)		
Ag	0,31	0,21	0,37	0,39	0,27							O‘rtacha (0,30-0,50)		
Sn	0,06	0,30	0,26	0,13	0,10	0,21						Kuchsiz (0,10-0,30)		
Sb	-0,03	-0,01	-0,02	-0,02	-0,02	-0,03	-0,04					Bog‘liq emas (0,10 dan past yoki manfiy ko‘rsatkichlar)		
Te	0,47	0,60	0,11	0,55	0,38	0,35	0,39	-0,02						
W	0,00	-0,01	0,05	0,00	0,02	0,08	0,14	-0,01	0,12					
Au	0,21	-0,01	0,58	0,08	0,24	0,42	0,02	0,00	0,03	0,15				
Pb	0,29	0,46	0,12	0,55	0,30	0,55	0,23	-0,02	0,72	0,00	0,21			
Bi	0,04	0,13	0,20	0,08	0,05	0,42	0,33	-0,02	0,28	0,51	0,13	0,35		
Th	0,26	0,42	0,01	0,38	0,25	0,08	0,40	0,00	0,61	-0,03	-0,06	0,36	0,00	
U	0,24	0,21	0,14	0,21	0,32	0,13	0,10	-0,01	0,21	0,01	0,11	0,16	0,02	0,16

Qo‘shrabod intruzivi endo- va ekzokontaktlaridagi ma’danlashuv zonalarda asosiy va hamroh elementlarning o‘rtacha miqdori, klark kontsentratsiyasi ([3] bilan solishtirilgan) va o‘zaro korrelyatsion bog‘liqligi 1-jadvalda keltirilgan. Unga ko‘ra oltin (Au-186), margimush (As-109), surma (Sb-442), selen (Se-86,7), telur (Te-72,79), kumush (Ag-17,2), volfram (W-13,77), qo‘rg‘oshin (Pb-9,27) elementlari nisbatan yuqori klark kontsentratsiyalari (KK) bilan tavsiflanadi. Mass-spektrometr (ICP-MS) tahlili yordamida aniqlangan boshqa elementlarning (umumlashtirilgan holda) o‘rtacha miqdori elementlar klarki miqdori bilan yaqinligini ko‘rsatdi.

Ma’danlashuv zonalarda oltin margimush (+0,58) bilan sezilarli, kumush (+0,42) bilan o‘rtacha molibden (+0,24), mis (+0,21), qo‘rgo‘shin (+0,21), volfram (+0,15), vismut (+0,13), uran (+0,11) bilan kuchsiz ijobiy korrelyatsion bog‘liqlik hosil qilgan (1-расм). Kumush esa qo‘rgo‘shin (+0,55) bilan sezilarli, vismut (+0,42), selen (+0,39), margimush (+0,37), telur (+0,35), mis (+0,31) bilan o‘rtacha molibden (+0,27), rux (+0,21), qalay (+0,21), uran (+0,13) bilan kuchsiz ijobiy bog‘lanish hosil qilgan. Margimush, selen, telur, vismut elementlarining hamroh elementlar bilan o‘zaro bog‘liqliklari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Ma’danlar va ma’danlashuv zonalarda oltin (a), kumush (b), margimush (d), selen (e), telur (f) va vismutning (g) hamroh elementlar bilan korellyatsion bog‘liqligi gistogrammalari.

Shu vaqtgacha oltin ma’danlashuvi Qo’shrabod intruzivining eng murakkab tektonik-magmatik qismida, uning eng yuqori haroratli zonasida kvars tomirlari bilan bog‘liq holda to‘planganligi qayd etilgan [4]. Olib borilgan tadqiqotlar intruzivni boshqa qismlarida ham ma’danlashuv mavjudligini aniqlashga qaratilgan edi. Asosiy va hamroh elementlarning intruzivning endo- va ekzokontaktlarida tarqalish xususiyatlari O‘rtaliq koninikiga yaqin, faqat ular miqdor va miqyosi bilan farq qiladi (E.M.Amirov, A.K.Orolov, 2025).

Xulosa. Qo‘shrabod intruzivi endo- va ekzokontaktlarida tarqalgan tog‘ jinslaridan oltinning yuqori qiymatlari temirlashgan alevroslaneslar, kvars tomirlari, metasomatik o‘zgargan granosiyenitlarda va qisman lamprofir daykalarida, kumushning ham e’tiborga molik miqdorlari yuqoridagi jinslarda hamda qisman temirlashgan metaalevrolitlarda, magmatik jinslarning kontakt zonalarida kuzatiladi. Bunda tashqari hamroh elementlardan As, Sb, Se, Te, W, Pb elementlarining ham yuqori miqdori aniqlangan. Hududda oltin uchun margimush, kumush qisman molibden, mis, qo‘rgo‘shin, volfram, vismut, kumush uchun esa qo‘rgo‘shin, vismut, selen, margimush, telur, mis qisman molibden, rux, qalay qidiruv belgisi bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Тилляев Х. Зармитан // Монография. “Институт археология АН РУз”. Самарканд, 2014. - 152 с.
2. Тулегенов Т.Ж., Пирназаров М.М., Хамидуллаев Н.Ф., Хамроев И.О. Рудные метасоматиты глубоких горизонтов месторождения Чармитан и их поисковое значение// Геология ва минерал. ресурслар. -1999.- №5.-С.20-23.
3. Taylor S.R. Abundance of chemical elements in the continental crust: a new table.- Geochimica et Cosmochimica Acta.– 1964.–28.- pp.2273-285.
4. Хамрабаев И.Х., Чеботарев Г.М., Мансуров М.М., Тилляев Х.С., Даутов А.И., Хренов В.А. Некоторые геолого-минералогические особенности золоторудного месторождения Чармитан в Западном Узбекистане. Узб. геол. ж., – 1971, – № 3. – С.3-7.

ZARQAYNAR INTRUZIVI TOG‘ JINSLARINING TARKIBI HAQIDA (JANUBIY NUROTA)

Qodirov S.X. *
**H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti DM,*
s.qodirov0524@gmail.com.

Annotasiya. Zarqaynar intruzivi Janubiy Nurota tizmasining g‘arbiy tugallanishida joylashgan bo‘lib, turli tarkibli granitoidlar, tomirli jinslar va daykali hosilalardan tashkil topgan.Tomirli jinslar va daykali hosilalar NYEga ixtisoslashgan. Granitlar bilan ohaktoshlar kontaktida temirga ixtisoslashgan skarnlashuv kuzatiladi.

Аннотация. Заркайнарский интрузив расположен в западном конце Южно-Нуратинского хребта и сложен гранитоидами различного состава и их жильными отщеплениями и дайковыми образованиями. Жильные отщепления и дайковые образования специализированы на РЗЭ. На контакте гранитов с известняками наблюдается скарнообразования специализированные на железо.

*Abstract.*The Zarkaynar intrusive is located in the western end of the SouthernNuratau Range and is composed of granitoids of various compositions and their residential discharge and dike formations. Residential heating and dike formations are specialized in rare earth elements. At the contact of granites with limestones, iron-specialized slag formations are observed.

Janubiy Nurota hududi mezozoygacha bo‘lgan intensiv dislokatsiyalangan tuzilmalardan iborat bo‘lib, ular ikki turdagi tog‘ jinslari bilan ifodalanadi: cho‘kindi - metamorfik terrigen, metavulkanogen, kremniyli va karbonatli jinslar $Є_{2-3}$-C_2 va intruziv C_3-P_1. Tektonik strukturaning o‘ziga xos xususiyati uzluksiz burmali tektonik tuzilmalar urilishining ustun g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy, shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishidir.

Granitoid magmatizmning burmali o‘lkalarda rivojlanishini o‘rganish Yer haqidagi fanlarning eng dolzarb fundamental muammolaridan biri hisoblanadi. Granitoidlarning tarkibi ularning hosil bo‘lishining geodinamik ko‘rsatkichi va granitoid magmalarning qobiq manbalari haqida muhim ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi. G‘arbiy Tyan-Shanning yuqori paleozoy shakllanishlari granitoid magmatik qatorlarning keng rivojlanishi bilan ajralib turadi va bir qator noyob ma’dan konlari bog‘liq bo‘lib, ularning ochilishi Tyan-Shanni Yevroosiyodagi eng yirik oltin qazib oluvchi o‘lkasiga aylantirdi.


Janubiy Tyan-Shanning shakllanishi Turkiston paleokeanining yopilishi va Paleoqozog‘iston - Qoraqum-Tojik mikroqit’alari to‘qnashuvi natijasida sodir bo‘lgan. Okeanning yopilishi va to‘qnashuvi o‘rta va so‘nggi karbon davrida okean litosferasining shimolga cho‘kishi natijasida Paleoqozog‘istonning janubiy chekkasida faol Beltov-Qurama magmatik yoyining hosil bo‘lishi natijasida yuz beradi.Zarqaynar intruzivi Janubiy Nurota tog‘ tizmasining g‘arbiy qismida joylashgan. U nakrut (S_1 nkr) svitasi slaneslari, oqtov seriyasi (D-C_2 ak) va darasoy (S_2 dr) svitasi ohaktoshlarini yorib chiqqan va maydoni 170 km^2 teng (1-rasm).Zarqaynar intruzivining geologik tuzilishida o‘rta rifeydan to o‘rta karbongacha bo‘lgan davr cho‘kindi-metamorfik va flish yotqiziqlari ishtirok etadi.Granitoid turlari bo‘yicha (asos va o‘rta asosturlaridan toaplitgacha)batafsil geologik va petrografik tavsiflar berilgan. Xususan dioritlar, kvarsli dioritlar, rogovayaobmanka-biotitligranodioritlar, monsogranodioritlar, tonalitlar, granitlar, tomirli jinslar va daykalar hosilalar ko‘rib chiqilgan.

Dioritlar, kvarsli dioritlar. Zarqaynar intruzivida kvarsli dioritlarning ulushi 30% ni tashkil qiladi Ular intruzivning shimoliy-sharqiy qismida Nurota shaharchasiga yaqin joylashgan va yirik blok-ksenolitlarni hosil qiladi. Ular ohaktoshlar, granodioritlar va biotitli granitlar bilan kontakt hosil qiladi. Granitlarning ko‘plab tomirli fatsiyalari bilan kesib o‘tilgan.Dioritlarning blok-ksenolitlarida nurash jarayonlari keng rivojlangan, tanalarning yuza qismlarida va yon-atroflarida kulrang-qoramtir qumlarni kuzatish mumkin. Tarkibi juda o‘zgaruvchan, leykokratli, mezokratli ba’zan biotit-amfibolli xillariga asta-sekin o‘tishlar kuzatiladi. Blok ksenolitlar

o‘lchami 50-60 metrga etadi, ular intruzivning shimoliy-sharqiy qismidan to Zulqaynar qishlog‘igacha 10-15 km masofada tarqalgan. O‘zining sxematik geologik xaritasida ularni birlashtirib kvarsli dioritlar deb rang bergan.

Monsogabbro (shlir). Nurota ziyoratgohidan janubiy g‘arb tomon 1,5-2 km masofada, katta yo‘ldan g‘arb tomon 500 m masofada dioritlarning kichik 3 ta tanasi monsogranodioritlar ichida joylashgan. Ular tarkibida ko‘plab gabbro va gabbro-dioritlarning avtolitlari va shlirlari kuzatiladi. Ularning o‘lchamlari 20x30 smgacha yetadi. Tashqi ko‘rinishi to‘q kulrang, qoramtir. Tuzilishi o‘rta donali, gabbroli. Tarkibida sossyuritlashgan plagioklaz, xloritlashgan piroksen, epidot, apatit va monatsit uchraydi (2-rasm). Shlifning ayrim qismlarida kvars va kaliy-natriyli dala shpatini kuzatish mumkin.

Rogovaya obmanka-biotitli granodioritlar, monsogranodioritlarva tonalitlar mayda donali kulrang jinslar bo‘lib, ularning asosiy massasida 2 sm gacha bo‘lgan dala shpatlarining fenokristallari uchraydi. I.M.Isamuxamedovning (1955) ta’kidlashicha, bu biotit varaqalarining va qisman dala shpati fenokristallarining yo‘naltirilgan joylashishi bilan bog‘liq. Endokontakt tomon tog‘ jinslarining asosliligi sezilarli darajada oshishi bilan birga ular aniq porfirsimon tuzilishga aylanadi va ularda parallel tekstura aniqroq namoyon bo‘ladi. Granodioritlar tarkibida plagioklaz, kvars, kaliy-natriyli dala shpati, biotit va kam miqdorda rogovaya obmanka mavjud. Plagioklaz kichik tabletkalar bilan birga, zonal tuzilishli fenokristallarni hosil qiladi. Tabletkalar yadrosining tarkibi andezinga (An_{43}), chekka zonasi esa oligoklazaga (An_{18}) to‘g‘ri keladi. Monsogranodioritlar tarkibida slyudalar va kaliyli dala shpatlarining miqdorlari bir muncha ko‘payadi,tonalitlarda esa aksincha, plagioklaz ustunlik qiladi, kaliy-natriyli dala shpatlari kam mqdorda uchraydi (2-rasm).



1-rasm. Zarqaynar intruzivining geologik xaritasi (mualliflarning o‘zgartirishlari bilan). Zarqaynar intruzivining Nurota mintaqasidagi o‘rni (Isamuxamedov, 1955 vab. bo‘yicha, ba’zio‘zgartirishlaribilan). 1 – quyi paleozoy cho‘kindi-metamorfik yotqiziqlari, 2 – devon-quyikarbon karbonat yotqiziqlari, 3 – karbon-perm davri granitoidli massivlar, 4 – Zarqaynar intruzivining o‘rni. Zarqaynar intruzivi: 1 – darasoy (C_2dr) va oqtov seriyasiga (D-C_2ak) mansub marmarlashgan ohaktoshlar, kremniyli va brekchiyali qatlamlar, 2 – kalsara (S_2-3 kl) svitasining karbonatli flish yotqiziqlari, kvars-qumtoshli ohaktoshlar, mergel va argillitlar nakrut svitasi (S_1nkr) ko‘mir-kremniyli slaneslar, alevrolitlar, qumtoshlar, 3 –gabbro-diorit va kvarsli dioritlar, 4 – tonalitlar, adamellitlar, 5 – granodioritlar, granitlar, 6 – leykokratli granitlar, 7 – granit-porfirlar, leykogranitlar (a) va lamprofir (b) daykalari, 8 – yer yorig‘i, 9 – Nodir yer elementlari namoyonlari (a) va skarnlashuv namoyonlari (b).

Granitlar – shimoliy-sharqiy qismida, ayniqsa Pashshot bulog‘i atrofida keng tarqalgan. Ular o‘rta donali bo‘lib ko‘p o‘zgarmagan, shu bois sifatli bo‘lgani uchun mahalliy ishbilarmonlar tomonidan kesib olinmoqda. Granitlar o‘ziga xos bir xil tekis donali och-kulrang jinslar bo‘lib,

yaxlit teksturaga ega. Ular tarkibida kaliy-natriyli dala shpati, kvars, zonal plagioklaz va biotit mavjud.

Kaliy-natriyli dala shpati o‘ziga xos aniq qo‘shaloq panjarali mikroklin va ortoklazdan iborat (2-rasm). Uning ksenomorf donalari odatda toza va kamdan-kam hollarda o‘zgargan jigarrang rangga ega.

Mayda donali granit intruzivning markaziy qismida granodioroitlar orasida uzunligi 450-500 m eni 150-200 m bo‘lgan tana hosil qiladi. Tananing katta qismi nurash hosilalari bilan qoplangan, ochilgan joylari ham yassi, namuna olish juda murakkab. Tashqi ko‘rinishi kulrang, maydo donali. Teksturasi gneyslashgan, yaxlit. Tarkibida plagioklaz, kaliy-natriyli dala shpati, kvars va biotit mavjud (2-rasm). Aksessor minerllardan monatsit, apatit va magnetit uchraydi. Mikroskopda kaliy-natriyli dala shpati bilan kvars o‘rtasidagi mirmekitlanishni kuzatish mumkin hamda xloritlanish, seritsitlanish va pelitlanish keng rivojlangan.

Granodiorit daykasi Nurota ziyoratgohidan 500-700 m janubiy-g‘arbda eski marmar karerida uchraydi. Daykalarning qalinligi o‘zgaruvchan 30-80 sm. Azimut yo‘nalishi 77^0 ShSh. Daykaning osilgan kontaktida skarnlashuv zonasi (10 sm) kuzatiladi. Skarn granat-piroksen tarkibli (keyingi boblarda batafsil tavsiflangan). Tashqi ko‘rinishi kulrang, ba’zan och kulrang, pushti. Tuzilishi o‘rta donali, gipidiomorf, teksturasi yaxlit. Juda ham o‘zgargan, ayniqsa ikkilamchi xlorit, epidot juda keng rivojlangan. Plagioklaz cho‘zilgan, yumaloqlangan donalarni hosil qiladi va epidotlashgan, ba’zilari seritsitlashgan, kaliy-natriyli dala shpatidan ancha ustunlik qiladi. Kaliy-natriyli dala shpati pelitlashgan. Biotit va rogovaya obmankalar evaziga xlorit to‘liq rivojlangan. Xarakterli monatsit, apatit, sfen aksessor minerallari uchraydi.


Granodiorit-aplit daykasi intruzivning sharqiy qismida 12-14 metr qalinlikdagi granitlarni yorib o‘tadi. Tashqi ko‘rinishi pushti, mayda donador, porfirsimon. Tarkibida kalta prizmatik, seritsitlashgan, ba’zan zonal tabletkasimon plagioklaz (45-50%), noto‘g‘ri va tabletkasimon kaliy-natriyli dala shpati (20-25%), kvars (12-15%), vaqasimon biotit (5-8%) va aksessor minerallar - apatit, sirkon, monatsit (0,5%) uchraydi.

Leykokratli granitlar Zarqaynar intruzivida daykalarni hosil qiladi. Ularning qalinligi 1 metrdan 12 metrgacha, ba’zan 15 metrgacha yetadi. Daykalarning qalinligi yuqori bo‘lsa, ularning rangi pushtimas kulrangga o‘tadi, ya’ni rangli minerallar miqdori ozgina ko‘payadi. Bu holat tog‘ jinslarini nomini o‘zgartirishga olib keladi (leykogranit, alyaskit, granit-aplit va h.). Eng muhimi, bu leykokratli granit daykalari pegmatitlarni kesib o‘tadi. Bu holat intruziv tomirli fazasi bilan to‘liq sovib, kristallanish jarayoni tugagandan keyin granit-porfir daykalari yorib chiqqanligidan darak beradi.

Granit-aplit daykasi intruzivning markaziy qismidagi ohaktoshlarning blok-ksenolitini va biotitli granitlarni yorib chiqadi. Blok-ksenolit bilan biotitli granitlar kontaktida skarnlashuv kuzatiladi va skarn minerallaridan granat granit-aplit daykasiga tushib qolgan. Daykaning qalinligi o‘zgaruvchan yuqori qismda 5 m bo‘lsa, blok-ksenolitga yaqinlashgan sari kamayib boradi va 0,5 m tashkil qiladi. Daykaning tashqi ko‘rinishi och kulrang pushti, teksturasi yaxlit, porfirsimon.

Aplitlar Zarqaynar intruzivida juda keng tarqalgan. Ular intruzivning barcha faza jinslarini hamda qamrovchi karbonat jinslarini ham yorib chiqadi va qalinroq bo‘lsa tuzilishi alyaskitga, ingichka bo‘lsa aplitga bo‘ladi. Aplitlar kamida ikkita generatsiyada uchraydi, bu bevosita bir-birini kesib o‘tishi bilan izohlanadi.

Pegmatitlar Zarqaynar intruzivining ko‘p joylarida, asosan Zulqaynar qishlog‘i atrofida, intruzivning g‘arbiy qismlarida juda keng tarqalgan. Ular tomirlarni hosil qiladi, toza pegmatitli tanalar kam uchraydi, ular aplit bilan birga keladi, ya’ni aplit daykasini chekka qismlari pegmatitlardan iborat. Ular o‘zaro asta-sekin bir-biriga o‘tadi. Pegmatitlar tarkibida kvars, mikroklin, plagioklaz, biotit va ikkinchi darajali minerallar mavjud. Kvars panjarali qo‘shaloqli mikroklin va kamroq tarqalgan plagioklazlar bilan mikropegmatit va mikrografik o‘zaro o‘simtalarni hosil qiladi. Kvars katta, nisbatan idiomorf to‘lqinsimon so‘nadigan donalarni, shuningdek dala shpatlarida mirmekit o‘simtalarini hosil qiladi.



2-rasm. Zarqaynar intruzivi granitoidlarining petrografik xususiyatlari: a – diorit, b – monsogabbro, d – granodiorit, e – tonalit, f – granit,g – mayda donali granit, h – spessartit.

Dioritli porfiritlar Ularning kulrang va to‘q kulrang mayda donali asosiy massasi rangli minerallar va dala shpatlarining fenokristallarini o‘z ichiga oladi. Tog‘ jinsining tuzilishi porfirli. Ularda plagioklaz, amfibol, biotit, kvars va kaliy-natriyli dala shpati bor.

Spessartitlar Zarqaynar intruzivining shimoliy-g‘arbiy qismida kichik daykali to‘dalar hosil qiladi. Daykalarning qalinligi 30-82 smgacha yetadi. Tuzilishi xarakterli lamprofirli, to‘liq kristallangan (mayda donali) porfirli, ba’zan tomirlarning chekka qismlarida o‘ta mayda donali, ba’zan poykilitli. Porfir ajralmalari rogovaya obmanka (2-rasm) ba’zan piroksenning idiomorf fenokristal-larining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Tog‘ jinsida xloritlanish va karbonatlanish juda keng rivojlangan. Ba’zi shliflarda rogovaya obmanka to‘liq xloritga aylanib ketgan. Xlorit temir-magniyli turiga mansub bo‘lib, mayda ko‘k-yashil, binafsha rangdagi qipiqsimon agregatlar hosil qiladi. Tog‘ jinsi ingichka prizmatik donalardan iborat rogovaya obmanka (35-45%), plagioklaz (50-55%), kamroq avgit, oz miqdorda kaliy-natriyli dala shpati, kvars va magnetitdan (5%) iborat mikrokristalli asosiy massada joylashgan. Ba’zi shliflarda rogovaya obmanka shlirlar hosil qiladi.

Intruzivning ilk fazasi gabbro-dioritlari, dioritlariva kvarsli dioritlari ksenolit va blok-ksenolit sifatida uchraydi va kechki faza hosilslari bilan yorib chiqiladi. Rogovaya obmanka-biotitli granodioritlar,monsogranodioritlar, porfirsimon adamellitlar va tonalitlar juda keng tarqalgan asosiy faza mahsulotlari hisoblanadi. Biotitli, ikki slyudali granitlar, monsogranitlar intruzivning shimolida va markaziy qismlarida yirik tanalar shaklida uchraydi; va nihoyat, oxirgi leykogranitlar va alyaskitlar intruzivning markaziy qismlarida, asosan dayka tarzda uchraydi; intruzivning tomirli fatsiyasi juda keng tarqalgan, ayniqsa aplit, aplit-pegmatit va pegmatitlar

Zarqaynar intruzivi granitoidlari “mumtoz” 4 fazali tuzilishga ega: 1δ – gabbro-dioritlar, dioritlar va kvarsli dioritlar; 2γδ – rogovaya obmanka-biotitli granodioritlar, monsogranodioritlar, porfirsimon adamellitlar va tonalitlar; 3γ – biotitli, ikki slyudali granitlar, monsogranitlar; 4γπλ – leykogranitlar va alyaskitlar. Tomirli jinslar va daykalar: granodiorit, granodiorit-aplit, leykokratli granit, granit-aplit, aplitlar, pegmatitlar, diorit porfiritlar, spessartitlar, oxirgi 2tasi mustaqil shimoliy nurota diabaz-diorit-lamprofir daykali (Psn) majmusiga mansub.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ишбаев Х.Д., Косбергенов К.М., Қодиров С.Х.Зарқайнар интрузивининг ильменит-магнетитли скарнлашув намоёнлари (Жанубий Нурота тизмаси) //Геология ва минерал ресурслар, 2024. №5. Б.11-18.
2. Ишбаев Х.Д., Шукуров А.Х., Кадыров С.Х. Вещественный состав даек спессартитовЗаркайнарского интрузива (Южное Нуратау, Узбекистан) //Проблемы минерагении, экономической геологии и минеральных ресурсов: Часть I. Основные проблемы геологии и рудообразования, кластерная эволюционная минерагения и минеральные ресурсы. Научно-литературный альманах /Гл. ред. В.И.Старостин; Фонд имени академика В.И.Смирнова. – Москва : МАКС Пресс, 2024. – С.123-136.
3. Ишбаев Х.Д., Шукуров А.Х., Косбергенов К.М., Қодиров С.Х.Редкоземельная специализация даек спессартитов и пегматитов Заркайнарского интрузива (Нуратинский регион)//Геология ва минерал ресурслар, 2024. №2. – С. 35-41.
4. Ишбаев Х.Д., Шукуров А.Х., Косбергенов К.М., Қодиров С.Х.Зарқайнар интрузивининг биотитли гранитлари: таркиби, маъдандорлиги ва ҳосил бўлиш шароити (Жанубий Нурота) //ЎзМУ хабарномаси, 2024. №3/1. –В. 241-246.
5. Косбергенов К.М., Хонимқулов Ё.Г., Қодиров С.Х.Зарқайнар интрузиви спессартит дайкаларининг таркиби ва геокимёвий ихтисослашуви (Жанубий Нурота) //Геология фанлари университети хабарномаси, 2023. №2. – С. 73-78.
6. Қодиров С.Х.Зарқайнар интрузиви биотитли гранитларининг ҳосил бўлиш шароити ҳақида (Жанубий Нурота, Ўзбекистон /Geological and mineralogical sciences VIII international scientific conference. London. Great Britain. 24-25.10.2024. –p.140-147.

BUKANTOV TOG‘I OLTIN MA’DANLASHUVINING OMILLARI

Rahmatullayev I. F.*
**H.M. Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti,*
rahmatullayevilhom587@gmail.com

Annotatsiya. Bukantov tog‘-kon mintaqasi turli xil foydali qazilmalar bilan ajralib turadi. Feruzadan tashqari barcha sanoat konlari Janubiy Bukantov zonasida joylashgan, Shimoliy Bukantov zonasida esa faqat bitta kichik Qoramurunkoni, namoyonlari va ma’danlashuv nuqtalari ma’lum.

Shimoliy va Markaziy Bukantov metallogenik zonalari litofil-siderofil-xalkofil (mis yetakchi rol o‘ynagan va oltin, barit, xrom, nikel, temir, molibden, simob namoyonlari mavjud bo‘lgan) sifatida tasniflanadi. Janubiy Bukantov zonasi litofil-xalkofil (oltin, kumushning asosiy roli va qalay, surma, mis, nikelning bo‘ysunuvchi roli bilan) sifatida talqin qilinadi. Ya.B.Aysanov (1984) submeridional blokli metallogenik zonallikni belgilagan, ikkinchisi erosion kesimning bosqichliligini va shunga mos ravishda ularning metallogenik zonalligini ta’kidlaydi [Айсанов и др. 1981, 1984 г. Бухарин и др.,1990 г. Корсаков и др., 1977 г.].

Oltin ma’danli va boshqa foydali qazilma namoyonlarini joylashtirishning asosiy omillarini aniqlash, bashoratlash va qidirish samaradorligini oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Bugungi kunda oltin ma’danli konlarning joylashish omillarini aniqlash, birinchi navbatda, empirik ma’lumotlarga, konlarning mintaqalarning geologik tuzilishi elementlariga nisbatan joylashish qonuniyatlarini izlashga asoslanadi. Shu sababli, konlarning lokalizatsiya omillarini muvaffaqiyatli aniqlashning asosiy shartlaridan biri ma’dan konsentratsiyalarining shakllanish joyi va vaqtini aniqlash bilan hududlarning geologik tuzilishi va geologik rivojlanish tarixini o‘rganishdir.

Bukantov oltin ma’danli konlari va namoyonlari to‘rtta formatsiyaga tegishli: oltin-sulfidli tomirsimon - xol-xol ma’danlar, oltin-sulfid-kvarsli, oltin-kumushli va oltin-skarnli. Oltin-(sulfidli) -kvars formatsiyasi konlarini ikkita kichik formatsiyaga ajratish mumkin: a) kam sulfidli tomir-tomir zonalari va shtokverklar va b) kam sulfidli tomirlar, chiziqli tomir zonalari va brekchiyalar.

Shuni ta’kidlash kerakki, ajratilgan oltin ma’danli formatsiyalarni genetik jihatdan ajratilgan guruhlar sifatida ko‘rib chiqish mumkin emas, chunki ular na metall manbai, na magmatizm bilan bog‘liqligi, na shakllanish vaqti, ya’ni turli bosqichliligi bilan farq qilmaydi. Ularning formatsion qiyofasi u yoki bu mineral assotsiatsiyalarning rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, birinchi navbatda, granitoid jinslar massivlari bilan fazoviy munosabatlar va atrof-muhitning xususiyatiga, shuningdek, granitoid jinslarning tarkibiga bog‘liq.

Ma’dan maydonlari lokalizatsiyasining aniqlangan asosiy omillari butun burmalangan tizim uchun umumiydir. Shu bilan birga, har bir tektonik segmentda ulardan ayrimlarining roli turlicha bo‘lishi mumkin. Xuddi oltin ma’danli konlarning har bir formatsiya turi uchun bo‘lgani kabi, ajratilgan omillar biroz boshqacha ahamiyatga ega.

Strukturaviy omillar. Bukantovning barcha oltin konlari va namoyonlari odatda qamrovchi qatlamlar bilan submuvofiq bo‘lgan uzun ichki blokli ezilish va maydalanish zonalari doirasida joylashgan. Shunday qilib, bu zonalar ma’danni nazorat qiluvchi tuzilmalar rolini o‘ynaydi va ma’dan olib keluvchi yoriqlar bilan taqqoslanishi mumkin. Ezilish va maydalanishdan tashqari, zonalar uchun mayda shtoklar va daykalar, ko‘pincha belbog‘lar va bog‘lamlar hosil qiluvchi mayda rang-barangtanalarformatsiyasixosbo‘lib, ba’zan kvars tomirlari va tomirchalar sonining ko‘payishi kuzatiladi.

Ma’dan nazorat qiluvchi strukturalar rolini ko‘ndalang va diagonal uzilishlar va turli tartibdagi uzilish zonalari o‘ynaydi: konlarda ma’dan tanalari va ustunlarining joylashishiga ta’sir qiluvchi maydonlardan tortib, mintaqaviy trans bloklargacha, ularning yaqinida va kesishgan joylarida bo‘ylama zonalar bilan ma’dan maydonlari joylashgan. Ma’danlarning joylashuvida, ayniqsa oltin-sulfid-sulfidli tomircha-xol-xol bo‘lib joylashgan ma’danlarni to‘suvchi yuzalar muhim rol o‘ynaydi, bu yuzalar odatda dolomit-kremniyli, karbonat qatlamlarining tubi va ustki qismi, shuningdek surilmalar tekisligi hisoblanadi.

Ba’zi hollarda, ayniqsa Bukantov uchun xos bo‘lgan, ma’danli maydonlarga nisbatan ma’dan to‘plovchi strukturalar rolini braxiform burmalar o‘ynaydi.

Magmatik omillar. Janubiy Tyan-Shanning g‘arbiy qismida va xususan Bukantovda oltinning asosiy massasining yotqizilishi vaqt bo‘yicha “ola-chipor” tarkibli kichik tanalar formatsiyasi jinslarining shakllanishiga eng yaqin. Ma’danli maydonlarning ko‘pchiligida ma’dan tanalarining belbog‘lari va dastalari rivojlangan. Nordon va asosli xilma-xilliklarning miqdoriy nisbati turlicha, ammo lamprofir daykalari deyarli har doim mavjud.

Oltin ma’danlashuvi “plutonik” formatsiya jinslariga nisbatan o‘zini quyidagicha tutadi. Birinchidan, tog‘ jinslaridan tashkil topgan massivlarda biotitli granitlar formatsiyasi, oltin konlari va namoyonlari aniqlanmagan. Ikkinchidan, asosiy ma’danli maydonlar yoki morfologiyasi geofizik maydonlarda o‘rnatiladigan intruziyalarning lateral apofizalarining klinovkalari uchastkalari ustida yoki ularning davomi yoki intruziyalar tomining tog‘orasimon bukilmalarida joylashgan.

Stratigrafik va litologik omillar. Janubiy Tyan-Shandagi oltin ma’danli namoyonlar qatlamli qatlamlarning deyarli barcha formatsiyalarida topilgan. Biroq, ma’dan joylashuvining qulaylik darajasi bo‘yicha har bir oltin ma’danli formatsiya obyektlari uchun litologik qator o‘rnatiladi. Oltin-skarnli namoyonlar, tabiiyki, olistostromli va karbonatli formatsiyalarning karbonatli jinslarida (Bulut konturi) joylashadi. Oltin-sulfidli tomirsimon- xol-xol ma’danlarning namoyon bo‘lishi uchun, birinchi navbatda, flishoid va olistostromli formatsiyalarning (Ko‘kpatas turi) qumtosh va alevrolitlari, shuningdek, kichik tanalarning porfir-porfirit daykalari qulay hisoblanadi.

Oltin-kvars namoyonlari uchun flishoid va olistostrom formatsiyalarining qum-slanesli jinslari (Turbay turi), so‘ngra alevrolit-argillit qatlamlari eng qulay hisoblanadi. Oltin-kumush namoyonlari uchun birinchi navbatda flishoid va olistostrom formatsiyasining qum-slanes qatlamlari, so‘ngravulkanogen-dolomit-kremniyli formatsiya jinslari va undan keyin karbonat formatsiyasi (Oqjetpes turi) qulay hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, Janubiy Tyan-Shanning oltin ma’danli konlarini lokalizatsiya qilish uchun stratigrafik omil emas, balki litologik omil muhimdir.

Ko‘kpatas oltin ma’danlashuvining stratiformligi dastlab qorashoxo qatlami kesimining yuqori fizik - mexanik va kimyoviy anizotropiyasi bilan izohlanadi, keyinchalik surilma harakatlari dayanada kuchayadi. Jusquduq ohaktoshlarining qattiq plitalari va ko‘kpatas svitasining dolomit-kremniyli yotqiziqlari orasidagi qorashoxo qatlami jinslarining joylashuvi ularning sezilarli tektonik rivojlanishini oldindan belgilab berdi.

Jusquduq ohaktoshlarining qattiq plitalari va ko‘kpatas svitasining dolomit-kremniyli yotqiziqlari orasidagi qorashoxo qatlami jinslarining joylashuvi ularning sezilarli tektonik rivojlanishini oldindan belgilab berdi. Shu bilan birga, daykalarning kontaktlari, surilmalarning osma yonbosh jinslari (kremniy, dolomitlar) va ularning choklarining tektonik gillari turli darajada ekranlash xususiyatlarini namoyon qildi, bu esa oxir-oqibat sanoat ma’danlarining lokalizatsiya tuzilishini belgilab berdi.

Zonallik omili. Janubiy Tyan-Shanda ma’dan tugunlari, maydonlar, konlar va ma’dan tanalarining moddiy zonalligi, umuman olganda, boshqa mintaqalar uchun ma’lum bo‘lgan zonallikdan farq qilmaydi. Umuman olganda, u Rundkvistom, Petrovskaya va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan zonallik sxemalariga yaqin. Burmalangan tizim uchun tipomorf bo‘lgan metallarning umumiy spektri haqida gapiradigan bo‘lsak, ularning ma’danli uchastkalardagi ma’dan konsentratsiyalari granitoidlarga nisbatan taxminan Emmons sxemasiga muvofiq joylashtiriladi.

Prognoz tuzish va qidiruv maqsadlarida zonallik omilidan foydalanib, klassik zonallikning buzilish holatlarini alohida e’tiborga olish kerak. Ma’danli maydonlarda zonallikning “to‘g‘ri” naqshini buzadigan uchta asosiy sababni ko‘rsatish mumkin. Birinchisi - o‘zgaruvchan kuchlanish vektori sharoitida sodir bo‘ladigan ma’dan yotqizilish jarayoni rivojlanishining pulsatsion xarakteri, shu munosabat bilan har bir mineral assotsiatsiyasining yotqizilish davrida ilgari paydo bo‘lgan uzilma tizimlaridan biri eng qulay bo‘lib chiqdi, masalan, asosan flishoid formatsiya jinslaridan tashkil topgan ma’dan maydonlaridan birida (Daugiztov), dispers oltinli pirit-arsenopirit ma’danlari shimol-shimoliy-sharqiy uzilmalarida, asosan kumush ma’danlari subkenglikdagi uzilmalarda joylashgan.

Mineral assotsiatsiyalarning epitsentrlarga nisbatan qonuniy joylashish xarakterini murakkablashtiruvchi keyingi sabab biotitli granitlarning kechki kompleksi granitoid jinslarining ta’siri hisoblanadi. Oltin-pirit-arsenopirit konlaridan birida biotitli granitlar massiviga yaqinlashgan sari pirit va arsenopiritdagi dispers oltin miqdori qonuniy ravishda kamayib borishi va ma’dandagi o‘rtacha miqdor saqlanib qolishi aniqlandi. Piritda mishyak aralashmasi shu yo‘nalishda ko‘payadi, lekin bevosita granitlarda keskin kamayadi. Massivga yaqinlashgan sari piritda kobalt miqdorining ko‘payishi xarakterli bo‘lib, bu bir qator tadqiqotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, ma’danlarning metamofizmiga ishora bo‘lib xizmat qiladi. Pirit va arsenopirit tarkibidagi pirrotin miqdorining granitlarga yaqinlashgan sari ortib borishi ham shundan dalolat beradi.

Ma’danli maydonlarning granitoidlarga nisbatan joylashuvi va ma’danli uchastkalardagi moddiy regressive zonallik intruziyalarning ildiz qismlaridan yo‘nalgan aniq vektorga ega bo‘lgan yagona ma’dan-magmatik tizimlarning mavjudligi haqida gapirishga imkon beradi. Shuni yodda tutish kerakki, ko‘pincha ma’dan-magmatik tizimning vektori gorizontga nisbatan juda kichik burchak ostida yo‘naltirilgan.

Oltin ma’danlashuvi lokalizatsiyasining aniqlangan (asosiy) omillari ma’danli vaziyatning prinsipial modelini yaratishga imkon beradi, bunda nisbatan qalin ma’dan-magmatik tizimning vektori ma’danni nazorat qiluvchi tuzilmalar yo‘nalishi bilan mos keladi, o‘z yo‘lida ma’dan konsentratsiyalovchi zonalar va ekranlarni, shuningdek qulay litologik qatlamlarni uchratadi. Kumush ma’danlashuvi uchun ma’dan qamrovchi geologik-strukturaviy pozitsiya deyarli o‘xshash. Ko‘kpatas va Oqjetpes ma’dan maydonlarining o‘ziga xos xususiyati kumush ma’danlashuvining karbonatli blokli ko‘tarilmalar bilan bog‘liqligidir. Kumush ma’dan namoyonlarining Turbay guruhi va G‘arbiy Turbay oltin-kumush konining etaloni uchun erta perm granodiorit-porfir daykalari bilan yaqin fazoviy bog‘liqlik aniqlangan.

MOLGUZAR TOG‘LARIDAGI KICHIK INTRUZIYALAR HAQIDA

Raxmonov S.B.*

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti,*

raxmonovs1998@gmail.com

Annotatsiya: Molguzar tog‘lari Shimoliy Nurota tog‘ tizmasining janubiy-sharqiy davomi bo‘lib, quyi va o‘rta paleozoy cho‘kindi-metamorfik tog‘ jinslaridan iborat. Bu yotqiziqlar o‘rta silur davriga mansub gabbro-diabaz sillari, daykalari, ko‘plab diorit, kvarsli diorit, granodiorit, granit-porfirlar va lamprofirlar kichik intruzivlari va daykalari yorib chiqadi. Bu hosilalar Molguzar tog‘laridan Shimoliy va Janubiy Nurota tizmalari orqali to Auminzatovga qadar tarqalgan va oltin ma’danlashuv (Molguzar, Sarmich, Shimoliy Nurota oltindor kamarlari) namoyonlari bilan xarakterlanadi. Gipabissal nordon magmatik hosilalar (granodiorit - granit-porfirlar) flyuidlar va gidrotermal eritmalarning aylanishiga yordam beradigan issiqlik maydonlarini yaratadi va W-Sn, Cu-Au-U, Pb-Zn va NYE tomirli minerallashuvni hosil qiladi. Bu minerallashgan zonalar tadqiqot hududining Qaroqchibuloq, Zargar, Avliyo, Uzunbuloq, Laylagul va boshqa ko‘plab maydonlarda aniqlangan.


Аннотация: Мальгузарские горы являются юго-восточным продолжением Северо-нуратинского хребта и сложены осадочно-метаморфическими горными породами нижнего и среднего палеозоя. Эти образования прорываются силлами и дайками габбро-диабазов среднего силура, многочисленными малыми интрузиями и дайками диоритов, кварцевых диоритов, гранодиорит,- гранит-порфиров и лампрофиров. Эти образования распространены весьма широко: от Мальгузарских гор через Северного и Южного хребта Нуратау до Ауминзатау и характеризуются широкими проявлениями золотого оруденения (Мальгузарский, Сармичский, Северонуратинский золотоносные пояса). Гипабиссальные кислые магматические образования (гранодиорит,- гранит-порфиры), создают тепловые поля, способствующие циркуляции флюидов и гидротермальных растворов, образуя жильные месторождения W-Sn, Cu-Au-U, Pb-Zn и РЗЭ. Эти минерализованные зоны

выявлены на площадях Каракчибулак, Заргар, Авлиё, Узунбулак, Ляйлягул и многих других участках исследуемой территории.

Annotation: The Malguzar Mountains are the southeastern continuation of the Northern Nurata Range and are composed of sedimentary-metamorphic rocks of the Lower and Middle Paleozoic. These formations are cut by sills and dikes of Middle Silurian gabbro-diabases, numerous small intrusions and dikes of diorites, quartz diorites, granodiorites, granite porphyries, and lamprophyres. These formations are widespread, extending from the Malguzar Mountains through the Northern and Southern ranges of Nuratau to Auminzatau and are characterized by widespread manifestations of gold mineralization (Malguzar, Sarmich, Northern Nurata gold-bearing belts). Hypabyssal acidic magmatic formations (granodiorite, granite-porphyries) create thermal fields that facilitate the circulation of fluids and hydrothermal solutions, forming vein deposits of W-Sn, Cu-Au-U, Pb-Zn, and REE. These mineralized zones have been identified in the areas of Karakchibulak, Zargar, Avliyo, Uzunbulak, Laylagul, and many other areas of the studied territory.

Malguzar tog‘lari Shimoliy Nurota tizmasining janubi-sharqiy davomi bo‘lib, Sangzor daryosi o‘zanidan Turkiston tizmasi bilan tutashgunga qadar 100 km janubi-sharqiy yo‘nalishda cho‘zilgan, kengligi 20 km dan 35 km gacha, maydoni 2500 km^2 ga yaqin (1 - rasm). Molguzar tog‘lari murakkab qoplama-tangasimon va blokli tuzilishga ega. Tizma quyi va o‘rta paleozoy terrigen-karbonat yotqiziqlaridan iborat [1, 2].

A.P.Markovskiy (1937) va V.I.Popov birinchilardan bo‘lib Malguzar tog‘larida diabazlar va doleritlarning daykalari va sillsimon qatlam yotqiziqlarini aniqladilar va tavsifladilar, oxirgi diabazlar orasida gabbro-diabazlarni ajratib ko‘rsatdi. O‘rta masshtabli geologik syomka jarayonida (N.D.Zlenko va boshq. 1949-1958 yy.) Gabbro-diabazlarning deyarli barcha tanalari Molguzar va Turkiston tizmalari hududining geologik xaritasiga tushirilgan bo‘lib, ular dayka kamari deb nomlangan uzun va keng tasmalar ko‘rinishida ajratilgan [3]. O‘shandan beri oltin ma’danli va boshqa turdagi foydali qazilmalarni topish bo‘yicha tematik, geologik-tasvirlash va qidiruv ishlari davom etmoqda [4-6].



1 - rasm. Molguzar tog‘larining sxematik geologik xaritasi [5]. *1 – to‘rtlamchi davr yotqiziqlari, 2 – neogen davri yotqiziqlari, 3-6 – kremniy-karbonat-qum-slanesli va qum-slanesli qatlamlar $Є_3$, O_{1-2}, O_3-S_1, S_{1-2}, 7 – linzasimon qatlamlar va kremniyli jinslar konkretsiyalari bo‘lgan brekchiyasimon och kulrang ohaktoshlar, 8 – to‘q kulrang organogen-bo‘lakli ohaktoshlarning gilli-temirli ohakli argillitlar va qora kremniylarning linzasimon qatlamlari bilan qayta qatlamlanishi, 9 – giperbazit protruziyalarining qoldiqlari, 10 – gabbro-doleritlar, diabazlarning sillari va daykalari, 11 – diorit va kvarsli dioritlar, 12 – granodiorit-, granit-porfirlar, 13 – yer yoriqlari, 14 – davlat chegarasi.*

Molguzar tog‘lari haqida gap ketganda, ko‘lab geologlar o‘ziga xos shaklga va yuqori qalinlikka ega bo‘lgan gabbro-diabazlarni tushunishadi, ammo bu yerda oltin, volfram va boshqa minerallashuv zonalari joylashgan kichik intruziyalar va daykalarning nordon granitoidlari ham juda keng tarqalgan.

Molguzar daykali mintaqasi Nurota-Turkiston (Turkiston-Oloy, Zarafshon-Turkiston strukturaviy-fatsial zonalari doirasida Zarmitan-Molguzar-Shahriston-Saboh-Arpapoyat yo‘nalishi) bo‘ylab kuzatiladi va unchalik qalin bo‘lmagan zona janubroqda - Zarafshon-Oloy (Zarafshon-Hisor) zonasida, Ziyovuddin-Anzob-Marg‘ib-Rufig‘or yo‘nalishida kengligi 40 km gacha bo‘lgan 700 km dan ortiq masofada joylashgan. Yirik (0,3x8 km gacha) gabbro-doleritli sillar va daykalar ko‘plab mayda nekklar (o‘nlab metr), bazaltli tuffitlar va toleitli bazaltlarning piroklastik portlovchi tanalari mavjud. Ikkinchisi janubiy mintaqada va shimoliy mintaqaning Zarafshon-Turkiston zonasida aniqlangan [1, 3]. Gabbro-diabazlarning qalin sillari differensiatsiyalangan xarakterli xususiyatga ega bo‘lib, ularda jinslarning tarkibi o‘ta asosli piroksenitlardan doleritlargacha o‘zgarishi mumkin. Bunda piroksenitlar va melanokratli gabbrolar kesmalarning pastki qismida, ko‘plab leykokratli differensiatlar esa yuqori qismida joylashgan bo‘lib, ular o‘zaro asta-sekin o‘tishlar bilan bog‘langan [2, 6].

Shuni ta’kidlash kerakki, tadqiqotchilar asosiy e’tiborni gabbro-diabazlarga qaratganlar va nordon tarkibli jinslarni o‘rganish tadqiqotlar doirasidan tashqarida qolib ketavergan (agar ular o‘rganilgan bo‘lsa, ehtimol, fond hisobotlarida yotibdi). Zonaning nordon differensiatsiyalari Molguzar tog‘larida dioritlar, kvarsli dioritlar, granodiorit-porfirlar, granit-porfirlar, felzit-porfirlar va lamprofirlarning shtoksimon va daykasimon tanalarini hosil qiladi.

Qoplovchi jinslar metamorfizmga uchragan slaneslar fatsiyasi sharoitida $Є_2$, $Є_3$-O_1, S_1 yoshdagi kremniy-karbonat-qum-slanesli va qum-slanesli hosilalardan iborat (Ogaryov va b., 1974). Molguzar tog‘larida daykalar mintaqasining nordon differensiatlari asos tarkibliga qaraganda ancha kam tarqalgan. Ular dioritlar, kvarsli dioritlar, granodiorit-porfirlar, granit-porfirlar va riolit-porfirlar va lamprofirlarning shtoksimon va daykasimon tanalarini hosil qiladi, ularda oltin miqdori yuqoriligi aniqlangan.

Umuman olganda, geologik va geoxronologik tadqiqotlar bo‘yicha mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Molguzar rift zonasining paydo bo‘lishi kamida uch bosqichga bo‘linadi. Molguzar riftogen zonasi rivojlanishining boshlang‘ich bosqichi Shimoliy Nurota (Sentob, O‘xum, Arvaten, Birlashgan) va Molguzar (O‘ratepa va Zomin qishloqlari o‘rtasida, Turkman havzasi) tog‘lari etagidagi bazit-giperbazitlar protruziyasi asosida ordovik-silur metabazalt assotsiatsiyalari (qoplamalar, lavalar, piroklastlar) bilan belgilanadi. Zonaning keyingi rivojlanish bosqichi silur-devon davrida pikritlar va toleitli gabbro-diabazlar, diabazlar (Ilonchi, Osmonsoy, Yettikechuv, O‘rikli, Ismanli va b.) ning subvulkanik namoyonlari bilan shovoz va chimqo‘rg‘on majmualarining sharsimon lava bazaltlarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Uchinchi bosqich esa karbon-permda o‘rta va nordon tarkibli kichik intruziyalar va daykalarning (dioritlar, riolit-, granit-porfirlar, lamprofirlar va b.) paydo bo‘lishi bilan yakunlanadi [6].

Litologik jihatdan bashorat va qidiruv mezonlari quyi silurning terrigen hosilalari (qumtoshlar, alevrolitlar, slaneslar) hisoblanadi.

Qaroqchibuloq granodiorit-porfir shtoklari bilan terrigen jinslar kontaktidagi skarnlashgan volframli minerallashuvlari mavjud (volfram miqdori 0,3% gacha). Bundan tashqari bu uchastkada ko‘plab o‘rta va nordon tarkibli subvulkanik hosilalar qoplovchi jinslar kesib o‘tganini alohida ta’kidlab o‘tish kerak.

Zargar uchastkasi sharqiy qismida shu nomli vodiyning chap qirg‘og‘ida, Sangzor daryosiga quyilish joyidan 0,5 km yuqorida joylashgan. Zargarsoy uchastkasida o‘zgarish zonalariga to‘g‘ri keladigan kvars tomirlari keng tarqalgan. Uchastka quyi silur yotqiziqlaridan tashkil topgan bo‘lib, ular orasida bir nechta terrigen svitalar ajralib turadi, ammo ular yoshi va litologik tarkibi bo‘yicha turlicha bo‘lib, asos tarkibli kichik qalinlikdagi daykalar bilan yorib o‘tilgan. Kvars tomirlarining uzunligi 250 m dan 300 m gacha boradi. Qalinligi 2,5-2,8 m.

Avliyo ma’dan namoyonlari Laylyagun ma’danli zonasining janubi-sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, stratigrafik jihatdan Tomchisoy va nakrut svitasi yotqiziqlari bilan tutashgan.

2016-yilda Avliyo minerallashgan zonasida kon lahmlari va burg‘ulash quduqlaridan olingan oltin miqdori 0,3 dan 1,52 g/t gacha bo‘lgan. So‘nggi yillarda bu ko‘rsatkich ancha yuqori bo‘lib, qazib olish ishlari boshlangan.

Ularning tarqalish hududi oltin ma’danli minerallashuvning namoyon bo‘lishi uchun qulay sharoitlardan biridir. Kvars tomirlarining oltinli minerallashuvi tektonik strukturalar zonalari yaqinida tarqalgan slanesli jinslar orasida va ularning kontaktlarida namoyon bo‘ladi. Magmatik hosilalar diabazlar, gabbro-diabazlar (S_2), granodiorit-porfirlar va granit-porfirlar shtoklaridan iborat bo‘lib, ular bilan kechki oltin-kumush-polisulfidli mineralizatsiya (S_3), dioritli porfiritlar, lamprofirlar, granit-porfirlar, felzitlar daykalari (A.B.Mixaylov-Kiselevskiy bo‘yicha, 1989 y.) bilan Zarmitan turidagi tomirsimon ma’danlar turidagi ma’danlashuvning paragenetik aloqasi taxmin qilinadi, bu oltin ma’danlashuvining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, bu ma’danli tasma (zona), ma’dan tuguni yoki oltin ma’danlashuvini aniqlash uchun istiqbolli ekanligidan dalolat beradi (Mixaylov-Kiselevskiy, 1989f; E.X.Qutliyev, 2017y).

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki hozirda Molguzar tog‘larida tarqalgan granitoid tarkibli kichik intruziyalarni o‘rganish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Chunki bu yerda tarqalgan oltin va volfram ma’danlashuvlari magmatik hosilalar (kichik intruziyalar) bilan bog‘liqligiga shubha yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мусаев А.М., Гамалеев И.Е., Искандаров Э.И. Мальгузарские горы //В кн. «Петрография Узбекистана». Кн.2. –Т.: Наука, 1965. С.186-190.
2. Баранов В.В., Кромская К.М., Висьневский Я.С. Габброидные комплексы западной части Южного Тянь-Шаня и их минерагения. – Т.: Фан, 1978. 168 с
3. Минаев В.Е., Гопфауф Л.М., Тесленко Г.С. Силурийские базальтово-долеритовые дайковые пояса Южного Тянь-Шаня //Магматизм и геолкарта – 50 Средней Азии /Материалы Среднеазиатского регионального петрографического совещания. – Душанбе, Дониш, 1988. – С.69-71.
4. Ишбаев Х.Д., Косбергенов К.М., Джуманиязов Д.И. Новые взгляды на природу Мальгузарского дайкового пояса (Южный Тянь-Шань) //Материалы республиканской научно-практической конференции с международным участием на тему: «Фундаментальные и прикладные вопросы геологических наук на современном этапе», посвященной 100-летию академика Баратова Р.Б. и 80-летию основания Института геологии, г. Душанбе, 18-го ноября 2021 г. Труды Института геологии, сейсмостойкого строительства и сейсмологии. Выпуск 4, Душанбе, 2021. С.142-147.
5. Ishbaev Kh D. New Views on the Nature of the Malguzar Dike Belt (South¬ern Tien-Shan). Biomed J Sci & Tech Res 43(1)-2022. BJSTR. MS.ID.006851.
6. Ишбаев Х.Д., Нуртаев Б.С., Джуманиязов Д.И., Косбергенов К.М. Субвулканические габбро-долериты Мальгузарской рифтовой зоны (Южный Тянь-Шань): состав и геодинамическая природа /Геология и охрана недр, 2023. № 3 (88). С.28-46.

QIZILMACHIT PALEOVULQONI SHAKLLANISHINING GEODINAMIK SHAROITINI KO‘RSATUVCHI PETROGEOKIMYOVIY BELGILAR

Saitov N.E.*, Mamarozikov U.D.**, Ikromov O‘.O.*

**“H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti” DM tayanch doktoranti.*
saitov_nuriddin@mail.ru

***Geologiya fanlari universiteti professori, g.-m.f.d.* udmamarozikov@rambler.ru

**“H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti” DM stajyor-tadqiqotchisi.*
utkirikromov40@gmail.com

*Annotatsiya.*Hozirgi vaqtga kelib nisbatan osonlik bilan topiladigan konlar ancha aniqlanganligi va ishlab chiqarishga jalb qilinganligi sababli mamlakatlar ma’dan resurslarini

mustahkamlash sur’atlari qiyinlashib bormoqda. Bu muammoni yechish uchun nafaqat vulqon jarayonlari mahsulotlarining moddiy tarkiblarini o‘rganish, shuningdek, ular shakllangan geodinamik sharoitlarni ham aniqlash muhim hisoblanadi.

Ushbu ishda Qizilmachit paleovulqoni shakllanishininggeodinamik sharoitini aniqlash uchun dala geologik-qidiruv ishlarida olingan namunalarning kimyoviy tahlillari o‘tkazilgan, ularning petrokimyoviy koeffitsiyentlari hisoblangan, petrokimyoviytasniflash hamda geokimyoviy diskriminant diagrammalar tuzilgan.

*Аннотация.*В настоящее время, в связи с выявлением и вовлечением в разработку в значительной степени относительно легкодоступных месторождений, темпы укрепления минерально-сырьевой базы стран затрудняются. Для решения этой проблемы важно не только изучение вещественного состава продуктов вулканических процессов, но и определение геодинамических условий, в которых они формировались.

В данной работе проведены химические анализы проб, отобранных в ходе полевых геологоразведочных работ, рассчитаны петрохимические коэффициенты их и составлены петрохимические классификационные, а также геохимические дискриминатные диаграммы, отражающие геодинамические условияформирования палеовулканаКызылмечеть.

*Annotation.*Currently, due to the identification and involvement in the development of largely relatively easily accessible deposits, the pace of strengthening the mineral resource base of countries is hampered.To solve this problem, it is important not only to study the material composition of the products of volcanic processes, but also to determine the geodynamic conditions in which they were formed.

In this work, chemical analyses of samples collected during field geological exploration work are carried out, their petrochemical coefficients are calculated and petrochemical classification and geochemical discriminant diagrams reflecting the geodynamic conditions of the formation of the Kyzylmechet paleovolcano are compiled.

Janubiy O‘zbekistondagi aksariyat erta karbon yoshidagi paleovulqon qurilmalarida andezit-datsit va riolit porfirlarning ko‘p sonli sill va yirik lakkolitsimon tanalari uchraydi [3]. Bundan Qizilmachit paleovulqoni vulqon fatsiyalarining petrofondi asosan nordon tarkibli jinslardan tashkil etilganini ko‘rish mumkin, ularda kremnezyom miqdori 70% dan 80,74% gacha yetadi, o‘rtacha 76,01%. Xususan, effuziv fatsiyaga mansub riodatsit va riolit lavalarida – 72,85% dan 79,20% gacha; eksploziv fatsiyasi tuf va ignimbritlarida o‘rtacha 75,96%; ekstruziv fatsiyasi riodatsit va riolitlarida 70% dan 80,74% gacha; subvulkanik fatsiyasi riolit daykalari, kvarsli keratofir va kvarsli porfirlarida 72,68% dan 80,74% gacha o‘zgaradi (1-jadval).

Vulkanitlardagi ishqorlarning yig‘indisi bo‘yicha (Na_2O/K_2O) ular normal ishqorli (ohakli-ishqorli) petrokimyoviy qatorga, ishqorli komponentlarning o‘zaro nisbatlarining qiymatlari bo‘yicha (Na_2O/K_2O) kaliyli va kaliy-natriyli seriyalarga mansubligi aniqlandi (1-rasm).

Shuningdek, ularda korund normativ ekanligi (korund normativi – 1,66-5,24), glinozyomlilik koeffitsiyentlari yuqori (al’=1-2) va juda yuqoriligi (al’=2-10) ma’lum bo‘ldi. Bundan Qizilmachit paleovulqoni jinslarini shakllantirgan magmaning generatsiyasida yer qobig‘iga xos komponentlar ishtirok etganligidan dalolat beradi. Odatda bu kabi holat kontinentlarning faol chekkalariga yoki orollar yoylariga xos subduksiya zonalarida sodir bo‘ladi.


Paleovulqon petrofondining asosiy qismini tashkil etgan nordon vulkanitlarning petrogeokimyoviy xususiyatlari ularning shakllanishining geodinamik sharoitini aniqlash uchun ko‘rsatkichdir.

1–jadval

Qizilmachit paleovulqoni vulkanitlarining kimyoviy tarkiblari (% da), petrokimyoviy koeffitsiyentlari

Kompo-nentlar	Effuziv fatsiya			Ekstruziv fatsiya											Subvulkanik fatsiya	
	riodatsit va riolit lavalari			riodatsit (porfir) va riolit ekstruziv gumbazlari				riolitlar (nekkdan)						nordon tarkibli inyeksion tuffizit daykasi	riolit daykalari (eruptiv)	
	(KM-145)	(KM-182)	(KM-213)	(KM-147)	(KM-148)	(KM-149)	(KM-151)	(KM-150)	(KM-203)	(KM-204)	(KM-205)	(KM-212)	(KM-214)	(KM-219)	(KM-19)	(KM-146)
	1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**	**11**	**12**	**13**	**14**	**15**	**16**
SiO_2	75,99	79,20	72,85	70,00	77,24	71,41	77,11	75,39	79,41	78,98	79,66	74,97	76,96	73,58	80,74	75,87
TiO_2	0,08	0,33	0,07	0,12	0,02	0,30	0,06	0,12	0,06	0,03	0,03	0,04	0,05	0,18	0,29	0,11
Al_2O_3	10,96	9,94	12,43	14,18	10,94	12,88	10,45	11,96	10,11	10,66	11,17	13,08	11,96	12,46	7,52	10,86
Fe_2O_3	1,03	0,42	0,95	0,94	0,53	1,34	0,64	1,77	0,53	0,84	0,84	0,57	0,83	1,42	2,81	1,48
FeO	0,93	1,51	0,72	1,08	1,06	1,87	0,72	0,36	0,29	0,36	0,36	1,44	0,65	m.y.	m.y.	1,08
MgO	1,11	1,41	1,21	1,41	2,73	1,11	1,11	0,81	0,71	0,81	0,50	0,60	1,11	1,17	1,41	1,91
MnO	0,02	0,04	0,03	0,01	0,07	0,05	0,01	0,02	0,11	0,02	0,02	0,03	0,03	0,10	0,43	0,19
CaO	0,70	0,50	1,12	0,50	0,47	0,70	0,50	0,56	0,50	0,50	0,56	0,56	0,50	1,16	0,49	0,50
Na_2O	0,29	2,89	2,77	1,88	3,42	3,36	0,39	2,86	0,42	1,26	0,76	4,28	2,46	2,70	1,08	0,76
K_2O	6,00	2,51	4,60	8,52	1,05	4,67	7,30	4,00	6,00	4,93	4,00	2,92	3,40	3,30	1,88	4,06
P_2O_5	0,03	0,05	0,05	0,03	0,07	0,07	0,03	0,04	0,04	0,06	0,05	0,05	0,05	0,19	0,17	0,04
SO_3	0,10	0,10	0,10	0,10	0,01	0,10	0,10	0,10	0,10	0,10	0,10	0,10	0,10	0,31	0,01	0,10
S	0,10	0,10	0,10	0,10	0,01	0,10	0,26	0,10	0,14	0,18	0,19	0,10	0,10	0,02	0,11	0,10
H_2O	0,36	0,16	0,25	0,25	0,34	0,32	0,20	0,25	0,21	0,26	0,26	0,16	0,31	m.y.	m.y.	0,58
CO_2	0,20	0,22	1,16	0,20	0,80	0,22	0,20	0,20	0,20	0,20	0,20	0,20	0,20	m.y.	m.y.	0,20
Q.q.q.	1,94	0,80	2,28	0,85	1,57	1,30	1,24	1,14	1,36	1,32	1,92	0,92	1,64	1,60	1,54	2,66
Jami	99,84	100,18	100,69	100,17	100,33	99,80	100,32	99,68	100,19	100,51	100,62	100,02	100,35	98,19	98,48	100,50
Petrokimyoviy koeffitsiyentlar																
Na_2O+K_2O	6,29	5,40	7,37	10,40	4,47	8,03	7,69	6,86	6,42	6,19	4,76	7,20	5,86	6,00	2,96	4,82
Na_2O/K_2O	0,05	1,15	0,60	0,22	3,26	0,72	0,05	0,72	0,07	0,26	0,19	1,47	0,72	0,82	0,57	0,19
Mg#	36,18	42,17	42,00	41,09	63,14	25,67	44,92	27,55	46,46	40,29	29,40	22,97	42,88	45,17	33,46	42,72
K_f	63,82	57,83	58,00	58,91	36,86	74,33	55,08	72,45	53,54	59,71	70,60	77,03	57,12	54,83	66,54	57,28
al'	3,57	2,97	4,31	4,13	2,53	2,98	4,23	4,07	6,62	5,30	6,57	5,01	4,62	4,81	1,78	2,43
f'	3,17	3,71	2,98	3,56	4,41	4,67	2,54	3,08	1,70	2,06	1,75	2,69	2,67	2,87	4,94	4,77
F	1,10	0,27	1,32	0,87	0,50	0,72	0,88	4,91	1,82	2,33	2,33	0,39	1,27	-	-	1,37


Jadvalga izoh: Na_2O+K_2O (ishqorlilik), Na_2O/K_2O (seriya), Mg# = $(MgOx100)/(MgO+Fe_2O_3+FeO)$ (magneziallilik), $K_f = (Fe_2O_3+FeO)x100/(Fe_2O_3+FeO+MgO)$ (temirlilik), al' = $Al_2O_3/(Fe_2O_3+FeO+MgO)$ (glinozemlilik), f' = $Fe_2O_3+FeO+MgO+MnO+TiO_2$ (femiklilik), F = Fe_2O_3/FeO (oksidlanganlik).




1-rasm. Qizilmachit paleovulqoni jinslarining TAS (a), Na_2O-K_2O (b, Middlemost 1975 b-cha); AFM (d) diagrammalarida joylashuvi. 1 – riodatsit, riodatsit porfirlar; 2 – kvarsli porfirlar [2]; 3 – riolitlar: - riolit ekstruziv gumbazlari; - riolit eruptiv daykalari va boshqalar; 4 – vulkanoklastlar, kvarsli-, -datsit, -sferolit porfirlar, kvarsli porfirlar, kvarsli keratofirlar va boshqalar [1].

Buning uchun burmalangan mintaqalar rivojlanishining geodinamik sharoitlarini ko‘rsatuvchi granitiodlar uchun taklif etilgan Y–Nb va (Y+Nb)–Rb, Yb–Ta va (Yb+Ta)–Rb diskriminant diagrammalaridan foydalanildi (2-rasm) [4]. Natijada Y–Nb va Rb–(Y+Nb), Yb–Ta va Rb–(Yb+Ta) diagrammalarida Qizilmachit paleovulqoni jinslari vulqon orollari va qisman sinkolliziya rivojlanish sharoitlariga xos bo‘lgan vulkanitlar maydonlarida joylashgan.

1)



2)



2-rasm. 1) Qizilmachit paleovulqoni nordon vulkanitlarining Y-Nb va (Y+Nb)-Rb, Yb-Ta va (Yb+Ta)-Rb diskriminant diagrammalarida joylashishi (Harris va b., 1986 bo‘yicha); 2) Qizilmachit paleovulqoni nordon vulkanitlarining Ta/Yb-Th/Yb va Ta/Hf-Th/Hf, Ta-Th va Yb-Th/Ta diskriminant diagrammalarida joylashishi (Schandl va Gorton, 2002 bo‘yicha)

Bundan paleovulqoni jinslari sinkolliziya sharoitida – vulkanik orol yoylari bilan kontinentning faol chetining o‘zaro to‘qnashuvi sababli sodir bo‘lgan “Tinch okeaning g‘arbiga xos” vulqon jaroyonlariga mansubligini ko‘rsatdi.

Ta/Yb–Th/Yb, Ta/Hf–Th/Hf, Ta–Th va Yb–Th/Ta diskriminant diagrammalarida [5] ham ushbu paleovulqon jinslarining egallagan maydonlari ularni kontinentning faol chekkalariga xos vulqon jarayonlari mahsullari ekanligini tasdiqladi.

XULOSA. Qizilmachit paleovulqoni shakllanishining geodinamik sharoitini aniqlash uchun dala geologik-qidiruv ishlarida olingan namunalarning kimyoviy tahlillari o‘tkazilgan, ularning petrokimyoviy koeffitsiyentlari hisoblangan, petrokimyoviy tasniflash hamda geokimyoviy diskriminant diagrammalar tuzilgan.

Petrokimyoviy koeffitsiyentlariga ko‘ra ushbu vulqon fatsiyalarining jinslari nordon vulkanik jinslarning kaliy-natriyli va kaliyli seriyalariga tegishli bo‘lib, yuqori va juda yuqori glinozyomlik qatoriga mansubligi aniqlangan.

Geokimyoviy diskriminant diagrammalarni qo‘llab Qizilmachit paleovulqoni jinslari sinkolliziya sharoitida – vulkanik orollar yoylari bilan kontinentning faol chetining o‘zaro to‘qnashuvi sababli sodir bo‘lgan – “Tinch okeaning g‘arbiga xos” vulqon jaroyonlariga mansubligi asoslangan. Natijada ushbu paleovulqon petrofondi bazalt-andezit-dasit-riolit formatsiyalar qatoriga mansub jinslardan iboratligi hamda ular bilan “oltoy turi”dagi qo‘rg‘oshin-rux-mis ma’danlashuvni bog‘liqligidan darak beruvchi geokimyoviy ixtisoslashuv aniqlangan. Oltoy turidagi kolchedan konlari ensial orol yoylari (yer qobig‘ining subduksiya zonalari ustidagi granit-gneysli po‘stida hosil bo‘lgan) bilan chegaralangan vulkanik faol belbog‘larda (poyaslarda) joylashganligini hamda bugungi kunda jahon miqyosida qazib olinayotgan mis, rux va qo‘rg‘oshinning nafaqat salmoqli qismi (10-15%), balki oltin, kumush va nodir yer metallarining ham sezilarli miqdori to‘g‘ri kelishini hisobga olib, Qizilmachit paleovulqoni hududini ilmiy asoslangan mufassal izlash va baholash ishlarini olib borish uchun istiqbolli maydon sifatida tavsiya etish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Далимов Т.Н., Кустарникова А.А., Ярмухамедов А.Р. и др. Вулканогенные формации Узбекистана. - Т.: Фан, 1971. - 280 с.
2. Хамрабаев И.Х. Каталог интрузивных массивов Узбекистана. Часть II. Ташкент: Фан, 1975. – С. 337-338.
3. Шаякубов Т.Ш., Далимов Т.Н., Арапов В.А., Шпотова Л.В., Коржаев В.П. Вулканизм Западного Тянь-Шаня. Ташкент: Фан, 1988. 328 с.
4. Harris N.B.W., Pearce J.A., Tindle A.G. Geochemical characteristics of collision- zone magmatism. In: Coward M P, Ries A C (eds) Collision Tectonics (1986). Geological Society London Special Publication 19, pp 67-81.
5. Schandl, E.S., and Gorton, M.P. Application of high field strength elements to discriminate tectonic settings in VMS environments: Economic Geology, 2002, v.97, p.629–642.

ПЕТРОГЕНЕТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ЗОЛОТОРУДНОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ МУРУНТАУ В СВЕТЕ СОВРЕМЕННЫХ ДАННЫХ

Антонов А.Е.*, Егорова Л.А.**

**Институт геологии и геофизики им. Х.М. Абдуллаева*

***АО «Навоийский горно-металлургический комбинат»*

Аннотация. Мурунтауское рудное поле с крупнейшим месторождением золота размещается на пересечении двух структурных трендов - Мурунтау-Айракского и Мурунтау-Даугызтауского. Первый из них связан с сутурной зоной закрывшегося

Туркестанского палеоокеана, что является одним из благоприятных факторов для поступления рудоносных флюидов. До закрытия океана рудное поле находилось в зоне субдукции, в которой имели место структурно-метаморфические преобразования пород, их дегидратация, миграция выделяющейся подвижной фазы вдоль зоны поддвига и рудоотложение в швах надвигов, и коллизионно-транспрессионных нарушениях. Среди всех предлагаемых петрогенетических моделей предпочтение отдается субдукционно-коллизионно-гидротермальной модели.

Изучение деталей геологического строения крупнейшего месторождения золота Мурунтау, как и разработка его петрогенетических моделей, стали предметом пристального внимания исследователей со времени его открытия (1958 г.)

К середине 1990-х гг была завершена разведка мегаштокверка Мурунтау, пробурены несколько глубоких и одна сверхглубокая (4294 м) скважины, завершены первые три очереди отработки месторождения. В капитальной монографии «Золоторудное месторождение Мурунтау» [4] были изложены результаты этого первого этапа его изучения, были предложены более десяти петрогенетических моделей его формирования. К настоящему времени появились новые данные, позволяющие верифицировать ранее предложенные гипотезы. Нами был проведен структурный анализ, который включал изучение взаимосвязей стратиграфических единиц, блоковой тектоники, с использованием данных сейсмо-, грави- магниторазведки и были выделены структурные тренды - Мурунтау-Айракский и Мурунтау-Даугызтауский - пересечением которых определяется локализация Мурунтауского рудного поля [1].

Мурунтау-Айракский золоторудный тренд включает рудные тела Мурунтау и Мютенбая в палеозойской части возвышенности Тамдытау, а далее в восток-юго-восточном направлении - вскрытые бурением под мезо-кайнозойским чехлом минерализованные зоны месторождения Триада (Чукуркудук) и вытянутые в этом же направлении геохимические ореолы золота и мышьяка, выявленные картировочным геохимическим бурением в фундаменте Сардаринской впадины (М.Т.Хон и др., 1994).

Сопровождающим этот тренд дизъюнктивным нарушением является изгибающаяся в восток-юго-восточном направлении ветвь субширотного Южного разлома.

Мурунтау-Айракский тренд, тяготеющий к сутурной зоне закрывшегося Туркестанского океана и зоне Северо-Нуратинско-Кызылкумского глубинного разлома, можно считать основным структурным трендом Центрально-Кызылкумского рудного района. Согласно И.Х.Хамрабаеву, а также П.Ф.Иванкину и др. Северо-Нуратинско-Кызылкумский разлом имеет глубинное, верхнемантийное заложение и, наряду с Южно-Ферганским разломом, принадлежит к граничной зоне между Срединным и Южным Тянь-Шанем, что соответствует сутурной зоне закрывшегося Туркестанского океана на границе с Казахским микроконтинентом.

Этот тренд прослеживается на 45-50 км от Мурунтау к ВЮВ до сочленения с Ширикгинской зоной смятия на севере возвышенности Аристантау, которую можно отнести к единому типу структур с «парными разломами» Мурунтауского рудного поля.

Мурунтау-Даугызтауский тренд северо-восточного простирания, поперечный к продольным структурам Северо-Нуратинско-Кызылкумского глубинного разлома и сутурной зоне Туркестанского полеоокеана, был выделен U.Kempe и др. [1], а ранее С.Н.Паком и был назван «сквозной Даугызтау-Амантайтау-Мурунтауской региональной рудоконтролирующей структурой повышенной проницаемости (шириной 4-8 км)».

Корреляционный метод преломленных волн (КМПВ) подтвердил местоположение стержневого разлома Мурунтау-Даугызтауского золоторудного тренда [1].




Рис. 1. Положение Мурунауского рудного поля в Кызылкумском рудном районе.
Составил А.Е.Антонов на основе карты месторождений полезных ископаемых Республики Узбекистан. Авторы: В.В. Михайлов, В.В. Чирикин, Н.Г. Саидова, Б.И. Пинхасов, 2017 год. 1 – Контур Мурунтауского рудного поля; 2 – Золоторудные тренды: А – Мурунтау-Айракский, Б – Мурунтау – Даугызтауский. Прочие условные обозначения – см. Карту месторождений полезных ископаемых Узбекистана

Изучение региональной структуры базировалось на положениях тектоники плит, на реставрации истории формирования Туркестанского палеоокеана, включающей процессы субдукции, коллизии литосферных блоков. Даугызтауский разлом, «Центральный» разлом на месторождении Амантайтау и «Северо-Восточный» разлом на месторождении Мурунтау являются фрагментами стержневого разлома Мурунтау-Даугызтауского структурного тренда, служившего каналом поступления гидротермальных растворов. Этот стержневой разлом может быть отнесен к категории рудоподводящего, по классификации В.И.Смирнова.

Пересекающиеся с ним субширотные разломы и зоны трещиноватости следует отнести к категории рудораспределяющих и рудовмещающих. В результате в процессе рудообразования сформировался мегаштокверк Мурунтау с сочетанием пологозалегающих субсогласных и кру- топадающих секущих рудных зон.

В настоящее время при оценке перспектив северо-восточного фланга рудного поля (участок Чукур) наибольшее значение следует придавать пологозалегающим минерализованным зонам, возможно, шарьяжной природы, с которыми связаны интервалы с высокими содержаниями золота значительной мощности.

В процессе изучения месторождения разными авторами было предложено более десятка петрогенетических моделей [2, 4]. В ходе их разработки учитывались следующие факторы:

- глубинность процессов рудообразования (внутрикоровые; мантийно-коровые; верхнемантийные; глубинно-верхнемантийные);
- тип геотектонической обстановки;
- источники золота и сопровождающих компонентов;
- источники рудообразующего раствора;

- состав рудообразующего раствора;
- среда отложения;
- взаимодействие с вмещающими породами;
- термодинамическая обстановка рудоотложения и некоторые другие.

Что касается источников золота и сопровождающих компонентов, то большинством авторов признается полигенность источников, к которым в первую очередь отнесена верхняя мантия (астеносферный слой) и нижняя часть литосферы с градиентными геохимическими полями (Au, Hg, платиноиды, калий); а также очаги нижнекорового эклогитового метасоматоза; наряду с коровыми осадочно- метаморфическими формациями. Согласно доминирующему мнению [2], образование месторождения обязано деятельности интрателлурического мантийного флюида.

Авторы монографии [2] предложили также интегральную геолого-генетическую модель, в которой проанализировано участие 12 рудообразующих факторов, включая дискуссионные. В числе этих факторов повышенная золотоносность пород бесапанской свиты (золото в сульфидах и углеродистом веществе), мантийные или интрателлурические газо-флюидные потоки, обусловившие углеродисто-сульфидный метасоматоз, полигенность источников золота, геохимический парагенезис золота с калием, калий-натрий-хлоридно-углекислотно-углеводородный состав флюида на основе изучения ГЖВ, в котором участвуют смешанные воды: морская, реликтовая, метаморфическая, ювенильная, метеорная, глубинный аномальный тепловой поток в центре месторождения, взаимодействие восходящего флюида с вмещающими породами, температурный интервал минералообразующих процессов в интервале 600-450 - 200-150°.

Согласно Sm–Nd, Rb–Sr и K–Ar определениям, временной интервал формирования золотоносных калиевых метасоматитов и высокотемпературных золоторудных жил составляет 275–280 млн лет, по Kempe, 2016. При этом основной этап продуктивной гидротермальной деятельности оторван от времени внедрения гранитоидов первого этапа – 286.1 ± 1.2 млн лет, будучи связан с образованием магматических пород второго этапа – 273.1 ± 1.6 млн лет

С учетом этого Ю.С.Савчуком с соавт [3] разработана субдукционно-гидротермальная модель рудообразования, которая учитывает структурно-метаморфические преобразования пород, их дегидратацию в зоне субдукции, последующую миграцию выделяющейся подвижной фазы (флюид, расплав) вдоль зоны поддвига и рудоотложение в швах надвигов, вязких разрывов и коллизионно-транспрессионных нарушениях в аллохтонных комплексах, слагающих аккреционную призму.

По данным Ю.С.Савчука [3], Туркестанский палеобассейн, располагавшийся на месте оставшегося залива Палеоазиатского океана, разделял южную окраину Казахстано-Киргизского микроконтинента (Срединный Тянь-Шань) и Алай-Таримский микроконтинент. В среднем–позднем карбоне произошло закрытие Туркестанского палеоокеана в результате субдукции в северном направлении под Срединный Тянь-Шань.

На месте закрывшегося бассейна сформировалась Южно-Тяньшанская многопокровная аккреционная призма шириной 140–180 км. Выделяется несколько этапов каледонской, герцинской и киммерийской деформаций, включавшие субдукционный, коллизионный и транспрессионный режимы.




Рис. 2. Положение месторождения Мурунтау во время коллизии Казахстано-Киргизского и Алай-Таримского микроконтинентов C-P$_1$. (по Ю. С. Савчуку и др., 2018). 1 – реликты офиолитов Туркестанского палеобассейна €-C$_2$b; 2 – месторождение Мурунтау.

Согласно этой концепции, субдукционно-гидротермальные рудообразующие системы возникали на завершающей стадии развития окраинных палеобассейнов, и продукты их деятельности фиксируются в виде орогенных месторождений золота в складчатых поясах.

По зоне поддвига на контакте плит может происходить поступление мантийных флюидов и смешивание их с выделившимися при динамотермальном метаморфизме гидротермами.

По прогнозным построениям [1, 3], глубокие горизонты к востоку от месторождения выдвигаются в качестве перспективных на слепое оруденение. Геологоразведочные работы Навоийского комбината подтверждают наличие слепых рудных тел на глубинах 1500 – 2000м (участок Чукур).

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Антонов А.Е. Современное понимание геологической структуры Мурунтауского рудного поля, возможности увеличения запасов // Геология и минеральные ресурсы, 2024, №2, с. 42-52

2. Золоторудное месторождение Мурунтау / Гл. редак. Шаякубов Т.Ш. Ташкент: ФАН, 1998. 539 с.

3. Савчук Ю. С., Асадулин Э. Э., Волков А. В. и др. Уникальное месторождение золота Мурунтау(Узбекистан): Геодинамическая позиция и происхождение рудообразующей системы // Геология рудных месторождений, 2018, том 60, № 5, с. 413–447.

4. Groves D., 5 M., Deng J. et al, A holistic model for the origin of orogenic gold deposits and its implications for exploration. In Mineralium Deposita**.** Volume 55, # 2, 2019. pp 56-65.

ПЕТРОЛОГО-ГЕОХИМИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ МЕДНО-МОЛИБДЕНОВЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ АЛМАЛЫКСКОГО ГОРНОРУДНОГО РАЙОНА

Ахунджанов Р.*, Каримова Ф.Б.*
**Институт геологии и геофизики им. Х.М. Абдуллаева, e-mail: karimova.ingeo@mail.ru*

Аннотация. Согласно изучению материалов геолого-петрографических разрезов раскрыта модель месторождения Кальмакыр.

Abstract. Based on the study of materials from geological and petrographic sections, a model of the Kalmakyr deposit has been revealed.

В Срединном Тянь-Шане диориты, субщелочные диориты и сиенодиоритыпространственно совмещены в промышленно-рудоносном Алмалыкском массиве. Они являются рудовмещающими и составляют 85% площади интрузива. Абсолютный возраст пород колеблется в пределах 322-284 млн. лет (C_2-P_1) [2]. И.Х. Хамрабаевым(1969 г.) установлена определяющая роль в формировании руд самых апикальных частей штоков малых интрузий, сложенных породами, характерными чертами которых является монцонитоидный и гранитоидный состав; пироксен-роговообманковый, роговообманковобиотитовый парагенезис низкожелезистыхфемических минералов, повышенная основность, железистость и щелочность самих пород; превышающие кларки (2-5 раз) содержания меди, молибдена, свинца и цинка; повышенные количества (1-3%) магнетита, пирита, халькопирита и пропилитизация вмещающих пород. Для Алмалыкского рудного района выявлена прямая корреляция между распределением меди и золота в осадочных, метаморфических, осадочно-вулканогенных породах нижнего-среднего палеозоя. Максимальные содержания этих элементов (меди - до 80 г/т, золота – до 0,01 г/т) в обогащенных углеродистым веществом сланцах и вулканитах, а также наблюдается относительная меденасыщенностьгранитоидов раннего-среднего карбона. В создании первичнорассеянных концентраций меди в гранитоидах определенную роль играла ассимиляция магмой вышеуказанных пород, формирование промышленных руд генетически связывается с малыми интрузиямигранодиорит-порфиров (кварцевых монцонит-порфиров) позднекарбоново-раннепермского возраста [3, 4, 6]. В районе известны также собственно молибденовые и золото-серебряные месторождения. Первые относят к продуктам постмагматической деятельности даек гранит-порфиров и штоков биотитовых гранитов ранней перми. Характер связи вторых с магматическими образованиями достоверно не установлен, но наблюдались факты пересечения поздних даек диоритовых порфиритов кварцевыми жилами с золотом и серебряным оруденением.

Проведенным геолого-петрографическим и минералого-геохимическим изучением нижних горизонтов карьера медно-молибденового месторождения Кальмакыр и керна разведочных скважин глубиной до 1 км нами получены новые данные, подтверждающие, а также несколько дополняющие известные сведения и суждения о происхождении пород Алмалыкского интрузива и медно-молибденового оруденения района. Геологическая среда формирования массива и месторождения ограничена (снизу вверх) андезитами, риолитами (D_1) и доломитами, известняками (D_2-C_1). Осадочно-метаморфическая толща нижнего палеозоя (O-S) не установлена. Отсутствие ее в разрезе является характерной чертой большинства медно-порфировых месторождений района (Кальмакыр, Сары-Чеку, Дальнее, Кыз-ата, Нижнее Каульды). Это выявлено как по поверхности, так и многочисленными скважинами [4], в том числе и опорными (глубиной до 3 км), пробуренными на месторождениях Нижнее Каульды и Дальнее. Вероятно, залегание песчано-сланцевых пород под экраном вулканитов (D_1) явилось благоприятным условием контаминации ими расплавов как рассмотренных выше основных ультрабазитов и габброидов, так и более

поздних интрузивов. Об этом свидетельствуют следующие факты. В юго-западной части Кураминской зоны в горах Моголтау И.Х. Хамрабаевым и др. [5] отмечено обилие не ассимилированных ксенолитов диаметром до 12-15 см, представленных пироксенитами, амфиболитами, слюдитами со сланцеватыми, узловатыми участками и роговиков, включенных в кварцевые диориты Сырдарьинского и Андыгенского массивов (C_2). Первый прорывает осадочно-метаморфические отложения силура-девона, известняки позднего девона - раннего карбона и перекрывается вулканитами среднего-позднего карбона. Следовательно, песчано-сланцевая толща не подстилает диоритовые интрузии и они не являются межформационными телами. Отсутствие терригенных пород в разрезе медно-порфировых месторождений объясняется широким проявлением процессов ассимиляции и контаминации. Реликты толщи ордовика-силура в виде мелких (до 3 мм) ксенолитов кристаллических и слюдяных сланцев установлены нами в диоритах, кварцевых диоритах и сиенодиоритах на месторождении Кальмакыр. Они составляют 10-40% пород и существенно влияют на их минеральный состав. При учете биотита и кварца ксенолитов в количественно-минеральном составе вышеуказанных пород количество биотита увеличивается в 2-8 раз, а кварца в 1,5-3 раза. Возможно, образование роговообманковых диоритов и кварцевых диоритов является следствием смешения первично основного расплава с материалом песчаников и сланцев ордовика-силура, как расплавленным, так и твердым. Дополнительным свидетельством этого является и наличие мелких ксеногенных чешуек биотита в роговых обманках. Обогащенность осадочно-метаморфических пород медью и золотом могла существенно повлиять на повышение потенциальной рудоносности контаминированных ими расплавов. Не исключается, подобно интрузивам пироксенитов и габброидов юго-западных отрогов Чаткальского хребта, первичная металлогеническая специализация основной магмы на медь и железо. Примером этого являются габброиды Акчинского, Карабаш-Шавазского и Беляутинского интрузивов, содержащие вкрапленное и прожилковое медное (с платиноидами, золотом) оруденение. Позднемагматический халькопирит, заполняющий межзерновые пространства в диоритах и сиенодиоритах, имеет широкое развитие и на месторождении Кальмакыр. Вкрапленный характер его ярко выражен в аналогичных породах месторождения Сары-Чеку и он более обилен в апикальной части штока сиенодиоритов (Туресебеков А.Х., 2002 г.; Туресебеков А.Х. и др., 1993 г.). Постоянным спутником халькопирита является самородное золото (пробность 700), находящееся в виде микровключений. Следовательно, формирование вкрапленных медных руд (с золотом) можно считать в известной степени следствием загрязнения рудоносного основного расплава песчано-сланцевым материалом ордовика-силура, имевшим первичную обогащенность медью и золотом. Согласно Т.И. Фроловой (1989 г.) оно делается возможным при относительно невысоких температурах плавления ассимилируемых пород, связанных с интенсивным их обводнением. Этими явлениями обусловлено также образование в зонах субдукции интрузивов, сложенных роговообманковыми габбро (Г.Б. Ферштатер и др., 2004 г.). Усвоение основным расплавом осадочно-метаморфических образований ордовика-силура, представленных песчаниками, алевролитами и глинистыми сланцами, степень преобразования которых до становления Алмалыкского интрузива была вероятно гораздо ниже, привела к возникновению потенциально рудоносной диоритовой магмы. Наблюдаемые в ксенолитах кварц-биотитовые сланцы и роговики считаются продуктом контактового метаморфизма. Петрографическими исследованиями В.А. Жарикова, А.В. Покровского, Р.А. Мусина, Г.Х. Клиблея, И.М. Исамухамедова и др., Л.И. Шабынина и др. установлена превалирующая роль в образовании сиенодиоритов Алмалыкского интрузива кислотно-основного взаимодействия диоритового расплава с доломитами карбонатной толщи среднего девона - раннего карбона. Вскрытие карьерами и скважинами его апикальных, краевых и более глубоких частей делает очевидным, что центральные части массива сложены роговообманково-биотитовыми диоритами и кварцевыми диоритами. На нижних горизонтах карьера Кальмакыра (абс. отм. 500 м) наблюдаются вышеуказанные породы,

которые кверху постепенно сменяются сиенодиоритами. По всем скважинам, вскрывшим апикальные части интрузива под вулканитами раннего девона, установлено наличие диоритов и кварцевых диоритов.

Исходя из известных представлений предыдущих исследователей и новых материалов предполагаются нижеследующая петрологическая модель формирования Алмалыкского интрузива и месторождения Кальмакыр.

1. Внедрение основного расплава и контаминация его зараженным медью материалом песчано-сланцевых толщ ордовика-силура, андезитами, риолитами раннего девона и карбонатными породами среднего девона - раннего карбона. Кристаллизация диоритового интрузива с эндофацией сиенитов и сиенодиоритов, образованных в результате кислотно-основного взаимодействия с доломитами карбонатной толщи. Формирование позднемагматического вкрапленного медного (с золотом) оруденения в диоритах и сиенодиоритах, скарнового магнетитового (с медью) и скарнового свинцово-цинкового (при исходной обогащенности карбонатных пород полиметаллами) оруденения в приконтактовых частях диоритов, сиенодиоритов, гранодиоритов, адамеллитов и даек, сложенных порфировыми разновидностями этих пород.

2. Пропилитизация и образование регенерированных прожилково-вкрапленных медных (с золотом) руд под воздействием штоко- и дайкообразных малых интрузийадамеллит-порфиров и гранодиорит-порфиров позднекарбоново-раннепермского возраста.

3. Биотитизации и преобразование роговообманково-биотитовых пород интрузива в слюдяные диориты, слюдяные кварцевые диориты и слюдяные сиенодиориты в раннещелочную стадию, проявленную в связи с внедрением штока лейкогранитов в раннепермское время. Грейзенизация биотитизированных пород в его около интрузивных зонах в стадию кислотного выщелачивания. Образование молибденового (с вольфрамом) оруденения в стадию осаждения.

Аннотация. В результате петрографо-геохимических исследований с использованием оригинальных данных получена новая информация об условиях формирования гетерохронных полистадийных метасоматитов, сформированных по гранодиоритам, пространственно и генетически связанных с золотым оруденением. Проведенные исследования показали сложный характер телескопирования в пределах рудоносной зоны различных фаций метасоматитов с генерализованным обособлением во внешней зоне пропилитов, в промежуточной зоне альбит-кварцевых метасоматитов и во внутренней зоне скарноидов.

Annotatsiya. Dastlabki ma’lumotlardan foydalangan holda, petrografik-geokimyoviy tadqiqotlar natijasida oltin ma’danlashuvi bilan fazoviy va genetik jihatdan bog‘liq bo‘lgan hamda granodioritlar bo‘yicha shakllangan geteroxron ko‘p bosqichli metasomatitlarning shakllanish sharoitlari haqida yangi ma’lumotlar olindi. Olib borilgan tadqiqotlar propillitlarning tashqi zonasida, albit-kvarsli metasomatitlarning oraliq zonasida va skarnoidlarning ichki zonasida tarqalgan ajralish bilan turli xil metasomatit fatsiyalarining ma’danli zonasi doirasida teleskoplashning murakkab xususiyatini ko‘rsatdi.

Annotation. As a result of petrographic and geochemical studies using original data, new information was obtained on the conditions for the formation of heterochronous polystadial metasomatites formed on granodiorites, spatially and genetically related to gold mineralization. The conducted studies have shown the complex nature of telescoping within the ore-bearing zone of various metasomatite facies with generalized isolation in the outer zone of propyliths, in the intermediate zone of albite-quartz metasomatites, and in the inner zone of skarnoids.

В конце XX века рядом зарубежных исследователей (Lang J.R., Baker T., Hart C.J., Mortensen J.K.) на примере месторождений золота в металлогеническом поясе Тинтин (Аляска и север Канады) было предложено выделить новый, глобально распространенный класс плутоногенных месторождений (intrusion related), с локализацией рудных тел в интрузивах, для которых золото является ведущим металлом [1, 2].

С тех пор интерес в мире к месторождениям этого класса не ослабевает, подогреваемый успешной разработкой на Аляске месторождений Форт Нокс (250 т), Пого

(150 т), Донлин Крик (800 т). Следует отметить, что на территории бывшего Советского Союза известно большое количество детально изученных несколькими поколениями советских ученых крупных месторождений золота (более 100 т) в интрузивах гранитоидов (Березовское, Кочкарское и Джетыгоринское на Урале; Дарасунское в Забайкалье; Васильковское, Бестюбе, Акбокай в Казахстане; Чармитан в Узбекистане).

Основные характеристики золотого оруденения интраинтрузивного класса [3, 4]:

-локализация в металлогенических провинциях, ранее считавшихся специализированными на W и Sn, на которых проявлена неоднократная тектоно-магматическая активизация;

- приуроченность оруденения к субщелочным интрузиям от среднего до фельзитового состава с гибридной системой магм и щелочным мафическим компонентом;

- контроль оруденения сдвиговыми зонами, связанными с региональными разломами;

- тонкодисперсное золото в ассоциации с теллуридами золота, висмута и самородным висмутом во вкрапленных сульфидах; Au-Bi-Te геохимический парагенезис.

Также как пояс Тинтин, широтная структура, объединяющая серию малых гранитоидных тел в центральной части Зарафшано-Алайской структурно-формационной зоны, долгие годы считалась металлогенически специализированной в первую очередь на вольфрам. Золоту придавалось второстепенное значение и его поиски были сосредоточены в экзоконтактовых зонах гранитоидных интрузивов. Но в последнее десятилетие в результате проведения геолого-разведочных работ в Северо-Чакылкалянской подзоне малых гранитоидных интрузий были получены данные о потенциальной золотоносности магматических образований, что привело к открытию золотого месторождения Яхтон.

Золоторудные тела месторождения локализованы в пределах очаговой структуры глубокого заложения, в контурах которой интрузивные образования представлены породами двух комплексов: яхтонского гранодиоритового и южнотяньшаньского комплекса даек субщелочных габброидов и лампрофиров.

Яхтонский пермский гранодиоритовый комплекс является одной из наиболее широко распространенных ассоциаций интрузивных пород западной части Зарафшанского хребта. Породы комплекса в пределах Чакылкалянских гор слагают Ургутский, Яхтонский, Чаштепинский, Камангаранский и Ходжадыкский интрузивы, характеризующиеся малыми размерами и представляющие группу малых интрузий.

Многофазный Яхтонский интрузив с площадью выхода на поверхности около 0,8 км^2, в плане имеет в целом изометричную форму с большим количеством апофиз во вмещающие породы. Интрузив приурочен к узлу пересечения продольной структуры, служащей осевой частью зоны напряженной складчатости и смятия, с тектонически-ослабленными зонами субмеридионального, субширотного и СВ простирания. Разноориентированные разломы предопределили крупные сдвиговые перемещения и флексурный изгиб общей пликативной структуры, в результате которых было создано камерное пространство для интрузива.

Яхтонский интрузив относится к единому интрузивному комплексу и образовался в 3 последовательные фазы [5]: 1) мелкозернистые слабо порфировидные амфибол-биотитовые и биотит-амфиболовые кварцевые диориты; 2) мелко- и среднезернистые порфировидные мезократовые биотит-амфиболовые гранодиориты; 3) мелко – и среднезернистые порфировидные лейкократовые амфибол-биотитовые гранодиориты.

Гранитоидная серия даек Яхтонского интрузива представлена преимущественно аплитами, аплитовидными гранит-порфирами, лейкогранитами, мелкозернистыми гранитами и гранодиорит-порфирами. Дайки сформировались в конце становления всего комплекса и прорывают как Яхтонский гранитоидный интрузив, так и вмещающие его нижне-среднепалеозойские (вулканогенно)-терригенно-карбонатные толщи.

Дайки в основном северо-восточного, реже субмеридионального, направлений. Мощность даек варьирует от 0,4 м до 30 м, протяженнсть от нескольких десятков метров до 1,3 км (преобладающая протяженность 100-300 м) дайки.

Вся совокупность петрографических признаков указывает на принадлежность пород Яхтонского интрузива к единому магматическому комплексу, становление которого происходило в гипабиссальных условиях при относительно высокой температуре (600-700°С) [6].

В формировании структуры месторождения определяющим элементом являются разрывные нарушения северо-восточного простирания, которые трассируются тектоническими швами, сопровождаемыми катаклазом и брекчированием гранодиоритов и вмещающих их пород вулканогенно-осадочно-метаморфической серии, зонами сближенных сколовых трещин, дайками кислого и щелочно-габброидного состава; кварцевыми жилами и линейными зонами тонкопрожилкового окварцевания; линейными телами разнообразных метасоматитов.

Рудоносной структурой, контролирующей золотоносные минерализованные зоны месторождения Яхтон, является тектонически – ослабленная зона северо-восточного направления, прослеженная по простиранию на 1800 м при ширине 800-1000 м.

Золотоносные зоны прожилково-вкрапленного оруденения локализованы в тех же структурах, которые контролировали внедрение даек, как гранитоидного ряда, так и пород формации щелочных базальтоидов и лампрофиров. При этом, четко наблюдается структурное унаследование зон нарушений и метасоматической проработки.

Таким образом, для месторождения Яхтон установлен полистадийный характер золотого оруденения с телескопированием различных минеральных ассоциаций, отвечающих различным геохимическим парагенезисам [7]. Ведущим в рудобалансе золота является Au-Te-Bi парагенезис, сформированный за счет проявления разнообразных минералов висмута и теллура. Вторым по значимости выступает Au-Ag парагенезис, для которого золото-гесситовая, золото-серебрянная и собственно серебрянная минеральные ассоциации являются определяющими. Золото также отмечено в связи с пирит-арсенопиритовой минеральной ассоциацией (Au-As парагенезис).

Золотое оруденение в гранитоидах на месторождении Яхтон сопровождается формированием мощной зоны околорудно-измененных пород, сочетающей процессы диффузионно-инфильтрационного и околотрещинного метасоматоза. Диффузионно-инфильтрационныая природа метасоматоза определяет полиминеральность метасоматитов и отсутствие метасоматических жил.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Hart C.J., McCoy D.T., Goldfarb RJ et al. Geology, exploration and discovery in the Tintina gold province Alaska and Yukon // Soc. Econ. Geol. Spec. Publ. 2002. № 9. P. 241 - 274.
2. Lang J.R., Baker T. Intrusion-related gold systems the present level of understanding // Mineralium Deposita, 2001, v. 36, p.4.
3. Волков А.В., Савва Н.Е., Сидоров А.А. О плутоногенных месторождениях тонкодисперсного золота Северо-Востока России // ДАН. - 2007. - Т.412. - № 1. С.76-80.
4. Волков А.В., Черепанова Н.В., Прокофьев В.Ю. и др. Месторождение золота в гранитоидном штоке Бутарный (Северо-восток России) // Геология рудных месторождений. – 2013. – том 55. - № 3. – С. 214-237.
5. Даутов А. Минералого-геохимические критерии условий формирования и потенциальной рудоносности Кошрабадского и Яхтонского интрузивов (Зап. Узбекистан). Дис канд. г-м. наук. -Ташкент.: ИГГ АН РУз, 1974. – 186 с.
6. Жураев М.Н. // Условия локализации апометатерригенного и апогранитоидного вольфрамового оруденения Каратюбе-Чакылкалянского горно-рудного района // Автореферат дисс PhD по г.-м.н. Ташкент- 2020. – 54 с.

7. Сайитов С.С., Цой В.Д. Минералого-геохимические особенности и перспективы на комплексное оруденение месторождения Яхтон (горы Чакыл-Калян, Узбекистан) // Известия Томского политехнического института. Инжиниринг георесурсов. – Томск. 2023. Т. 334. № 9. С. 76-90.

III-SHU‘BA

MATEMATIK GEOLOGIYA. KRITIK MINERAL RESURSLAR KONLARINING SHAKLLANISHI VA JOYLASHISH QONUNIYATLARI

СЕКЦИЯ III

МАТЕМАТИЧЕСКАЯ ГЕОЛОГИЯ. ЗАКОНОМЕРНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗМЕЩЕНИЯ МЕСТОРОЖДЕНИЙ КРИТИЧЕСКОГО МИНЕРАЛЬНОГО СЫРЬЯ

SECTION III

MATHEMATICAL GEOLOGY. PATTERNS OF FORMATION AND LOCATION OF DEPOSITS OF CRITICAL MINERAL RAW MATERIALS

CHUMAUK I VA CHUMAUK II UCHASTKALARI QUYI GORIZONTLARIDA OLTIN MA’DANLASHUVINING I STIQBOLLARI (QIZILOLMASOY MA’DANLI MAYDONI)

Amirov E.M.*, Xakimov Sh.S.*, Mamirov N.M.**
**“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ, Toshkent MGQE, O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, E-mail: elyor_amirov@mail.ru*
***Geologiya fanlari universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi.*

Annotatsiya. Qizilolmasoy ma’danli maydoni Chumauk I va Chumauk II uchastkalari quyi gorizontlarida oltin ma’danlashuvining tarqalishi bo‘yicha olingan natijalar va asosiy xulosalar keltirilgan. Quyi gorizontlaridagi ma’danlashuvning miqdoriy xususiyatlari ochib berilgan.

Аннотация. Приведены результаты и основные выводы, полученные по распространению золотого оруденения в нижних горизонтах Кызылалмасайского рудного поля на участках Чумаук I и Чумаук II. Раскрыты количественные характеристики оруденения в нижних горизонтах.

Abstract. The results and main conclusions obtained regarding the distribution of gold mineralization in the lower horizons of the Qizilolmasoy ore field at the Chumauk I and Chumauk II sites are presented. The quantitative characteristics of mineralization in the lower horizons are revealed.

Bugungi kunda asl metalli konlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, jumladan, ularning geokimyoviy, metasomatik xususiyatlarini, ma’dandor strukturalarning turlarini o‘rganish, ularni izlashning geokimyoviy-mineralogik mezonlari, belgilari hamda joylashuv qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida yangi oltin konlarini izlab topishga, ularni qazib olish hajmlarini ko‘paytirilishiga hamda Respublikaning mineral-xom ashyo zahiralarining ortishiga hizmat qiladi. Geologik tadqiqotlarning barcha bosqichlarida alohida konlardagi ma’danlar tarkibini tahlil qilish va struktura-teksturaviy belgilarini, ma’dan hosil qiluvchi mineral majmualarining shakllanish


ketma-ketligini, asosiy va hamrox elementlarning tarqalish xususiyatlarini ochib berish ma’dan tanalarining hosil bo‘lishi haqida tushunchalarni shakllantirishda yetakchi o‘rinni egallaydi [1].

Tadqiqot ishlari olib borilayotgan Qizilolmasoy ma’danli maydoni va uning uchastkalari ma’muriy jihatdan Toshkent viloyatining Ohangaron tumani hududidan oqib o‘tuvchi Ohangaron daryosining o‘ng qirg‘og‘ida, Chotqol tog‘ tizmasining janubiy-g‘arbiy qismida joylashgan.

Qizilolmasoy ma’danli maydon hududi 40 km^2 ni tashkil etib, shu nom bilan ataluvchi kon regional planda geotektonik jixatdan Shovoz-Dukent vulqonogen-tektonik grabeni bilan Dukent-Go‘shsoy chuqur yer yorig‘ining meridianal yo‘nalishdagi kesishgan joyida hosil bo‘lgan. Ma’danli maydon va kon hududida ikkita strukturali qavat mavjud. Quyi strukturali qavat - granitoidlar, turli tarkibli dayka va shtoklardan, yuqori strukturali qavat - Aqcha majmuasining andezit-datsit tarkibli vulqonogen jinslardan iborat [1,2].

Ma’danli maydon hududida Markaziy, Mejdureche, Samarchuk, Chumauk I, Chumauk II, Tuyachavul, Shimoliy-G‘arbiy, Orayliq, Qirrali, Uchbuloq kabi oltin ma’danli uchastkalar mavjud. Ushbu uchastkalardan hozirgi kunda Chumauk I, Chumauk II, Tuyachavul, Shimoliy-G‘arbiy kabi uchastkalarda sanoatbop oltin ma’danlashuvi aniqlangan bo‘lib, izlash va baholash ishlari davom ettirilmoqda.

Tadqiqot obyekti bo‘lgan Chumauk I va Chumauk II uchastklari Qorabog‘ soyining quyi oqimi va o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan bo‘lib, uchastka to‘g‘ridan-to‘g‘ri Qorabog‘ qishlog‘iga tutashgan. Uchastka maydoni 3,68 km^2. Angren shahri bilan asfalt yo‘l (5 km) bilan bog‘langan. Uchastkalar Qizilolma konining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan bo‘lib hozirgi kunda Qizilolmasoy ma’danli maydonidagi muhim o‘rganilayotgan obyektlardan biri hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Chumauk I, Chumauk II uchastkalarining geologik sxematik xaritasi
(M.O.Suleymanov, O.V.Beloplotov, N.F.Rafiqov va b. 1969; V.V.Pomortsev va b. 2021).
1-to‘rtlamchi davr yotqiziqlari; 2-ohaktosh; 3-tufo andizit-datsit; 4-sienito-dioritli porfirit; 5-dioritli porfirit; 6-granit-porfir; 7-gabbro; 8-felzit; 9-granit; 10-granodiorit; 11-slaneslar; 12-kvars tomiri; 13-karbonat tomiri; 14-kuchli kvarslashgan zonalar (kvars 30-50%);
15-gidrotermal o‘zgargan jinslar.

Uchastka maydoni intruziv va effuziv jinslaridan tashkil topgan. Intruziv tog‘ jinslaridan eng keng tarqalgani slyudali granitlardir. Effuziv tog‘ jinslari esa andezit-datsitli tuflardan tashkil topgan bo‘lib, intruziv tog‘ jinslari ustini qoplab turadi (Pomorsev V.V. va b., 2021).

Ma’dan zonasining shakli juda oddiy, plitasimon, yuzasining relyefi va pastki qismi tekislangan, ko‘ndalang kesimda tasmasimon ko‘rinishga ega. Kvarslashgan oltin ma’danlashuvi granit va effuziv jinslarning tektonik chegarasida hosil bo‘lgan. Zonaning yo‘nalishi shimoliy-sharqiy, shimoliy-g‘arbga qarab 20-35° burchak ostida yotadi, qalinligi 5 metrdan 169 metrgacha bo‘lib, o‘rtacha qalinligi 10-12 metrni tashkil etadi. Ma’danli zonaning uzunligi 800 metrgacha, yotishi bo‘yicha 500 metr chuqurlikgacha o‘rganilgan.

Ma’danli zonaning 65-70% ni turli davrlarda hosil bo‘lgan kvars tashkil qiladi. Sulfidlar notekis tarqalgan bo‘lib, tog‘ jinsi tarkibida 3,5-4% ni tashkil qiladi. Asosan pirit, kam hollarda xalkopirit, galenit, sfalerit kabi sulfid minerallari uchraydi (Soy V.D. va b., 2021).

Uchastkalarda asosiy ma’dan zonalari Qorabog‘ zonasida hosil bo‘lgan va ushbu zona uchastkalar maydonini ikki blokga ajratadi. Qorabog‘ yer yorig‘ining shimoliy-g‘arbiy qismi Aqcha svitasining andezit-datsitli vulqon tog‘ jinslaridan iborat bo‘lib, ularning qalinligi 200 metrdan 400 metrgacha yetadi. Janubiy-sharqiy qismida metamorfik slaneslar blokidagi ksenolitli granitoidlar mavjud bo‘lib, ular tarkibida ko‘p sonli daykalar va turli tarkibdagi jinslarning kichik shtok shaklidagi tanalari uchraydi.

Hududdagi ma’danlashuvning bosh omili hisoblanadigan Qorabog‘ ma’danli zonasining uzunligi tahminan 3 km ni tashkil etadi. Yo‘nalishi shimoliy-sharqiy (45-80º), shimoliy-g‘arbga qarab 30-45º burchak ostida yotadi. Uchastka hududining yer yuzasi (1,7 km) zona qalinligi 1-3 metrdan 17 metrgacha bo‘lgan kvars tomirlari va gidrotermal o‘zgargan tog‘ jinslaridan tashkil topgan. Qorabog‘ ma’danli zonasining g‘arbiy va shimoliy-sharqiy qanotlari yer yuzasiga kam chiqgan bo‘lib, gidrotermal o‘zgargan jinslardan iborat. Geologik tuzilishi, zonaning morfologiyasi va minerallashuvning rivojlanishiga ko‘ra Qorabog‘ ma’danli zonasi Samarchuk uchastkasining “Oltin tomiri”ga o‘xshashdir (Xakimov Sh.S. va b., 2025) .

Chumauk I va Chumauk II uchastkalarida 1964-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan davr oralig‘ida Y.P.Yakimov, S.Y.Sushensova, Y.V.Borodin, O.V.Beloplotova, M.O.Suleymanov, N.A.Yeroxin, V.P.Simonenko, V.F.Ryabinin, N.F.Rafikov, V.V.Pomortsev, M.M.Djumakulov, D.A.Ermatov, B.M.Xidirov, S.M.Amirov va boshqalar tomonidan geologik qidiruv ishlari olib borilgan va hozirgi kunda M.M.Djumakulov, B.M.Xidirov, Xakimov Sh.S. va boshqalar tomonidan davom ettirilmoqda. Qidiruv ishlarida Qorabog‘ ma’danlashuv zonasida 1, 1a, 2, 2a 3, 3a-sonli ma’dan tanalari aniqlanib, zaxiralar va bashorat resurslari hisoblangan.

Keyinchalik uchastkaga qo‘shni, oltin zaxirasi yuqori bo‘lgan Samarchuk uchastkasida yuqori ma’danlashuv mutloq chuqurlik +1000 dan +700m gacha bo‘lgan oraliqda aniqlanganligi [5] va Chumauk I va Chumauk II uchastkalarining asosiy ma’dan hosil qiluvchi – Qorabog‘ yer yorig‘i uzunligining 2/3 qismida hali burg‘ulash ishlari orqali o‘rganilmaganligi hisobga olinib, aniqlangan ma’dan tanalari davomidagi ma’danlashuv mutloq balandligi +1100 dan +600 m gacha chuqurlikda bo‘lishi mumkinligi bashorat qilinib, geolgik qidiruv ishlarini davom ettirish tavsiya etilgan (Pomorsev V.V. va b., 2021). Bundan tashqari Qizilolma konining Markaziy, Mejdureche va boshqa uchastkalarining ham quyi gorizontlarini o‘rganishga tavsiyalar berilgan [3,4].

Ushbu tavsiyalar asosida 2022-yilda Sharqiy-Qurama DE ning “Qizilolmasoy ma’danli maydoni Chumauk I va Chumauk II uchastkalaridagi Qorabog‘ ma’danli zonasining yon bag‘irlari va quyi gorizontlarida oltin ma’danlashuvini izlash” loyihasi tuzilib, geologik qidiruv ishlari boshladi.

Loyiha bo‘yicha olib borilgan ishlarda ma’dan tanalarining hali o‘rganilmagan yon tomonlari va chuqur gorizontlarini yer yuzasidan chuqurligi 500 dan 1000 m gacha bo‘lgan burg‘i quduqlari burg‘ilash yordamida o‘rganildi. Burg‘ilash ishlari zamonaviy DBC S-15, RX-4 kabi burg‘ilash uskunalarida olib borildi. Ishlar natijasida Chumauk I uchastkasi hududida oltin ma’danlashuvining chuqur gorizontlarga tomon davom etmaganligi aniqlandi. Chumauk II uchastkasi hududida esa 2022-2025-yillarda burg‘ilangan burg‘i quduqlaridan olingan namunalar

ustida o‘tkazilgan laboratoriya tahlil natijalariga ko‘ra 2a, 3, 3a va 3b-sonli ma’dan tanalarining yangi sanoatbop kesishmalari, shuningdek 2b-sonli yangi ma’dan tanasi aniqlandi (1-jadval).

Probir tahlil natijalariga ko‘ra begona jinslar bilan birga kvars minerali tarkibida oltin miqdori 1,79-22,73 g/t; kumush miqdori tahlil uskunasining eng kichik o‘lchovidan <5,0-80,12 g/t. Eksploziv brekchiya tarkibida oltin miqdori 1,07-1,7 g/t; kumush miqdori tahlil uskunasining eng kichik o‘lchovidan (<5,0) past. Kvars tomirlari bilan birga metasomatik kvarslashgan granitda oltin miqdori 3,38-4,6 g/t; kumush miqdori <5,0-5,2 g/t. Metasomatik kvarslashgan granitda oltin miqdori 3,37 g/t; kumush miqdori tahlil uskunasining eng kichik o‘lchovidan (<5,0) past. Tarkibida kvars tomirlari bilan birga granitda oltin miqdori 0,28-0,31 g/t; kumush miqdori tahlil uskunasining eng kichik o‘lchovidan (<5,0) past. O‘zgarishga va kuchli bosimga uchragan granitda oltin miqdori 0,43-5,1 g/t; kumush miqdori tahlil uskunasining eng kichik o‘lchovidan (<5,0) past. Sienito-dioritli porfiritda oltin miqdori 0,31-7,76 g/t; kumush miqdori tahlil uskunasining eng kichik o‘lchovidan (<5,0) past. O‘zgarishga uchragan granitda oltin miqdori 0,23 g/t; kumush miqdori tahlil uskunasining eng kichik o‘lchovidan (<5,0) past.

Xulosa: Qizilolmasoy ma’danli maydoni Chumauk I va Chumauk II uchastkalarida hozirgi kunda olib borilayotgan geologik qidiruv ishlaridan olingan natijalar ilgari aniqlangan oltin ma’danlashuvining yon tomonlarga davomiyligi aniqlandi. Ma’danlashuvning chuqur gorizontlarga tomon davomiyligi esa Chumauk I uchastkasidagi o‘rganilgan chuqurlikkacha sanoatbop darajada emasligi, Chumauk II uchastkasida esa yon taraflar bilan birgalikda quyi gorizontlarga tomon ham davom etganligi aniqlandi. Ushbu olingan natijalar Chumauk II uchastkasining quyi gorizontlari ham istiqbolliligini va keyingi bosqichdagi geologiya qidiruv ishlarini davom ettirish kerakligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Quyi gorizontlarni burg‘ilashda burg‘i quduqlari kesib o‘tgan ma’danli zonalardan olingan namunalarning sinov (probir) tahlillar natijalari

Namuna raqami	Namunaning yer yuzasidan chuqurligi (m)		Tahlil natijalari, g/t		Namuna raqami	Namunaning yer yuzasidan chuqurligi (m)		Tahlil natijalari, g/t	
	dan	gacha	Au	Ag		dan	gacha	Au	Ag
342478	657,6	658,8	3,65	63,6	343057	676,3	677,0	1,7	<5,0
342481	660,8	661,8	3,21	35,4	343058	677,0	677,9	1,07	<5,0
342482	661,8	662,6	4,07	57,69	343290	772,00	772,70	3,38	5,2
342483	662,6	663,3	10,76	80,12	343291	772,70	774,00	4,6	<5,0
342484	663,3	664,0	7,32	40,4	343619	696,70	697,00	3,37	<5,0
342501	676,1	676,8	1,94	<5,0	343760	718,00	719,00	0,31	<5,0
342502	676,8	678,0	6,06	<5,0	343761	719,00	720,00	0,28	<5,0
342503	678,0	679,0	22,73	<5,0	343778	736,10	737,00	0,43	<5,0
342504	679,0	679,7	5,77	<5,0	343779	737,00	737,60	5,1	<5,0
342505	679,7	680,3	1,87	<5,0	343780	737,60	738,70	0,31	<5,0
342561	762,9	764,0	1,79	<5,0	343781	738,70	739,90	7,76	<5,0
342562	764,0	765,0	2,28	<5,0	343782	739,90	740,40	0,23	<5,0

Izoh: 342478, 342481-342484–tarkibida begona jinslar bilan birga kvars (sulfid minerallari miqdori 2-3%); 342501-342505, 342561-342562–tarkibida begona jinslar bilan birga kvars (sulfid minerallari miqdori 3%); 343057-343058–eksploziv brekchiya (sulfid minerallari miqdori 2-3%); 343290-343291–kvars tomirlari bilan birga metasomatik kvarslashgan granit, tarkibidagi kvars miqdori 20-30% (sulfid minerallari miqdori 3-4%); 343619–metasomatik kvarslashgan granit, tarkibidagi kvars miqdori 15-20% (sulfid minerallari miqdori 2%); 343760-343761–tarkibida kvars tomirlari bilan birga granit (sulfid minerallari miqdori 2-3%); 343778-343779–o‘zgarishga va kuchli bosimga uchragan granit (sulfid minerallari miqdori 3-4%); 343780-343781– sienito-dioritli porfirit; 343782–o‘zgarishga uchragan granit (sulfid minerallari miqdori 2%).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:
1.Amirov E.M. Qizilolmasoy maydoni ma’dan qamrovchi jinslar tavsifi / “Geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalar va rivojlanish istiqbollari” III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami // Toshkent, 2023-yil 5-6-may. 180-183– b.
2.Амиров Э.М., Мардиев Ҳ.О., Мардиев И.О. Қизилолмасой маъданли майдони Чумаук I участкаси ўрганилиш тарихи ва келажак истиқболлари // “Sifatli ta’lim – taraqqiyot poydevori” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция тўплами. - Т.: “ЎзМУ”, 2023.- 90-93 бетлар.
3.Исламов Б.Ф. Факторы локализации золото-серебряного оруденения месторождения Кызылалмасай и критерии его глубинного прогноза (Юго-Западные отроги Чаткальских гор) / Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата геол.-мин. наук. Т: 2011. – С.3-18.
4.Исламов Б.Ф., Исламов Ф.И. О перспективах глубоких горизонтов золотосеребряного месторождения Кызылалмасай (Узбекистан) // Геология и минеральные ресурсы. 2008. № 1. – С.19-25.
5.Умаров А.З. Геохимя и минералогические особенности золоторудного месторождения Самарчук (Кызылалмасайское рудного поле, Узбекистан) / Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата геол.-мин. наук. Т: 2010. – С.3-18.

ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ AI (ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ) И ML (МАШИННОЕ ОБУЧЕНИЕ) В ПРОГНОЗИРОВАНИИ ОРУДЕНЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ ГИПЕРСПЕКТРАЛЬНОГО ДИСТАНЦИОННОГО ЗОНДИРОВАНИЯ И ГЕОЛОГИЧЕСКИХ ДАННЫХ В ПОЛИМЕТАЛЛИЧЕСКОМ МЕТАЛЛОГЕННОМ ПОЯСЕ ТЯНЬ-ШАНЬ

Axmadov Sh.I.*, Isroilov I.O.*, Raximov D.*
**ГУ «Институт минеральных ресурсов», sh_axmadov@mridm.uz, isroilov_i@nuu.uz, d_raximov@mridm.uz*

Abstract. The integration of hyperspectral remote sensing and geological data has become a critical approach in modern mineral exploration. This study focuses on the application of Artificial Intelligence (AI) and Machine Learning (ML) technologies for ore prediction in the Tianshan Cu-Au polymetallic metallogenic belt spanning China and Uzbekistan. Hyperspectral data provide detailed spectral information for mineral identification, while geological datasets contribute lithological and structural context. By combining these sources, advanced AI/ML algorithms such as Random Forest, Support Vector Machine, and Convolutional Neural Networks were applied to identify ore-bearing zones. The workflow included spectral preprocessing, geological data integration, feature extraction, and model validation using known deposits. The results demonstrate that AI- and ML-based approaches significantly enhance ore targeting efficiency, improve prediction accuracy, and reduce uncertainties in complex metallogenic environments. This research highlights the growing importance of intelligent data-driven methods for sustainable and cost-effective mineral exploration.

Аннотация. Интеграция гиперспектрального дистанционного зондирования и геологических данных стала важным подходом в современной разведке полезных ископаемых. В данном исследовании основное внимание уделяется применению технологий искусственного интеллекта (AI) и машинного обучения (ML) для прогнозирования оруденения в полиметаллическом металлогенном поясе Тянь-Шаня, простирающемся на территории Китая и Узбекистана. Гиперспектральные данные предоставляют подробную спектральную информацию для идентификации минералов, а

геологические наборы данных — литологический и структурный контекст. Комбинируя эти источники, для идентификации зон оруденений были применены передовые алгоритмы AI / ML, такие как Random Forest (RF), Support Vector Machine (SVM) и Convolutional Neural Networks (CNN),. Рабочий процесс включал предварительную обработку спектральных данных, интеграцию геологических данных, извлечение признаков и валидацию модели с использованием известных месторождений. Результаты показывают, что подходы, основанные на AI и ML, значительно повышают эффективность поиска оруденений, улучшают точность прогнозирования и снижают неопределенность в сложных металлогенных условиях. Это исследование подчеркивает растущую важность интеллектуальных методов, основанных на данных, для устойчивой и экономически эффективной разведки полезных ископаемых.

Введение. Полиметаллический металлогенный пояс Тянь-Шань, простирающийся через западный Китай и восточный Узбекистан, является одним из крупнейших металлогенных провинций мира (Zhang et al., 2019; Wang et al., 2021). В этом поясе находятся такие известные месторождения, как Кальмакыр и Ёшлик в Узбекистане и Туву- Яндон и Или в Китае (Guo et al., 2020). Этот регион имеет сложную геологическую структуру, разнообразную литологию, активную тектонику и обширные зоны гидротермального изменения, которые создают благоприятные условия для минерализации Cu–Au. Традиционные методы — геологическое картирование, геохимические исследования и геофизика — внесли большой вклад в разведку, но имеют ограничения в плане пространственного охвата и разрешения (Clark & Swayze, 2003). Гиперспектральное дистанционное зондирование с его сотнями узких спектральных полос позволяет точно обнаруживать минералы индикаторы, такие как каолинит, иллит и оксиды железа, которые указывают на рудообразующие процессы (Boardman et al., 2011). Однако спектральные данные сами по себе не могут охватить весь геологический контекст, поэтому необходима интеграция с литологическими и структурными наборами данных (Zhang et al., 2019).

В последнее время искусственный интеллект (AI) и машинное обучение (ML)стали играть центральную роль в прогнозировании полезных ископаемых. Алгоритмы, такие как Random Forest (RF), Support Vector Machine (SVM) и Convolutional Neural Networks (CNN), успешно использовались для картографирования зон изменения и прогнозирования перспективности месторождений полезных ископаемых в Тибете, Синьцзяне и Центральной Азии (Liu et al., 2022; Guo et al., 2022). Например, RF достиг высокой точности в картировании комплексов изменения на Тибетском нагорье, а модели на основе CNN идентифицировали скрытые рудные зоны в бассейне Или (Wang et al., 2021). В данном исследовании искусственный интеллект и машинное обучение применяются для интеграции гиперспектральных и геологических наборов данных с целью прогнозирования оруденений в металлогенном поясе Тянь-Шаня Cu–Au, с упором на ключевые месторождения, такие как Кальмакыр (Узбекистан) и Туву–Яндун (Китай). Цель состоит в создании прогнозной модели, которая повысит эффективность поиска месторождений и снизит неопределенность разведки.

Методология. Это исследование проводилось в несколько этапов, начиная со сбора различных типов данных и заканчивая созданием карт перспективности для прогнозирования месторождений. Основная идея заключалась в том, чтобы объединить гиперспектральные изображения с доступной геологической информацией, а затем использовать современные инструменты машинного обучения для оценки вероятности минерализации в металлогенном поясе Тянь-Шаня Cu–Au. Мы использовали три основные категории данных. Во-первых, гиперспектральные изображения были получены со спутников EO-1 Hyperion, Sentinel-2 MSI и PRISMA, которые предоставляют подробную спектральную информацию, полезную для обнаружения минералов изменения (рисунок 1). Во-вторых, были включены геологические карты и структурные данные, чтобы дать региональную литологическую и тектоническую структуру. В качестве эталонных

объектов были выбраны месторождение Кальмакыр и Ёшлик, а в Китае — порфировая система Туву-Яндун. Эти известные месторождения послужили источником обучающих и валидационных образцов для моделей. Перед использованием исходные гиперспектральные данные требовали корректировки. Были применены атмосферные и радиометрические поправки для уменьшения шума и улучшения сопоставимости. Затем были извлечены спектральные характеристики, такие как соотношения полос, удаление шума и анализ главных компонент (PCA), чтобы выделить признаки ключевых минералов изменения, включая каолинит, иллит и оксиды железа.

Геологические карты были георефернцированы и передискретизированы в ту же сетку, что и изображения, чтобы все наборы данных могли быть непосредственно интегрированы в среду ГИС. После подготовки данных мы протестировали три алгоритма машинного обучения. Был использован алгоритм Random Forest из-за его устойчивости к шуму в данных и способности обрабатывать большое количество переменных. Машины опорных векторов позволили определить нелинейные границы между пикселями, связанными с рудой, и фоновыми пикселями. Наконец, были применены сверточные нейронные сети для обучения не только спектральным, но и пространственным паттернам, что сделало их пригодными для выявления скрытых зон изменения. Были изучены две стратегии интеграции. В подходе «раннего слияния» спектральные и геологические характеристики были объединены в один набор данных перед обучением. В подходе «позднего слияния» были построены отдельные модели, а их вероятностные результаты были объединены в окончательную карту перспективности.




Рисунок 1. Обзор применения гиперспектральных изображений

Результаты. Интеграция гиперспектральных данных дистанционного зондирования и геологических данных с последующим применением алгоритмов AI/ML дала многообещающие результаты для прогнозирования месторождений в полиметаллическом металлогенном поясе Тянь-Шаня Cu–Au. Результаты этого исследования согласуются с выводами, сделанными в других металлогенных провинциях по всему миру, что подтверждает эффективность интеграции гиперспектральных данных с моделями AI/ML для прогнозирования месторождений. Например, методы Random Forest и SVM были успешно применены для определения зон гидротермального изменения на Тибетском нагорье (Китай) и в поясе Загрос (Иран), где зоны с высокой перспективностью соответствовали известным порфировым месторождениям меди и золота. Аналогичным образом, подходы на основе CNN были протестированы в районе Broken Hill Pb–Zn–Cu

(Австралия) и золотоносном поясе Hutti (Индия), что позволило создать высокоточные карты и выявить скрытые рудные зоны.




Рисунок 2. Convolutional Neural Networks

Данное исследование демонстрирует эффективность интеграции гиперспектрального дистанционного зондирования с геологическими данными с использованием AI и ML для прогноза рудных объектов в Тяньшаньском Cu–Au полиметаллическом металлогеническом поясе. Совмещение спектральной информации с геологическим контекстом позволило на основе поисковых моделе выявить минералогические и структурные закономерности, контролирующие минерализацию. Сверточные нейронные сети показали наилучшие результаты, воспроизведя расположение известных месторождений и выделив новые перспективные зоны, совпадающие с региональными структурными трендами. Random Forest и SVM также дали полезные результаты, но их прогнозы оказались менее детализированными. Результаты подтверждают, что интеграция многопрофильных данных с использованием современных методов AI/ML значительно повышает эффективность поисков полезных ископаемых. Повышая точность и снижая неопределенность, данная методология обеспечивает практическую основу для выявления новых зон в сложных металлогенических условиях. Подобные применения AI/ML для прогноза рудоносных зон уже описаны в других регионах мира (например, Lachaud et al., 2023), что подтверждает универсальность предложенного подхода.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Lachaud, A., Adam, M., & Mišković, I. (2023). Comparative Study of Random Forest and Support Vector Machine Algorithms in Mineral Prospectivity Mapping with Limited Training Data. *Minerals*, 13(8), 1073. MDPI
2. Josso, P., et al. (2023). Application of random-forest machine learning algorithm … *Computers & Geosciences*. ScienceDirect
3. Li, X., et al. (2023). 3D convolutional neural network-based 3D mineral prospectivity modeling for porphyry and skarn-type mineralization of the Chating area. *Sci-Tech Publisher / Journal*. ScienceDirect
4. Hajaj, S., El Harti, A., & Pour, A. B. (2024). Machine learning techniques and future prospects: Hyperspectral imagery application for lithological mapping and mineral prospecting. *Remote Sensing Applications: Society and Environment*. ScienceDirect

5. Thiruchittampalam, S., et al. (2025). A systematic review of machine learning-based remote hyperspectral imagery for ore/waste discrimination. *Tandfonline*. Taylor & Francis Online
6. Sivakumar, V., & Biju, C. (2024). Artificial intelligence in hyperspectral remote sensing for mineral prospecting. *Journal of Emerging Technologies and Innovative Research (JETIR)*. JETIR

TURBAY KONI MA'DANLARINING MINERALOGIK TAVSIFI (SHARQIY BUKANTOV)

Baxtiyorov O.E.*, Amirov E.M.*
** Geologiya fanlari universiteti, E-mail: bakhtiyorov23@gmail.com*

Annotatsiya. Turbay koni ma'danlarida keng tarqalgan pirit, arsenopirit, pirrotin, xalkopirit, sfalerit, vismut minerallarining uchrash shakllari, element aralashmalari, o'lchami, amaliy ahamiyati bo'yicha ma'lumotlar, bundan tashqari ma'danlarda aniqlangan yangi minerallar nomlari keltirilgan.

Аннотация. Приведены сведения о формах нахождения, примесях элементов, размерах, практическом значении широко распространенных в рудах месторождения Турбай минералов пирита, арсенопирита, пирротина, халькопирита, сфалерита, висмута, а также названия новых минералов, обнаруженных в рудах.

Abstract. Information is provided on the forms of occurrence, impurities of elements, sizes, and practical significance of the widely distributed minerals of the Turbay deposit: pyrite, arsenopyrite, pyrrhotite, chalcopyrite, sphalerite, and bismuth, as well as the names of new minerals found in the ores.

Foydali qazilma konlaridagi ma'danli komponentlarning uchrash shakllarini o'rganish ma'danlarning moddiy tarkibi, joylashish qonuniyatlari hamda ularning hosil bo'lish sharoitlariga oid yirik fundamental tadqiqotlarning ajralmas qismidir. Bu kabi ishlar natijalari ma'lum konlarning ma'dan homashyosidan samarali foydalanish, yangi va noananaviy turdagi ma'danlarni bashorat qilishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ob'ekti bo'lgan Turbay koni Sharqiy Bukantov tog'larida, tektonik jihatdan Turbay-Jetimtov chuqur yorig'ining janubida joylashgan. Kon birinchi marta Sharqiy Turbay ma'dan namoyoni sifatida 1973-yilda aniqlangan (Shapkin, 1974). Shu vaqtgacha maydonda bir qancha tadqiqotchilar (A.Y.Kotunov va b., 1977; A.A.Rubanov, V.F. Protsenko, 1978-1983; M.I.Ilin, V.F.Chechulin, 1984; T.V.Nosenko va b., 2001; A.X.Boltayev va b., 2015-2023) tomonidan turli maqsadlardagi geologik tadqiqotlar o'tkazilgan. So'ngi yillarda yillarda hududda M.S.Karabayev va b. tomonidan ilmiy-temetik ishlar olib borilgan (Karabayev, 2012-2024) [1-4].

Turbay konidagi ma'lum ma'danli tanalar 1200 x 500 m o'lchamdagi maydonda joylashgan. Ma'dan tanalari uzunchoq linzasimon shakllarni hosil qiladi va g'arb – shimoliy-g'arbiy (290°) yer yoriqlari bo'ylab cho'zilgan. Oltin ma'danlashuvi chiziqli-shtokverkli zonalar bilan bog'liq. Sulfidlar miqdori bo'yicha kon kam sulfidli (2-5% gacha) hisoblanadi (A.X.Boltayev va b., 2023).

Maydonda sulfidlar, telluridlar va sof elementlarning ortib borishishi asosida, ma'danlashuv S.Y.Klempert tomonidan kvars-oltin-sulfidli turga xosligi ta'kidlangan (S.Y.Klempert va b., 1993f). V.D.Soy (1999) ma'danlashuvning hosil bo'lishini oltin-kumushli assotsiatsiya bilan bog'liq deb hisoblaydi. L.P.Shvetsova Turbay ma'danlarini yuqori sifatli oltin va sulfid miqdori kam bo'lgan oltin-polisulfid mineral turiga kiritgan.

Kvars-tomirli ma'danlashuv zonalarida metasomatitlar ko'pincha kvars-dala shpatli tarkibga ega. Tog' jinslari o'lchami 0,05 mm dan oshmaydigan barcha tarkibiy minerallar donalarining bir xil tartibsiz taqsimlanishi bilan ajralib turadi va faqat kvars tomirlarida donalar o'lchami 0,1 mm gacha bo'lgan granoblastik ko'rinishga ega bo'ladi. Metasomatik o'zgargan zonalarda ortoklaz, biotit, amfibolning, shuningdek pirrotin va lyollingit kabi minerallarining

rivojlanishi konda yuqori haroratli ma’dan hosil bo‘lish sharoitlarini ko‘rsatadi. Turbay konining ma’danlari kam sulfidli (umumiy massaning 1-1,5% dan kam) hisoblanadi. Teksturasi xol-xol, tomirsimon-xol-xolli, strukturasi gipidiomorf donali, notekis, mayda donali (0,001-0,7 mm). Asosan kvars bilan birgalikda shakllangan.

Asosiy ma’danli gipogen minerallar (kamayib borishi bo‘yicha) pirit, arsenopirit, xalkopirit, pirrotin, sof oltin va boshqalar bilan ifodalanadi.

Turbay koni ma’danlari oltin-kvarsli turga mansub bo‘lib, morfologiyasi bo‘yicha chiziqli-tomirli va shtokverkli konlar sirasiga mansub. Tog‘ jinslari metasomatik o‘zgargan joylarida ma’danli minerallashuv birlamchi – metaalevrolitlar, kvarsitlar va magmatik jinslarning massasida ham qayd etilgan.

Ma’danli minerallarning xususiyatlari. Pirit ko‘pincha o‘tkir qirrali kristallarni hosil qiladi. Ko‘p uchraydigan shakli kubning oktaedr va rombododekaedr bilan birikmasidir. Piritning kub kristallari yuzalarida spiral shaklidagi chiziqlar mavjud.

Mikrozond tahliliga ko‘ra pirit uchun tavsifli element aralashmalari margimush (0,1-0,38), nikel, kobalt, selen va tellur (0,09-0,13) dan iborat.

Arsenopirit Turbay konining ma’danlarida pirit va pirrotin bilan bir bir qatorda keng tarqalgan mineral hisoblanadi. Arsenopirit asosan o‘zgargan skarnlar, kvarslashgan rogoviklardagi kvars, xalkopirit, pirit bilan mayda zarrali sof oltinning assotsiatsiyasida xol-xolli qo‘shimtalar shaklida uchraydi.

Arsenopirit va pirit ingichka (0,001-0,04 mm) tarqoq qo‘shimchalar hosil qiladi, arsenopirit ko‘pincha yirik donalarning kichik to‘plamlarini hosil qiladi (0,5 mm gacha), bu to‘plamlarning ba’zilarida xalkopirit kuzatiladi.

Arsenopirit idiomorf ignasimon shakldagi, 0,1-1,5 mm o‘lchamli cho‘zilgan kristal ajralmalariga xos bo‘lgan shakllarni hosil qilgan. Unda pirit va xalkopirit qo‘shimchalari uchraydi. Arsenopiritlarda turli xil mikroassotsiatsiyalar mavjud. Masalan: arsenopiritdagi kvars-vismut-tellurid paragenezida tellurovismutitning sof oltin bilan mikroagregatlari qayd etilgan.

Mikrozond tahliliga ko‘ra arsenopiritga xos bo‘lgan qo‘shimta elementlar miqdori (%) oltin (0,21-0,49), kumush (0,13-0,24), mis (0,21), surma (0,40 gacha), ba’zan nikel, kobalt va tellurlar kuzatiladi.

Arsenopirit ba’zan ko‘pburchakli lyollingit ($FeAs_2$) bilan assotsiatsiyada uchraydi, burchakli donalarining o‘lchamlari odatda mm ning mingdan bir qismidan 0,6 mm gacha. Pirit mm ning mingdan bir qismidan 0,7 mm gacha bo‘lgan tartibsiz ko‘pburchakli donalarni hosil qilgan. Ichki tuzilishi g‘ovakli. Chegaralari keskin qiyshiq va korroziyalashgan.

Pirrotin ko‘pincha konning Markaziy va Shimoliy qismlaridagi ma’danlarda ko‘proq kuzatiladi. Kontakt metamorfizm jinslarida kam miqdorda qo‘shimtalar shaklida pirrotin pirit bilan bir assotsiatsiyada uchraydi. Ushbu mineralning asosiy qismi ma’danli zonalar tarkibida aniqlangan. Pirit, arsenopirit, xalkopirit, kamroq molibdenit va nisbatan yuqori haroratli minerallar - gersdorfit, Co - Ni - pirrotin va boshqalar bilan assotsiatsiya hosil qilgan.

Pirrotin o‘lchami 0,001mm dan 0,1 mm gacha bo‘lgan tartibsiz ko‘pburchak donalari bilan ifodalanadi. Donalarning chegaralari notekis, qiyshiq, kamdan-kam hollarda silliq va burchaklari yemirilgan. Ichki tuzilishi g‘ovakli bo‘lib, eng yirik donalarida noma’dan minerallarning qo‘shimchalari uchraydi. Ma’danli minerallarning eng ko‘p to‘planishi tog‘ jinslarining kvarslashuv zonarida kuzatiladi.

Ma’danli minerallar kvarslashgan jinslar massasi va kvars tomirlari bo‘ylab alohida qo‘shimtalar shaklida uchraydi. Metasomatik kvarsitlardagi sulfidlarning (pirit 0,2-0,5%, pirrotin 1,5-2%, arsenopirit, lyollingit 1-1, 5%) alohida donalari tog‘ jinsi massasi va kvars tomirlari bo‘ylab tarqalgan. Kamroq tarqalgan polisulfidli minerallashuv ensiz kesishmalar shaklida kuzatiladi.

Mikrozond tahlili natijalariga ko‘ra minerallashuvning sulfidli bosqichi bilan bog‘liq bo‘lgan pirrotinga xos aralashma elementlar margimush (0,18-0,59), surma (0,1), mis (0,14 gacha), selen va tellur (0,22 gacha)lar hisoblanadi.

Xalkopirit - uning asosiy qismi kvars tomirli hosilalaridagi arsenopirit, sof oltin (elektrum), xira ma'dan, sfalerit, pirit va boshqa sulfidlar bilan bir assotsiatsiyada uchraydi. Xalkopirit donalarining katta qismi xalkozinga o'zgargan, bu donalar chegarasi bo'ylab yupqa qoplama hosil bo'lishidan to'liq o'zgarishgacha borgan. Aksariyat hollarda xalkopiritning oksidlanishi xalkozin va temir gidroksidlarining ingichka aralashmasi hosil bo'lishi bilan namoyon bo'lgan. Xalkopirit ajralmalari tartibsiz ko'pburchakli qiyshiq chegaralar bilan, g'ovakli ko'rinishda, noma'dan minerallarning qo'shimchalari bilan uchraydi. O'lchami mm ning mingdan bir qismidan 0,1 mm gacha. Xalkopirit minerallashuvi vismut, tellur, kumush va sof oltin mikrominerallari bilan ham assotsiatsiya hosil qilgan.

Mikrozond tahlili natijalariga ko'ra xalkopiritda kumush, surma, selen va tellur miqdori yuqoriligi aniqlandi.

Sfalerit ma'dan hosil bo'lishining kechki oltin-polimetall bosqichiga xos mineral bo'lib, u kamroq tarqalgan va boshqa sulfidlar bilan birgalikda izometrik qiyshiq agregatlarni hosil qiladi. Ko'pincha sfalerit vismut minerallari va tetradimit bilan o'sishmalarni hosil qiladi. Intruziv jinslarda joylashgan kvars tomirlaridagi sfalerit kvars-karbonat-polisulfidli assotsiatsiyadagi xalkopirit galenit va pirit bilan birga uchraydi. Minerallar ko'pincha 0,001-0,5 mm, kamdan-kam hollarda 1 mm gacha bo'lgan o'lchamdagi ksenomorf to'plamlarni hosil qiladi. Sfalerit (mikrozond tahliliga ko'ra) tarkibida surma, mis va selenning aralashmalari uchraydi.

Sfalerit pirit tarkibida o'lchami 0,08 mm gacha bo'lgan ko'pburchak izometrik qo'shimtalar hosil qiladi. Arsenopirit tarkibida asosan o'lchami 0,01 mm gacha bo'lgan pirrotinning yumaloq va ko'pburchak shakldagi mayda qo'shimchalarini o'z ichiga oladi.

Vismut minerallari ko'pincha mayda zarrali ko'rinishda bo'lib, oltin-vismut-tellurid, oltin-sulfid va oltin-kumush-sulfid-sulfosolli turli xil paragenezlarning bir qismi sifatida kuzatiladi. Vismut minerallarining asosiy qismi erta, kamroq qismi esa kechki - sulfid-sulfosolli bosqichda hosil bo'lgan.

Ma'dan shakllanishining dastlabki bosqichlaridagi vismut yuqori probali sof oltin bilan birga vismutin, sof vismut va ba'zan tellurovismutit ko'rinishidagi mineral shakllarni hosil qiladi; kechki bosqichlarda hosil bo'lgan vismut turli xil sulfosollar – tetradimit, matildit, kobellit, aykinit, ingodit, past probali sof oltin bilan – elektrum bilan birga namoyon bo'ladi.

Turbay koni ma'danlarining mineralogik tavsifi ananaviy mikoskopik usullarda o'rganilganda bir qator yangi minerallar, tellurovismutit, gersdorfit, vismutin, tetradimit va boshqalar aniqlandi.

Ma'danli minerallarning hosil bo'lish xususiyatlari daykali hosilalarni o'rganishda ham qayd etilgan. Lamprofir daykasining kvarslashgan joylarida pirrotin va xalkopirit tog' jinsining massasi bo'ylab xol-xolli ko'rinishlarni hosil qilgan.

Lamprofirning kvarslashgan zonasida pirrotin ajralmalari juda notekis tarqalgan. Ko'pincha pirrotin uya va linzasimon ko'rinishda zich donali birikmalarni hosil qiladi. Ba'zida pirrotin xalkopirit bilan birikma hosil qiladi. Minerallar orasidagi chegaralar tekis va aniq. Xalkopirit 0,05 mm gacha bo'lgan tartibsiz ko'pburchakli ajralmalarni hosil qiladi.

Dioritlardagi ma'dan zonalari ham arsenopirit, kamroq lyollingit (0,7%), xalkopirit (0,2-0,3%) va pirit (0,1-0,2%) qo'shimchalari bilan ifodalanadi. Arsenopirit, lyollingit va pirit ingichka (0,001-0,04 mm) tarqoq qo'shimchalar hosil qiladi, arsenopirit ko'pincha katta donalarning kichik to'plamlarini hosil qiladi (0,5 gacha), bu to'plamlarning ba'zilarida xalkopirit kuzatiladi.

Xulosa. Turbay koni ma'danlarida keng tarqalgan pirit, arsenopirit, pirrotin, xalkopirit, sfalerit, vismut minerallarining uchrash shakllari, element aralashmalari, o'lchami, amaliy ahamiyati ochib berilgan, bundan tashqari ma'danlarda tellurovismutit, gersdorfit, vismutin, tetradimit kabi yangi minerallar aniqlangan. Daykali hosilalarda pirottin, xalkopirit, arsenopirit, lyollingit, pirit uchrashi qayd etilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Амиров Э.М., Карабаев М.С., Оролов А.К., Бахтиёров О.Э. Турбай кони олтин маъданлашувини шаклланишида магматизмнинг аҳамияти (Шарқий Букантов, Ғарбий Ўзбекистон) // Геология ва минерал ресурслар - 2024. №4. 26-31 б.
2. Baxtiyorov O.E. Turbay tog‘lari kontakt metamorfik tog‘ jinslarining mineralogik-petrografik tavsifi (Sharqiy Bukantov) // O‘zMU xabarlari Toshkent 2023. № 3/2. – B. 189-192.
3. Бахтиёров О.Э., Амиров Э.М. Турбай майдони метасоматик хосилалари ва уларнинг минерал таркиби (Букантов тоғлари) / «Геология и минералогия месторождений полезных ископаемых: инновационные направления добычи, обогащения и технологии извлечения ценных компонентов». ГУ «Институт минеральных ресурсов», 2024. - С. 17-19.
4. Карабаев М.С. Минералого-петрографические особенности рудовмещающих пород гор Букантау / Вестник НУУз. - Ташкент. 2017.- №3/1.- С.270-272.

GUZAKSOY OLTIN KONINING GEOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI

Berkinov N.A.*

**“Mineral resurslar instituti” DM, email: nberkinov@gmail.com*

Annotatsiya. Sharqiy O‘zbekistonda joylashgan Guzaksoy oltin koni o‘rganilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi konning oltin ma’danlashuvi qanday shakllanganini, uning asosiy geokimyoviy xususiyatlarini aniqlash va bu xususiyatlarning qidiruv ishlarida qanday yordam berishini ko‘rsatishdir. Tadqiqot natijalari Guzaksoy konining geokimyoviy xususiyatlarini tushinishga yordam beradi va kelgusida oltin qidiruv ishlarini samarali olib borish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Annotation. This article is devoted to the study of the Guzaksoy gold deposit in Eastern Uzbekistan. The main purpose of the research is to explain how gold mineralization was formed, to describe its main geochemical features, and to show their importance for exploration work. The findings help to better understand the geochemical features of the Guzaksoy deposit and provide an important scientific basis for more effective gold exploration in the future.

Kirish. O‘zbekiston hududida mineral xomashyo bazasini kengaytirish bugungi kunda iqtisodiy va sanoat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Jahon bozorida metallarga bo‘lgan talabning ortib borishi, mavjud konlarning zaxiralari kamayib borayotgani hamda chuqur qatlamlarda joylashgan resurslarni o‘zlashtirish zarurati yangi istiqbolli maydonlarni aniqlash va ularni ilmiy asosda tadqiq qilishni talab etmoqda.

So‘nggi o‘n yilliklarda yer yuzasiga chiqib qolgan, nisbatan oson o‘zlashtiriladigan konlarning asosiy qismi o‘zlashtirib bo‘lingani sababli, chuqur qatlamlardagi va yon hududlardagi ma’dan tanalarini o‘rganish dolzarb masalaga aylandi. Shu bilan birga, foydali qazilmalarning hosil bo‘lish qonuniyatlarini, ularni nazorat qiluvchi geologik va geokimyoviy omillarni aniqlash, mavjud ilmiy yondashuvlarni qayta tahlil qilish ham muhim vazifalardan biridir.

Ushbu sharoitda O‘zbekistonning Sharqiy hududida joylashgan Chodak ma’danli maydoni, xususan Guzaksoy oltin konining geologik, mineralogik va geokimyoviy xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularning qidiruv ishlaridagi ahamiyatini aniqlash katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot oltin ma’danlashuvining geokimyoviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali yangi istiqbolli konlarni izlashda muhim metodik asos yaratishga qaratilgan.

Hosil bo‘lish sharoitiga ko‘ra ma’danlashuv ikki davrga mansub bo‘lib, gidrotermal jarayonining uch bosqichida shakllangan:

1-erta gidrotermal, yuqori karbon-quyi perm davri;

2-skarn-gidrotermal;

3-kechki gidrotermal (quyi perm).

Oltin va kumushning asosiy qismi adulyar-kalsit-kvars oltin ma’danli bosqichining erta gidrotermal bosqichi va skarn-gidrotermalli bosqichning xlorit-karbonat-kvars oltin-kumush bosqichi bilan bog‘liq.

Mineral hosil bo‘lishining dastlabki bosqichidagi adulyar-kalsit-kvars oltin ma’danli assotsiatsiya. Asosiy ma’dan minerallari: pirit, arsenopiritdir, xalkopirit, kleofan, galenit, tennantit, kamdan-kam hollarda freybergit va gessit. Oltin (elektrum) odatda mayda dispersli bo‘ladi. Uning kristallari kam uchraydi. Ilk assotsiatsiyadagi oltinning odatdagi probasi 500-600, elektrum (400), shuningdek, yuqori sifatli oltin probalari (870 gacha) ham mavjud.

Skarn-gidrotermal bosqichning magnetit-polisulfid-epidot-kvarsli assotsiatsiyasi mustaqil sanoat ahamiyatiga ega emas. Lekin mahsuldor ma’dan bilan ustma-ust tushadigan joylarda kumushning qo‘shimcha manbai bo‘lib xizmat qiladi. Asosiy ma’danli minerallar gematit, magnetit, sfalerit, galenit, ba’zan akantit, gessit, aykinit, vittixenit, elektrum va b.


Asosiy ma’dan minerallari: pirit, arsenopirit, xalkopirit, galenit, tennantit.

Oltin ko‘pincha mayda dispers holatda bo‘lib, probasi 500–870 gacha o‘zgaradi [1,9].


Guzaksoy uchastkasining tektonik zonasida kimyoviy elementlarni korrelyatsion bog‘lanish jadvali (1820 skv, 154,5-174 m masofa, 21 namuna).

	Au	Mn	V	Ti	Cr	Ni	Co	Ag	Cu	Pb	Zn	As	Bi	Sb	Mo	W	Sn
Au	1	-0,01	-0,11	0,15	-0,2	-0,29	0,01	0,22	-0,41	0,13	-0,37	-0,23	-0,24	-0,09	0,44	0,13	-0,04
Mn	-0,01	1	0,53	0,4	-0,11	0,45	0,43	0,61	-0,15	-0,24	-0,04	0,73	0,62	0,01	0,06	0,21	0,45
V	-0,11	0,53	1	0,75	-0,11	0,84	0,83	0,61	0,36	-0,25	0,05	0,36	0,71	-0,27	0,17	-0,04	0,57
Ti	0,15	0,4	0,75	1	-0,05	0,51	0,7	0,52	0,13	-0,02	0,08	0,28	0,28	-0,39	0,38	0,1	0,41
Cr	-0,2	-0,11	-0,11	-0,05	1	-0,05	-0,05	-0,05	0,34	0,44	0,19	0,16	-0,1	-0,18	0,03	0,19	0,28
Ni	-0,29	0,45	0,84	0,51	-0,05	1	0,68	0,53	0,49	-0,09	0,38	0,35	0,77	-0,05	-0,26	-0,1	0,6
Co	0,01	0,43	0,83	0,7	-0,05	0,68	1	0,75	0,12	-0,13	-0,07	0,36	0,77	-0,08	0,33	-0,08	0,57
Ag	0,22	0,61	0,61	0,52	-0,05	0,53	0,75	1	-0,21	0	-0,03	0,56	0,68	-0,17	0,3	0,19	0,73
Cu	-0,41	-0,15	0,36	0,13	0,34	0,49	0,12	-0,21	1	0,08	0,34	-0,19	0,15	-0,13	-0,46	-0,31	0,03
Pb	0,13	-0,24	-0,25	-0,02	0,44	-0,09	-0,13	0	0,08	1	0,34	0,02	-0,17	-0,07	0	0,03	0,25
Zn	-0,37	-0,04	0,05	0,08	0,19	0,38	-0,07	-0,03	0,34	0,34	1	0,25	-0,01	-0,12	-0,41	0	0,25
As	-0,23	0,73	0,36	0,28	0,16	0,35	0,36	0,56	-0,19	0,02	0,25	1	0,53	-0,07	0,14	0,57	0,52
Bi	-0,24	0,62	0,71	0,28	-0,1	0,77	0,77	0,68	0,15	-0,17	-0,01	0,53	1	0,19	-0,08	-0,09	0,62
Sb	-0,09	0,01	-0,27	-0,39	-0,18	-0,05	-0,08	-0,17	-0,13	-0,07	-0,12	-0,07	0,19	1	-0,23	-0,14	-0,36
Mo	0,44	0,06	0,17	0,38	0,03	-0,26	0,33	0,3	-0,46	0	-0,41	0,14	-0,08	-0,23	1	0,33	0,13
W	0,13	0,21	-0,04	0,1	0,19	-0,1	-0,08	0,19	-0,31	0,03	0	0,57	-0,09	-0,14	0,33	1	0,06
Sn	-0,04	0,45	0,57	0,41	0,28	0,6	0,57	0,73	0,03	0,25	0,25	0,52	0,62	-0,36	0,13	0,06	1


(C.M.Koloskova materiallari bo‘yicha 2010-y).




(Au-Mo-Ag)-Cu-Zn-Ni-Bi



(As-Mn-W-Ag-Bi-Sn)-Au-Cu-Sb



(Au-Ti-Co-W-Ag)-Cu-Zn-Ni-Sb



(Ag-Co-Sn-Bi-Mn-V-As-Ni-Ti-Mo-Au)-Cu-Sb

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib asosiy xulosa quyidagilar:

Guzaksoy koni shurabsoy va nadak svitasining vulkonogen-cho'kindi yotqiziqlaridan iborat. Ma'dan maydonida nadak svitasi shurabsoy svitasining o'rta va quyi qismida rivojlangan.

Madanlashuv 2 ta bosqichda: erta gidrotermal va skarn-gidrotermal sharoitda hosil bo'lgan.

Oltin va kumushning asosiy qismi adulyar-kalsit-kvars va xlorit-karbonat-kvarsli assotsatsiyasi bilan bog'liq.

Magnetit-polisulfid-epidot-kvarsli assotsiatsiyasi mustaqil sanoat ahamiyatiga ega emas.

Au-Mo-Ag; Ag-Co-Sn-Bi-Mn-V-As; Cu-Ni-V-Cr-Zn; As-Mn-W-Ag-Bi; Bi-Ni-Co-V-Ag; V-Ni-Co-Ti-Bi-Ag; Pb-Cr-Zn-Sn;

Yuqoridagi elementlarning korrelyatsion bog'liqligiga asoslanib o'rganilayotgan hududda elementlar nisbatan yuqori gidrotermal jarayonda hosil bo'lganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **Lu, Y.; Zhao, X.; Xue, C.; Nurtaev, B.; Shi, Y.; Liu, Y.; Shukurov, S.** Telluride Mineralogy of the Kochbulak Epithermal Gold Deposit, Tien Shan, Eastern Uzbekistan // *Minerals*. — 2024. — T. 14. — № 7. — Art. 730. — DOI: 10.3390/min14070730. URL: https://www.mdpi.com/2075-163X/14/7/730 MDPI

2. **Soloviev, S. G.; et al.** Geochemical fingerprints of the Late Palaeozoic igneous rocks at the giant Muruntau gold deposit (Tien Shan, Uzbekistan) and implications for a metallogenic model // *International Geology Review*. — 2025. — (online first). — DOI: 10.1080/00206814.2025.2558016. URL: https://doi.org/10.1080/00206814.2025.2558016 doi.org+2Tandfonline+2

3. **Ma, G.; Zhao, X.; Xue, C.; Seltmann, R.; Dolgopolova, A.; Wang, R.** Deciphering sources of lode gold deposits in the South Tianshan, NW China: Insights from Pb isotope systematics // *Journal of Asian Earth Sciences*. — 2024. — T. 270. — Art. 106199. — DOI: 10.1016/j.jseaes.2024.106199. URL: https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1367912024001949 ScienceDirect+1

4. **Cardenas-Vera, A.; et al.** Trace Element Characteristics of Pyrite and Arsenopyrite and their Implications for Gold Mineralization at the Golden Ridge Deposit // *Minerals*. — 2023. — T. 13. — № 7. — Art. 954. — DOI: 10.3390/min13070954. URL: https://www.mdpi.com/2075-163X/13/7/954 MDPI

5. **Bartsch, T.; Pokrovski, G. S.; Gouy, S.; et al.** An arsenic-driven pump for invisible gold in hydrothermal systems // *Geochemical Perspectives Letters*. — 2021. — V. 17. — P. 39–44. — DOI: 10.7185/geochemlet.2112. URL: https://www.geochemicalperspectivesletters.org/article2112/

6. Цой В.Д., Сайитов С.С. Рудные минералы в отраженном свете на примере месторождений Узбекистана. Т., ГП «Научно-исследовательский институт минеральных ресурсов» 2016. 54 с.

7. Гертман Ю.Л., Жураев А.Ж., Камагуров Д.Г., и др. Петрохимические модели основных золоторудных месторождений Восточного Узбекистана Горный вестник Узбекистана №3 (№30), 2007 г.

8. Пирназаров М.М., Цой В.Д. Стадийность минералообразования и ее отражение в особенностях распределения рудообразующих элементов в Кураминской зоне // Актуальные проблемы освоения месторождений полезных ископаемых. – Ташкент: ИГиГАНРУз, 2001. - С. 91-93.

9. Ганиев И.N. Проблемы верхней возрастной границы магматизма Среднего Тянь-Шаня. Эволюция геологических процессов Тянь-Шаня. Тезисы доклада совещания. Т., ТашГУ, 1996.

USTUK MAYDONIDAGI QORA SLANESLARDAGI KAMYOB YER ELEMENTLARI MA'DANLASHUVINING GEOKIMYOVIY ANOMAL ZONALARINI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BASHORATLASH

Ergashov Z. Y.*

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti, zafarjonergashov@gmail.com*

Annotatsiya. Geokimyoviy ma'lumotlar an'anaviy, Kriging, vazndan teskari masofa (Inverse distance weighted - IDW) kabilar geokimyoviy oreollarning izoshakllari (tekislikda – izochiziqlar, 3D fazoda - izohajmlar) ni hosil qilishda asosiy interpolyatsiya usullari sifatida foydalanib kelinishiga qaramasdan, ba'zi vaziyatlarda talqin ishonchliligi qoniqarli bo'lmaydi. Natijada geologik qidiruv ishlarini keyingi bosqichga rejalashtirish va maydonning istiqbolini to'g'ri baholashga ham imkoniyat bermaydi. Mazkur masalaga yechim sifatida Ustuk maydonida rivojlangan kamyob yer elementlari (REE) ma'danlashuvini geokimyoviy izlash mezonlarini sun'iy intellekt asosida ishlab chiqish va REE ma'danlashuv zonalarini bashoratlash amalga oshirildi. Tezisda hozirgi vaqtda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishining oxirgi natijalari bayon etiladi.

Аннотация. Несмотря на то, что геохимические данные традиционно интерполируются с использованием методов кригинга, обратных расстояний (Inverse Distance Weighted, IDW) и других подходов при построении изолиний (в плане) и изообъёмов (в 3D пространстве) геохимических ореолов, в ряде случаев достоверность интерпретации оказывается неудовлетворительной. В результате это не позволяет корректно планировать последующие этапы геологоразведочных работ и объективно оценивать перспективность участка. В качестве решения данной проблемы на Устукской площади проведена разработка геохимических критериев поисков редкоземельной минерализации (REE) с применением технологий искусственного интеллекта и выполнено прогнозирование зон редкоземельной минерализации. В тезисе представлены последние результаты проводимых научных исследований.

Abstract. Although geochemical data are traditionally interpolated using kriging, inverse distance weighted (IDW), and other methods to construct isolines (in plan view) and iso-volumes (in 3D space) of geochemical halos, in some cases the reliability of interpretation remains unsatisfactory. Consequently, this does not provide sufficient grounds for proper planning of further stages of geological exploration and for an accurate assessment of the prospectivity of the area. As a solution to this issue, geochemical criteria for rare earth element (REE) mineralization were developed using artificial intelligence technologies at the Ustuk site, and prediction of REE mineralization zones was carried out. This thesis presents the latest results of the ongoing scientific research.

Ma’lumotlar bazasidagi interpolyatsiya qilinayotgan kimyoviy elementlar miqdori geokimyoviy maydonda notekis taqsimlangan bo‘lsa, ya’ni o‘zgaruvchilar orasidagi masofa va kichik masofalarda o‘zgaruvchilar miqdorlari keskin farqlansa, “Nugget samarasi” (tasodifiy dispersiya) kuzatiladi. Bunday vaziyatlar kuzatiladigan to‘plamlarda – Kriging suratda silliqlik (smoothing) natija beradi. Oqibatda past qiymatlar oshiriladi, yuqori qiymatlar pasaytiriladi, bu esa anomal sohalarni ba’zida aniqlashni qiyinlashtiradi, geokimyoviy anomaliyalarning uzviyligini yo‘qotib geokimyoviy xaritalarning sifatiga salbiy ta’sir qiladi. Bu kabi muammolar talqin qilingan geokimyoviy (xaritalarning) natijalarning samaradorligini pasaytirishi, ya’ni amalda mavjud anomal miqdorlarni mos izoshakllar qamrab ololmasligiga olib kelishi mumkin. Natijada geokimyoviy anomaliyalar to‘laqonli aks ettirilmasligi oqibatida o‘rganilayotgan maydon ma’lumotlari bo‘yicha ishlab chiqiladigan geokimyoviy izlash mezonlarini baholashni murakkablashtiradi.


Quyida bir qator xorijiy mutaxassislarning mazkur muammoni bartaraf etishga bag‘ishlangan ilmiy ishlari bilan tanishish orqali xalqaro amaliyotda ham mazkur masalaning dolzarbligiga guvoh bo‘lish mumkin: “Ma’lumotlar interpolyatsiyasining tekislash ta’siri geokimyoviy xaritalashda foydali ma’lumotlarning yo‘qolishiga sabab bo‘lishi mumkin…”(Cheng Li va b., 2021).

“Kriging usulidan foydalanish geokimyoviy parametrlarning fazoviy taqsimoti geterogenligi bo‘yicha ma’lumotlar zichligi yetarli bo‘lganda to‘g‘ri hisoblanadi. Biroq, agar anomal geokimyoviy qiymatlar chegaralari yetarli darajada zich namuna olinmagan issiq nuqtalarda to‘plangan bo‘lsa, kriging ma’lumotlarni silliqlash natijasida issiq nuqtalarning haqiqiy konturlarini xiralashtirish orqali chalg‘ituvchi xaritalar berishi mumkin...”. (Stojdl J. va b., 2017).

Yuqorida ta’kidlangan muammoga yechim taklif etish, interpolyatsiya qilingan geokimyoviy ma’lumotlarning ishonchliligini oshirish maqsadida geologik-geokimyoviy ma’lumotlarini noan’anaviy usulda, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda talqin qilish amalga oshirildi.

Dastlab, Ustuk maydonining 3D geologik-geokimyoviy modeli asosida “Leapfrog Geo” dasturiy ta’minotida yordamida REE va yo‘ldosh elementlarning birlamchi geokimyoviy oreollari qiymatlari, tog‘ jinslarining geologik tavsiflari va koordinatalar kabi ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi blok model yaratildi (1-rasm).

Har bir blok ma’lumoti bitta interpolyatsiya hisobiga baholangan namuna (estimated sample) ma’lumoti sifatida qabul qilinib, tavsifli statistik tahlil orqali asosiy statistik parametrlari (o‘rtacha qiymat, mediana, quyi va yuqori chorak va b.) va geologik qidiruv bosqichida olingan 5910 ta analitik-laborator tahlili o‘lchangan namuna (measured sample) larning mos parametrlari bilan solishtirildi. “Estimated sample” larning va “measured sample” larning deyarli barcha kimyoviy elementlar uchun mos statistik parametrlari qiymatlari kichikligi tasdiqlandi.



1-rasm. 3D geologik-geokimyoviy model ma’lumotlari asosida yaratilgan blok modeli

“Estimated sample” larda o‘zaro aloqadorlik qonuniyatlarini aniqlash maqsadida korrelyatsion va klaster tahlili kabi statistik tahlillar o‘tkazib, “measured sample” larning mos

statistik tahlil natijalari bilan solishtirildi. Umumiy olganda, REE guruhini tashkil etuvchi elementlar o‘zaro va U, V, Cr kabi yo‘ldosh elementlar bilan aloqadorlik munosabatlari o‘xshashlikka egaligi aniqlandi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida tadqiqotlarni boshlash uchun “measured sample” lar ma’lumotlar bazasi - o‘qitiladigan baza (training data) va “estimated sample” lar ma’lumotlar bazasi - tadqiq qilish bazasi (test data) sifatida qabul qilindi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarida ma’lumotlarni tadqiq qilishda “training data” va “test data” mos atributlar bo‘lishi va ularning o‘zaro munosabatlari o‘xshash qonuniyatlarga asoslanishi bashoratlash aniqligini ta’minlashda muhim hisoblanadi. Shu sababli yuqorida aloqadorlik munosabatlari o‘xshash bo‘lgan kimyoviy elementlar miqdorlari, koordinatalar va tog‘ jinslarining tavsiflari kabi atributlarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlar bazalari yaratildi.

Ma’lumotlar bazasidagi sonli raqamli atributlar hisoblangan kimyoviy elementlar miqdorlari yuqorida ta’kidlanganidek “measured sample” lardagi mos miqdorlar “estimated sample” lardagidan yuqoriligi sababli har ikkala to‘plam uchun normallashtirish amalga oshirildi.

Normallashtirishda barcha atributlar uchun eng kichik qiymat 0 ga, eng katta qiymat esa 1 ga teng deb qabul qilindi. Barcha boshqa qiymatlar esa shu oraliqda joylashtirildi.

Navbatdagi bosqichda tayyorlangan ma’lumotlardagi atributlarning o‘zaro aloqadorlik qonuniyatlaridagi o‘ziga xosligiga mos keluvchi sun’iy intellektni mashinali o‘rganish modelini tanlab olish uchun “test data” ma’lumotlari bir nechta modellarda ma’lumotlar bazasini tasodifiy 60% i (modelni o‘rgatishga) va 40% i (bashoratlashgan) bo‘lib, dastlabki baholash ishlari amalga oshirildi.


1-jadval

Sun’iy intellekt modellarini dastlabki baholash natijalarini ifodalovchi jadval

T/r	SI ning mashinali o‘rganish modeli nomi	Model nomining qisqartmasi	Kvadrat xatoliklarning ildiz osti o‘rtachasi (RMSE)	Mutlaq xatolik (Absolut error)	Nisbiy xatolik (Relative error)	Kvadrat xatolik (Squared error)	Umumiy vaqt, sekundda (Total time)
1	**Generalized Linear Model**	**GLM**	3,14	1,89	2,1%	14,40	2
2	**Deep learning**	**DL**	14,13	7,63	6,2%	202,22	7
3	**Decision Tree**	**DT**	61,07	16,41	7,4%	4 017,99	4
4	**Random Forest**	**RF**	61,19	18,61	9,6%	3 852,35	13
5	**Support Vector Machine**	**SVM**	53,63	5,70	1,4%	3 598,73	105

Nisbiy xatolikdan tashqari barcha xatoliklar toifasi bo‘yicha, bashoratlashga ketgan umumiy vaqt sarfi bo‘yicha eng kam qiymatlar bilan ustunlikka “Umumlashtirilgan chiziqli model” (Generalized Linear Model), nisbiy xatoliklar kichikligi bo‘yicha “Tayanch vektor mashinasi” (Support Vector Machine) ustunlikka ega bo‘ldi (1-jadval). Shu bilan birga SVM bashoratlash uchun eng ko‘p vaqt sarflagan model bo‘ldi. Quyidagi grafikda REE qiymatlari va ustunlikka ega ikkita modellardan olingan bashoratlangan qiymatlar solishtirildi.


Ikkita ustunlikka ega modellarning “Test data” ma’lumotlarini sun’iy intellekt yordamida bashoratlangan qiymatlarining namunalardagi REE miqdorlari bilan solishtirma grafigi (2-rasm) va “Test data” ma’lumotlarini sun’iy intellekt yordamida bashoratlash xaritalari shuni ko‘rsatadiki, SVM modeli REE miqdorining katta qiymatlari (900 g/t va undan ortiq) da bashoratlashni xatoliklar bilan va GLR modeli esa REE ning barcha qiymatlari uchun deyarli aniq bashoratlashni amalga oshirgan.



2-rasm. “Test data” ma’lumotlarini sun’iy intellekt yordamida bashoratlangan qiymatlarining namunalardagi REE miqdorlari bilan solishtirma grafigi

“Predicted sample” lar to‘plamidagi o‘rtacha miqdorning “measured sample” lar to‘plamidan yuqoriligini birinchi to‘plam asosan REE ning yuqori konsentratsiyalari joylashgan quyi suvliqsoy subsvitasining ma’lumotlarini, ikkinchi to‘plam esa maydon bo‘yicha barcha tog‘ jinslari ma’limotlarini qamrashi bilan izohlanadi.

Bashoratlash natijalari “Leapfrog Geo” dasturiy ta’minotiga integratsiya etilib, “Predicted sample” lar to‘plamidagi REE qiymatlari interpolyatsiya qilindi. Natijada REE ning minimal anomal miqdorlari bo‘yicha hosil qilingan izohajmlari “measured sample” lar to‘plamidagi anomal miqdorlari joylashgan fazo qismlarining aksariyatini qamrab olishi, asosiy geologik struktura bo‘ylab izchil yo‘nalishda joylashishiga erishildi (3-rasm).



3-rasm. Sun’iy intellekt asosida bashoratlangan va “measured sample” lar bo‘yicha hosil qilingan REE anomal oreollar.

Bashoratlangan REE miqdorlarining izohajmlari asosiy sharnir bo‘yicha izchil trend hosil qilib joylashishi, yana bir bor ma’danlashuvdagi strukturaviy-tektonik, ular orqali harakatlangan postmagmatik gidrotermal suyuqliklar omillarining, maydonning markaziy qismida intruzivga yaqin joyda izohajmlarning intensivligi oshishi magmatik omillarning muhim o‘rnini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Cheng Li, Bingli Liu, Ke Guo, Binbin Li, Yunhui Kong (2021). Regional Geochemical Anomaly Identification Based on Multiple-Point Geostatistical Simulation and Local Singularity Analysis - A Case Study in Mila Mountain Region, Southern Tibet. *Minerals*, 11(10), 1037.
2. Stojdl J., Matys Grygar T., Elznicova J., Popelka J., Vachova T., Hosek M. (2017). Kriging – a challenge in geochemical mapping. EGU General Assembly 2017, Abstract EGU2017-3615.

ZAMONAVIY GEOFIZIK USULLAR ORQALI YOPIQ HUDUDLARNI O`RGANISH (ULUS-JOM BOTIQLIGI MISOLIDA)

N.K. Inatov*, I.S. Allamberdiyev*, A.P. Eshmurodov*,
A.M. Abdirashidov*, B.B. Bo'ziyev*, T.R. Bozorov*
**H.M. Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti.*


Аннотация. С использованием современных геофизических методов (приборов и оборудования) в закрытых районах были выделены перспективные участки для промышленно важных минеральных ресурсов. В работе представлены результаты трансформации данных, полученных с помощью протонного магнитометра, в программе Oasis montaj, а также интерпретация этих данных.

Annatation. Using modern geophysical methods (instruments and equipment), prospective areas for industrially important mineral resources have been identified in closed regions. The study presents the results of transforming data obtained with a proton magnetometer using the Oasis Montaj software, as well as their subsequent interpretation.

Annotatsiya. Zamonaviy geofizik (asbob-uskuna) usullardan foydalangan holda yopiq hududlarda sanoat uchun muhim mineral xomashyoga istiqbolli maydonlarni ajratish maqsadida olib borilgan protonli magnitometr yordamida olingan ma'lumotlarni Oasis montaj dasturida transformatsiyalash va ulardan olingan natijalar keltirilgan.


Hozirgi kunda geologiya sohasida sanoat uchun muhim bo'lgan mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va ularni qidirish hamda istiqbolli maydonlarni aniqlash dolzarb hisoblanadi. Shu sababli mineral xomashyolarni yopiq hududlarda qidirish va istiqbolli maydonlarni ajratish uchun zamonaviy geofizik asbob uskunalar GEM-systems GSM-19W protonli magnitometrdan foydalangan holda Ulus-Jom botiqligi hududida tadqiqot ishlari olib borildi. Ushbu protonli magnitometr xatoligi ±0.1 [nTl] bo'lib, yuqori aniqlikdagi zamonaviy geofizik asbob uskuna hisoblanadi. Tadqiqot hududida 60 ta profil hamda har bir profil uzunligi har xil bo'lib 1600 metrgacha orasidagi masofa 50 metrdan tanlab olindi. Protonli magnitometrning qulayliklaridan biri profilning boshi va oxirgi koordinatalari yuklangan holda har 2 ms davomida doimiy profil bo'ylab o'lchovlar olinadi. Tadqiqot hududini detal o'rganish maqsadida 1:5 000 miqyosli magnit maydon kuchlanganlik xaritalari tuzildi (1-rasm).

Yopiq hududlarda mineral xomashyoga istiqbolli maydonlarni ajratish va bashoratlashda geofizik maydon ma'lumotlari har doim ham tadqiqot hududlarining geologik va tektonik tuzilishi yoki uning elementlarini yaxshi aks ettira olmasligi mumkin. Shunday vaziyatlarda ma'danli obyektlarning fazoviy joylashuvi va geofizik maydon tabiatiga bog'liqligini aniqlash maqsadida transformatsiyalash usullarini qo'llash orqali kuzatilgan va anomal fizik maydonlarda namoyon bo'lgan anomaliya shakli va o'lchamini o'zgartirish ishlari bajariladi.




1-rasm. Ulus-Jom botiqligining magnit maydon kuchlanganligi ΔT xaritasi

Shu maqsadda Ulus-Jom botiqligi hududining detal miqyosdagi anomal magnit maydon xaritasini taransformatsiyalash usullarini qo‘llash orqali qidiruv va bashoratlash vazifalarini yechishga xizmat qiladigan, volfram va boshqa minerallarning ma’danlashuv zonalarini namoyon bo‘lish imkonini beradigan qayta ishlash usullarining maqbul varianti yaratildi. Anomal geofizik maydon xaritasini qayta ishlash quyidagi keltirilgan tartibda amalga oshirildi. Protonli magnitometrdan olingan o‘lchov ma’lumotlari Geosoft Oasis Montaj dasturida AS, DX, DY va RTP transformatsiya qilinib shakllantirildi [1, 2, 3]. Transformatsiyalashning **Analytic Signal** usuli magnitometrik tadqiqotlarda **manba chegarasini va markazini aniqlashning eng ishonchli usullaridan biri hisoblanadi. Magnit maydon kuchlanganligining maksimum qiymati manbaning ustida** bo‘lib, u geologik talqin qilish uchun juda qulay hisoblanadi (2-rasm).




2-rasm. Magnit maydon kuchlanganligini transformatsiyalangan AS xaritasi

Tuzilgan magnit maydon kuchlanganlik ΔT xaritalari Oasis montaj dasturida **Derivative in X ya’ni** X yo‘nalishidagi hosila, bu Geophysics → Filters → Derivatives → First Vertical and Horizontal Derivatives funksiyasi orqali amalga oshirilib, magnit maydon gridi DX=∂T/∂x formula yordamida qayta ishlandi. **X (g‘arb–sharq) yo‘nalishidagi o‘zgarish hamda** DY=∂T/∂y formula yordamida qayta ishlandi [3, 4, 5]. **Y (shimol–janub) yo‘nalishidagi o‘zgarish tezligi**. Magnit maydon keskin o‘zgarish joylari ko‘pincha **geologik kontakt, yer yoriqlari yoki intruziv tog‘ jinslarining chegarasi** bo‘lishi mumkin (3-4-rasmlar).




3-rasm. Derivative in X (Sharq–g‘arb yo‘nalishidagi hosila)



4-rasm. Derivative in Y (ya’ni shimol–janub yo‘nalishidagi hosila)

Transformatsiyalash yer magnit maydoni qutblarda vertikal, ekvatorda esa gorizontal joylashgan. Shuning uchun magnit maydon anomaliyalar ko‘pincha siljigan, cho‘ziq yoki assimetrik ko‘rinadi. Qutbga keltirish magnit anomaliyalarni manba ustiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri joylashtirish jarayoni ya’ni, RTP orqali manbaning haqiqiy joylashuvi va shaklini ko‘rish imkonini beradi (5-rasm).



5-rasm. Magnit maydon kuchlanganligi transformatsiyalash RTP (Reduction to the Pole)

Birinchisi haqiqiy geologik obyekt va tanalarga mos kelmaydigan assimetrik anomaliyalar obyekt markaziga yaqinlashgan simmetrik holatga o‘tadi. Ikkinchisi dipollik effekti kamayadi, ya’ni musbat va manfiy anomaliyalar bir biriga yaqinlashadi. Uchinchisi anomaliya intensivligi (nisbiy amplitudasi) kamayadi, bu esa lokal anomaliyalarni vizualizatsiya qilish imkonini beradi. Magnit anomaliyalarni qutb sharoitiga moslashtirish, eng samarali kengliklar $0\text{-}20^0$ Ekvator yaqinida magnit anomaliyalar assimetrik va obyekt markazidan siljigan bo‘ladi, RTP esa ularni markazlashtiradi [5, 6]. Transformatsiyalash orqali olingan natijaviy xarita namoyon bo‘lgan anomaliya zonalari ma’danli obyektlar shakllangan joylarga mos kelishi mumkin.

Xulosa. Olingan ma’lumotlarni talqin qilish orqali magnit maydonini transformatsiyalash ayrim jismlar hosil qilgan anomaliyalarni belgilash (ajratish), ma’lum bir intervaldagi chuqurlikda yotgan obyektlar bilan bog‘liq bo‘lgan anomaliyalarni kuchaytirish imkonini berdi.

RTP filtr orqali qayta ishlangan magnit maydon xaritasida hududning shimoliy qismi yuqori amplitudali magnit anomaliyalar kuzatildi. Kuchli magnit maydon bilan ajralib turgan zonalar intruziv tog‘ jinslari va intruziv tog‘ jinslariga nisbatan past magnit maydon kuchlanganlik zonalari karbonat tog‘ jinslari bo‘lib, asosan kritik (Volfram) minerallari kontakt zonalarga mos kelishi mumkin.

Yuqori va past amplitudali aniq chegaralangan magnit anomaliyalari chegarasi istiqbolli maydonlar sifatida qarash mumkin.

Bajarilgan usullar tadqiqot hududlari uchun ma’danlashuvni bashoratlashning geomagnit belgilari sifatida xizmat qiladi. Kelgusida ushbu usullarni boshqa geofizik va geologik tahlillar bilan kompleks qayta ishlash orqali bashoratlash natijlarining aniqligini oshirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Geosoft Oasis Montaj Documentation (2024). User Guide for Magnetic Data Processing and Reduction.
2. Blakely, R.J. (1995). Potential Theory in Gravity and Magnetic Applications. Cambridge University Press.
3. Nassreddine, B., Haydar, A.J.A.D.G., 2001. Interpretation of magnetic anomalies using the horizontal gradient analytical signal. 44: 505–526. Saada, S.A., 2015.
4. Mohamed, A., Al Deep, M., 2021. Depth to the bottom of the magnetic layer, crustal thickness, and heat flow in Africa: Inferences from gravity and magnetic data. J. Afr. Earth Sci. 179, 104204. https://doi.org/10.1016/j.jafrearsci.2021.104204.
5. Marwan, A., Yahia, M., 2017. Using the aeromagnetic data for mapping the basement depth and contact locations, at southern part of Tihamah region, western Yemen. Egypt J. Pet. https://doi.org/10.1016/j.ejpe.2017.07.015.
6. Reeves, C. (2005). Aeromagnetic Surveys: Principles, Practice & Interpretation. Geosoft Inc.

G‘UJUMSOY OLTIN KONI GEOLOGIK TUZILISHI VA MINERALOGIK XUSUSIYATLARI

Jumaniyazov D.I.*, Marsov R.M., Bektemirov L.S
**H.M.Abdullayev nomidagi geologiya va geofizika instituti*

Annotatsiya. Mazkur tezisda G‘ujumsoy oltin konining geologik tuzilishi va mineralogik xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida kon hududidagi yotqiziqlar, ularning litologik tarkibi, mineralogik xususiyatlari tahlil qilingan. Ayniqsa kondagi kvars-tomirli oltin minerallashuvi bilan bog‘liqligi ilmiy asosda yoritilgan. Geologik kesimlar, strukturaviy elementlar va gidrotermal faoliyat aloqadorligiga asoslanib, minerallashuv xususiyatlari aniqlangan. Natijalar G‘ujumsoy konining mineralogik ixtisoslashuvi va istiqbolli chuqur qatlamlarda ma’dan zaxiralarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

G‘ujumsoy oltin koni Shimoliy Nurota tog‘ tizmasining markaziy qismi suvayirg‘ichi va janubiy yonbag‘irlarini egallaydi. Shimoliy Nurota tizmasining markaziy qismi geologik tuzilishida yoshi yuqori proterozoydan to yuqori paleozoygacha bo‘lgan cho‘kindi, vulkanik va metomorfik tog‘ jinslari qatnashadi.

G‘ujumsoy ma’danlarining egallagan maydoni o‘rta hisobda 10 km² atrofida. G‘ujumsoy oltin koni Qo‘shrobot intruzivining Janubi–Sharqiy qismida yirik donali granosienitlar orollarida va organikaga boy metamorfiklashgan vulkan-terrigen, silur davriga mansub Jazbuloq svitalari oralarida kvars tomirlarida joylashgan. G‘ujumsoy ma’dan maydoni ma’dan qamrovchi jinslari juda murakkab tuzilma. Uni tashkil qilgan tog‘ jinslari quyidagicha guruhlangan:

Gabbro-sienitli kompleks:

1) ishqorli gabbroitli essekaylarga yaqin.
2) melasienitlar va sienitli dioritlar.
3) yirik donali ovoid va traxitoidli sienitlar.
4) plageosienitlar.
5) mayda donali porfirsimon kvarsli sienitlar.
6) mayda donali kvarsli sienitlar.

Granosienitlar kompleksi:

7) yirik donali ovoidli granosienitlar (bosh fazali).
8) mayda, o‘rtacha donali ovoidli granosienitlar.
9) tomirsimon leykogranitlar va pegmatitlar.

Intruziv tog‘ jinslar ko‘p holatda sienitlashgan ishqorli amfibollar va piroksenlar, dalashpatlari bilan metosomatik o‘zgargan, shuning bilan birgalikda keskin kontaktlar hosilalari bilan, Tegirmonovulning shimoliy qismida, G‘ujumsoyning qirg‘og‘ida va boshqa joylarda sienitlardagi gabbroidlarni kontaktlari bilan birgalikda o‘ta rogoviklashgan ksenolitlarni ko‘rishimiz mumkin. Lekin ular sienitlashgan qumtoshlar va slaneslar emas (intruziv quyi qismida rivojlangan). Bu holat shundan darak beradiki, dastlab gabbroidlar, rogoviklarda alohida intruziv tanalar hosil qilgan. Shundan keyin esa sienitlar kirib kelishi bilan ko‘plab mayda va yirik ksenolitlar parchalangan.

Inruziv jinslarning strukturasi asosan gipidiomorf donador monsonitlar, mirkelitli, kamdan–kam hollarda allotriomorf donadordir.

Gabbro–sienitlar va sienitlar turli shakldagi va o‘lchamlardagi ksenolitlar (ko‘ndalang kesimi 10-15 sm. dan to bir necha m^2 largacha) va blok–ksenolitlar (20 yaqin umumlashtirilgan harsanglar) ko‘rinishida massivning markaziy qismida yotadi. Traxitoidlar va tekis donador sienitlarni uncha katta bo‘lmagan tanalari massivning janubi-sharqiy endokontaktida joylashgan.

Gabbroning tarkibi quyidagicha: plagioklaz 50-60%, klinopiroksen 15-25%, amfibol 14-16% K-Na dalashpati 4-5%, kvars 0,5% va undan kam aksessorlar 2-3% (sfen, ilmenit va titanomagnetit, apatit, sirkon).

Melasienitlar va sienitli-dioritlar. Bu o‘rta-yirik donali rogovaya obmanka piroksenli va piroksen – rogovaya obmankali jinslar. Shuningdek ular intruzivning markazida alohida tektonik bo‘lakli va keyingi fazodagi hosil bo‘lgan jinslar orasida ksenolit bo‘lakli ko‘rinishda xarakterlanadi. Melasienitlar ishqorli gabbroidli ksenolitlarni tarkibiga oladi va o‘zlari kech hosil bo‘lgan sienitlar granosienitlar ksenolitlar hosil qiladi, feldshpatizasiya va dezintegrasiya va shunga o‘xshash holatlar harakterlidir, kech hosil bo‘lgan tog‘ jinslarining yoriqlarini to‘ldirishi, bular hammasi magmatitlarni hosil qilishi va oldingi xolatlardagidek sekin–asta o‘tishni ko‘rsatib beradi. Bir necha bor keskin kontaktlar kuzatilgan melasienitlar va sienitli dioritlar – massiv qoramtir: kulrang yoki yashilsimon K-Na shpati 3-40 sm ovoidli tog‘ jinslaridir. Tarkibi quyidagicha plagioklaz 42,8%, K-Na shpat 30,4%, kvars 0,9%, rogovaya obmanka 10,3%, klinopiroksen – 12,8%, biotit, titanamagnetit va ilminit 2,4%. Bulardan tashqari apatit, sirkon bor pirit, sheelit ham uchraydi. Tog‘ jinslari strukturasi allotriomorfdonalidir turli donali, gipidiomorf donali va monsonit elementi murakkablashgan.

Porfiroblastik (ovoidli) yirik donali sienitlar Qo‘shrabod intruzivining ichki qismida ko‘p qismi yer yoriqlari bilan chegaralangan yirik bo‘laklardan iboratdir. Shuningdek kech hosil bo‘lgan granosienitlar orasida ksenolitlar hosil qiladi.

Ularning o‘zi yuqorida qayd etilganidek ishqorli gabbroidlar. Melasienitlar, ba’zida rogovikli qumtoshlar va slaneslardan iborat ksenolitlar hosil qiladi. Dala shpatining kaliy natriyli ovoidlari ko‘pligi harakterlidir, amfibol, plagioklaz va boshqa mineral tarkibi to‘liq zonal joylashgan. Tarkibi: plagioklaz 39,2%, K-Na shpat 41,6%, kvars 3,4% biotit 1,6%, rogovaya obmanka 11,0% klinopiroksen 2,6%, aksessorlar 0,6% o‘rtacha 27 ta dan shliflar 8 ta namuna uchun. Melasienitlarga nisbatan bu tog‘ jinslarida rangli minerallar kam ayniqsa piroksen, biotit sezilarli ro‘l o‘ynaydi.

Aksessor minerallar yuqoridagi guruh kabidir, lekin ko‘proq tog‘ jinsi strukturasi turli donali, allotriomorfdonali, gipidiomorf donali o‘tuvchi, bo‘laksimon monsonitli, mirmekitli, har doim, N 37-22 K-Na-shpatlar ovoidlarning asosini tashkil etadi, lekin ular asosiy qismida ham ko‘pdir. Tog‘ jinslarida magniyning kamligi va ishqorlar yig‘indisining yuqoriligi (8,5-10%) xarakterlidir. So‘ngi sharoitdagi holat tog‘ jinslarini sienitlar deb atashga asos bo‘ladi. Barcha daraklar bo‘yicha ular asosiy fazadagi gronosienitlardan farqlanadi. Gomogen intruziv tanalari yosh bo‘lganlari holida ajralib chiqishi boshqa jinslardan aniq ajralib turishi, geologik ma’lumotlardan tashqari, petrofizik yo‘nalish bo‘yicha ham tasdiqlanadi ularda ovoidli sienitlar boshqa tog‘ jinslaridan o‘zining zichligi va magnitlanishi bilan ajralib turadi.

Yirik donali traxitoidli sienitlar. Bu jinslar yuqoridagi sienitlardan tusini, teksturasiga va tarkibining alohidaligi bilan ajralib turadi. Traxitoidlar sienitlar uncha katta bo‘lmagan hosil qiladi, ular intruzivning chetki Janubiy-sharqida rogoviklar orasida Qoratepa tog‘ida Tokikovul yaqinida joylashgan. Asosiy tananing granosienitlaridan rogoviklar ajralib turadi. Sienitlar pushti yoki qizil rangda, qora amfibol aniq ajralib turadi. Xol-xol donalar ovoid emas, zichlashgan-parallelopiped shaklida, yana bir tomonga yo‘nalgan.

Endokontaktning keng zonasida sienitlar leykokratli bo‘lib boradi, ularda amfibol yo‘qolib boradi yoki kvars tarkibida saqlanib qoladi. Uning o‘rniga biotit rivojlangan lekin qora rangli emas, och rangli, qizil (shlifda). Plagioklazning miqdori o‘sadi, kvars paydo bo‘ladi (5-10%). Apofizalarda bioitning miqdori kamayishi kvarsning miqdori oshishini ko‘rishimiz har doim granit uchraydi. Kimyoviy tarkibi bilan ular granosienitlarga yaqin.

Rogoviklarda kontaktdan 3-4 metr uzoqlikda 0,5-1 m li tomirsimon va xol-xolsimon asosan mikroklinli kvars – mikroklinli.

Bu ko‘rinish rogoviklarda kontakt oldi sienitlashuvi yoki granitlashuvi, qaysini ularning masshtabi va endokontakt fatsiyali sienitlarga o‘xshashligiga ko‘ra, sienit tanasining paydo bo‘lishida yordam beradi.

Bu tananing asosiy intruziv harakteri rogoviklarda ksenolitlarining ko‘chib yurishi, shuningdek, sienitlarini ko‘chib yurishidan (traxitoidli sienitlarga yaqin tarkibli) (strukturasi bo‘yicha bo‘lakcha) va sienitli eritmaning aloxida paydo bo‘lishidan dalolat beradi, (qumtoshgilli qatlamga singdirilgan).

Bundan tashqari traxitli sienitlarda, kech paydo bo‘lgan intruziv fazasidagi tog‘ jinslariga xos, biotit-amfibol-kvarsli sienitlar va amfibol-biotitli porfirli mayda donali granosienit tarkibli daykalar bir-bir yoriqlar hosil qilgan.

Traxitli sienitlarni kvars tomirlari va tomirchalar ko‘plab kesib o‘tgan mavjud ko‘p tarqalgan gidrotermal o‘zgarishlar kuzatiladi: sienitlashuv, piritlashuv, albitlashuv kam hollarda xloritlashuv tog‘ jinslarining umumiy och rangga kirishini keltirib chiqaradi. Bu o‘zgarishlar Zarmitan oltin ma’dan konining (2-3m) g‘arbida joylashgan holatlarga juda o‘xshash.

Sienitlarga nisbatan ular aniq singdirilgandir shunga ko‘ra ular sienitlarni va rogoviklarni bir xilda qamrab olgan va o‘z xarakterini umuman o‘zgartirmagan.

Yirik donali plagiosienitlar ovoidli sienitlar orasida sharsimon formadagi aniq chizilgan 0,36 km tanasi hosil qiladi. Yangiston va Qizilbel hududining Jozbuloq - G‘ujumsoy soy oraliqlarida kuzatilgan. Ularni mayda donali kvars sienitli daykalar kesib o‘tganligi kuzatiladi. Qo‘shrabod intruzivining boshqa sienitdoshlaridan natriyning kaliydan ko‘pligi va glinazom farq qiladi, boyitilganligiga ko‘ra umumiy temirlashuvning yuqoriligi saqlanib qolgan.

Mayda donali porfirsimon kvarsli sienitlar uncha katta bo‘lmagan (0,15 kv km gacha) qatlam tanalari va sienitlardagi va plagiosienitlardagi daykalar bilan ifodalangan.

Yirik donali ovoidli granosienitlar – Qo‘shrabod intruzivida eng ko‘p tarqalgan tog‘ jinslaridir, 25 % yaqin maydonni egallaydi va bosh intruziv fazasiga qarashlidir. Ular intruzivning tashqi zonasini qamrab olgan. Ichki qismning erta hosil bo‘lgan tog‘ jinslari bilan kontakti tektonikdir, birlamchi tog‘ jinslari orasidan munosobat juda kam hollarda saqlanib qolgan. Ko‘plab joylarda granosienitlar ksenolitlar va ishqorli gabbroidlar, melasienitlar, ovoidlisienitlar, bo‘laklari holida uchraydi ular granosienitli iniksiyalar bilan yoritilgan. Ksenolitlarda mikrokilin profiroblastlari rivojlanadi, granitlashuv va qisman dizintigrasiyalashuv yuz beradi. Bu xolatlarning yig‘indisi asos tarkibli tog‘ jinslari va granosienitlarning orasida asta sekin o‘tish holatiga xos ta’ssurot uyg‘otadi. Bu holatlar ko‘rib chiqilayotgan tog‘ jinslarining orasidagi munosabatlarni murakkablashtiradi.


Intruziv maydonning barcha qismida granosienitlarga nisbatan bir xil va boshqa oldin paydo bo‘lgan ichki zonadagi tog‘ jinslarida zichligi va magnitlashish xususiyati bilan ajralib turadi. Shuning bilan birga ular orasida magnitlashish xususiyati va magnitlanib qolishga ko‘ra ajratilgan ikki turga bo‘lishimiz mumkin.

Qaysiki vizual va petrografik xossalariga ko‘ra aniqlanmay qolgan. Bu holat granosienitlarni keyinchalik petrofizik xususiyatlari orqali yanada chuqurroq o‘rganish yo‘lini ko‘rsatadi. Granosienitlar intruziv tanasi murakkab ichki tektonikaga ega, jumladan, atroflarida xloritlar va epidot rivojlangan, hamda tog‘ jinslarining qizarishi sodir bo‘lgan kataklaz zonalari mavjud. Ayrim yoriqlarda tektonik harakatlar bir necha bor sodir bo‘lgan. Kataklaz keng tarqalgan.

Tashqi ko‘rinishi tog‘ jinslari granit-rapakivini eslatadi. Mikroklin ovoidlari ko‘ndalangiga 6-7 sm va undan kattani tashkil etadi (o‘rtacha 3-4*2-2,5 sm). miqdori 270 dan to 370 dona (m^2 atrofida, lekin kontakt oldi yonbag‘ir tog‘ jinslarida 460 dona m^2 gacha yotadi. Shakli asosan oval va dumaloqlangan, ayniqsa ko‘pincha endokontakt zonalarida. Markazlashgan zonal joylashgan plagioklaz, kvars, amfibol, biotitlarning uchrashi harakterlidir. Zonallar soni bu qo‘shilmalar bilan 5-6 va undan yuqori. Atroflarida oligoklaz va amfibol–biotitli, agregatli ovoidlar bor, xuddi shunday rapakivilarga o‘xshash.

Granosienitlarning tarkibi (5 namuna: 20 tadan shlif o‘rtacha) quyidagicha: plagioklaz 37%, K-Na li dala shpati 32,5% , kvars 20,7%, biotit 7,0%, amfibol 20%, aksessorlar (ilmenit, titanomagnetit, sirkon,apatit,ortit) 0,9% Protolochkalarda sfen, oranjit, sheelit, pirit, arsenopirit, galenit, bornit qayd etilgan. Ikkilamchi minerallar: xlorit, seritsit, kalsit, epidot-soizit tog‘ jinslari strukturasi gipidiomorfdonali, allotriomorf donaliga o‘tuvchi, hodisasi bilan murakkablashgan, kvars–biotitli simplektiv o‘smalar harakterlidir.

Plagioklaz zonal ko‘rinishda, №32 dan to №40 yadroda va №20-25 gacha chekka qismlarida K-Na li shpat mayda qo‘shimchalari mavjud. Monomineral namunalar kimyoviy tarkibi № 27-28ga to‘g‘ri keladi.



a b c d

1-rasm. a – anshlifning ko‘rinishi; b – arsenopiritdagi sof tug‘ma oltin qo‘shimchasi, 200 marta kattalashtirilgan; c – pirit tomirchasi va arsenopirit, 200 marta kattalashtirilgan; d-arsenopiritning pirit va sof tug‘ma oltin bilan o‘sishmasi, 200 marta kattalashtirilgan.

Mayda-o‘rta donali ovoidli granosienitlar uncha katta bo‘lmagan (0,2 km gacha) qalinligi 10-15 m gacha bo‘lgan tanalar va daykalar hosil qiladi, ular yirik donali granosienitlarni kesib o‘tadi.Tarkibi: plagioklaz 40,7%, K-Na li shpat 30,8%, kvars 18,9%, biotit 6,1%, amfibol 2,4%, boshqalar 1,1% (uchta namuna uchun, o‘rtacha 7 ta shlifdan). Tashqi ko‘rinishi va kimyoviyligi bo‘yicha, shuningdek, barcha boshqa petrografik belgilariga ko‘ra tog‘ jinslari bosh faza granosienitlariga mos. Ularni o‘sha magmaning qo‘shimcha ineksiyasi deb hisoblash mumkin.

Granosienitlarning tomirsimon jinslari. Kontakt oldi zonalarda leykogranitlarning nisbatan kamroq aplitsimon yoki pegmatitli tomirlari va daykalari uchraydi, ular odatda kvars va turmalin bilan boyitilgan ba’zida muskovit tarkiblidir.Tanalar eniga bir necha sm dan 3-4 m gacha , uzunligi 20-30 m gacha bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda G‘ujumsoy oltin koni oltin-kvarsli geologik-sanoat turiga kiradi va u o‘zgarishga uchragan granodiorit va granosienitlar bilan bog‘liqdir. Tog‘ jinslari kimyoviy tarkibi ICP-MS va ICP-BF-ESMS metodlari orqali aniqlandi.

Ma’dan tanalari tik yotuvchi tomirlarni, shtokverkli zonalarni, subparallel qatlamsimon tanalarni o‘zida mujassam etadi. Ma’dan oldi o‘zgarishlari – gumbeitlar, berezitlar, listvenitlar, monsonitlar va boshqalar tashkil qiladi. Oltin ma’danlashuvini belgilovchi va nazorat qiluvchi omillar – strukturaviy, litologik, metasomatik omillar hisoblanadi. Ma’danlashuvdagi mineral turlari quyidagilardan iborat: oltin-kvarsli, oltin-sheelit-kvarsli, erkin holda uchrovchi oltin bo‘lgan oltin sulfid-kvarsli. Ma’dan tanalari turlarini miqdoriy nisbatlari: kichik qalinlikdagi tomirlar yetakchilik qiladi va ular – 80% ni, tomirchali kvarslashish zonalar 20% ni tashkil etadi. Oltinni o‘zi bilan kvars, arsenopirit, pirit, galenit va kam miqdorda kaliy dala shpatlari ichida hamda karbonatlar olib keladi. Ma’dan minerallashuvi tabiiy ko‘rinadigan yuqori navli oltin, pirit, arsenopirit, sheelit, molibdenit qo‘shimchalari va telluridlarning mikroskopik ajralishlari, vismut va vismutning oltin va surma bilan birikmalari bilan ifodalanadi. Oltin zarralarining kattaligi bir necha mikrondan 0,1-0,2 mm gacha, 0,001-0,01 mm oltin zarralari ustunlik qiladi [5].

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каталог интрузивных массивов Узбекистана Издательство «Фан» Узбекской ССР, 1975 г. 2 часть, 423 с.
2. Мусаев А.М., Джуманиязов Д.И., Оналбаев Э.Р. Роль субвулканических силлов и даек в габбро-диабазов Чармитанского рудного поля в специализации рудомещающих гранитоидов Кошрабадского интрузива на золотое оруденение Геология ва минерал ресурслар № 6. 2016. 79 с.
3. Мусаев А.М., Джуманиязов Д.И., Каримова Ф.Б. Геохимические критерии рудоносности метасоматитов месторождения Урталик (Северный Нуратау), № 3 2020, 121 с.
4. Рудные месторождения Узбекистана, Ташкент «ГИДРОИНГЕО», 2001.- 611 с.
5. Marsov R.M. BMI, «G‘ujumsoy oltin konining mineralogik xususiyatlari», 2025-yil.

COMPOSITION AND GOLD DISTRIBUTION IN THE ORES OF THE BALPANTAU DEPOSIT, CENTRAL KYZYLKUM

Jurayev A. X.*
**Institute of Geology and Geophysics named after Kh.M.Abdullaev.*

Abstract. Balpantau mine is one of the unusual gold mines of Central Kyzylkum. Its mineralization, unlike the genesis of other deposits of Central Kyzylkum, gold mineralization is connected to volcanogenic-sedimentary associations. It should be noted that the variety of minerals of the mine is very wide. Now we will talk about them below.

Аннотация. Балпантау кони Марказий Қизилқумнинг мураккаб олтин конларидан бири ҳисобланади. Унинг минераллашуви Марказий Қизилқумнинг бошқа конлари генезисидан фарқли ўлароқ, олтин минераллашуви вулканоген-чўкинди бирикмаларга боғликдир. Кондаги минераллар турлари жуда кенг хилма-хилликка эга эканлигини таъкидлаш лозим. Энди улар ҳақида батафсил сўз юритамиз.

Аннотация. Месторождение Балпантау — одно из нетрадиционных золотых месторождений Центрального Кызылкума. Его минерализация, в отличие от генезиса других месторождений Центрального Кызылкума, связана с вулканогенно-осадочными ассоциациями. Следует отметить, что разнообразие минералов на руднике очень широко. Далее мы подробнее расскажем о них.

Introduction. When considering any mine, it would be a big mistake not to dwell on the wide variety of minerals. The Balpantau mine has a gold mine associated with the only volcanogenic-sedimentary formations of Central Kyzylkum. This causes the diversity of minerals to increase.

The Balpantau gold deposit is located on the northern slopes of the Tamdytau mountains in the Central Kyzylkum region. The ore-bearing rocks are the lower silurian kushkumbai (according to other authors, the middle silurian kosbulak) formation (Stratigraphic dictionary of

Uzbekistan, 2001).

Gold mineralization of the Balpantau deposit is characterized by a number of features that are somewhat different from those in known gold deposits localized in the black shale strata of the Central Kyzylkum.

Pre-ore transformations of rocks belong to the propylite-berezite formation (Stratigraphic dictionary of Uzbekistan, 2001). These processes are caused by the action of the same carbon dioxide solutions, the differences between them are due to the composition of the host rocks (Korjinski D.S.1956; Shabynin L.I.1953).

Below we present the features of the mineral composition of ores and the distribution of main and associated components at the Balpantau deposit.

The mineral composition of the deposit's ores is very simple. It includes 32 minerals. Minerals producing noticeable accumulations are pyrite and arsenopyrite. Some minerals occur constantly, but do not form significant concentrations. These are chalcopyrite, pyrrhotite, and marcasite. They are observed both in the form of independent macro-segregations and in the form of micro-inclusions in other minerals. The remaining minerals occur sporadically in the form of microinclusions or rare veinlets.

Materials and methods. Below is a description of the most important minerals that determine the ore content of the area or have an indicator value.

Native gold is the main mineral of the deposit. In the endogenous ores of Balpantau, we have established micro and macroscopic allocations of native gold in quartz, iron hydroxides, limonitized carbonate, pyrite and arsenopyrite.

According to rational analysis, native gold and silver are found in the following varieties: 1) free and in the form of intergrowths with ore components; 2) finely disseminated in quartz; 3) in Fe oxides and hydroxides, carbonates; 4) finely disseminated in sulfides of the pyrite-arsenopyrite association.


Native gold of the first type determines, in the most cases, the gold content of the region. It is associated with the mineralization of quartz - gold mineral association and is noted in the form of microsegregations in quartz, quartz-carbonate-limonite veinlets. Macrovisible native gold is rare and forms intergrowths with dolomite, pyrite, and arsenopyrite. It is concentrated in the vein mass very unevenly, forming microclusters and cuts along cracks. Microvisible native gold, finely dispersed and dusty, is more widely developed. The shape of goldstones is xenomorphic, amoeboid, oval, teardrop-shaped, and veined. They are located in cracks and contacts of early sulfide grains. Often gold, together with chalcopyrite and vein mass, cements crushed, brecciated grains of arsenopyrite (an analogy to this was noted at Tamdybulak).

Native gold of the second type is concentrated in the feldspar-quartz aggregate near the sulfides. Frequent intergrowths of gold with chalcopyrite are noted.

Together with gold, the veins contain pyrite, chalcopyrite, and single grains of rutile. The total number of gold marks is small compared to the number of polished sections examined.

The size of gold particles ranges from 0.1 mm to 0.001 mm and less. The predominant gold grades are 0.001-0.009mm and <0.001mm. The color of gold is pale yellow. The gold is a low grade. Among the impurity elements in gold, the following are identified: iron, nickel, copper, chromium, arsenic, antimony.

Gold is associated with the quartz-carbonate-limonite (formerly sulfide-bearing) association and determines the presence of gold in sulfides. Occurs in the form of single characters. In the testing, it corresponds to kustelite. Kyustelite is noted at the contact of pyrite with arsenopyrite included in it, which explains the local increase in silver in sulfides. Kustelite plays a minor role in the overall gold balance due to the low abundance of the polysulfide association.



Pic.1. Types of ores of the Balpantau deposit. Carbonaceous-chlorite shale with an albitite vein, relics of albite-quartz nests with pyrite.

Subdisperse gold in sulfides of the first type forms pinpoint gold deposits less than a micron in size. The gold content in sulfides is very small. The relationship between the gold content and the amount of sulfides in the gold-pyrite-arsenopyrite association, as well as the gold content in these sulfides, suggests the existence of subdisperse gold.

Pyrite is the most widespread mineral, deposited and redeposited during a long process of ore formation. The mineral is present in varying quantities in all types of rocks and is confined to zones of metasomatic alteration, forming veined-disseminated forms of segregations (Pic.1).

Several generations of pyrite are distinguished, respectively attributed to certain paragenetic mineral associations. Pyrite is widely developed in the zone of altered rocks. It forms uniform impregnation, less often concordant or cross-cutting schistosity veinlets, and lens-shaped aggregates. Its amount varies from 3-5 to 20%.

Pyrite is the main gold-bearing mineral of the gold-pyrite-arsenopyrite association and makes up from 40 to 60% of its volume. Pyrite constantly grows together with arsenopyrite, forms uneven dissemination, often condensation along cracks, lacy, aggregative intergrowths. The mineral contains inclusions of carbonate, carbonaceous matter, slate, single inclusions of pyrrhotite, chalcopyrite, and native gold. Aggregates are often brecciated and fractured. The cracks were healed with later minerals.

Pyrite of the quartz-feldspar-gold association occurs in small quantities (no more than 10% of the association volume). The crystal habit is pentagondodecahedral; xenomorphic, aggregative clusters are more common. Size no more than 0.5-0.9 mm. Pyrite contains inclusions of native gold. Related elements (in%): copper - 0.001; silver - 0.1; gold - 0.01 (Pic.1).

Pyrite is also part of the chalcopyrite-carbonate-silver association and is found in veinlets in the form of well-formed pentagondodecahedrons, often collected in chain-like aggregates along the veinlets. The crystals are fractured, and chalcopyrite develops along the fractures. Pyrite has a zonal structure with closely parallel growth zones.

Also, pyrite of the quartz-carbonate mineral association is classified as post-ore and is included in the composition of quartz-carbonate veinlets in an amount of up to 5%. The amount of impurity elements is insignificant.

Arsenopyrite is the second most abundant and main gold concentrating mineral. It makes several generations. Arsenopyrite is part of the gold-pyrite-arsenopyrite mineral association and constantly grows together with pyrite. Often it fills the central part of lens-shaped aggregates, while pyrite develops along the periphery. Arsenopyrite forms dissemination; less often, chain-like accumulations of foliation are observed. The size of the crystals varies from 1.5 to 3 mm, although smaller ones are also found. The crystal habit is bipyramidal, less often short-columnar. Arsenopyrite contains inclusions of nonmetallic minerals, pyrrhotite. It is part of the quartz-arsenopyrite mineral association and is found in small quantities in quartz veins. The shape of the crystals is bipyramidal, individual crystals reach a size of 0.7 mm-1 cm. Structural etching revealed a zonal structure without traces of deformation.


Chalcopyrite, sphalerite, pyrrhotite, and galena are found quite often, but do not form significant accumulations. Some of these minerals are satellites of gold, and some are part of silver-

containing associations.

Chalcopyrite occurs constantly, in small quantities. Several generations of the mineral are noted.

Sphalerite is present in small quantities in the carbonate-chalcopyrite-silver association, accounting for less than 5% of its volume. Veined and disseminated sphalerite is noted, usually with emulsion dissemination of chalcopyrite. Sphalerite is characterized by a high content of cadmium, the presence of lead and copper.

Pyrrhotite occurs sporadically in the form of microinclusions in early sulfides and as part of a carbonate-chalcopyrite-silver association together with chalcopyrite and sphalerite. Pyrrhotite forms xenomorphic or lamellar precipitates with irregularly indented edges. Some of the grains have been transformed into a pyrite-marcasite aggregate. Among the impurity elements, nickel, cobalt, silver, and zinc are noted.



Pic.2. Types of ores of the Balpantau deposit. Breccia of silty andesitoid shale with veined accumulations of pyrite (troilite), chlorite and albite, hornfelsed.

Galena is rarely found at the endocontacts of felsic dikes with terrigenous rocks. It forms nest-like clusters in thin quartz veinlets.

Marcasite occurs sporadically in the form of thin “curly” veins, nested clusters, and tabular grains. Associated with pyrrhotite, develops along pyrite.

Fahl ore occurs in the form of single grains (0.005 - 0.01 mm) in arsenopyrite, pyrite; intergrowths with chalcopyrite occur.

Covelline and chalcocite are observed in natural type II ores in the form of rare grains of xenomorphic or lamellar forms. Covelline is constantly associated with chalcocite; replaces it along the periphery and cracks.

Iron hydroxides are the main minerals of natural type II, 2 subtypes. It is represented by goethite, forming pseudomorphs after pyrite, and ocherous loose accumulations of limonite. Ocher accumulations of scorodite are observed together with limonite.

Quartz is the most common mineral in both early and late mineral complexes. A significant part of the vein quartz belongs to pre-dike formations. Five generations of quartz have been identified in the post-dike group.

Dolomite is part of the gold-pyrite-arsenopyrite mineral association and is developed in the form of metasomatic accumulations of fine-grained aggregates in sandy-shale deposits and less in listvenitized volcanic rocks. The development of dolomite-1 is spotty; nodule accumulations are often observed, which are associated with pyrite and arsenopyrite.

Calcite is part of the quartz-carbonate-sericite-pyrite and quartz-arsenopyrite mineral associations. In the latter, its amount reaches 10-15% of the volume of the association. Forms nests and massive clusters. Sulfides of this association are often associated with carbonate, and upon oxidation it acquires a brown color.

Sericite is a common mineral at the deposit, occurring in pre-alteration stage minerals and in the quartz-feldspar-gold mineral association. The largest accumulations of sericite-1 are observed in shales. Sericite develops together with quartz, forms thin veinlets, accumulations along cracks, and replaces feldspar in metapsammites and clay interlayers in shales. In turn, it is replaced by carbonate.

Albite is observed in the quartz-feldspar-gold association and is closely associated with native gold-2 and chalcopyrite (Pic.2).

Results and discussion. The alteration of newly formed minerals significantly modifies the composition of carbonaceous shales, particularly in zones where these shales are in contact with other rock types. The gold content in the area is primarily controlled by sulfide-carbonate-quartz vein systems. Within these quartz veins, gold is consistently associated with iron and arsenic sulfides, as well as iron-bearing carbonate minerals.

The occurrence of sulfide-quartz veinlets within metasomatically altered rocks leads to an enrichment of valuable components in these host rocks. In the oxidation zone, native gold is predominantly localized in association with oxidized sulfide minerals such as limonite, scorodite, arsenic-bearing limonite, limonitized carbonate, and quartz.

ACKNOWLEDGEMENT AND REFERENCES:

1. Stratigraphic Dictionary of Uzbekistan. 2001. - Tashkent: HydroEnGeo.

2. Korjinski D.S. 1956. Dependence of the activity of components on the acidity of the solution and the sequence of reactions during post-magmatic processes. Geochemistry № 7. P. 3-10.

3. Shabynin L.I. 1973. Magnesian scarp formation. - M.: Nauka.

O‘ZBEKISTON GEOLOGIYASI TARIXIDA MURUNTOV OLTIN KONINING TUTGAN O‘RNI (ARXIV HUJJATLARI ASOSIDAGI TAHLIL 1929-2024 YY.)

Mirakbarov M.M.

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti Mustaqil tadqiqotchi, e-mail: mirhomid1@mail.ru*

Annotatsiya. 1929–2024 yillar davomida O‘zbekistonda geologiya fanining rivojlanishi va Muruntov oltin konining kashfiyoti, o‘zlashtirilishi hamda iqtisodiy ahamiyati arxiv hujjatlari asosida tahlil qilingan..

Аннотация. На основе архивных документов анализируется развитие геологической науки в Узбекистане, открытие, освоение и экономическое значение Мурунтауского золоторудного месторождения в 1929–2024 гг.

Annotation. The development of geological science in Uzbekistan and the discovery, development and economic significance of the Muruntov gold deposit in 1929-2024 are analyzed based on archival documents.

O‘zbekiston oltin, kumush, mis, uran, qo‘rg‘oshin, rux, volfram, tabiiy gaz va boshqa foydali qazilmalar zaxirasi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Geologiya fani tadqiqotlariga ko‘ra, bu zaminda Mendeleyev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Qizilqum sahrosi yer osti minerallarga boyligi bilan butun dunyoga mashhur va unda joylashgan “Muruntov” koni jahonda eng ko‘p oltin qazib olinayotgan kon sifatida tan olingan.

“Muruntov” konining ochilishi xalqaro geologlar jamoatchiligi tomonidan o‘tgan asrning qimmatbaho metallar sohasida qilingan eng katta kashfiyoti sifatida tilga olinadi. Qizilqumda oltin konlarini qidirish ishlari XX asr 30-40-yillarida boshlandi.

Jumladan, 1931-yilda A.F.Sosedko, 1936–1938-yillarda S.A.Kushnar, 1937–1938-yillarda M.P.Petrov, V.A.Zaxarevich, A.F.Sosedko, P.I. Myastkovskiy, 1940-yilda M.P.Petrov tomonidan davomli tadqiqot ishlari amalga oshirildi. XX asrning 50-yillarida geologlarning O‘zbekiston hududida oltin konlari mavjudligi haqidagi ilmiy qarashlari to‘laqonli tasdig‘ini topdi. Bunga asos sifatida I.Hamrabayevning “G‘arbiy O‘zbekistonda magmatizm va postmagmatizm jarayonlari” nomli tadqiqot ishi sabab bo‘ldi281. I.Hamrabayevning ilmiy-tadqiqotlari natijasida oltin va margimushning pragenezisi, ya’ni ularning konlarda birga uchrashi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Shu asosda 1954–1956-yillarda O‘zbekistonning g‘arbiy qismida 2 xil oltin konlari borligi: birida oltin margimush kolchedani (arsenopirit minerali) bilan, ikkinchisida juda siyrak holda kvars tomirlarida uchrashi ma’lum bo‘ldi. 1958-yil oltinning margimushga bog‘liqligi asosida Muruntov yonida margimushga boy bo‘lgan anomaliya maydonlari belgilandi.

O‘sha yili margimushning yuqori konsentratsiyasi mavjud bo‘lgan anomaliyalardan biri – Muruntov rudali maydonida olib borilgan izlanishlardan keyin bu ruda maydoni o‘ta istiqbolli deb baholandi. Mazkur ruda maydonida 1959–1962-yillarda olib borilgan batafsil qidiruv ishlari natijasida konning asosiy hududi belgilandi va oltinga boy uchastkalarining o‘lchamlari juda yirikligi aniqlandi. I.Hamrabayev nomi “Muruntov” oltin koni o‘rnini aniqlagan olim sifatida tarixga kirgan. Olimning izlanishlari “Tomdibuloq” va “Chormitan” oltin konlari ochilishiga ham asos bo‘ldi.

Mazkur izlanishlar keyingi yillarda ham davom etib, 1958-yilda geofiziklar Yu.N. Mordvinsev va P.V. Xramishkinlar tomonidan Muruntov hududida olib borilgan metallometrik xaritalash natijasida ma’dan namunalaridan olingan tahlillar ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Natijada, 1958-yilda Qizilqumda jahon ahamiyatiga molik “Muruntov” oltin koni aniqlandi.

“Muruntov” koni nafaqat Markaziy Qizilqumda, balki dunyodagi eng yirik kon bo‘lib, Navoiy shahridan 180 km. shimolda, Zarafshon shahridan 40 km. sharqda, Tomditovning janubiy etagida joylashgan. Oltin zaxiralarining ko‘pligi, ruda qazib olish texnologik sharoitlarining qulayligi uchun kon “Jahonning noyob javohiri”, “Asr mo‘jizasi” (XX asr), deb ham ataladi.

SSSR Ministrlar Sovetining 1964-yil 25 maydagi 440/176-sonli qarori, O‘rta mashinasozlik vazirligi hamda Qora va rangli metallurgiya vazirligining 4 iyundagi 0153/27s-buyrug‘i bilan “Muruntov” konini o‘zlashtirish boshlandi286, u Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarkibiga kiritildi.

“Muruntov” koni mutaxassislar tomonidan keng miqyosda o‘rganildi. Xususan, chuqur va o‘ta chuqur bo‘lishi kutilgan konda oltinning umumiy hajmi va kelajakdagi loyihalar bo‘yicha ilmiy yondashuvlar asosida tadqiqot ishlari olib borildi. 1965-yildan 1969-yilgacha bo‘lgan vaqtda kon sanoat ishlab chiqarilishiga tayyorlandi. Hududga yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyasi va Amudaryo daryosidan suv quvurining birinchi bosqichi tortildi. Ruda qazib olish, qayta ishlash majmualari foydalanishga topshirildi va ochiq kon qazish ishlari boshlandi. Konni o‘zlashtirish bo‘yicha loyiha 1964-yil 28-sentabrda O‘rta mashinasozlik vaziri Ye.P.Slavskiy tomonidan tasdiqlandi. Unga ko‘ra, kondan bosqichli qazib olishni ko‘paytirish (yiliga 15-20 tonna oltin qazib olish), 1965-yildan konda qurilish-montaj ishlarini boshlash, 1969-yildan konning to‘liq quvvatda ishlashini ta’minlash va oltinni qayta ishlaydigan zavodni barpo etish vazifasi qo‘yildi.

“Muruntov” koni boshqa konlardan mahsulotning o‘ziga xosligi bilan farq qilgan. Aksariyat holatlarda konlardagi oltin zarralari mayda (yirikligi 1-2 mm. keladigan donalar) bo‘ladi. “Muruntov” konida esa ma’dan tarkibidagi oltin zarralarining 50-60 foizi 0,01-0,02 mm.ni tashkil etadi. Shuning uchun mayda oltinni toshdan ajratib olish mashaqqatli bo‘lganidan ilgari u qazib olinmagan.

1964-yilda “Muruntov” oltin konida oltin tarkibli rudalarni qazib chiqarish va qayta ishlash tarmog‘ini tashkil etish ishlari boshlandi. KPSS Markaziy Komiteti va SSSR hukumatining 1964-yil 29-avgustdagi “Muruntov oltin konini o‘zlashtirish to‘g‘risida”gi 737303-sonli qarori bilan O‘rta mashinasozlik vazirligiga Navoiy kon-metallurgiya kombinati zimmasiga konni o‘zlashtirish, yiliga 5 million tonna ma’danni qayta ishlaydigan gidrometallurgiya zavodi, 40 km. temir yo‘l, Amudaryodan 220 km. suv quvurlari olib kelish va konchilar uchun shahar barpo etish kabi vazifalar topshirig‘i beriladi. Konni o‘zlashtirish bo‘yicha SSSR Ministrlar Sovetining 1964-yil 25- maydagi 440-176-sonli qarori ham qabul qilindi.

1965-yilda “Muruntov” konida birinchi navbatdagi qurilish ishlari tugatildi. Konga 50 kilometrlik suv quvurlari, Qizilquduq stansiyasidan aholi punktiga qadar 220 Vt.lik elektr energiyasi uzatish liniyasi o‘tkazildi, qurilish ishlarini olib borish uchun bo‘linmalar tashkil etildi. O‘rta mashinasozlik vazirligi tomonidan konni sanoat usulida o‘zlashtirish ishlarini loyihalash va Zarafshon shahrini barpo etish bo‘yicha chora-tadbirlar tasdiqlandi. NKMK tomonidan konni o‘zlashtirish ishlarini olib borish uchun 1964-yilda Markaziy kon boshqarmasi tashkil etildi.

“Muruntov” konini o‘zlashtirish maqsadida SSSR Rangli metallurgiya vazirligining “Svetmetproekt” instituti tomonidan loyiha ishlari olib boriladi. 1966-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, geologiya-qidiruv ishlariga 19,44 million rubl sarflandi.

Qizilqumning iqlimiy tabiatiga qaramasdan qurilish ishlari boshlanib, 1965-1966-yillarda “Muruntov” kon majmuasini qurish uchun birinchi navbatda baza shakllantirildi. Jumladan, Zarafshon posyolkasigacha 70 km. elektr liniyasi, konga 56 km. temir yo‘l, Tomdidan Zarafshongacha 65 km. masofada vaqtinchalik suv quvurlari olib kelindi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, “Muruntov” koni oltinining laboratoriya sharoitida olingan dastlabki namunasi 1966-yil 29-martda o‘z ishini boshlagan KPSSning XXIII syezdiga sovg‘a sifatida yuboriladi. Muruntovning oltin namunasi (laboratoriyada olingan dastlabki oltin − X.R.) kombinatning Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida quti (shkatulka) shaklida tayyorlanadi. Unga “Muruntovning birinchi oltini− KPSSning XXIII syezdiga” va tepasiga “Lenin” degan so‘zlar bitiladi. Bu oltin quti syezdga delegat bo‘lgan Z.Zarapetyanga yetkaziladi. Mazkur s’ezdda SSSR Ministrlar Soveti raisi A.Kosigin KPSS MKning birinchi sekretari L.Brejnevga Kanada SSSRga g‘alla sotishga rozi bo‘lganini aytgan vaqtda, A.Kosigin Zarapetyanga qarab “Ko‘rdingmi, bizga nima uchun oltin kerak, biz g‘alla sotib olamiz, shuning uchun oltin olinadigan zavodni tezroq qurish kerak”, deydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Sovet davlati xalqaro savdoda oltindan foydalangan va undan keladigan foyda o‘z ehtiyojlari uchun sarflangan.

“Muruntov” konini o‘zlashtirish ishlari uch bosqichda olib borildi. 1967-yil 1 martda “Muruntov” konida birinchi ommaviy portlatish amalga oshirildi. Dastlabki yillarda kondagi ma’danlarni tashish bo‘yicha 10-12 tonnalik KrAZ-222 rusumli avtoag‘dargichlar, D-271 rusumli buldozerlar ishlatilib, yiliga 8-10 million tonna ma’dan qazib olindi. 1970-yillarda esa konga 27 va 40 tonnalik BelAZlar, EKG-8I ekskavatorlar olib kelinishi natijasida yiliga 3,4 million tonna kon massasi qazib olindi. Olib borilgan ishlar natijasida 1971-yilda “Muruntov” konidan yiliga 5 million tonna ma’dan qazib olindi. Bu oldingi yilga qaraganda ikki marta ko‘p edi.

“Muruntov” koni oltin zaxiralari o‘sha paytda nafaqat SSSRda, balki jahondagi oltin konlar o‘rtasida eng yiriklaridan biri edi. 1965-yilda hisoblangan oltin zaxiralari bo‘yicha “Muruntov” koni Ittifoqdagi eng yirik kon bo‘lib, uning oltin zaxirasi 777 tonna bo‘lgan. Shuningdek, Magadan viloyatidagi “Netalkinskiy” konida 138 tonna, Armanistondagi “Zodskoy” konida 283 tonna, Chita viloyatidagi “Taseevskiy” konida 131 tonna, Yakutiya ASSRning Aldanskiy oltin hududidagi “Kuranaxa” konida 138 tonna, Qozog‘istonning Semipalatinsk viloyatidagi “Bakirchik” konida 143 tonna oltin zaxirasi bo‘lgan. “Muruntov” konidan oltinni qazib olish va qayta ishlash uchun gidrometallurgiya zavodining birinchi navbatini ishga tushirish orqali 1970-yilda 20 tonna oltin olinishi rejalashtirildi. Keyinchalik, zavodning ikkinchi navbatini ishga tushirish orqali yiliga 35-40 tonna oltin olish, bu SSSRda olinadigan jami oltinning 50 foizini tashkil etishi kerak edi.

Buning uchun “Muruntov” konidan qazib chiqarilgan oltin tarkibli ma’danlarni qayta ishlaydigan zavod qurish zaruriyati paydo bo‘ldi. 1967-yilda akademik B.N.Laskorining loyihasi asosida 2-gidrometallurgiya zavodi qurilishi boshlandi. Zavod qurilishi va uning ishga tushirilishi uchun asosan, boshqa respublikalardan kadrlar jalb etildi. 1967-yilda zavodga uning birinchi direktori bo‘lgan P.V. Dyatlov, energetik L.S.Simin va mexanik Yu.I.Terexov ishga keladi.

1968-yilda Tomsk politexnika institutidan 15 nafar bitiruvchilar, Perm viloyatidagi Solikamsk hunar-texnika bilim yurtidan 74 nafar laborant va apparatchilar ishga kelishdi. Zavodning birinchi navbati 1969-yilda ishga tushirildi. 1969-yil 21 iyulda esa tarixiy voqea – birinchi marta “Muruntov” oltin konidan 11 kilogramm 820 gramm sof oltin yombisi olindi301. Shu yilning 25 iyulida 2 gidrometallurgiya zavodining tantanali ochilishi bo‘ldi.

Unda O‘zbekiston rahbari Sh.R.Rashidov va SSSR O‘rta mashinasozlik vaziri Ye.P.Slavskiy, shuningdek, partiya va davlat organlari vakillari ishtirok etadi. Marosimda Ye.P.Slavskiy birinchi oltin quymani Sharof Rashidovga topshiradi. Birinchi oltin quymalarga uchta harfdan iborat “ZAR” so‘zi qo‘yildi. Oltin quymalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri Moskvadagi Davlat xazinasi (Gosxran)ga topshirilgan303. Shu tariqa sovet hukumatining O‘zbekiston hududidan quyma oltinlarni tashib ketishi siyosati boshlandi.

Zavodda 1970-yildan to‘liq loyiha ko‘rsatkichi – 5 million tonna oltin ma’dan qayta ishlana boshlandi304. Sovet hukumati ko‘proq oltin olish uchun zavodning ikkinchi navbati 1974-yilda ishga tushirildi, uning oltin tarkibli ma’danlarni qayta ishlash quvvati yiliga 10 million tonnaga yetkazildi. O‘tgan asr 80-yillarida olib borilgan rekonstruksiya ishlari natijasida zavodning ishlab chiqarish quvvatlari qariyb 20 million tonnaga yetdi. Qizilqum sahrosi O‘zbekistonning yirik oltin ishlab chiqarish markaziga aylandi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati esa jahonda oltin ishlab chiqaruvchilar o‘nligiga kirdi. 1971-yildan boshlab zavodda 999.9 probali sof oltin olinishi boshlandi. 2-gidrometallurgiya zavodida ishlab chiqarilgan yuqori sifatli oltin xorijda ham tan olindi.

Ma’lumki, SSSR davrida oltinni yuqori sifatda, ya’ni 999.9 probada faqat 2 ta zavod – Rossiyaning Novosibirskdagi va Zarafshondagi 2-gidrometallurgiya zavodlaridan olingan. Kombinat faxriysi L.G.Anashkinning yozishicha, 1972-yilda Yaponiya hukumati tomonidan imperatorning tug‘ilgan kuniga esdalik nishonlarini tayyorlash uchun SSSRdan 200 kilogramm oltin sotib olinadi. Yaponlar sotib olingan oltinni Shveysariyadagi laboratoriyada tahlildan o‘tkazishadi. Tahlillar oltinning 999.9 probada emasligini ko‘rsatadi. Yaponlar bu bo‘yicha o‘z noroziliklarini bildirishganda, SSSRdan oltin yetkazib bergan tashkilot yaponlarga sifatsiz oltin uchun jarima to‘lashga majbur bo‘lgan. Bu oltin Novosibirskdagi zavodda ishlab chiqarilgandi. Sovet hukumati Yaponiyaga keyingi oltin qo‘ymalarini O‘zbekistondan, ya’ni “Muruntov” konidan qazib olingan va 2-gidrometallurgiya zavodida ishlab chiqarilgan 999.9 probali oltindan jo‘natadi. Bu O‘zbekiston oltinining xalqaro standart talablarga javob berganligidan dalolat beradi.

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, 999.9 probali, ya’ni “sof oltin” umumlashtirilgan tushuncha bo‘lib, yuksak ishonchli va ishlab chiqaruvchilar mas’uliyatining eng yuqori darajasi hisoblanadi. Bu – eng zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalar hamda sohaning mohir xodimlari tomonidan 999.9 probali oltin qo‘ymalar zar suvi (azot kislotasi bilan xlorid qorishmasi) elektrolizi (elektr toki o‘tishida elektrolitga botirilgan elektrodlarda ro‘y beradigan elektro-kimyoviy oksidlash-qaytarilish jarayonlarining majmui) yo‘li bilan olinadi. 1972-yil 2-oktabrda 2-gidrometallurgiya zavodining ikkinchi navbati, 1975-yil may oyida esa uchinchi navbati ishga tushirildi. 1979-yil sentabrida zavodda tayyor mahsulot sexi, ya’ni oltinni affinaj qilish sexi tashkil etildi. 2-gidrometallurgiya zavodida 1972-yildan boshlab oltin bilan bir qatorda kumush307, 1980-yilda palladiy, 1981-yilda volfram olish texnologiyasi ishga tushirildi.

“Muruntov” konida ish boshlangandan so‘ng uning xomashyo bazasini kengaytirish, foydali qazilma zaxiralarini ko‘paytirish maqsadida kombinat kuchi bilan konning qanotlari va qismlarida qo‘shimcha qidirish ishlarini olib borish zarurati tug‘ildi. 1972-yilda tuzilgan geologik rejaga muvofiq, foydali qazilma Xulosa qilib aytganda, “Muruntov” konining ochilishi haqiqatda asr mo‘jizasi bo‘ldi. Sovet yillarida olib borilgan mustamlakachilik siyosati oltin qazib olish va undan kelayotgan foydani mahalliy aholi ehtiyojlari uchun foydalanish imkonini bermadi. Oltin ma’danlarning mavjudligini o‘zbek olimi I.Hamrabayev aniqladi va uning kimyoviy tarkibi bo‘yicha xulosalarini taqdim etdi. Garchi sovet davlati zavod va konchilik sohasida mahalliy aholiga nisbatan mensimaslik, asosan, metallurgiya yo‘nalishida rusiyzabon millatlarga mansub ishchi-xizmatchilarni jalb qilish siyosatini olib borgan bo‘lsada, oltin va margimushning pragenezisi, ya’ni ularning konlarda birga uchrashi borasidagi nazariya o‘zbek olimining salohiyati va bilim tajribasidan darak berar edi.

Oltin konidan olingan ma’danlarni qayta ishlovchi gidrometallurgiya zavodlarining qurilishi uning birinchi bosqichi bo‘lsa, konda mehnat qilayotgan ishchi-xodimlar uchun yangi shahar – Zarafshon shahrining barpo etilishi kon ishchilari ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Yangi sanoat korxonalarining ishga tushirilishi hududlarda aholining tez o‘sib borishiga sabab bo‘ldi, biroq korxonalarda asosan, rusiyzabon millatlarga mansub shaxslarning jalb qilinishi ishsizlikni kamaytirmadi, ijtimoiy notenglik kabi muammolar mavjud edi. Kondan 60-yillarda o‘rta bosqichda mahsulot ishlab chiqarildi, 70-yillarda oltin qazib olish va uni qayta ishlash 2 barobarga ko‘paydi. Keyingi yillarda, xususan, 70-yillar oxiri va 80-yillarda oltin qazib olish va rudani qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi korxona va zavod faoliyatining rivojlanishi kuzatiladi. Bu holat konlar soni oshishig va 2- gidrometallurgiya zavodi ishga tushirilishiga olib keldi.

O‘zbekiston Respublikasida mineral xomashyo zaxiralarini qazib olish va qayta ishlash istiqbollari, qimmatbaho, rangli va qora metallar, uran va ko‘mir ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda chet el investorlari uchun jozibador investitsiya muhitini takomillashtirish va salmoqli investitsiya loyihalarini yo‘lga qo‘yish imkoniyatlari oshib bormoqda541. Ayniqsa, 2017-yildan O‘zbekiston solnomasida yangi sahifalar, yangilanish va yuksalish davri boshlandi, bu konmetallurgiya sohasida ham tadrijiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Jumladan, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi542 hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi543 mamlakatimiz va xalqimiz hayotida yangi taraqqiyot bosqichini boshlab berdi544. Agar mazkur siyosatning amalda ko‘rinishini kombinatlar miqyosida qo‘rib chiqsak, 2017-2024-yillarda qo‘lgan kiritilgan eng muhim natijalarni tahlil qilishimiz mumkin bo‘ladi.

NKMK − O‘zbekistondagi kon-metallurgiya sohasining eng yirik sanoat birlashmasi. Kombinat tomonidan keyingi yetti yilda yiliga 5 million tonna ma’danni qayta ishlaydigan 5-gidrometallurgiya zavodi, yillik quvvati 16 million tonna texnogen chiqindini qayta ishlashga mo‘ljallangan 7-gidrometallurgiya zavodi, 2-gidrometallurgiya zavodining yiliga 12 million tonna ma’danni qayta ishlaydigan ikkinchi navbati, Nurota tumanida “Pistali” koni negizida yiliga 4 million tonna ma’danni qayta ishlaydigan 6-gidrometallurgiya zavodi foydalanishga topshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-yanvardagi “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” davlat korxonasi va “Olmaliq kon-metallurgiya “Muruntov” dunyodagi oltin zaxirasiga ega eng yirik kon sifatida e’tirof etilib, uning resursi 4,5 ming tonnadan ortiq baholangan582. 2021-yilda O‘zbekiston oltin ishlab chiqarish bo‘yicha 9-o‘rinni egalladi583. 2022-yilda dunyodagi Top-10 ta eng yirik oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalar ro‘yxatida Navoiy konmetallurgiya kombinati 4-o‘rinni egalladi. Unga ko‘ra, 2022-yilda 2 million 830 ming unsiya oltin ishlab chiqarilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-yanvardagi “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-99- sonli qaroriga muvofiq, shuningdek, 2022-yilda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida kombinat tomonidan jami 167 ta loyiha bo‘yicha 537,6 milliard so‘mlik, shu jumladan, 114 ta yangi va kengaytirilgan loyihalar bo‘yicha 366,9 milliard so‘mlik mahalliylashtiriladigan mahsulot ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мурунтау. Золоторудное месторождение Мурунтау. Ташкент: “Издательство “ФАН” Академии наук Республики Узбекистан, 1998.
2. Исломов О.И. Из истории геологических знаний в Средней Азии.-Ташкент: “Фан”, 1977.
3. Массон М.Е. К истории горного дело на территори Узбекистана.-Ташкент, 1953.
4. Rtvladze Ye. O‘rta Osiyoning qadimgi tangalari.-Toshkent: “G‘afur G‘ulom”, 1987.
5. Hamraboev I.H. O‘zbekiston oltini.-Toshkent: “Fan”, 1968.

IV.20.Baxtiyorzoda O.B. O‘zbek oltini. –Toshkent: “Fan va tehnologiya”, 2019.

6. Sanaqulov Q, Raupov X, Xaitova O. O‘zbekistonda kon-metallurgiya arixi. –Toshkent: “Mashhur Press”, 2019.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, 4740-sonli fond, 1938 yil, №12-hujjat.
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, 837-sonli fond, 1958 yil, №45-hujjat.
9. Muruntov dunyodagi eng yirik oltin koni maqomini saqlab qoldi. Kun.uz, 2022 yil 29 aprel. https://kun.uz/news/2022/04/29/muruntov-dunyodagi-eng-yirik-oltin-koni-maqomini-saqlab-qoldi
10. Muruntov dunyodagi eng yirik oltin qazib olish koni. Gazeta.uz, 2021 yil 9 mart. https://www.gazeta.uz/oz/2021/03/09/muruntau/
11.Navoiy kon-metallurgiya kombinati rasmiy sayti: https://actual.ngmk.uz/uz/home/pressa/704-interesting-facts-from-the-history-of-nmmc.html.

SHOXETOV ISTIQBOLLI MAYDONI MA’DAN QIDIRUVNING MINERALOGIK-GEOKIMYOVIY BELGILARI (AUMINZA TOG‘LARI)

Qodirov O.Z.*, Meliqulov M.M.*

**Geologiya fanlari universiteti, E-mail:* olimjonqodirov05@gmail.com, muhriddinmeliqulovoo@gmail.com.

Annotatsiya. Auminzatov tog‘larining g‘arbiy qismidagi Shoxetov istiqbolli maydonidagi ma’dan qidiruvning mineralogik-geokimyoviy belgilari haqida ma’lumotlar keltrilgan. Maydon uchun oltin-kumushga ishonchli mineralogik-geokimyoviy belgilar aniqlangan.

Аннотация. Приведены сведения о минералого-геохимических признаках геологоразведочных работ на перспективной площади Шохетау в западной части гор Ауминзатау. Для площади определены достоверные минералого-геохимические признаки на золото-серебро.

Abstract. Information on the mineralogical and geochemical features of prospecting in the Shokhetau prospective area in the western part of the Auminzatau Mountains is presented. Reliable mineralogical and geochemical features for gold and silver have been identified for the area.

Mineralogik-geokimyoviy tadqiqotlar ma’danli foydali qazilmalarni qidirishda yuqori samarador usullardan hisoblanadi. Chunki yer po‘stida elementlar keng miqyosli tarqalish oreollarini shakllantiradi va ular ma’danli maydonlarda yaqqol namoyon bo‘ladi [5]. Shu sababdan yangi qidiruv maydonlarida, turli tog‘ jinslari bilan bog‘liq oltin ma’danlaridagi asosiy va hamroh elementlar tarqalish xususiyatlarini aniqlashga alohida e’tibor qaratiladi. [2].

Auminzatov tog‘lari Markaziy Qizilqumning janubiy-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, geotektonik jihatdan Janubiy Tyan-Shan struktura-formatsion zonasining Zarafshon-Turkiston burmalangan sistemasiga kiradi [1-3]. Shoxetov istiqbolli maydoni Auminza tog‘larining janubiy-g‘arbiy qismida, Janubiy ma’dandor zonaning tektonik tarmoqlarida joylashgan. Ma’dan qamrovchi jinslar tarkibi turlicha bo‘lib, kechki paleozoy eratemasiga taalluqli besapan svitasi uglerodli slaneslar, alevrolit va qumtoshlardan tashkil topgan. Markaziy Qizilqum mintaqasida ish olib borgan ayrim tadqiqotchilar besapan svitasi jinslarini o‘rganishga e’tibor qaratib, ular bu svita terrigen jinslardan tashqari vulkanogen hosilalardan ham iborat ekanligini ta’kidlab o‘tishgan [4].

Mineralogik-geokimyoviy tadqiqotlarning amaliy ahamiyati alohida ma’dandor maydonlarni ajratishning qidiruv-baholash belgilarini aniqlashdan iborat. Quyida ma’danlashuvni izlash uchun muhim bo‘lgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Mineralogik qidiruv belgilari. Shoxetov istiqbolli maydoni uchun quyidagi mineralogik qidiruv belgilari xosdir:

- oltin va kumushning telluridlari (gessit, petsit, shtyutsit), sulfoantimonitlar assotsiatsiyalari:
- mis, surma, qo‘rg‘oshin va kumushning sulfosollari (tetraedrit, bulanjerit va boshqalar);
- ma’dan hosil bo‘lishining yuqori sathlari uchun xos hisoblangan selenning o‘zi hosil qilgan klaustalit kabi minerallaridan tashqari boshqa minerallarda aralashma sifatida keladigan Se-galenit, Se-antimonit, Se-bulanjerit minerallarining mavjudligi;
- ma’dan zonalari uchun dala shpatlardan albit tavsifli;
- sulfidlar uchun selen, surma, qurg‘oshin, nikel, rux element-aralashmalari xususiyatli bo‘lib ular ma’dan hosil qiluvchi eritmalar tarkiblarini aks ettiradi;
- mahsuldor assotsiatsiyalardagi piritlarning xususiyatlari bo‘lib margimushning nisbatan yuqori miqdori xizmat qiladi.

Geokimyoviy qidiruv belgilari. Tadqiqot maydoni uchun quyidagi geokimyoviy qidiruv belgilar xos hisoblanadi:

- ma’danlashuv asosan, oltin-margimush kamroq darajada oltin-kumush-selen-surma mineral-geokimyoviy turlari bilan tavsiflanadi;
- oltin-kumush ma’danlashuv uchun oltinning margimush, tellur, kumush va surma bilan yuqori korrelyatsion bog‘liqliklari xos;

- oltin-kumush ma’danlashuvlarning qidirish belgilari bo‘lib, margimush, selen, surma va tellur lar xizmat qiladi.

Tadqiqot maydonida namoyon bo‘lgan mineralogik-geokimyoviy mezonlar asosida oltin-kumush ma’danlashuvi uchrashi ancha istiqbolli bo‘lgan Sharqiy Shoxetov maydoni barkamol uchastka sifatida ajratildi.

Shoxetov maydonning sharqiy qismidagi istiqbolli uchastka quyidagi belgilar bilan asoslanadi:

- subkenglikda tarqalgan juftlashgan yer yoriqlar aniqlangan, bu esa ma’danlashuvning joylashishlari uchun qulay sharoit hisoblanadi;

- ushbu yoriqlanish zonalarida tog‘ jinslarining kuchli burdalanish, kvarslashuv va temirlanish jarayonlarining kuzatilishi;

- ma’danoldi o‘zgarishlarining faolligi maydonning sharqiy yo‘nalishida ortib boradi;

- olingan namunalarda margimush, kumush, surma ning nisbatan yuqori miqdorlari mavjudligi;

- kumush-selen-surma guruhida barqaror korrelyatsion bog‘liqliklar hosil qilishi;

Namoyon bo‘lgan geologik va mineralogik-geokimyoviy mezonlar asosida tadqiq qilayotgan maydonda yashirin oltin-kumushli ma’danlashuv uchrashiga istiqbolli bo‘lgan Janubiy-sharqiy Shoxetov uchastkasi ajratildi.

Ushbu mezonlar quyidagilardan iborat:

- ajratilgan uchastka maydonida shimoliy-qarbiy va shimoliy-sharqiy yo‘nalishlardagi yirik yer yoriqlari kesishgan va ular tog‘ jinslarining kuchli burdalanish, kvarslashuv va temirlashuv zonalari bilan tavsiflanadi;

- olingan namunalarda tog‘ jinslari jadal ravishda limonitlashgan, brekchiyalashgan zonalarda tomirli kvars bo‘laklari getit va gidrogetit bilan sementlashgan;

- tomirli hosilalardan kvars bilan birga ingichka karbonat, kvars-xlorit kesishmalari kuzatiladi;

- ikkilamchi minerallardan malaxit, azurit va mis ko‘ki keng tarqalgan;

- ayrim namunalarda margimush, mis, rux, surma va selenning klarklariga nisbatan yuqoriroq (12-17 marta) ko‘rsatkichlari aniqlangan.

Xulosa. Tadqiqot maydonida oltin-kumush ma’danlashuvini izlash-baholash belgilariga (oltindan tashqari) kumush, surma, margimush, selen larning yuqori miqdorlari, telluridlar, selenidlar, turli sulfotuzlarning sulfidlar bilan assotsiatsiyalari, hamda asosiy minerallarda ko‘rsatilgan elementlar aralashmalarining ishtirok etishi xususiyatli hisoblanadi.

Ma’danlashuvning geokimyoviy va mineralogik xususiyatlari hududda yashirin oltin ma’danlashuvini bashorat qilish va izlash mezonlari sifatida qo‘llanilishi asosida maydonda Janubiy-sharqiy Shoxetov istiqbolli uchastkasi ajratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Карабаев М.С. Геохимические особенности золото-редкометалльного и золото-серебряного оруденения Букантау и Ауминзатау, их прогнозное значение. Горный вестник Узбекистана. - Навои, 2017.- №2.- С. 83-88.
2. Амиров Э.М., Карабаев М.С., Джурабаев А.Б., Оролов А.К. Ауминзатов тоғи интрузив тоғ жинслари таркибига оид янги маълумотлар (Ғарбий Ўзбекистон) / Сб. мат. межд. научно-практ. конф. Актуальные проблемы нефтегазовой геологии и инновационные методы и технологии освоения углеводородного потенциала недр. - Т.: 2019. – 293-298 с.
3. Бухарин А.К., Масленникова И.А., Пятков А.К. Домезозойские структурно-формационные зоны Западного Тянь-Шаня. Т.: Фан,1985. – 152 с.
4. Карабаев М.С. Минералого-геохимические особенности золотого и золото-редкометального оруденения гор Ауминзатау и Букантау и поисково-оценочные критерии: Автореф. дисс. докт. г-м. наук. – Т.: 2017. – 78 с.
5. Қодиров О.З., Юсупов А.Б., Хайдарова Н.Д. Ғарбий Ауминзатов майдонидаги маъдан қамровчи жинсларнинг минералогик-петрографик тавсифи/ Ер ҳақидаги фанларнинг долзарб муаммолари мавзусидаги Республика илмий конф. мат. – Т. 2023. - С. 200-203.

TUYACHOVUL UCHASTKASIDAGI MA’DANLI TOG` JINSLARI VA MINERALOGIK XUSUSIYATLARI

Qudratov R.S.*, Xanayev S.I. **, Mamirov N.M.***
**H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti,*
email ramazonqudratov889@gmail.com.
*** “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ tarkibidagi Toshkent MGQE.*
*** *Geologiya fanlari Universituti.*

Annotatsiya. Tuyachaul uchastkasidagi ma’danli tog‘ jinslari va ularning mineralogik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda ushbu hududdagi asosiy tog‘ jinslari turlari aniqlanib, ularning tarkibiy minerallari va minerallarning xossalari o‘rganildi. Geologik va mineralogik tahlillar asosida tog‘ jinslaridagi foydali qazilmalar mavjudligi ko‘rsatildi.

Аннотация. Исследование посвящено изучению рудоносных пород района Туячаул и их минералогических свойств. В ходе исследования были выявлены основные типы горных пород района, изучены слагающие их минералы и их свойства. На основании геолого-минералогических исследований установлено, что породы содержат минералы.

Abstract. Dedicated to the study of ore rocks and their mineralogical properties in the Tuyachaul section. In the study, the main types of rocks in this area were identified, and the properties of their constituent minerals and minerals were studied. Based on geological and mineralogical analyses, the presence of minerals in the rocks was shown.

Ma’dan qamrovchi tog‘ jinslarining moddiy tarkibini o‘rganish geologiyaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki, yer po‘stida ma’danli minerallar keng miqyosli tarqalish oreollarini shakllantiradi va ular alohida ma’danli maydonlardagi turli tarkibli tog‘ jinslarining moddiy tarkibi o‘rganilganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Maydonni o‘rganishga qaratilgan turli maqsaddagi geologik tadqiqotlar so‘nggi yillarda ham to‘xtagani yo‘q.

Ma’muriy jihatdan Qizilolmasoy ma’danli maydoni O‘zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati, Ohangaron tumani xududida joylashgan. Tuyachaul koni Ohangaron daryosining O‘ng qirg‘og‘ida, janubiy tog‘oldi hududida joylashgan.

Ma’danli maydon hududida qadimiy tog‘-kon ishlanmalarining mavjudligi birinchi bo‘lib 1913-yilda V.N.Veber tomonidan qayd etilgan.


1959-yildan 1972-yilgacha rayonda geologik-qidiruv ishlari (X.Y.Axmedullin, A.A.Adelung, K.Y.Lyashenko va boshqalar), geofizikaviy (B.I. Chistiy, A.A.Volfovich va boshqalar) va tematik (R.P.Badalova, M.O.Suleymanov va boshqalar) ishlar olib borilgan.

Konlarning shakllanishi makon bo‘yicha subduksion-kollizion tabiatidagi – O‘rta Tyanshanning vulqon-plutonik va Janubiy Tyanshanning burmalangan-surilmali kamarlari (R.X. Mirkamalov, F.K. Divayev, R.S. Seltmann, D.L. Konopelko, 2018) lokal plyumli magmatizm namoyonlari mavjud. (F.I.Islamov, 1997) kechki paleozoy viloyatlari bilan bog‘lanadi.

Olingan namunalar asosida tayyorlangan silliqlangan shliflar bo‘yicha tog‘ jinslarining petrografik-mineralogik va strukturaviy xususiyatlarini batafsil o‘rganish uchun zamonaviy va yuqori aniqlikdagi “Nikon ECLIPSE LV100N POL” mikroskopidan foydalanildi, ular rasmga olinib, tog‘ jinslari batafsil tavsiflandi.

Tuyachavul maydonida tarqalgan ma’dan qamrovchi tog‘ jinslari petrografik tarkibi bo‘yicha turli tarkibli tufoqumtoshlar, tufolavalar, tufoandezitlar, andezidatsitlar, andezibazaltlar, kvarsli diorit porfiritlar, granitlar (leykokratli, melonakratli, plagio, biotitli), granosiyenitlardan tashkil topgan. Bu tog‘ jinslari jadal gidrotermal ikkilamchi o‘zgarishlar natijasida berezitlashgan, propillitlashgan, sosyuritlashgan, xloritlashgan, leykoksenlashgan, kaolinlashgan, pelitlashgan, albitlashgan, aktinolitlashgan, kvarslashgan, brekchiyalashgan, turli tarkibli qumtoshlar va turli tarkibdagi granitlar uchraydi.

Turli tarkibdagi qumtoshlar tarkibida pirit 0,5% dan 7 % gacha, leykoksenlar 0,5%dan 0,7%gacha galinet 0.5%gacha uchraydi. Teksturasi notekis qatlamlashgan, yaxlit va kam miqdorda xol xolli ko‘rinishlarda uchraydi. Strukturasi o‘rta donali pisamitli, notekis donador, o‘rta yirik donali pisamitli ko‘rinishlarda uchraydi. (1-rasm).




a b c

1-rasm. **Hududda tarqalgan turli tarkibli qumtoshlarning mikroskopik korinishlari: *a*-piritning kam uchraydigan kristalloblastlari, *b*- kam uchraydigan pirit idioblastlari va mayda donali noma’dan kvars tomirchasi bilan albitlashgan andezitli tufoqumtosh, c-andizitli tufaqumtosh silliqlangan shlif rasmlari: *a*-parallel nikolda korinishi, *b*-kesishgan nikoldagi korinishlari.**

Turli tarkibdagi granitlar tarkibida pirit 0,01%dan 3%gacha, xalkopirit 1,5% da uchraydi. Strukturasi gipidiomorf yirik donali, o‘rta donali, yirik donali ko‘rinishlarda uchraydi. Teksturasi kamyob xol-xolli, kataklastik, brekchiyali, piritning xol xol tarqalishi bilan yaxlit ko‘rinishlarda uchraydi (2-rasm).

Barcha silliqlangan shliflarda ma’danli minerallardan faqat idioblastik pirit bir xil miqdorda va shakllarda: shoxsimon va tuproqsimon, g‘ovak-to‘rsimon kristallargacha aniqlandi. Tuflarda boshqa sulfidli (ma’danli) minerallar deyarli kuzatilmaydi, faqat o‘zgargan granitoidlarda ba’zan mikrodonalarda magnetit mikrozarralari ko‘rinadi.



a b c

2-rasm. **Turli tarkibli granitlarning mikroskopik ko‘rinshlari, *a* parallel nikollarda piritning ko‘rinishlari, *b* kesishgan nikollarda piritning mikroskopik ko‘rinishi, *a*-xloridlashgan biotitli granit, *b*-leykokratli granit, *c*- yirik donali plagiogranit.**

Xulosa. Tuyachoul uchastkasida olib borilgan geologik va mineralogik tadqiqotlar natijasida hududdagi ma’danli tog‘ jinslarining petrografik va mineralogik tarkibi aniqlanib, ularning mineralogik xususiyatlari batafsil o‘rganildi. Maydonda turli tarkibli tufoqumtoshlar, tufolavalar, andezitlar, andezibazaltlar, granitlar va granosenitlar mavjudligi aniqlandi. Ushbu jinslar jadal gidrotermal o‘zgarishlarga uchrab, turli o‘zgarish tiplarida (propillitlash, xloritlash, kaolinlash va boshqalar) o‘zgarishga uchragan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:
1. Sharqiy Olmaliq metosomatitlari. ‘‘Metosomatizm va ma’danli shakllantirish to‘plami. Lelengrad 1976.
2. Chotqol Qurama viloyati ma’dan konlari va konlarning atlasi. , 1983 FAN Toshkent.
3. Бутьева Е.Р. Дабижа И.И., Викторов В.Ф. Рахубенков А.Т. Закономерности размещения меднопорфировых месторождений в Алмалыкском районе. тезисы "Совещания по геологии медно- порфировых месторождений", Ташкент, 1971.
4. Бутьева Е.Р, Пономаренко Л.К. и ДР Генеральный подсчет запасов месторождения Кальмакыр по состоянию на 1.01.1971г. фонда Алмалыкской ГРЭ, 1974.
5. Федоров И.Б., Кулаков А.А., Коломиченко В.П. и др. Отчет по теме: «Прогнозная карта Алмалыкского рудного района масштаб 1:25000». 1963г. Фонды ГРЭ.

BASHTAVAK MA’DAN NAMOYONIDA OLTIN MA’DANLARI JOYLASHUVINING GEOLOGIK-STRUKTURAVIY OMILLARI

Rasulov F.M.*, Xolmurodov T.T.**
**H.M. Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti*
***Mineral resurslar instituti DM, e-mail: farruh@internet.ru, kholmurodovtt@gmail.com.*

Annotatsiya. Bashtavak ma’dan namoyoni O‘rta Tyanshan tizmasidagi Qurama tog‘ tizmasining shimoliy yon bag‘rida, Miskonsoy yorig‘i janubiy qismida joylashgan. Hudud geologik-strukturaviy jihatdan Yuqori Qoraqiyasoy va G‘arbiy Arabuloq bo‘limlariga ajraladi. Magmatik, vulkanogen va intruziv jinslar ustida shakllangan hududda gidrotermal jarayonlar natijasida oltin-kumush, shuningdek, mis va vismutli ma’danlashuv hosil bo‘lgan. Ma’danlashuv asosan yirik tektonik yoriqlar — Bashtavak, Kaskanasoy, Arabuloq, Tangilsoy va Ishakashu yoriqlari bilan bog‘liq. Ular bo‘ylab rivojlangan maydalangan, kvarslangan va seritsitlangan zonalar oltinning asosiy konlanish maydonlari hisoblanadi. Eng yosh yoriqlar bo‘ylab sizib chiqqan flyuidlar oltinning asosiy tashuvchisi bo‘lib, ular istiqbolli qidiruv mezonlari sifatida ahamiyatlidir.

Annotation. The Bashtavak ore occurrence is located on the northern flank of the Qurama Mountains within the Middle Tien Shan system, south of the Miskonsoy fault zone. The area is structurally divided into the Upper Qoraqiyasoy and Western Arabuloq sectors. It is composed of magmatic, volcanogenic, and intrusive rocks, with gold-silver mineralization formed through post-Devonian hydrothermal processes. The mineralization is mainly controlled by major fault zones, including the Bashtavak, Kaskanasoy, Arabuloq, Tangilsoy, and Ishakashu faults. These faults host zones of intense brecciation, quartz-sericite alteration, and sulfide enrichment. Fluids migrating along the youngest faults are considered the main carriers of gold, and their study can serve as a key criterion for future gold exploration.

Bashtavak ma’dan namoyoni O‘rta Tyan-Shan sistemasi Qurama tog‘ tizmasining Shimoliy yon bag‘rida, Miskonsoy yer yorig‘ining janubiy qismida joylashgan [1]. Hudud geologik-strukturaviy jihatdan 2 qismga bo‘lingan: Yuqori Qoraqiyasoy va G‘arbiy Arabuloq.

Yuqori Qoraqiya bo‘limi uchastkaning shimoliy chegarasi Bashtavak yorig‘i, janubiy chegarasi esa Kaskanasoy yorig‘i bo‘ylab o‘tadi. Mazkur bo‘limda ordovik-silur (O_3-S_1sr) davri qumtosh-alevrolit-slaneslari, devon davrining slaneslari (D_1kt), dolomitlar va ohaktoshlardan iborat. Shuningdek karbon davri aqcha svitasi (C_2ak_1) vulkanogen kompleksining andezit datsit porfirlari mavjud bo‘lib, ular turli joylarda ordovik silur slaneslarini qoplagan. Hududda intruziv hosilalar quyi devon oldi (S_2-D_1), jivet oldi (D_{1-2}), Kuyundi (C_{2-3},) va kanimansur (T_1?) komplekslaridan iborat


G‘arbiy Arabuloq maydoni Qoraqiya soyining chap qirg‘og‘ida, Qoraqiya va Tangil soylari oralig‘ida joylashgan. Shimoliy chegarasi Kaskanasoy yorig‘i bo‘ylab, janubi-g‘arbiy chegarasi Tangil soyidan, sharqiy chegarasi Arabuloq konini o‘z ichiga olgan Arabuloq mintaqasi bo‘ylab, janubiy chegarasi esa suv ayirg‘ichning yuqori qismidagi janubiy yonbag‘ri bo‘ylab o‘tadi. Maydon yuqori aqcha kichik kompleksining subvulkanik datsitlaridan tashkil topgan bo‘lib, ular minbuloq svitasi konglomeratlarini (ehtimol, aqcha svitasining bazal qatlamlarini) kesib o‘tadi va so‘x (Q_I) hamda Toshkent (Q_{II}) komplekslarining to‘rtlamchi davr yotqiziqlari bilan qoplangan. Konglomeratlar D_{1-2} davrining kvars porfirlari va granodiorit-porfirlari ustida joylashgan.

Hududda intruziv hosilalardan Qalqonata turidagi biotitli granodiorit-porfirlari mavjud. Tog‘ jinslari pushti-kulrang rangda, massiv teksturali va yirik porfirli strukturali bo‘lib, kaliyshpatning yirik ajralmalari 1,5-2,0 sm gacha yetadi.

Hududda tektonik jarayonlar kechki kaledon, gersin va alp sikllari davomida sodir bo‘lgan bo‘lib, natijada burmali hamda uzilmali buzilishlarni yuzaga keltirgan.

Bashtavak ma’dan namoyonida asosan oltin-kumush ma’danlashuvi uchraydi. Shu bilan bir qatorda ma’danlashuv jarayonida mis, vismut va boshqa metallar ham hosil bo‘lgan. Ma’danlashuv devon davri magmatizmidan keyingi gidrotermal jarayonlarning hosilasi bo‘lgan kvars tomirlari bilan bog‘liq [2]. Gidrotermal jarayonlar sodir bo‘lishidagi muhim strukturaviy omillardan bu yer yoriqlari hisoblanadi [3].

Hududda bir qancha yer yoriqlari mavjud bo‘lib, eng yirik yoriq Bashtavak yer yorig‘i hisoblanadi. Yer yorig‘i Qoraqiyasoyning o‘ng sohili bo‘ylab o‘tadi va subkenglik yo‘nalishiga ega. Yoriqning tushish burchagi turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi: shimolga tomon vertikalgacha (55°-90°) va janubga tomon vertikalgacha (70°-90°). Bizning ma’lumotlarimizga ko‘ra, u janubga 75°-85° burchak ostida tushadi. Yoriq zonasi jinslarning kvarslanishi, oqarishi va maydalanishi bilan ifodalanadi. Yoriq zonasida qo‘rg‘oshin, vismut va oltinning yuqori miqdori aniqlangan. Yoriq zonasining qalinligi 300-400 metrni tashkil etadi. Siljish xususiyatiga ko‘ra, yoriq turli yillardagi tadqiqotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, 300 dan 400 metrgacha bo‘lgan vertikal siljish amplitudasiga ega hisoblanadi.



1-rasm. Bashtavak maydonining sxematik geologik xaritasi.

1-to‘rtlamchi davr zamonaviy yotqiziqlari, 2-yuqori akcha kompleksi datsit va riodatsitlar, 3-quyi aqcha andezit-datsitlari, 4-biotitli kvarsli porfirlar va granit-porfirlar, 5-yer yoriqlari.

Kaskanasoy yorig‘i ma’dan namoyonining g‘arbiy qismida kuzatiladi, uning yo‘nalishi shimoli-sharqdan (60°) sharqiy qismda kenglikkacha o‘zgaradi. Uning tushish burchagi g‘arbda shimolga (65°-75°), sharqiy yo‘nalishda janubga (70°-80°) qarab. Kaskanasoy yorig‘i umumiy qalinligi 20 dan 150 metrgacha bo‘lgan ikkita maydalanish zonasi bilan ifodalangan bo‘lib, ularda kvarslanish, seritsitlanish, xloritlanish, karbonatlanish rivojlangan. Yoriq zonasiga alohida mis-vismut namoyonlari to‘g‘ri keladi. Morfogenetik turiga ko‘ra, yoriq vertikal siljish amplitudasi taxminan 500 metr bo‘lgan uzilma hisoblanadi.

Arabuloq yorig‘i sharqqa 40°-85° burchak ostida submeridional yo‘nalishda kuzatiladi. Arabuloq yorig‘ining janubiy qismi Temir va Jangaliq yoriqlari bilan janubi-g‘arbga 2,5 kilometrga siljigan. Yoriqning qalinligi 50 metrdan 250 metrgacha. Yoriq zonasidagi barcha jinslar kuchli maydalangan, o‘zgargan, kvarslangan, seritsitlangan, piritlangan va karbonatlangandir. Kvarslanish bir qator kvars tomirlari bilan ifodalanadi. Arabuloq yorig‘ining deyarli butun uzunligi bo‘ylab kuchsiz oltin-kumush ma’danlashuvi qayd etilgan.

Tangilsoy yorig‘i Temir yorig‘idan shimoli-sharqiy yo‘nalishda kuzatiladi. U janubi-sharqqa 70°-80° burchak ostida tushadi. Yoriq butun uzunligi bo‘ylab qalinligi 50 metrgacha bo‘lgan tog‘ jinslarining tiniqlanish, maydalanish va kataklaz zonasi, shuningdek, kvars va barit tomirlari bilan ifodalanadi. Kvars tomirlari bilan to‘ldirilgan yoriq bo‘ylab slaneslarda greyzenlanish va kvarslanish rivojlangan. Shimoli-sharqiy qanotda Tangilsoy yorig‘i ham chap ko‘tarilma-siljish bo‘lib, gorizontal siljish amplitudasi 25 metr, vertikal siljish amplitudasi esa 350 metrni tashkil etadi. Zonada mis-vismutli va polimetalli minerallashuv qayd etilgan [3].

Ishakashu yer yorig‘i hududdagi eng yosh yer yorig‘i bo‘lib barcha yer yoriqlari va ma’danlashuv zonalarini kesib o‘tadi. Bu yer yorig‘i yaqinida maydalangan tog‘ jinslari uchraydi.

Bashtavak maydonidagi oltinning yuqori miqdordagi ma’danlashuvida eng yosh bo‘lgan yer yoriqlar va darzliklar orqali sizib chiqqan flyuidlar tomonidan to‘ldirilgan. Bu flyuidlarda esa oltinning yuqori miqdorda kelishini ko‘rish mumkin. Bu o‘z navbatida hududda tarqalgan yoshroq darzliklar va ularning yon atrof jinslarini o‘rganish, pirovardida oltin va boshqa foydali qazilmalarni izlab topishda qidiruv me’zoni bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.M. Golovanov, R. Seltmann, A.A. Kremenetsky “The porphyry Cu-Au/Mo deposits of central Eurasia: 2. The Almalyk (Kal’makyr-Dalnee) and Saukbulak Cu-Au porphyry systems, Uzbekistan” 2005 y.
2. Zhiguo Cheng, Zhaochong Zhang, Fengmei Chai, Tong Hou, M. Santosh, A. Turesebekov, B.S. Nurtayev “Carboniferous porphyry Cu-Au deposits in the Almalyk orefield, Uzbekistan: the Sarycheku and Kalmakyr examples” 2017 y.
3. A.A. Abdurazzoqov “1984-1990-yillarda Olmaliq hududining janubiy qismidagi Bashtavak maydonida oltin va boshqa metallar ma’danlashuivini aniqlash bo‘yicha izlash ishlari” geologik hisoboti, 1990 y.

ZIRABULOQ-ZIYOVUDDIN TOG‘LARIDAGI QALAY MA’DANLASHUVIDA NAZORAT QILUVCHI OMILLARNING AHAMIYATI

Raxmatullayev F.F.*

**“Mineral resurslar instituti” DM, e-mail: farruxraxmatullayev6868@gmail.com*

Annotatsiya .Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘-ma’dan hududida joylashgan qalay konlarining shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy geologik omillar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida strukturaviy-tektonik, magmatik, litologik va gidrotermal omillarning qalay minerallashuvidagi roli kompleks tarzda o‘rganilgan. Shuningdek, geokimyoviy tahlillar asosida ma’danlashuv jarayonini boshqaruvchi asosiy omillar ajratib ko‘rsatilgan. Qalayga bo‘lgan global ehtiyoj ortib borayotgan sharoitda, ushbu omillarni chuqur o‘rganish qalay konlarini izlash va istiqbolli maydonlarni baholashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Abstract. The main geological factors influencing the formation of tin deposits located in the Zirabulok-Ziyovuddin ore region were analyzed. During the research, the role of structural-tectonic, magmatic, lithological, and hydrothermal factors in tin mineralization was comprehensively studied. Also, based on geochemical analysis, key factors controlling the mineralization process were identified. In the context of growing global demand for tin, a deep study of these factors is of great scientific and practical importance for the search for tin deposits and the assessment of promising areas.


Hozirgi vaqtda rivojlanib borayotgan texnika va texnologiyalar asrida, sun’iy intellekt, “yashil” iqtisodiyot hamda boshqa zamonaviy texnologiyalarda nodir metallarga talab ortib bormoqda. Shu sababli, ularning konlari va istiqbolli maydonlarini bashorat qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalarda qalayga bo‘lgan yuqori ehtiyoj uning boshqa metallar bilan qorishmalari xavfsizligi, toksikologik ta’sirining yo‘qligi hamda korroziyaga chidamli qoplama yoki qotishma sifatida qo‘llanilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu uning ahamiyatini yanada oshiradi [1,2].

Qalay sanoatda muhim rangli metallardan biri bo‘lib, elektronika, mashinasozlik, kimyo va boshqa ko‘plab tarmoqlarda keng qo‘llaniladi [3]. O‘zbekiston hududida, xususan, Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘li tizimida qalay minerallashuvining mavjudligi va yuqori istiqbolliligi bilan ajralib turadi. Shu sababli, qalay ma’danlashuvini shakllantiruvchi geologik omillarni chuqur o‘rganish zarurati mavjud.

Qalay konlarini izlash va baholashda geologik nazorat qiluvchi omillarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘li tizimida qalay ma’danlashuviga ta’sir ko‘rsatuvchi geologik omillarni aniqlashda bir qator kompleks geologik va geokimyoviy tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Har bir metod hududdagi ma’danlanish sharoitlarini chuqur tahlil qilishga yordam berdi. Quyida asosiy metodlar bayon etiladi:

Bloklarning tektonik holati. V.A. Korolyov, X.A. Akbarov, A.D. Shvetsov, F.A. Usmanov, R.X. Mirkamalov va boshqalar tomonidan tektonik omilning nazorat qiluvchi roli bir necha bor ta’kidlangan va ma’dan hosil bo‘lish jarayoni turli kuchlanishlar bo‘lib o‘tgan tektonik bloklarning bir xil bo‘lmagan solishtirma ma’danlashuvi bilan ifodalanadi. Raqamli geofizik xaritalar (1-rasm) va tektonika bo‘yicha materiallar bazasi tahlil qilingan.


Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘lari, shuningdek, eksperimental optik modellashtirish natijalari mintaqaviy gorizontal siqilish natijasida yer qobig‘ining siyraklashish sohalarini aniqlash imkonini berdi. 1-rasmda Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining strukturaviy-tektonik-geofizik sxemasi keltirilgan.



1-rasm. Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining strukturaviy-tektonogeofizik sxemasi (M.K. Turapova, M.A. Magaziner va boshqalar materiallari asosida).

Shartli belgilar: 1-Qutchi-Sappe yorig‘i; 2-Janubiy Hisor yorig‘i; 3-paleozoy poydevori; 4-chetik yorig‘i; 5-ko‘ndalang uzilmalar; 6-8 - yer qobig‘ining geofizik ma’lumotlar bo‘yicha cho‘zilishi: 6-kuchli, 7-o‘rtacha, 8-kuchsiz, 9-intruzivlar; 10-daraja. *a*-Au, *b*-Sn, *d*-W; 11-kompleks ma’danlashuvga mo‘ljallangan II-II; 12-regional siqilish yo‘nalishi. ZT-Zarafshon, K-Cht-Quljuq-Chaqilkalon terreynlari.

Bloklarni chegaralovchi yirik yer yoriqlar lokal cho‘zilish, siqilish yoki kuchsiz ifodalangan kuchlanish zonalarini shakllantirib, natijada bloklardagi tektonofizik vaziyatni murakkablashtiradi. Zarafshon va Kuljuk-Chaqilkalon terryenlarida qulay tektonik sharoitlar, vertikal siljishlarning mavjudligidan qat’i nazar, asosan har tomonlama siqilgan bloklardagi lokal cho‘zilish zonalari bilan bog‘liq. Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda bloklarning tektonofizik holati qalay ma’danini qulay joylashuv darajasini ballar asosida baholash imkonini beradi.




2-rasm. Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘-ma’dan hududi I tartibli Zarafshon terreyni (Sappe-Qutchi) yer yorig‘i va II tartibli yer yorig‘ida qalay ma’dani joylashuv xaritasi.

Shartli belgilar: 1-I tartibli yer yoriqlar Sappe-Qutchi (sappen mikstit zonasi); 2-II-tartibli yer yoriqlari (Janubiy Qo‘shquduq, Qarnob-Ketmonchi, Zirabuloq-Nurota); 3-Qalay ma’dan obyektlari (kon, ma’dan nomoyonlari, ma’dan nuqtalari); 4-qalay ma’dan tarqalish oreoli;
5-paleozoy ochilmalari.

Geokimyoviy oreollarining yer yoriqlar bilan bog‘liqligini tahlil qilish uchun Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larining 1:50 000 miqyosli blokli tuzilishi va qalay geokimyoviy oreollarining xaritalaridan foydalanildi. Buning uchun xaritaning osma va yotuvchi yon tomonlaridagi har bir yoriq bo‘ylab ulardan 1x1sm, 2x2sm kenglikdagi (mos ravishda 500x 500m, 1000x1000m) bufer zonalar ajratildi. Har bir hududning metallometrik oreollarning solishtirma ahamiyati aniqlandi [4,5].

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, 2-rasmda Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larini 2 ta yirik blokga (terreynga) ajratadigan Sappe-Qutchi yer yorig‘i (sappe mikstit zonasi) ma’danni nazorat qiluvchi ahamiyatga ega.

Yer yoriqlar yaqinida 500 m gacha bo‘lgan oraliqlarda oreollarning eng yuqori solishtirma qiymatlari qayd etilgan. 3-rasmda qalay, volfram geokimyoviy oreollari taqsimlanishining solishtirma qiymatlari o‘rtacha solishtirma qiymatdan 3,7-marta yuqori.



3-rasm. Qalay (ko‘k), volfram (olov rang) metallometrik oreollarining Zarafshon (Sappe-Qutchi) yer yorig‘iga (yoki Sappen mikstit qatlamiga) nisbatan taqsimlanishi.

Yoriqdan uzoqlashgan sari ma’danli elementlarning tarqalish oreollarining solishtirma qiymatlari keskin ravishda kamayadi.

Qalay, volfram geokimyoviy oreollarining blok ichidagi yoriqlarga (Janubiy Qo‘shquduq, Qarnob-Ketmonchi, Zirabuloq-Nurota) nisbatan bog‘liqligi ham shunga o‘xshash o‘rganildi.

Shimoli-sharqiy, shimoli-g‘arbiy, subkenglik va submeridional yer yoriqlar ko‘rib chiqilgan. Ushbu yoriqlarning joylashish zichligiga ko‘ra har ikkala blok (terreyn) da quyidagi ketma-ketlik kuzatiladi: shimoli-sharqiy, submeridional va shimoli-g‘arbiy.

Geologik-strukturaviy pozitsiyalari. Geologik-strukturaviy tahlil jarayonida ma’lum bo‘lgan barcha qalay ma’danli obyektlar 14 ta asosiy geologik-strukturaviy pozitsiyalarga to‘g‘ri kelishi aniqlandi tegishli baholarni ballarda oldilar.

Umuman olganda, turli yo‘nalishdagi yer yoriqlarning kesishish zonalarida, intruziv massivlarning kontakt oldi zonalarida, antiklinal burmalarning o‘qqa yaqin qismlarida, I-tartibli yer yoriqlar va ezilish zonalari bilan tutashgan zonalarida qalay m’danlashuvi kuzatiladi. Qalay joylashuvida eng qulay pozitsiyalar quyidagilar bo‘ldi: II-tartibli antiklinal burmaning o‘q oldi qismida (0-1000m); intruziv massivning endo-ekzokontakt zonasida (0-1000 m); subkenglik uzilmalarining ikkita subparallel shimoliy-sharqiy, shimoli-g‘arbiy submeridional uzilmalar orasidagi zonasida kuzatish mumkin [6].

Hududda qalay obyektlarining intruziv jinslar bilan turli litologik qatlamlar kontaktda joylashishi alohida ko‘rib chiqildi. Gilli slaneslar, tufli qatlamlar, qumtoshlar, dolomit va ohaktoshlarning intruziv massivlar bilan tutashgan zonalari eng qulay sharoit sifatida baholandi.

Geokimyoviy tahlillar orqali kassiterit, sheelit va boshqa nodir metallarning assotsiatsiyalari aniqlanib, ma’danlashuv tiplari bilan solishtirildi.

Intruziv massivlarning endo va ekzokontakt zonalarida metallogenik zonallik kuzatilishi tadqiqot metodikasining muhim qismi bo‘ldi. Tomsk kompleksi hamda Qoratepa-Zirabuloq majmuasi atrofidagi geologik ma’lumotlar asosida turli genetik turlar bo‘yicha ma’dan obyektlari joylashuv qonuniyatlari o‘rganildi.

Shuningdek, kersantit, spessartit daykalari hamda pegmatit intruziyalari ma’danlashuvni lokalizatsiyalashda muhim ko‘rsatkich sifatida qayd etildi. Regional siqilish kuchlari ta’sirida vujudga kelgan cho‘zilish zonalari geofizik tahlillar yordamida aniqlanib, istiqbolli hudud sifatida baholandi.

Tadqiqotda mavjud geologik va geofizik ma’lumotlar bilan bir qatorda yangi statistik va kartografik tahlil usullaridan foydalanildi. Hududning barcha qalay ma’danli obektlar va ularni nazorat qiluvchi omillar ma’lumotlar bazasida tavsiflandi. Har bir omilning ma’danni boshqaruvchi ta’siri fazoviy bog‘lanish koeffitsiyenti “d” orqali baholandi. Bu koeffitsiyent

obyektlar soni va omil ahamiyati nisbatidan kelib chiqib, lokalizatsiya qulaylik darajasini ko‘rsatadi. Turli litologik turlar va metasomatitlarda omillarning o‘zgaruvchanligi nisbiy ko‘rsatkichlarga aylantirilib, ularning umumiy ta’siri baholandi.

Natijada, akademik F.A. Usmonov tomonidan ishlab chiqilgan “Geologik tahlil” dasturi metodikasi asosida balli tizimda ifodalandi: $d \leq 0,3$ - 1 ball (kuchsiz bog‘liqlik), $0,3 < d \leq 0,5$ - 2 ball (ishonchli bog‘liqlik), $d > 0,5$ - 3 ball (yuqori bog‘liqlik). Shu tariqa, omillarning qalay ma’danlashuviga ta’siri miqdoriy jihatdan aniqlashtirildi [7].

Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘-ma’dan hududida olib borilgan kompleks geologik, geokimyoviy va geofizik tadqiqotlar natijasida qalay ma’danlanishini nazorat qiluvchi asosiy omillar aniqlab berildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tektonik tuzilmalarning, xususan, yirik yer yoriqlar va ularning kesishuv zonasi, intruziv massivlarning endo va ekzokontakt zonalari hamda burmalarning strukturaviy qismlari qalay minerallashuvining shakllanishi va lokalizatsiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, geokimyoviy tarqalish oreollar va metallometrik ma’lumotlar yoriqlar yaqinida yuqori konsentratsiyalarda qayd etilib, ularning qidiruv ishlari uchun muhim indikator sifatida foydalanish mumkinligi isbotlandi.

Shuningdek, intruziv komplekslar bilan turli litologik qatlamlarning kontaktda joylashuvi, kersantit va spessartit daykalari hamda pegmatit intruziyalari ma’danlanish jarayonida alohida rol o‘ynaydi. Statistik va fazoviy tahlillar natijasi bo‘yicha tektonik, magmatik va geokimyoviy omillarning ma’danlanishga ta’siri miqdoriy ko‘rsatkichlar orqali baholanib, balli tizimda ifodalandi.

Umuman olganda, Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larida qalay ma’danlanishining shakllanishida tektonik va magmatik omillar yetakchi bo‘lib, geokimyoviy belgilarning qidiruv amaliyotidagi ahamiyati juda yuqori ekani tasdiqlandi. Bu esa hududning metallogenik istiqbolliligini yanada kengroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Интернет-ресурс. Что такое графен и как он изменит нашу жизнь.
2. Подробнее на РБК: https://trends.rbc.ru/trends/ industry/ 5edfa 78d9a79473 224e8cfed? from=copy.
3. Интернет ресурс: https://nedradv.ru/nedradv/ru /ratings?rubric= 0a 8b7e f8e482110 b22e 0685d6 c3b1c93#cceb4.
4. Марипова С.Т. Использование статистических методов при реше- нии металлогенических задач в горах Тамдытау (Узбекистан. Матер.
5. Марипова С.Т., Пирназаров М.М. XIV Междунар. научно-практической конф./, А.Х. Мирабдуллаев. - Т. 2. - 2019. - С. 127–129.
6. Рудные месторождения Узбекистана / Отв. ред. И.М. Голованов. - Ташкент: ГИДРОИНГЕО, 2001. - С. 611.
7. Усманов Ф.А. Статистическая металлогения: задачи, методы и законы / Усманов Ф.А. // Геология и минеральные ресурсы. - 2005. - № 2. - С. 37-45.

JANUBIY PISTALI UCHASTKASI SLANETSLARINING TARKIBI

Shodmonov O.O.*, Mirusmanov M.A.*

**Toshkent texnika universiteti, shodmonovoydinxoja@gmail.com.*

Annotatsiya. Maqolada Janubiy Pistali uchastkasining geologik tuzilishi, hududda asosiy o‘rinni egallovchi slanetslarning tuzilishi, tarkibi, ma’danli minerallari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Shimoliy Nurota tog‘larida oltin izlash va qazib olish ishlari ancha yillar oldin boshlangan. Buni Konsoy, Sentob, Qorovulxona, Qoraquduq, Uzunsoqol, Davlatxo‘ja, Qo‘ng‘oraut va boshqa maydonlarda olib borilgan ishlar tasdiqlaydi. Pistali uchastkasi birinchi marta mustaqil obyekt

sifatida 1988-yilda Tandir maydonida olib borilgan qidiruv ishlari jarayonida (V.B.Joltkevich, 1985-1991) o‘rganilib, kam istiqbolli deb topilgan. 2001-yilda Samarqand Davlat geologiya qidiruv ekspeditsiyasi tomonidan bashoratlangan resurslar ma’lumotlari qayta ko‘rib chiqilib, 2001-2012-yillar oralig‘ida baholash bosqichi doirasida ishlar olib borilgan. Ushbu ishlar natijasida Pistali ma’danli maydoni va uning alohida istiqbolli uchastkalari ajratildi. Janubiy Pistali uchastkasi ushbu ma’danli maydonning alohida istiqbolli qismi sifatida ko‘rilib, uchastka sifatida chegaralandi. 2023-yildan boshlab esa, Janubiy Pistali uchastkasida dastlabki baholash ishlari amalga oshirilmoqda.

Ma’danli maydonda ma’danlashuv bosqichlari va oltin ma’danlarining shakllanish jarayonlarini o‘rganish uchun alohida tashkilotlarning izlanuvchi olimlari tomonidan katta hajmli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Pirnazarov M.M., Zavyalov G.E., Xamroyev I.O., Koloskova S.M. hududdagi oltin va margimush ma’danlari strukturaviy, magmatik va litologik omillar bilan nazorat qilinadi degan xulosani berishgan [4]. Abduazimova Z.M., Aleksandrova N.V., Tabatchenko L.M., Shaykurov N.B., Raximov A.D. oltin va boshqa foydali qazilmalar to‘planishi uchun tektonik strukturalar kesishgan joylardagi kuchli darzlashuv zonalari ham muayyan ahamiyatga ega ekanligini qayd etishgan [1]. Bundan tashqari, hududda Glux A.K., Mavlonov J.J., Mirkamalov P.X., Chirikin V.V., Nurxodjayev A.K., Asadov A.R., Risqidinov J.T., Ubaydullayeva Sh.A., Ishbayev X.D., Ganiyev I.N., Shukurov A.X. va boshqalar turli yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borib ma’danlashuv bilan bog‘liq xulosalar berishgan. Ammo, hududda oltin ma’danlashuvi bilan bog‘liq bahs-munozaralar shuni ko‘rsatmoqdaki, hududda oltin ma’danlashuvini va ma’danlashuv bilan bog‘liq jarayonlarni tadqiq qilish alohida yondoshuvni talab etadi.

Umuman olganda, Shimoliy Nurota tizmasining g‘arbiy qismidagi taskazgan va besapan svitalari yotqiziqlari bilan ko‘p miqdordagi oltin konlari va sochmalari, shuningdek, oltinning ko‘plab geokimyoviy tarqalish oreollari bog‘liq [2]. Bu hududda oltin ma’danlarining ko‘p sonli namoyonlari kuzatiladi. Strukturaviy jihatdan Pistali ma’danli maydoni uzunligi 70 km va eni 15 km gacha bo‘lgan Yombosh-Ustuk braxiantiklinalining g‘arbiy periklinal yopilishi bilan chegaralangan. Antiklinal o‘qining yo‘nalish azimuti 280-290^0, sharnirning yotish burchagi 10-30^0 [5].

Pistali konining minerallashgan oltinli zonalari metasomatik o‘zgargan jinslar bilan bog‘langan. Metasomatizmning darajasi sezilarli bo‘lib, Taskazgan svitasining yuzlab metr chuqurlikdagi deyarli butun qismini qamrab oladi. Metasomatizmning namoyon bo‘lishi darzlik va yoriqlar bo‘ylab juda notekis hamda nomuvofiqdir. Metasomatik o‘zgargan jinslarning tarqalish maydoni shimoliy yo‘nalishda ortadi. Ba’zi nuqtalarda metasomatizm butun yuzani qamrab olgan holda kuzatiladi [5].

Janubiy Pistali uchastkasining geologik tuzilishida yuqori proterozoyga mansub Taskazgan svitasining metamorflashgan terrigen-cho‘kindi jinslari ishtirok etadi. Bu jinslar Kattaich (o‘rta-yuqori karbon) va Gatcha (kechki karbon-erta perm) magmatik komplekslarining intruziyalari tomonidan kesilgan.

Taskazgan svitasi ikki nimsvitadan iborat: quyi *(PR_2ts_1)* va yuqori (PR_2ts_2).

Uchastkaning katta qismi *quyi nimsvita (PR_2ts_1)* jinslaridan tashkil topgan. Bu nimsvita tarkibiga kvars-slyudali, slyuda-kvarsli va uglerodli slanetslar, metaalevrolitlar, metaqumtoshlar kiradi. Ularning orasida qalinligi 1-5 metrdan 20-40 metrgacha bo‘lgan uglerodga boy va yashil xlorit-epidotli slanetslar, metakremniyli kvarsitlar va dolomitlar qatlamlari hamda gorizontlari uchraydi. Nimsvitaning umumiy qalinligi 2600 metrgacha yetadi.

Yuqori nimsvita (PR_2ts_2) yotqiziqlari hududning g‘arbiy qismida tarqalgan. Bu nimsvitaning asosiy tarkibiy qismi qalinligi bir necha santimetrdan o‘nlab va yuzlab metrgacha bo‘lgan ko‘p sonli metakremniyli kvarsitlar, marmarlashgan ohaktoshlar va dolomitlar qatlamlaridan iborat. Eng qalin qatlam nimsvita tagida rivojlangan bo‘lib, u ohaktoshlar, kvarsitlar va dolomitlarning bir-biri bilan almashinib yotishidan iborat. Kengaygan joyida qalinligi 150 metrgacha yetadi. Nimsvita albit-porfiroblastik slyuda-kvarsli, kristalli muskovit-dalashpat-kvarsli slaneslar,

gneyssimon jinslar, yashil kvars-epidot-xloritli (metatuflar) va albit-klinozoizit-xlorit-amfibolli (metabazaltlar) slaneslardan tuzilgan. Qatlamning umumiy qalinligi 1500 metrni tashkil etadi.

Magmatik hosilalar Kattaich va Gatcha komplekslarining intruziyalari hamda ularning daykali analoglari bilan ifodalangan.

Gravimetrik ma'lumotlarga ko'ra, tadqiqot olib borilayotgan hududda granit tarkibli ikkita "yashirin" intruziv jism aniqlangan: Pistali koni shimoli-sharqidagi Pistali massivi va konning g'arbidagi Qulquduq massivi. Har ikkala massiv ham yer yuzasidan 500-700 m chuqurlikda joylashgan Temirqobuq intruzivining davomi hisoblanadi.

Hududning asosiy *plikativ* tuzilmasi Gersin davrida shakllangan Yambosh-Ustuk braxiantiklinali bo'lib, u geologik xaritalash ishlari davomida (Usmonov, Startsev va boshqalar, 1984) Kulkuduksoy bilan Gatchasoy oralig'ida Ulus qishlog'igacha 10 km masofada kuzatilgan. Antiklinalning sharqiy qismi Temirqobuq intruzivining granitlari tomonidan kesilgan.

Darzliklar va uzilmalardan eng aniq qayd etiladigan tuzilmalar - odatda braxiform burmalarning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan bo'ylama strukturalardir. Morfologik jihatdan bular tik tushuvchi uzilmalar va ko'tarilmalardan iborat. Bu uzilish zonalari milonitlanish, tomirsimon kvarslanish va temirlanish bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo'llanildi:

1) Shu kungacha olib borilgan ishlarning materiallari bilan tanishish;
2) Dala ishlari jarayonida Janubiy Pistali uchastkasida litologik kesimlar tuzildi;
3) Janubiy Pistali uchastkasining 7-qidiruv chizig'i bo'yicha o'tilgan 2-transheyaning ariqchali usulda jami 10 ta namuna olindi. Namunalarning dastlabki 6 tasi to'rtinchi ma'dan tanadan, 4 tasi beshinchi ma'dan tanadan (oltin uchragan nuqtalar) olingan. Bu ma'dan tanalar uchastkaning sharqiy va shimoliy-sharqiy qismida o'rganilgan.


Tadqiqot ishlari olib borilayotgan maydon bo'ylab, turli nuqtalardan o'rganish uchun olingan namunalarni laboratoriya sharoitida tahlil qilish asosida hududda slanetslarning quyidagi turlari mavjudligi aniqlandi: *xloritli slanetslar, gilli slanetslar, serisitli slanetslar*. ***Xloritli slanetslar*** – ko'pincha asosli, ba'zida o'rtacha va nordon tog' jinslari tarkibida uchraydigan, rangli minerallar metamorfizm jarayonida xlorit bilan o'rin almashib qayta kristallanib qolgan jinslar. ***Gilli slanetslar –*** metamorfizmning boshlang'ich bosqichlarida hosil bo'ladigan, bo'laklarga tez ajraluvchi, gilli jinslarning siqilib qatlamsimon holatda kristallanib qolishidan hosil bo'lgan jinslar. ***Serisitli slanetslar*** – rangli slyudali minerallarning mayda zarrachlari hamda mayda kvars tomirchalaridan tashkil topgan qatlamlarning metamorfizm jarayoniga uchrashi hisobiga hosil bo'ladigan jinslar [3].

Xloritli slanetslar maydonning deyarli barcha nuqtalarida uchraydi. Slanetslarning asosiy bu turi yuza qatlamlarda asosiy tarqalgan tog' jinsi sifatida metamorfizmni hududda keng yoyilganini ifodalaydi. To'rtlamchi davr qoplamasi ostida asosiy jinslar ushbu turdagi slanetslar ekanligini kuzatish mumkin. Ba'zi nuqtalarda yuzasiga chiqib qolgan ochilmalarni ham kuzatish mumkin. Xloritli slanetslar kvarslar bilan ma'lum ketma-ketlikda qatlamga o'xshash shaklda tarqalgan bo'lib, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki metamorfizm jarayoni jadal kechayotgan vaqtda kvars tomirlari slanets qatlamlarini yorib kirib qolgan. Kvarslar va xloritli slanetslar kesishuv yuzasi kuchli oksidlangan va qisman nuragan. Slanetslarni yashilsimon yaltiroq rangidan ajratib olish juda oson. Ba'zan kristall holatdagi xloritli slanetslar uchrab turadi. Bunday hollarda slanetslarga xos qatlamlanish hodisasi kam kuzatiladi. Aksariyat holatlarda qatlamli xloritli slanetslar kuzatiladi. Bu turdagi slanets qatlamlarida darzliklar, mayda yoriqchalar, kvarslarning mayda tomirchalari yorib kirishi, kvars tomirchalari, darzlik va mayda yoriqchalar atrofida esa oksidlanishni jadalligini kuzatish mumkin. Darzliklar asosan qatlam yo'nalishiga parallel holatda bo'lib, ba'zan perpendikulyar kesib o'tuvchi tomirchalar va yoriqchalar ham uchraydi. Parallel kelgan yoriqlar bilan ma'danli minerallar ko'proq mavjud bo'lib, buni yoriq yoki darzlik yo'nalishi bo'ylab oksidlanish jarayoni mavjudligi asoslaydi. Zarralarining o'lchami shlif namunasida kuzatilganda mayda donali zarralari - 0,01-0,03 mm li o'lchamda, o'rtacha kattalikdagi zarralari – 0,05-0,09 mm li o'lchamda ekanligi aniqlandi (1-rasm).


Zarralar o‘lchami yiriklashib borishi bilan ma’danli mineral miqdori ortishi kuzatildi. Oksidlanish jarayoni kvarslarda ham, ularni atrofini qoplab turgan xloritli slanetslar orasida ham keng kuzatiladi. Xloritli slanetslarni quyosh nuriga tutilsa, xuddi sulfid minerallarga o‘xshash nur qaytarib yaltiraydi. Aynan shu nuqtalar atrofida sulfid mineral zarrachalari arsenopirit, pirit ba’zan xalkopiritni kuzatish mumkin.

Gilli slanetslar **–** hududda xloritli slanetslarga nisbatan kamroq miqdorda uchrovchi, kvarslar bilan kamroq kuzatiladigan, asosan mayda donali zarrachalardan tashkil topgan. Olingan namunalarni tahlil qilib shunday xulosaga kelish mumkinki, gilli slanetslar orasida kvarslar 2 sm li va undan kichikroq linzalar hosil qilgan holda uchraydi, 2 sm dan katta linzalar hamda kvarsit qatlamlari asosan xloritli slanetslar bilan kuzatiladi. Gilli slanets qatlamlari orasida ma’danli minerallar kam tarqalgan bo‘lib, asosan gematit va limonitning mayda qatlamchalari uchraydi. Gilli slanetslar tarkibi juda murakkab bo‘lib, aniq ajratish juda qiyin. Zarralari juda mayda holatda tuzilgan bo‘lib, shlifda aniq ko‘rish imkonini bermaydi (2-rasm).

Namunalarni tahlil qilish shunday natija beradiki, gilli slanetslar mavjud nuqtalarda mayda qatlamchalar kuzatilib qalinligi 0,1-0,2 mm oralig‘ida, qatlamchalar bo‘ylab mayda darzliklarni kuzatish mumkin. Namuna bo‘laklari sindirilganda oraliqlarda temirning oksidli minerallari va boshqa oksidlangan mineral to‘plamlarni kuzatish mumkin. Slanets qatlamlari orasida 0,01 mm gacha qalinlikdagi mayda linzasimon kvars tomirchalari hamda kvarzit qatlamchalarini kuzatish mumkin. Gilli slanetslar zarralarining o‘lchami 0,01-0,02 mm oralig‘ida bo‘lib kam kuzatiladi. Ma’danli minerallar metamorfizm jarayoni kechayotgan vaqtda slanets qatlamlari orasida yig‘ilib turli to‘plamlarni hosil qilgan. Shuning uchun ham maydonning gilli slanetslari mavjud qatlamlarida deyarli ma’danli mineralllar kuzatilmaydi. Ba’zi qatlamchalar orasini butunligicha oksidli minerallar qoplagan. Oksidli minerallar ayniqsa darzliklar va kvarslarning mayda tomirchalari atrofida keng tarqalgan.



1-rasm. Xloritli slanetslar hamda ularning tarkibidagi kvars va serisit minerallari. Shlif №1. Kattalashtirish 50^x analizatorli. 1 – xlorit; 2– serisit; 3– kvars; 4 – ma’danli minerallar



2-rasm. Gilli slanetslar hamda ularning tarkibidagi ma’danli minerallar (qora rangli nuqtalar). Shlif №8. Kattalashtirish 50^x analizatorli.

Serisitli slanetslar. Xloritli slanetslar tarkibida ham ko‘p miqdorda serisit minerali kuzatiladi ammo ba’zi nuqtalarda serisitlar slanetslar tarkibining asosiy qismini tashkil qiladi. Slanetslarning bu turi ham hudud bo‘ylab keng tarqalgan slanetslar qatoriga kiradi. Namunalar tarkibida kam miqdorda kuzatilib, quyosh nurida slyudali minerallar hamda kvarslarning mayda zarrachalarini slanets qatlamlari asosini tashkil qilib, alohida qatlam sifatida shakllanganligini kuzatish mumkin. Yuqorida ta’kidlanganidek bu turdagi slanetslarning asosini serisit va kvars tashkil qiladi.

Serisitlarda zarrachalar o‘lchami o‘rtacha 0,02-0,05 mm ni, kvarslarda esa 0,1-1 mm ni tashkil qiladi. Serisitli slanetslar qatlamlari atrofida kvars tomiri (tomirchalari) deyarli kuzatilmaydi. Mayda yoriqchalar mavjud bo‘lib qatlamga parallel holda o‘tgan. Bu turdagi

slanetslar bilan ma’danli minerallar kam kuzatiladi. Kuzatishlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki bu turdagi slanetslar slyudali minerallar zarralari va kvars zarrachalarining bir nuqtada yig‘ilib qayta kristallanishi hisobiga hosil bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Xulosalar:

Hududda mavjud tog‘ jinslari asosan cho‘kindi, metamorfik va gidrotermal jarayon natijasida shakllangan. Dastlab maydonda mavjud cho‘kindi tog‘ jinslari metamorfizmga uchrab, slanetslarning ba’zi turlarini hosil qilgan. Yuza qatlamlarda asosan slanetslarning xloritli, gilli va serisitli turlari kuzatiladi. Metamorfik tog‘ jinslari orasida shakllangan tomirsimon, hamda mayda budinajlar holatidagi kvarslar va oksidlangan jinslar gidrotermal jarayon mahsuli bo‘lib, yuzadagi oksidlanish jarayoni natijasida turlicha o‘zgarishga uchragan.

Tog‘ jinslari tarkibidagi ma’danli minerallar asosan oksidlanish zonasida kuchli o‘zgarishlarga uchragan bo‘lib, kvars tomirlari va tomirchalari, hamda slanetslar tarkibida kuzatildi. Ular kvarslarda kamdan-kam kuzatilgan pirit; kvarsitlar va slanets tog‘ jinslari orasidagi almashinuv yuzasi, oksidlanish zonalarida kuzatilgan temirning turli xil gidroksidlari; slanetslar orasida yakka holda kuzatiluvchi gematit va ilmenitlardan iborat.

ADABIYOTLAR:

1. Абдуазимова З.М., Александрова Н.В., Табатченко Л.М., Шайкуров Н.Б., Рахимов А.Д. Особенности фациально-генетических типов разрезов докембрийских и нижнепалеозойских отложений Нуратинских гор. // Геология и минеральные ресурсы 2007. №5. С.51-54.
2. Абдуллаев Р.Н., Абдуазимова З.М. Геодинамика и глобльные биособытмя в докембрий-раннем палеозе Тянь-Шаня. В кн. Геодинамика и принципы полеотектонических реконструкций. Т. Университет. 1977. С. 6 – 10.
3. Миловский А.В. Минералогия и петрография. Издательство «НЕДРА». Москва – 1973. 142-с.
4. Пирназаров М.М., Завьялов Г.Е., Хамроев И.О., Колоскова С.М. Геолого – структурные особенности размещения золотого оруденения в восточной части хребта Южный Нуратау. // Геология и минеральные ресурсы 2003. №5. С.22-27.
5. Покровский А.В., Карасева Т.А., Кусельман А.Р., Аскерова Ж.А. Метаморфические формации Западного Узбекистана и их рудоностность (Северный и Южный Нуратау). Ташкент: Фан, 1988. 208 с.


QORAQO‘TON OLTIN-KUMUSH KONI MA’DANLARINING MINERALOGIK XUSUSIYATLARI VA ZONALLIGI

Shukurov Sh.R.*, Jumaqulov A.A.*, Abdinazarov J.K.*, Mamanazarova Y.S.*
**H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti*


Annotatsiya. Qoraqo‘ton konining oltin-kumush ma’danlarining mineral tarkibi bo‘yicha ba’zi natijalar keltirilgan. Tadqiqot metodologiyasi ma’dan tanalari namunalaridan tanlangan sayqallangan shliflarni tavsiflashdan iborat edi.

O‘rganilgan sayqallangan shliflarda quyidagi minerallar aniqlangan: pirit, xalkopirit, sfalerit, arsenopirit, antimonit, naumanit, pirrotin, galenit, sof tug‘ma oltin.

Sof tug‘ma oltin ma’danlardagi asosiy qimmatli mineral hisoblanadi. Kvarsda o‘ta mayda donachalar shaklida uchrashi aniqlandi. Ko‘pincha alohida-alohida, galenit bilan o‘sgan yakka zarralarda uchraydi. Zarralarning shakli tomchisimon, izometrik, qatlamsimon, ksenomorf (1-rasm). Zarralarining kattaligi <0,01-0,02 mm.



1-pirit, 2-arsenopirit, 3-xalkopirit



1-sof oltin, 2-kvars

1-rasm. 51-sonli ma'dan tanasida kvars tarkibidagi sof oltin qo'shimchalarining mikrofotosurati.

Qoraqo'ton oltin-kumush koni ma'dan tanalarining mikrozond tadqiqotlari. Biz geokimyoviy va mineralogik assotsiatsiyalarni taqsimlashda zonallikni o'rnatdik: 1-konning yuqori gorizontlari nurash qobiqlari va oksidlangan ma'danlar bilan ifodalangan; 2-o'rtacha chuqurliklar supergen ma'danlarining tarqalish zonasi bilan ifodalanadi (ma'danlarni ikkilamchi sulfid bilan boyish zonasi); 3-pastki qatlamlar - birlamchi oltin-kumush sulfid ma'danlari uchrash zonasi (1-jadval).

Gipergenez zonalari va oksidlangan ma'danlar. Tadqiqotlar natijasida Qoraqo'ton oltin-kumush konining gipergen ma'danlari mineral tarkibining nihoyatda xilma-xilligi va minerallar hamda mineraloidlar soni bo'yicha birlamchi ma'danlardan ustun ekanligi aniqlandi. Shuni ta'kidlash kerakki, nafaqat silikatlar, alyumosilikatlar, sulfidlar, sulfasollar va karbonatlarning nurash qobig'i va oksidlanish jarayonlari, shuningdek aksessor minerallar: rutil, sirkon, kamyob yer minerallari (monatsit, ksenotim, apatit va boshqalar). Kislorodli birikmalarning, birinchi navbatda, kislorod kislotalarining tuzlari (sulfatlar, arsenatlar, antimonatlar, fosfatlar va silikatlar) va oksidlar va gidroksidlarning gipergenez zonasida keskin ustunligi kuzatildi (2, 3-jadval).

1-jadval

Qoraqo'ton oltin-kumush koni alohida zonalarining mineral tarkibi

Zona (ma'dan turi)	gorizont	Konning asosiy foydali qazilmalari
Oksidlanish zonasi (gipergen ma'danlar)	Yuqori	Gyotit, gidrogyotit, amorf kremniy oksidi (opal va boshqalar), seritsit, melanterit, yarozit, kuprit, skorodit, mimetezit, bedantit, gips, poligidrat, kermazit, valentenit, tungstit, povellit, sinkit, batlerit, sof tug'ma oltin va kumush, kumush, intermetall birikmalar.
Ikkilamchi sulfid boyitish zonasi (Supergen ma'danlari)	O'rta	Xalkozin, kovellin, temorit, akantit, grinokit, tungstit, shtromeyrit, polibazit, seynyayokit, sof tug'ma oltin, kumush va boshqalar.
Birlamchi sulfidli ma'danlar zonasi (gipogen ma'danlar)	Pastki	Kvars, pirit, pirrotin, arsenopirit, galenit, sfalerit, xalkopirit, antimonit, tetraedrit, matildit, freybergit, gessit, naumanit, argentit, sof tug'ma oltin, kumush va boshqalar.

Kislorod o'z ichiga olgan birikmalar (sulfatlar, arsenatlar, antimonatlar, fosfatlar, silikatlar, oksid-gidroksid minerallari) sezilarli darajada rivojlanishi bilan bir qatorda, boshqa mineral

sinflarning vakillari ham kam tarqalgan - oddiy moddalar (sof tug‘ma elementlar va intermetal birikmalar): Au, Ag, Cu, Zn, Pb, Fe, C, S, W, Cu-Zn, Ag-Pt, Pt-Fe, Au-Ag, Au-Fe, Au-As, (Zn-Cu-Br). Ularning hosil bo‘lish imkoniyati oksidlanish zonasida mineral hosil bo‘lishning kamaytiruvchi sharoitlari (0,60% gacha uglerodli moddalar mavjudligi) va sulfatni kamaytiruvchi bakteriyalar faolligi bo‘lgan hududlar va gorizontlarning mavjudligi bilan bog‘liq.

2-jadval

Gipergenez zonasining (ma’danlashuvni o‘z ichiga olgan jinslar matrisasining nurashi, oksidlanishi) rentgen fazasi va skanerlovchi elektron mikroskop tahliliga ko‘ra mineral tarkibi

Minerallar sinfi	Mineral	Mineral formulasi	Uchrash tezligi
Silikatlar	Tobermorit	$Ca_{10}[(OH)_6Si_{12}O_{31}]_8H_2O$	+
	Opal	Si_2O*H_2O	+ + + +
	Allamozit	$Pb_3[Si_3O_9]$	+
Alyumosilikatlar	Allofan	$n*Al_2O_3*SiO_2$	+ +
	Gialofan	$(K,Ba)[(Al,Si)]Si_2O_8$	+ +
	Galluazit	$Al_4[Si_4O_{10}](OH)*4H_2O$	+ +
Karbonatlar	Aragonit	$CaCO_3$	+ +
Xloridlar	Galit	NaCl	+ +

Sinf bo‘yicha eng keng tarqalgan gipergen minerallari: silikatlar (opal, allofan, gallyuzit), > temir oksidi va gidroksidlari (gyotit, gidrogyotit), > sulfatlar (gips, yarimgidrat), > antimonatlar, > arsenatlar, > karbonatlar, > fosfatlar, > molibdatlar, > volframatlar, > galloidlar, > sof elementlar va intermetall birikmalar. Umuman olganda, birinchi marta 70 dan ortiq gipergen minerallar (Qoraqo‘ton konida, ilgari aniqlanmagan) turli xil minerallar sinflari aniqlandi: silikatlar, alyumosilikatlar, oksidlar va gidroksidlar, sulfatlar, fosfatlar, arsenatlar, antimonatlar, karbonatlar, galloidlar va ularning birikmalari, sof tug‘ma elementlar va intermetallar.

Gipergenez zonasida kislorod o‘z ichiga olgan birikmalarning, birinchi navbatda, kislotalarning tuzlari (sulfatlar, arsenatlar, antimonatlar, fosfatlar va silikatlar) va oksidlar va gidroksidlarning keskin ustunligi aniqlangan. Gipergenez zonasining mineralogiyasi quyidagi ma’danli minerallar bilan ifodalanadi: gyotit, gidrogyotit, serutsit, melanterit, yarozit, kuprit, skorodit, mimetezit, bedantit, kermezit, valentenit, tungstit, povellit, sinkit, arkanit, batlerit, intermetal birikmalar va sof tug‘ma oltin va kumush. Metall bo‘lmagan minerallarga amorf kremniy oksidi (opal va boshqalar), glet, gips, polugidrat kiradi.

3-jadval

Elektron mikroskop ma’lumotlariga ko‘ra, gipergenez zonasining mineral tarkibi (oksidlanish va nurash qobig‘i)

Minerallar sinfi	Mineral	Mineral formulasi	Uchrash tezligi
Sof tug‘ma		Au;Ag;Cu;Zn;Pb,Fe,S,W,C	++
Intermetallar		(Cu;Zn);(Cu;Zn;Br;);(Au;As); (Fe;Pt);(Ag;Pt);(Au;Fe)	++
Oksidlar va gidroksidlar	Gidrogyotit (limonit)	$Fe(OOH)H_2O$	++++
	Mo-sheelit	$Ca[WO_4]$	+
	Povellit	$Ca[MoO_4]$	+
	Tungotit	$WO_2(OH)_2$	+

	Qalay va mis oksidi	$(SnCu)O_2$	+
	Bingeymit	$Pb_{1-2}\,Sb_{2-1}(O,OH,H_2O)$	+
	Kermezit	Sb_2S_2O	+
	Valentenit	Sb_2O_3	++
	Arsenolit	As_2O_3	++
	Skorodit	$Fe[AsO_4]$	+++
	Platnerit	PbO_2	++
	Kuprit	Cu_2O	+
	Tenorit	SuO	+
	Glet	PbO	++
	Platnerit	PbO_2	+
	Sinkit	ZnO	+
	Gips	$Ca[SO_4]*2H_2O$	++++
Sulfatlar, arsenatlar va antimonatlar	Gemigidrat	$Ca[SO_4]*0,5H_2O$	++
	Yarozit	$KFe_3\,[SO_4\,]_2(OH)_6$	++
	Mineral-1	$Pb[SbO_2\,*SO_4Cl]$	+
	Mineral-2	$ZnPb[SO_4]$	+
	Byodantit	$PbFe[AsO_4,SO_4](OH)_6$	+
	Anglezit	$Pb[SO_4]$	+
	Sangenit	$K_2Ca[SO_4]*H_2O$	+
	Melanterit	$Fe[SO_4]$	++
	Kizerit	$Mg[SO_4]*H_2O$	+
	Arkanit	$K_2[SO_4]$	+
	Mimetizit	$Pb_5(AsO_4)_3Cl$	+
	Batlerit	$Fe[(OH)\,SO_4]*2H_2O$	+

Ikkilamchi sulfidli boyish zonasining mineral tarkibi. Ikkilamchi sulfidli boyish zonasida (supergen ma’danlari) sulfidlar va ularning analoglari uchta usulda hosil bo‘ladi: 1) sulfid-sulfat tipidagi almashinish reaksiyalari natijasida; 2) sulfatni reduksiya orqali, ya’ni bakteriyalar ishtirokida SO_4^{2-} dan S^{2-} gacha tiklanishi; 3) birlamchi gipogen sulfidlarning elektrokimyoviy o‘zaro ta’siri orqali. Birinchi marta ikkilamchi sulfid bilan boyitish zonasidan 9 ta mineralni aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Ikkilamchi sulfidli boyish zonasining mineral tarkibi
(mikrozond va skanerlovchi elektron mikroskop ma’lumotlariga ko‘ra)

Minerallar sinfi	Minerallar	Mineral formulasi	Uchrash tezligi
Sulfidlar	Xalkozin	Cu_2S	++
	Digenit	$Cu_{2-x}\,S$	++
	Kovellin	CuS	+
	Akantit (turlanish)	Ag_2S	++
	Grinokit	CdS	+
	Tungstenit	WS_2	+
	Shtromeyrit	AgCuS	+
	Polibazit	$(Ag,Cu)_{16}\,Sb_2\,S_{11}$	+
	Seynyayokit	$FeSb_2$	+

Ikkilamchi sulfidli boyish zonasida (supergen ma’danlari) birinchi marta to‘qqizta mineral xalkozin, digenit, kovellin, akantit, grikonit, tungstenit, shtromeyrit, polibazit, seynyayokit aniqlangan bo‘lib, ular Qoraqo‘ton koni ma’danlarning birlamchi minerallashuv tarkibini ko‘rsatadi.

Birlamchi gipogen ma’danlar zonasi. Geokimyoviy, mineralogik va chuqur analitik tadqiqotlar (mikroskop, spektral, mass-spektrometr, rentgen nurlari difraksiyasi, mikrozond, skanerlovchi elektron mikroskop tahlillari) natijalari gipogen ma’danlarini tashkil etuvchi uchta mahsuldor mineral assotsiatsiyani aniqlashga imkon berdi :

1) oltinga asosiy istiqbolli - pirit-arsenopiritli assotsiatsiya pirit, arsenopirit, lellengit, gorsdorfit, kobaltin, glaukadot, auroarsenit, oltin va kumushning makro va mikro qo‘shimchalari bilan namoyon bo‘lgan. Minerallarning bu assotsiatsiyasi gidrotermal o‘zgargan qamrovchi tog‘ jinslar zonalarida (gidroslyudalashish, kvarslashish, xloritlashish, karbonatlashish) mavjud;

2) kumush - oltin – ko‘pisulfidli mineral assotsiatsiyasi, yetakchi mahsuldor assotsiatsiyadan kamroq tarqalgan. Bu assotsiatsiya jins hosil qiluvchi minerallar va yetakchi sulfidli minerallar - pirit va arsenopiritda boshqa minerallarning tarqoq mikroqo‘shimchalari bilan namoyon bo‘lgan Bu mineral assotsiatsiya pirit, xalkopirit, sfalerit, galenit, sulfotuzlar, selenidlar, telluridlar, oltin va kumush minerallari bilan ifodalanadi;

3) kumush – antimonit mahsuldor assotsiatsiyasi (antimonit, tetraedrit, freybergit, polibazit, ramdorit, burnanit, berterit, jemsonit, stefanit, animikit, fyulepit, gudmundit, gersfordit).

Gipergenez jarayonida mahsuldor gipogen birlamchi sulfid, arsenid, antimonid minerallari (pirit, xalkopirit, galenit, sfalerit, arsenopirit, antimonit va boshqalar)ning o‘zgarishi sabablarini aniqlash va ularni keyingi texnologik qayta ishlash uchun sanab o‘tilgan barcha minerallar mikrozond va skanerlovchi elektron mikroskop (200 dan ortiq o‘lchov) yordamida o‘rganilgan (5-jadval).

Olingan natijalarga ko‘ra, standart nazariy formuladan farq qiluvchi kimyoviy tarkibning to‘liq stexiometrik emasligi aniqlandi. Barcha hollarda Fe, Cu, Zn, Pb kationlari, shuningdek, ba’zi hollarda S, As, Sb anionlari yetishmasligi kuzatiladi.

Yetakchi mahsuldor oltin - pirit - arsenopirit assotsiatsiyasi makro- va mikro- xol-xolli ko‘rinishida oltin, pirit, arsenopirit, lollingit, gorsfordit, kobaltin, glaukodot, auroarsenid bilan ifodalangan. Oltin va kumush yetakchi mahsuldor assotsiatsiyadan keyingi o‘rinda turuvchi polisulfid mineral assotsiatsiyasi pirit, xalkopirit, sfalerit, galenit, sulfosollar, selenidlar, telluridlar hamda oltin va kumush minerallaridan iborat.

5-jadval

Gipogen birlamchi ma’danlarning mineral tarkibi (mikrozond va skanerlovchi elektron mikroskop ma’lumotlariga ko‘ra)

Minerallar sinfi	Minerallar	Mineral formulasi	Uchrash tezligi
Mahalliy	Oltin kumush	Au; Au,Ag; Ag	++
Sulfidlar	Pirrotin	$Fe_{1-x}S$	+
	Pirit	FeS_2	++++
	Galenit	PbS	++
	Xalkopirit	$CuFeS_2$	++
	Sfalerit	ZnS	++
	Stannin	Cu_2FeSnS_4	+
	Betextenit	$Pb,(Cu,Fe)_{21}S_{15}$	+
	Pentlandit	$(Fe,Ni)_9S_8$	+
	Mateldit	$AgBiS_2$	+
	Argentit	Ag_2S	++
	Mohit	Cu_2SnS_3	+
	Tungstenit	WS_2	+

Arsenidlar	Arsenopirit	FeAsS	++
	Lelengit	FeAs	+
	Gersdorfit	NiAsS	+
	Kobaltin	(Co,Fe)AsS	+
	Glukadot	$Cu_{12}Sb_4S_{13}$	+
	Auroarsenid	AuAs	+
Antimonatlar	Antimonit	Sb_2S_3	++
	Gorsfordit	Cu_6Sb	+
	Tetraedrit	$Cu_{12}Sb_4 S_{13}$	+
	Freybergit	$(Ag,Cu)_{12} Sb_4 S_{13}$	+
	Ramdorit	$Ag_2Pb_3Sb_5S_9$	+
	Polibazit	$(Ag\ Cu)_{18} Sb_2 S_2$	+
	Burnanit	$PbCuSb_2S_3$	+
	Bulanjerit	$Pb_5 Sb_4 S_{11}$	+
	Nakaseit	$Pb_4 Ag_3 CuSb_{12} S_{24}$	+
	Jemsonit	$Pb_4 FeSb_6 S_{14}$	+
	Seyyaykoit	$FeSb_2$	+
	Stefanit	$Ag_3 SbS_{14}$	+
	Animikit	(Ag,Sb)	+
	Fyulepit	$Pb_2 Sb_8 S_{15}$	+
	Gudmundit	$FeSb_5$	+
	Gorfordit	Cu_2Sb	+
	Ulmonit	NiSbS	+
	Telluro-antimonit	$Sb_2 Te_3 S_3$	+
	Naumannit	Ag_2Se	+
	Klaustolit	PbSe	+
	Agvelarit	Ag_4SeS	+
	Telluro-antimonit	$Sb_2 Te_3$	+
	Gessit	Ag_2Te	++

Xulosa.

1.Qoraqo‘ton oltin-kumush koni ma’danlari uchun har xil genetik turdagi ma’danlarni zonalligi aniqlandi: 1) konning yuqori gorizontlari gipogen va giperegen (oksidlangan) ma’danlarning rivojlanish zonasi bilan ifodalangan; 2) o‘rta gorizontlar supergen ma’danlari bilan ifodalanadi (ikkilamchi sulfidli boyishning rivojlanish zonasi); 3) konning chuqur gorizontlari birlamchi gipogen mahsuldor ma’danlar bilan ifodalanadi.

3. Gipergenez zonasida kislorodli birikmalarning, birinchi navbatda, kislorod kislotalarining tuzlari (sulfatlar, arsenatlar, antimonatlar, fosfatlar va silikatlar) va oksidlar, gidroksidlarning keskin ustunligi aniqlangan. Gipergenez zonasining mineralogiyasi quyidagi ma’danli minerallar bilan ifodalanadi: gyotit, gidrogyotit, seritsit, melanterit, yarozit, kuprit, skorodit, mimetezit, bedantit, kermezit, valentenit, tungstit, povellit, sinkit, arkanit, batlerit, intermetal birikmalar, sof tug‘ma oltin va kumush.

4. Ikkilamchi sulfid bilan boyitish zonasida birinchi marta to‘qqizta mineral - xalkozin, digenit, kovellin, akantit, grikonit, tungstit, shtromeyrit, polibazit, seynyayokit aniqlangan bo‘lib, ular Qoraqo‘ton koni ma’danlarining birlamchi minerallashuvi tarkibini ko‘rsatadi.

5. Kumushning har xil turdagi ma’danlarda uchrash shakllari: sof tug‘ma kumush, kumush sulfidlari (argentit, akantit), kumush arsenadlari (freybergit, matildit), kumush antimonidlari (freybergit, ramdorit, polibazit, nakaseit, tetraedrit, stefanit, animikit). Ko‘rinadigan sof tug‘ma oltin asosan pirit, arsenopirit, gyotit va gidrogyotitda uchraydi. Sof tug‘ma oltinning tarkibi ikki turdagi kimyoviy birikmalar bilan ifodalanadi: sof tug‘ma oltin va oltin intermetall birikmalar - Au-Ag, Fe-Au (ferroaurid) va Au-As (arsenoaurid).

ADABIYOTLAR:

1. Королева И.В., Цой В.Д., Алимов Ш.П. Минералого-геохимические особенности руд участка Тилла-Таг Зиаэтдинского рудного поля // Тез. междунар. конф. «Современные проблемы геологии и развития минеральной-сырьевой базы Республики Узбекистан». - Т., 2007. - С. 13-14.
2. Туресебеков А.Х., Садыкова Л.Р., Шукуров Ш.Р., Ахмедов К.А. Геохимические и минералогические особенности нового промышленного типа золото-серебряных месторождений Зирабулак-Зиатдинских гор // Горный вестник Узбекистана. - 2021. - № 4. - С. 32-40.
3. Туресебеков А.Х., Шукуров Ш.Р., Шарафутдинов У.З., Зунунов А.Ч., Шукуров Н.Э., Шарипов Ш.Ф., Ёшузоков Ш.Г. Техногенные отходы НГМК – новый вид минерального сырья золота, серебра и других ценных элементов, разработка технологии их извлечения // Актуальные проблемы геологии, геофизики, петрологии и рудообразования. - Т., 2022. - С. 156-160.
4. Chrysoulis S.L., Cabry L.G. The significance of gold mineralogical balances in mineral processing // Institution of Mining and Metallurgy Teanscobides. - 1990. - P. 99. - C. 1-10.
5. Shukurov Sh.R., Inatov N.K. Forms of location of gold, silver and other valuable associated elements in the gold-silverores of Karakutan deposit (Western Uzbekistan) // International journal of geology. - 2021. - Vol. 11. - P. 158-163.

YOPIQ HUDUDLARDA MA’DAN MAYDONLARINI BASHORATLASH (JASOUL MA’DAN MAYDONI MISOLIDA)

Toshpo‘latov Sh.X.*, Aliyev A.B.*, Qurbonmurodov Sh.D.*
«Mineral resurslar institute» DM, e-mail: shavkattoshpulatov99@gmail.com, aliev.abdulloh69@gmail.com, kurbonmurodovshaxzod14@gmail.com.

Annotatsiya: Mazkur tezis yopiq hududlarda ma’dan maydonlarini prognozlash masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, Jasaul ma’dan namoyoni misolida tahlil qilingan. Hududning geologik tuzilishi, mezo-kaynazoy yotqiziqlarining qalinligi hamda oltin va oltin-kumush ma’danlashuvining geologik-genetik xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqotda jahon tajribasi asosida, xususan Nevada shtatidagi Marigold koni va Markaziy Kolimskiy rayonidagi Yano-Kolimskiy oltin kamarida qo‘llanilgan geologik, geofizik va geokimyoviy usullar samaradorligi taqqoslangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bunday majmuaviy yondashuv yashirin oltin mineralizatsiyasini aniqlash va istiqbolli maydonlarni bashoratlashda yuqori samaradorlikka ega. Jasaul ma’dan maydonida ham ushbu usullarni qo‘llash istiqbolli natijalarga erishishga imkon yaratadi.

Аннотация: Данный тезис посвящен вопросу прогнозирования рудных полей в закрытых территориях и проанализирован на примере рудопроявления Джасаул. Освещены геологическое строение территории, мощность мезокайнозойских отложений, а также геолого-генетические особенности золотого и золото-серебряного оруденения. В исследовании рассмотрена эффективность геологических, геофизических и геохимических методов, применяемых на основе мирового опыта, в частности, на месторождении Маригольд в штате Невада и в Яно-Колымском золотоносном поясе Центрально-Колымского района. Результаты показывают, что такой комплексный подход обладает высокой эффективностью в выявлении скрытой золотой минерализации и прогнозировании перспективных площадей. Применение этих методов на рудном поле Джасаул также позволяет достичь перспективных результатов.

Abstract: This thesis addresses the issue of forecasting ore fields in covered areas, analyzed using the example of the Jasaul ore occurrence. The geological structure of the region, the thickness of Meso-Cenozoic deposits, and the geological-genetic characteristics of gold and gold-silver mineralization are described. The study examines the effectiveness of geological,

geophysical, and geochemical methods based on global experience, particularly those applied in the Marigold deposit in Nevada and the Yano-Kolymsky gold belt in the Central Kolymsky district. Results indicate that such a comprehensive approach is highly effective in identifying hidden gold mineralization and predicting prospective areas. The application of these methods in the Jasaul ore field also shows potential for achieving promising results.


Jasaul ma’dan namoyoni Daugiztau ma’danli maydonining janubiy qismida joylashgan bo‘lib qalin mezo-kaynazoy yotqiziqlari (gil, suglinka va qumlar) bilan qoplangan. Mezo-kaynazoy yotqiziqlarining qalinligi 12 metrdan 65 metrgacha bo‘lib ostida Proterazoy erasiga tegishli bo‘lgan taskazgan hamda Paleozoy erasiga tegishli besapan svitalari yotqiziqlari mavjud. Taskazgan svitasi poydevor kesimining pastki qismini tashkil etadi va vulkanitlar, fillitsimon slaneslar, qumtoshlar, kvarsitlar, dolomitlar, marmarlashgan ohaktoshlarning almashinib kelishi bilan tavsiflanuvchi vulkanogen-terrigen-kremniyli formatsiya jinslaridan iborat. Svita yotqiziqlari Jitimtov va G‘arbiy Beltov tog‘larida keng tarqalgan. Svita yotqiziqlarining qalinligi 2000 metrdan ortiq. Besapan svitasining terrigen flishoid yotqiziqlari qumtoshlar, alevrolitlar, argillitlar va ularning oraliq turlarining qatlamlanishidan iborat.

Ma’dan namoyoni hududidagi oltin va oltin-kumush ma’danlashuvi besapan svitasi yotqiziqlarining vulkanogen va intruziv komplekslari bilan bog‘liq bo‘lib, ular postmagmatik gidrotermal jarayonlar ta’sirida, tektonik yoriqlar va brekchiyalangan zonalarda shakllangan. Ma’dan zonalari nisbatan ingichka (0,5–2,5 m), ammo ba’zi hollarda juda qalin (30–100 m), uzunligi 500 m va chuqurligi 1000 m gacha yetadi. Ma’dan namoyoni hududida uchrovchi asosiy ma’danlarini: oltin, oltin-kumush, kamroq hollarda kumushli-polimetallar tashkil etadi. Jasoul ma’dan namoyoni ma’danlashuvi kvars-kumush-polisulfidli turiga mansub hisoblanadi.

Jasaul ma’dan maydonida mezo-kaynazoy yotqiziqlari qalin bo‘lganligi sababli, ushbu hudud yopiq ma’dan namoyonlari qatoriga kiradi. Bunday turdagi maydonlarda yanada aniqroq tahliliy ishlarni amalga oshirish uchun yangicha usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Yopiq hududlarda olib borilgan izlanishlarga Nevada shtatidagi Marigold koni misolida korib chiqadigan bo‘lsak, ushbu konda ikkita ko‘milgan epitermal oltin koni ustida geokimyoviy orientatsion tadqiqot o‘tkazilib, turli kimyoviy ekstraksiyalar samaradorligini aniqlash va kuzatilgan geokimyoviy javoblarni izohlash uchun nazariya ishlab chiqishga urinib tadqiqot o‘tkazilgan. Bu tadqiqotda tuproq namunalariga gidroksilamin xlorid, natriy asetat, suvda eriydigan anionlar, pH, ferment tanlab eritish, elektr o‘tkazuvchanlik hamda oltin, mishyak va surmaning past aniqlash chegarali usullarini qo‘llagan holda oltin ma’danlashuvining eng past qiymatlarini ham aniqlashgan. Ca va Sr tuproqdagi oltin bilan bog‘lanib, boshqa hududlarda bo‘lgani kabi, 100 m qalin qoplama ostida ham mineralizatsiyaga ijobiy javob bergan. Bu tadqiqot natijasi o‘laroq bir qancha ma’dan konlari aniqlangan [3].

Bundan tashqari Markaziy Kolimskiy rayoni (ЦКР) hududidagi – Yano-Kolimskiy oltin kamarida olib borilgan tadqiqot ishlarini ham ko‘rib chiqamiz. Tadqiqotning maqsadi – yashirin oltin mineralizatsiyasini aniqlash va istiqbolli maydonlarni bashorat qilish bo‘lgan. Ma’dan maydonlarini aniqlash uchun har uchala (geologik, geofizik va geokimyoviy) usullardan foydalanilgan.

Markaziy Kolima hududida (Yano-Kolima oltinrudali belbog‘i) yashirin oltin konlarini aniqlash maqsadida yalpi geologik, geofizik va geokimyoviy tadqiqotlar olib borilgan. Izlanishlarda magnit razvedka, gravitatsion razvedka, maydonlarni transformatsiya qilish, geokimyoviy tahlil hamda tasvirlarni tanib olish (pattern recognition) usullari qo‘llanilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra chuqur yer yoriq zonalari va granitoid massivlar oltin mineralizatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi isbotlangan. Granit massivlari manfiy gravitatsion anomaliyalar, yer yoriq zonalari esa chiziqli magnit anomaliyalar orqali ajratilgan. Geokimyoviy tadqiqotlarda oltin, mishyak, kumush va boshqa elementlarning anomaliyasi ma’dan obyektlarini aniqlashda asosiy ko‘rsatkich bo‘lgan. Tadqiqotlar natijasida 26 ta istiqbolli oltin ma’danli maydonlar ajratilib, yirik konlarning (Natalkinskoe, Pavlik, Degdekan) shakllanish sharoitlari aniqlashtirilgan [4].



1 – rasm. Jasaul ma‘dan namoyoni geologik kartasi.

Bu turdagi izlanishlar asosan mezo-kaynazoy yotqiziqlari qalin bo‘lgan ma’dan maydonlarida o‘tkazilgan hamda samarali yutuqlarga erishilgan. Jasaul ma’dan namoyoni hududida ham nisbatan mezo-kaynazoy yotqiziqlari qalin bo‘lgan ma’dan namoyonlari qatoriga kiradi. Kelajakda huddi shundan izlanish usullarini Jasaul ma’dan maydonida qo‘llash ham katta samara beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Григоренко В.И. Поиски серебра и других полезных ископаемых на западной перспективной площади Даугызтауского рудного поля с оценкой прогнозных ресурсов по категории P_1 и P_2 в заданном количестве на ХП пятилетку (Отчет Западной ПП за 1986-1989 г.г.). Фонды Даугызтауской ГРЭ, 1989 г.

2. Хайдаров Н., Галеев Р. Г. Поиски золота, серебра и других полезных ископаемых на северо-западном фланге Джасаул-Высоковольтно-Тумшуктауской сереброрудной зоны (Отчет Южно-Тумшуктаусской ПП за 1988–1993 гг.)

3. Smee, B. W. (1998). A comparison of soil geochemical orientation surveys over two covered gold deposits, Marigold Mine, Nevada, USA. Journal of Geochemical Exploration, 61(2), 133–146. https://doi.org/10.1016/S0375-6742(97)00055-4

4. Karamyshev A. V., Fedorova K. S., Tarasov A. V. Прогноз скрытого золотого оруденения в пределах Центрально-Колымского района по комплексу геолого-геофизических признаков методом распознавания // *Руды и металлы*. – 2020. – №2. – С. 10–23. DOI: 10.24411/0869-5997-2020-10010.

ASSESSMENT OF GOLD MINERALIZATION PROSPECTIVITY IN COVERED AREAS USING MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE METHODS (CASE STUDY OF THE SARDARA DEPRESSION)

Turgunaliyev M.H.*, Goipov A.B.**, Boboyorov A.A.*

**Institute of Geology and Geophysics named after H.M. Abdullaev, email:madumarbek3031@gmail.com*

*** Institute of Mineral Resources, e-mail: akram.goipov7@gmail.com; e-mail: asliddinboboyorov097@gmail.com*

Аннотация. В статье представлена методика применения технологий искусственного интеллекта (ИИ) и машинного обучения (МО) для определения перспектив золотоносности закрытых территорий между горами Южный Тамдытау и Аристантау (Сардаринская впадина), а также приведены полученные результаты. На основе оцифрованного и проанализированного фактического материала по результатам геолого-геофизических исследований на эталонных месторождениях создана интегрированная прогнозная модель, определяющая перспективные участки в прилегающих закрытых районах. В процессе предварительной обработки геофизических данных применялись методы трансформации RTE, ASA, TDR, THDR, UP, VD, а также фильтры HP, LP, CET, Frangi, Sobel и Laplace. Впервые в условиях Узбекистана разработана методика выявления зон оруденения с использованием моделей машинного обучения Random Forest и XGBoost, что позволило определить перспективные зоны золотоносности на закрытых территориях. Полученные результаты, представленные в виде прогнозных карт, обеспечивают высокую достоверность выделения участков перспективного золоторудного оруденения и могут служить основой для проведения дальнейших поисковых работ.

Annotatsiya. Maqolada Janubiy Tomditov va Aristontov to‘g‘lari bilan chegaralangan yopiq hududlarning (Sardara botig‘ining) oltin ma’danlashuviga istiqbolliligini aniqlash uchun sun’iy intellekt (SI) va mashinali o‘qitish (MO‘) texnologiyalarini qo‘llash uslubiyoti va ular asosida olingan natijalar keltirilgan. Tadqiqot hududida mavjud etalon ma’dan konlarida o‘tkazilgan geologik geofizik tadqiqot natijalari raqamlashtirilib tahlil qilinishi asosida ularga yondosh yopiq hududlarning istiqbolliligini belgilovchi integratsiyalashgan bashorat modeli yaratildi. Geofizik ma’lumotlarga dastlabki ishlov berish jarayonida RTE, ASA, TDR, THDR, UP, VD transformatsiyalari, HP, LP, CET, Frangi, Sobel, Laplas filtrlardan foyadalanildi. Ilk bor O’zbekiston sharoitida ma’danlashuv zonalarini aniqlashda Random Forest va XGBoost mashinali o‘qitish modellari qo‘llash natijasida yopiq maydonlarda oltin ma’danlashuvini aniqlash uslubiyoti ishlab chiqilgan. Bashorat xaritalari ko’rinishida olingan natijalar oltin ma’danlashuv istiqbolliligi hududlarini yuqori ishonchlilik bilan aniqlishga, hamda qidiruv ishlarini olib borishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Abstract. The article presents a methodology for applying artificial intelligence (AI) and machine learning (ML) technologies to assess the gold mineralization potential of closed areas located between the Southern Tamdytau and Aristantau mountains (Sardara Depression). The obtained results are also presented. Based on digitized and analyzed factual data from geological and geophysical studies conducted at reference deposits, an integrated predictive model was developed to identify prospective sites within adjacent closed territories. During the preliminary processing of geophysical data, various transformation methods were applied, including RTE, ASA, TDR, THDR, UP, and VD, as well as filters such as HP, LP, CET, Frangi, Sobel, and Laplace. For the first time under the conditions of Uzbekistan, a methodology for detecting mineralization zones was developed using machine learning models Random Forest and XGBoost, which made it possible to determine promising gold mineralization zones within closed areas. The

obtained results, presented in the form of predictive maps, ensure high reliability in identifying prospective gold-bearing zones and can serve as a basis for further exploration activities.

Introduction. The Central Kyzylkum region represents the main gold industry base of Uzbekistan and hosts deposits with globally significant gold reserves. These large deposits were discovered during geological and geophysical surveys conducted in the 20th century, with most of them identified in areas where the relief exposes Paleozoic basement formations. However, the mineralization potential of the covered areas, which constitute the majority of the region, remains insufficiently studied, making the identification of gold mineralization in these zones a pressing task.

In recent years, the steady increase in gold production in Uzbekistan has intensified the need to explore new prospective areas. Under conditions where traditional geological exploration requires substantial financial and time resources, modern information technologies — particularly approaches based on machine learning (ML) and artificial intelligence (AI) — are gaining importance. These methods enable the integrated processing of large volumes of geological and geophysical data, the detection of hidden patterns associated with gold mineralization, and the provision of reliable insights for assessing prospectivity.

Methodology. To evaluate the prospectivity of gold mineralization in the Sardara depression, multi-source geological and geophysical raster and vector datasets were analyzed using artificial intelligence (AI) and machine learning (ML) methods. The database included the anomalous magnetic field map, the rock density distribution map, maps of natural radioactivity anomalies, as well as point and polygon vector files of previously identified large, medium, and small-scale gold deposits and occurrences within the study area. The workflow was carried out according to the schematic sequence shown in Figure 1, and the results were obtained in an automated manner.




Figure 1. Technological scheme for identifying gold mineralization in covered areas using machine learning and artificial intelligence methods (Prepared by: Turg‘unaliyev M.H., 2025).

As the primary methods for identifying prospective zones of gold mineralization in the study area, the Random Forest and XGBoost algorithms were applied. Although both models

represent modern machine learning approaches, their operating mechanisms, mathematical foundations, and adaptability to geological data differ significantly.

Results. The advantage of the Random Forest algorithm in geology lies in its ability to process large volumes of complex geophysical and geochemical data and to effectively identify nonlinear and hidden relationships. In this study, Random Forest was applied to detect variations in geophysical field values associated with gold mineralization. As a result, a map delineating zones with high gold mineralization potential was produced with an accuracy of 85% (based on ROC-AUC). The application of this method showed that approximately 45% of the total study area can be considered prospective for further exploration.




Figure 2. A set of predictive prospectivity maps for gold mineralization in closed areas bounded by the Southern Tamdytau and Aristantau mountains, based on artificial intelligence and machine learning methods.

The XGBoost algorithm improves overall model accuracy by computing gradients and minimizing errors. XGBoost demonstrates high efficiency when applied to large-scale geophysical datasets with a high number of features. In this study, the algorithm was employed to detect nonlinear and hidden relationships associated with gold mineralization. As a result, the model achieved an accuracy of 91% (based on ROC-AUC), which is approximately 5% higher compared to Random Forest. Moreover, XGBoost enabled the prediction of prospective zones nearly three times faster than traditional geological exploration analyses, while still providing reliable information (Figures 2–3).

In this study, the distinctive feature compared to foreign applications of artificial intelligence methodologies lies in the combined use of the stability of the Random Forest model and the high accuracy of XGBoost, which together enhanced the reliability of the delineated prospective zones.

Discussion. Although the results obtained represent one of the first studies applying artificial intelligence methods in the field of mineral geology of Uzbekistan, they are in fact a synthesis of developments achieved over the past decade in leading international research centers. For example, Emmanuel Carranza and Arlene Laborte (2015) applied the Random Forest algorithm for predicting gold prospectivity and achieved more effective outcomes compared to traditional approaches [1]. Similarly, Chao Li and colleagues (2021) utilized the XGBoost algorithm to analyze large-scale geophysical datasets, producing high-accuracy prospectivity

maps [2]. Furthermore, Kai Zhang, Jun Lin, and Yao Wang (2022) proposed methods for interpreting magnetic survey data using machine learning techniques, emphasizing that such approaches significantly improve efficiency [3].




Figure 3. Maps of prospective areas for gold mineralization identified using machine learning methods: 1 – calculated based on the Random Forest model; 2 – generalized representation of the first map; 3 – calculated based on the XGBoost model; 4 – overall integration of all data and models. The scale values represent the levels of mineralization potential. (Prepared by: Turg‘unaliyev M.H., 2025).

Conclusion. The results of the study demonstrate that it is possible to assess the gold mineralization prospectivity of covered areas, using the Sardara depression as an example, by applying machine learning and artificial intelligence methods. The prospectivity maps generated through the Random Forest and XGBoost algorithms show good correlation with known deposits and geophysical anomalies in the region.

Through the integrated interpretation, transformation, and filtering of geophysical datasets of various types, additional analytical layers were produced. The integration of these layers with machine learning models significantly improved the accuracy of gold mineralization prospectivity predictions.

From a practical perspective, the developed methodology enables the delineation of target areas in geological exploration, thereby reducing the time and financial resources required. Moreover, this approach can be applied to other covered regions of Uzbekistan.

REFERENCES:

1. Carranza, E. J. M., Laborte, A. G. Data-driven predictive mapping of gold prospectivity, Baguio district, Philippines: Application of Random Forests algorithm // Ore Geology Reviews. – 2015. – Vol. 71. – P. 777–787. https://doi.org/10.1016/j.oregeorev.2015.05.008

2. Li, C., Zhou, Y., Chen, H. Application of XGBoost algorithm in geophysical data analysis for mineral prospectivity mapping // Ore Geology Reviews. – 2021. – Vol. 135. – P. 104150. https://doi.org/10.1016/j.oregeorev.2021.104150

3. Zhang, K., Lin, J., Wang, Y. Machine learning-based magnetic data interpretation for mineral exploration // Geophysical Journal International. – 2022. – Vol. 231, № 3. – P. 1501–1517. https://doi.org/10.1093/gji/ggac215

QASQIRTOV MA’DAN MAYDONINING MINERALLASHUV XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH

Umarov A.A.*, Qurbonov A.U.**
**Geologiya Fanlari universitet magistranti, e-mail: akmaljonumarov91@gmail.com*
***O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti, e-mail: abdukodirkurbonov21@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot Qasqirtov ma’dan maydonidagi metapelit slanetslari va boshqa jinslarning petrografik xususiyatlariga bag‘ishlangan. Mikroskopik tahlil natijasida asosiy minerallar sifatida kvars, slyudalar, dala shpati, oksid va sulfidlar aniqlangan. Lepidoblastik, nematoblastik va porfiroblastik teksturalar qayd etilgan. Sulfidlarning mavjudligi ma’dandorlik bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Natijalar hududning tektonik-geologik tuzilishini o‘rganish mintaqaviy metallogeniya va yangi qidiruv izlanishlari uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Аннотация. Настоящее исследование посвящено петрографическим особенностям метапелитовых сланцев и других пород Каскыртовского рудного поля. В результате микроскопического анализа в качестве основных минералов выявлены кварц, слюды, полевые шпаты, оксиды и сульфиды. Зафиксированы лепидобластическая, нематобластическая и порфиробластическая текстуры. Наличие сульфидов указывает на их связь с оруденением. Полученные результаты показывают, что изучение тектоно-геологического строения региона имеет важное научное значение для региональной металлогении и новых поисковых исследований.

Abstract. This study focuses on the petrographic characteristics of metapelitic schists and other rocks from the Kaskyrtau ore field. Microscopic analysis identified quartz, micas, feldspars, oxides, and sulfides as the main minerals. Lepidoblastic, nematoblastic, and porphyroblastic textures were recorded. The presence of sulfides indicates a relationship with mineralization. The results demonstrate that investigating the tectonic-geological structure of the region is of great scientific importance for regional metallogeny and further exploration studies.


Kirish. Qizilqumning markaziy qismi murakkab geologik tuzilishi va foydali qazilmalar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu yerda joylashgan Bo‘kantov tog‘lari kichik rudali obyektlar va ularning metallogenik xususiyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Qasqirtov ruda koni Bo‘kantov tizmasining markaziy qismida joylashgan bo‘lib, O‘zbekistonning yirik oltin konlariga yaqin hududda joylashgani bilan diqqatga sazovor. Maydonda oltin namoyonlari aniqlangan bo‘lsa-da, ularning sanoat ahamiyati hali aniqlanmagan. Shunga qaramay, hududning geologik tuzilishini, tektonik yoriqlar tizimini va rudalanish jarayonlari xususiyatlarini o‘rganish mintaqaviy metallogeniya hamda keyingi geologik-qidiruv ishlarini ilmiy asoslashda muhim hisoblanadi.

Yer po‘stining chuqur qatlamlarida kechadigan magmatik va metamorfik jarayonlar turli xil mineral tarkib, tuzilish va teksturaga ega bo‘lgan jinslarni hosil qiladi. Ushbu jarayonlar ruda zonalari va geologik tuzilma birliklarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, foydali qazilmalar konlarini aniqlash va baholash nuqtayi nazaridan ularni mikroskopik darajada o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi [1].

Ushbu tadqiqot Bo‘kantov geostruktur zonasi doirasida joylashgan Qasqirtov ruda maydonidan olingan tog‘ jinslari shliflarining petrografik tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqotda mazkur hudud uchun xos bo‘lgan magmatik va metamorfik jinslar, jumladan granitlar, metapelit slanetslari, berizitlar hamda ularning gidrotermal o‘zgargan turlari batafsil o‘rganilgan. Har bir shlif uchun mineral tarkib, shakl, o‘lcham va donalarning joylashuvi, shuningdek struktura va tekstura xususiyatlari tahlil qilindi. Sulfid va oksid minerallarining aniqlanishi jinslarning potensial ruda hosil qilish xususiyatidan dalolat beradi. Bundan tashqari, berizitlanish belgilari tadqiq etilgan hududda gidrotermal faollikning mavjudligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar

Qasqirtov rud hududining geologik evolyutsiyasini chuqurroq anglash imkonini beradi va istiqbolli foydali qazilma zonalarini ajratish hamda baholash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi [2,3].

Shlif tavsifi: Metapelitik slanets **(**1-rasm). Mikroskopik tavsif: Namuna zich, maydazarrali, metamorfoz jarayonlarining yaqqol izlariga ega. Asosiy massasi kulrang-to‘q rangli bo‘lib, minerallar bir yo‘nalishda joylashgan, bu esa foliatsiya mavjudligini ko‘rsatadi.



1-rasm. Metapelitik slanes.

Kvars. Shaffof va yarim shaffof maydazarrali agregatlar (0,01–0,05 mm) shaklida uchraydi, ko‘pincha kuchlanish holatini aks ettiruvchi anomaliyali so‘nishlar kuzatiladi. Donalari anemorf, jins massasida bir tekis taqsimlangan. Kvars jinsning asosiy hajmini tashkil qiladi va yaqqol foliatsiyani belgilaydi.

Plagioklaz. Nisbatan yirik donalar (0,3–0,6 mm), qisman alteratsiyaga uchragan, ba’zan albit qonuniga ko‘ra tvinning namoyon bo‘lishi kuzatiladi. O‘tuvchi nurda rangsiz, kesishgan nikollarda egizaklanish aniq ko‘rinadi.

Muskovit–seritsit. Muskovit mikroskopik yaproqsimon zarralar ko‘rinishida, marvaridsimon yaltiroqqa ega. Ko‘pincha seritsitlanish kuzatiladi. Plastinkalar foliatsiya bo‘yicha yo‘nalgan, shakli yaproqsimon yoki plastinkasimon, o‘lchamlari <0,05 mm. Mineral jinsning slanetslanishini ta’kidlaydi va bog‘lovchi vazifasini bajaradi.

Xlorit. Yashildan to‘q jigarranggacha bo‘lgan tuslarda uchraydi. Biotit qisman xlorit bilan almashgan bo‘lib, bu retrograd metamorfizm indikatoridir. Plastinkalar (0,1–0,3 mm) foliatsiya bo‘yicha yo‘nalgan, ba’zan egilgan holda. U past–o‘rta darajali metamorfizm fatsiyalariga xos.

Sulfidlar (pirit, arsenopirit). Izometrik yoki notekis shakldagi qora, no‘transparent qo‘shimchalar (0,05–0,15 mm) ko‘rinishida uchraydi. Ular asosan yoriqlar va kvars tomirchalari bo‘ylab joylashadi, bu esa rudali boyish ehtimoliga ishora qiladi [4].


Strukturaviy xususiyatlari. Leptoblastik struktura (kvars, muskovit, seritsit) past haroratli fatsiyalarga xos mayda zarrali metamorfik jinslar uchun xarakterlidir. Porfiroblastik elementlar (plagioklaz) asosiy massa fonida ajralib turadi, bu esa boshlang‘ich jinsning relikt belgilari bo‘lishi mumkin. Kvars va muskovitning grano-lepidoblastik bog‘lanishlari metamorfik jinslarga xos to‘rli teksturani hosil qiladi.

Tekstura. Slanetsli (foliatsiya): muskovit va seritsit plastinkalari bir yo‘nalishda joylashgan bo‘lib, yaqqol foliatsiyani aks ettiradi. Bunday tekstura mintaqaviy metamorfizmning deformatsiya bosqichi uchun xosdir.

Lineatsion tuzilmalar. Minerallar bir yo‘nalishda cho‘zilgan, chiziqsimon elementlar aniq kuzatiladi, bu intensiv deformatsiya mavjudligini ko‘rsatadi.

Ushbu shlif kuchli deformatsiyaga uchragan metamorfik jinsni aks ettiradi, uning tarkibida kvars, dala shpati, slyudalar va no‘transparent minerallar ustunlik qiladi. Yaqqol foliatsiya, porfiroklastik/porfiroblastik struktura va mayda zarrali matritsaning mavjudligi ushbu jins milonitli slanets yoki deformatsiyaga uchragan slanets bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu esa uning tektonik faol hududda intensiv stress sharoitida shakllanganligini tasdiqlaydi.

Shlif tavsifi: granit **(**2-rasm). Umumiy tavsif: Shlif yirik–o‘rta zarrali gipidiomorf–donador tuzilishga ega bo‘lib, ehtimoliy granit magmatik tog‘ jinsini ifodalaydi. Kuzatuvlar kesishgan nikollarda (XPL) amalga oshirilgan. Jins bir nechta mineral fazalardan tashkil topgan bo‘lib, ular xos interferensiya ranglari va kristall shakllarini namoyon qiladi.



2-rasm. Granit.

Mineral tarkibi va petrografik xususiyatlari:

Kvars: 35% gacha. Donalari asosan anemorf, yumaloq yoki amebasimon, o‘lchami 0,5–2 mm. Interferensiya ranglari – kulrang, oq, sarg‘ish (birinchi tartib). Ba’zan yoriqlar va to‘lqinsimon so‘nish kuzatiladi.

Plagioklaz: 25–30%. Donalari 0,5–3 mm, idiomorf yoki gipidiomorf, plastinkasimon. Polisintetik egizaklanish yaxshi ifodalangan. Interferensiya ranglari kulrang–oq. O‘zgarish darajasi past.

Kaliy dala shpati: 20–25%. Donalari 1–4 mm, ko‘pincha gipidiomorf. Mikroklinka xos panjarasimon egizaklanish kuzatilishi mumkin. Interferensiya ranglari – och kulrang [5].

Biotit: 10–15%. Donalari yaproqsimon yoki cho‘zilgan, o‘lchami 0,5–2 mm. Interferensiya ranglari yuqori (sarg‘ish–qizil, jigarrang), (001) bo‘yicha ajraluvchanlik xos.

Struktura–tekstura xususiyatlari: Struktura – gipidiomorf–donador. Tekstura – massiv, minerallar orientatsiyasiz, tipik magmatik kristallanish.

Jins asosan kvars, plagioklaz, kaliy dala shpati va biotitdan tashkil topgan granit yoki granodiorit bo‘lib, gipidiomorf–donador struktura intruziv magmatik jinslarga xosdir.

Qasqirtov ma’dan maydonidan olingan metapelit slanetslari va granitlarning petrografik tadqiqoti ularning mineral tarkibi, struktura va tekstura xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Mikroskopik tahlillar natijasida kvars, dala shpati, slyudalar va biotit kabi asosiy minerallar qayd etildi. Slanetslarda foliatsiya, porfiroblastik elementlar va deformatsion tuzilmalar kuzatilsa, granitlarda gipidiomorf-donador struktura va massiv tekstura qayd qilindi. Shuningdek, sulfid va oksid minerallarining aniqlanishi hududda ma’danlashuv jarayonlari hamda gidrotermal o‘zgarishlarning kechganligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar Qasqirtov hududining geologik evolyutsiyasini yoritishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi hamda uning metallogenik istiqbolini belgilashda ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADADBIYOTLAR:

1. Заридзе Г.М. Петрография магматических и метаморфических пород. — М.: Недра, 1980. — 424 с.
2. В.И. Зонов, А.Н. Котунов, Г.И. Попова. «Геологическое строение и ПИ гор Букантау», отчет; г. Самарканд, 1972. – URL https://webmineral.ru (дата обращения: 25.12.2024).
3. Л.В. Седельников, А.А. Тусметов, С.О. Жумаев, Т.Н. Тураев. «Перспективы расширения минерально-сырьевой базы окисленных золотосодержащих руд в месторождениях гор Центрального и Южного Букантау», публикация в журнале «Научно-

технический и производственный горный вестник Узбекистана», март 2006. – URL: https://gorniyvestnik.uz/ru (дата обращения: 30.12.2024).
4. Сазонов А.М. Петрография и петрология метаморфических и метасоматических пород. — Красноярск: Красноярский государственный технический университет, 2007. — 324 с.
5. Сизых А.И., Юденко М.А. Петрография метаморфических пород: учебное пособие. — Иркутск: Иркутский государственный университет, 2007. — 123 с.
6.

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA GEOLOGIK JARAYONLARINI TAHLIL QILISH

Yo‘ldoshev Z.D.*
**H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti, e-mail: yuldoshevz1995@gmail.com*

Annotatsiya. Zamonaviy geologik tadqiqotlarda ishlarni yangi metodologik yondashuvlar asosida tashkil etish o‘zining samaradorligini isbotladi. Xususan, geologik ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda sun’iy intellektdan maqsadli foydalanish ilmiy izlanishlarda yangi yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. So‘nggi yillarda xalqaro geologiya hamjamiyatida ushbu yo‘nalishda bir qator muvaffaqiyatli tadqiqotlar olib borildi, bu esa mineral-xomashyo salohiyatini baholashda ijobiy natijalarga erishish imkonini berdi.

Аннотация. В современных геологических исследованиях организация работ на основе новых методологических подходов доказала свою эффективность. В частности, целевое применение искусственного интеллекта при обработке и анализе геологических данных формируется как новое направление в научных изысканиях. В последние годы в международном геологическом сообществе в данном направлении проведён ряд успешных исследований, позволивших достичь положительных результатов в оценке минерально-сырьевого потенциала.

Abstract. In modern geological research, the organization of work based on new methodological approaches has proven its effectiveness. In particular, the targeted application of artificial intelligence in processing and analyzing geological data is emerging as a new direction in scientific investigations. In recent years, the international geological community has conducted a number of successful studies in this area, yielding positive results in assessing mineral resource potential.

O‘zbekiston va Nyu-York Fanlar Akademiyasining Informatika va Geologiya yo’nalishi bo’yicha akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi va H.M. Abdullayev nomidagi oltin medal sovrindori, matematik geologiya asoschisi akademik **Usmonov Fayzulla Asadullayevich** ilmiy faoliyati bilan geologiyada yangi bosqichni boshlab berdi.

Akademik Usmonov O‘rta Osiyoda statistik-matematika usullarni va elektron hisoblash mashinalarini geologiya sohasida birinchi bo‘lib qo‘lladi. Uning “Mintaqaviy geologiya va metallogeniyada matematik usullar” monografiyasi metallogenik tadqiqotlarni matematiklashtirish va avtomatlashtirishga bag‘ishlandi. Shuningdek, u ma’dan konlarini bashoratlash, petrografiya, petrokimyo, petrofizika va kosmogeologiya kabi yo‘nalishlarda matematik usullarni tatbiq etdi.

Olim tomonidan yaratilgan “*Geoanaliz*” dasturi geologik obyektlarning matematik tahlili, ma’dan konlari joylashuvi qonuniyatlari va litosferaning rivojlanish modelini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Shu tariqa, akademik F.A. Usmonov O‘zbekistonda geologiyada elektron hisoblash mashinalaridan foydalanish va statistik-matematik uslublarni tatbiq etishda birinchi bo‘lib ilmiy maktab yaratgan olim sifatida tan olinadi. Uning ilmiy merosi bugungi kunda geologik

ma’lumotlarni qayta ishlash va sun’iy intellekt asosida tahlil qilish yo‘nalishlariga nazariy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydali qazilmalarni qidirish va razvedka qilish murakkab jarayon bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida geologik, geofizik va geokimyoviy ma’lumotlarning yirik to‘plamlarini tahlil qilishni talab etadi. Zamonaviy geologik izlanishlarda mavjud bo‘lgan mintaqaviy qidiruv ma’lumotlarining hajmi va murakkabligi geologik va geokimyoviy ma’lumotlar bazalarini samarali umumlashtirishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, turli format va xususiyatlarga ega katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashda sun’iy intellekt metodlaridan foydalanish samaradorlikni oshirmoqda [1-6].

So‘nggi yillarda sun’iy neyron tarmoqlar, avtomatik tahlil qilish algoritmlari va katta ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash texnologiyalari geologiyada keng qo‘llanila boshladi. Ushbu yondashuvlar boshqa yo’nalishlardagi kabi ma’dan hosil bo‘lish jarayonlarining fazoviy va vaqt bo‘yicha modellarini yaratish, geokimyoviy anomaliyalarni aniqlash hamda ma’danlashuvni baholashda yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda [1–3]. Bundan tashqari, petrografik tadqiqotlarda shaffof shliflarning avtomatlashtirilgan tavsifi va geologik ma’lumotlarni matnli tahlil qilishda sun’iy intellekt vositalari sezilarli yutuqlarga erishmoqda [4–6]. Shu asosda, geologiyada sun’iy intellektning maqsadli qo‘llanishi nafaqat ilmiy jihatdan samaradorlikni oshirish, balki foydali qazilmalarni qidirish va baholash jarayonida vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi.

Ma’dan hosil bo‘lish jarayonlarini tadqiq etishda zamonaviy geologiya uchun asosiy muammo turli manbalardan yig‘iladigan geologik, geofizik va geokimyoviy ma’lumotlarning murakkabligi va ko‘lamidir. Xalqaro maydonda sun’iy intellekt metodlari, xususan sun’iy neyron tarmoqlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali ma’lumotlarni integratsiya qilish va tahlil qilish yondashuvi ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etish ishlari olib borilmoqda.

Tadqiqotlar jarayonida turli manbalardan olingan geologik, geofizik va geokimyoviy ma’lumotlar yagona tizimda jamlash orqali ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi. Ma’lumotlarning hajmi va murakkabligi sababli ular oldindan saralanib, standart formatlarga moslashtirildi. Shundan so‘ng sun’iy intellekt algoritmlari qo‘llanildi: sun’iy neyron tarmoqlar geokimyoviy elementlarning taqsimlanish qonuniyatlarini aniqlash va minerallashuv jarayonini baholashda, avtomatik tahlil qilish usullari esa geofizik izlanishlar natijalari va strukturaviy-geologik xususiyatlar bilan bog‘liq bo’lgan aloqalarni batafsil tahlil qiladi. Shu tariqa, ma’lumotlarni integratsiyalash va ularning ma’dan hosil bo‘lish jarayonlariga ta’sirini kompleks tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Birinchi bosqichda ma’dan hosil bo‘lish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi. Bunga, ICP MS va boshqa kimyoviy analiz tahlillari, shlif va anshlif rasmlari, geofizik ma’lumotlar hamda o’rganilayotgan hududda avval olib borilgan geologik qidiruv ishlarining xulosalari ham qo’shimcha manbaa sifatida kiritiladi. Bu esa tadqiqotning ishonchliligini oshirishi bilan bir qatorda, tizimlashtirilgan tadqiqot olib borishda ahamiyatli hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichda sun’iy neyron tarmoqlar (ANN) katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plamidan maqsadli foydalanish uchun kerakli mezonlar tanlab olinadi. Jumladan, kompleks ma’lumotlar ichidan yashirin bo‘lgan qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, *Random Forest* va *Support Vector Machine* kabi avtomatik tahlil qilish algoritmlari namunalardagi elementlarning konsentratsiyasini bashoratlash hamda ularning magmatik evolyutsiya bilan bog‘liqligini ochib berishda foydalaniladi [2].

Uchinchi bosqichda *Computer vision* texnologiyalari asosida shlif va anshliflarning raqamli tasvirlari tahlil qilinadi. Tasvirlarni avtomatlashtirilgan tasniflash orqali minerallarning tog’ jinsida taqsimlanishi va struktura-teksturaviy xususiyatlari asosida hududda sodir bo’lgan geologik jarayonlarni aniqlashda foydalaniladi. Shuningdek, mikroskopik tasvirlarni tizimli ravishda tavsiflash va hududda sodir bo’lgan geologik jarayonlarni baholash imkonini beradi [3, 4].

To‘rtinchi bosqichda olingan natijalar *TensorFlow, PyTorch* – neyron tarmoqlar (ANN, CNN, Autoencoder) yordamida qayta ishlanib, loyiha maqsadidan kelib chiqqan xolda,

belgilangan mezonlar asosida yakuniy xulosalar taqdim etadi. Masalan, taqdim etilgan ma’lumotlar, analiz natijalari hamda qo’shimcha manbaalar asosida ma’dan hosil bo‘lish jarayonlarining evolyutsion modeli yaratiladi. Bu model geologik vaqt davomida magmatizm va ma’danlashuv o‘rtasidagi dinamik bog‘lanishlarni ko‘rsatib beradi. Sun’iy intellekt asosidagi natijalar an’anaviy geologik tahlillar bilan solishtirilgan holda va ularning samaradorligi hamda qo‘shimcha qiymatlari baholandi [5,6].



1-rasm. SI asosida ma’lumotlarni tahlil qilish bosqichlari va foydalaniladigan dasturlar

Ushbu kontseptual modelda ma’dan hosil bo‘lishning asosiy bosqichlari — magmatizm, elementlarning differensiatsiyasi, tog’ jinslarining mineralogik-petrografik tavsiflari hamda yakuniy xulosa tayyorlash bosqichlari – izchil ko‘rsatib berilgan. Har bir bosqichda qo‘llaniladigan sun’iy intellekt metodlari jarayonlarning samarali tahlilini ta’minlaydi. Turlicha genetik tabaiatga ega (mantiyaviy, magmatogen, metamorfogen v.b.) ma’dan shakllantiruvchi fluiddlar va ma’danlashuv jarayonlari o’zaro aloqadorligini avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qiluvchi *Computer vision* dasturiga asoslangan yangicha yondashuvlar orqali tadqiq qilinadi. Yakuniy bosqichda esa turli formatdagi geologik, geokimyoviy va petrografik ma’lumotlarni integratsiyalovchi sun’iy intellekt modellari istiqbolli hududlarni bashorat qilish imkoniyatini beradi.

Sohada **SI** qo’llanishining asosiy tamoyili – geologik jarayonlarning anglashda zarur bo’ladigan katta hajmdagi ma’lumotlarni sun’iy intellekt yordamida integratsion tahlil qilishdir. Ushbu yondashuv nafaqat mavjud ma’lumotlarni tezkor va obyektiv qayta ishlash imkonini beradi, balki ma’dan hosil bo‘lishning fundamental qonuniyatlarini chuqurroq anglash va yangi istiqbolli hududlarni ajratib ko‘rsatishda ham ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini geologik tadqiqotlarda qo‘llash jarayonida eng muhim xavfsizlik masalalaridan biri — bu ma’danli maydonlar va konlarga oid ma’lumotlarning ishonchliligi va maxfiyligini ta’minlashdir. Geologik, geofizik va geokimyoviy ma’lumotlarning katta hajmlarda qayta ishlanishi, ularning turli algoritmlar (*ANN, Random Forest, CNN*) asosida integratsiya qilinishi ma’danlashuv jarayonlarini baholash imkonini bersa-da, strategik ahamiyatga ega maydonlar ma’lumotlari tarmoqlarga sizdirilishiga kelishi mumkin [4, 6]. Shu bilan birga, SI modellarining ayrim tushunarsiz bo’lgan xususiyatlari ularning qaror qabul qilish mexanizmini to‘liq tushunishga imkon bermaydi, bu esa geologik resurslar bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilishda xavf tug‘diradi [2]. Ma’danli maydonlarga oid katta hajmdagi ma’lumotlar iqtisodiy va strategik ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, ularning noto‘g‘ri qo‘llanishi yoki nazoratsiz tarqalishi hududiy va milliy xavfsizlikka ham tahdid solishi mumkin [1]. Shu bois, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishda kon va maydonlarga oid ma’lumotlar bilan ishlash jarayonida maxfiylikni ta’minlash, natijalarni an’anaviy usullar bilan solishtirish va ekspert nazorati ostida talqin qilish muhim hisoblanadi [2].

Xulosa. Sun’iy intellekt texnologiyalarining geologiyada qo‘llanilishi hozirgi davr ilmiy tadqiqotlarida yangi bosqichni boshlab berishi kutilmoqda. Uning qo‘llanishi ma’dan hosil bo‘lish jarayonlarini chuqurroq o‘rganish, konlarning salohiyatini aniqroq baholash, xalqaro tajriba almashuvini jadallashtirish hamda geologik izlanishlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Turli manbalardan yig‘iladigan geologik, geofizik va geokimyoviy ma’lumotlarning hajmi va murakkabligi ularni an’anaviy usullar bilan tahlil qilishni qiyinlashtiradi, sun’iy intellekt ushbu muammoni samarali hal qilish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellektning

qo‘llanishi vaqt va resurslarni tejash, obyektivlikni oshirish, katta ma’lumotlarni qayta ishlash samaradorligini ta’minlash va yangi istiqbolli hududlarni aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldoshev Z.D. Geologik ma’lumotlarni sun’iy intellekt yordamida tahlil qilishning samaradorligi // Sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyot (SIRI-2025) konferensiyasi materiallari. – Toshkent: UMFT, 2025. – B. 200–203.
2. Zhao T., Wang S., Ouyang C., и др. Artificial intelligence for geoscience: Progress, challenges, and perspectives // The Innovation. – 2024. – T. 5, №5. – C. 100691.
3. Barros R., Souza D., et al. Automatic description of rock thin sections: A web application // Computers & Geosciences. – 2023. – Vol. 174. – P. 105318.
4. Lee S., Oh H.-J. Application of Artificial Neural Network for Mineral Potential Mapping // Mathematical Geosciences. – 2011. – Vol. 43, №7. – P. 983–1003.
5. Sadeghi M., Ranjbar H. Automatic classification of carbonatic thin sections by computer vision techniques and one-vs-all models // Computers & Geosciences. – 2022. – Vol. 159. – P. 104945.
6. Xu X., Li C., et al. Machine learning based prediction of trace element concentrations using data from the Karoo large igneous province and its application in prospectivity mapping // Ore Geology Reviews. – 2023. – Vol. 154. – 105321.

MOLGUZAR TOG‘LARI QUYI POLEAZOY YOTQIZIQLARINING MINERALOGIK VA GEOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI

Ziyodulloev G‘.SH.*

**H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti, e_mail: gziyodulloev@gmail.com.*

Annotatsiya. G‘arbiy O‘zbekiston, xususan Nurota tog‘lari va ularning tarkibida joylashgan oltin ruda maydonlari uzoq tarixiy tadqiqotlarga ega. Mintaqadagi rudali-metasomatik jarayonlar, mineralogik birlashmalar va geokimyoviy qonuniyatlar Y.V. Bertman (1990) tomonidan umumlashtirilgan. Ushbu tadqiqotda Molguzar maydonidagi ruda zonalarining mineralogik-geokimyoviy xususiyatlari tahlil qilinib, oltin mineralizatsiyasining ko‘rinishlari va istiqbolli yo‘nalishlari baholandi.

Abstract. Western Uzbekistan, in particular the Nurota Mountains and the gold ore fields located within them, have a long history of research. Ore-metasomatic processes, mineralogical associations and geochemical patterns in the region were summarized by Y.V. Bertman (1990). In this study, the mineralogical and geochemical properties of the ore zones of the Malguzar field were analyzed, and the manifestations and promising directions of gold mineralization were assessed.

Аннотация. Западный Узбекистан, в частности Нуратинские горы и расположенные в их пределах золоторудные месторождения, имеют длительную историю изучения. Рудно-метасоматические процессы, минералогические ассоциатsii и геохимические закономерности региона были обобщены Ю.В. Бертманом (1990). В данной работе проанализированы минералого-геохимические особенности рудных зон Мальгузарского месторождения, оценены проявления и перспективные направления золотого оруденения.

G‘arbiy O‘zbekiston hududi, xususan Nurota tog‘lari va ularning tarkibida joylashgan oltinli ma’dan maydonlari uzoq tarixiy tadqiqotlarga ega bo‘lib, mintaqadagi ma’dan hosil qiluvchi jarayonlarning keng qamrovli geologik qonuniyatlari ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Mineralogik-geokimyoviy jarayonlar, rudali-metasomatik o‘zgarishlar va ularning tuzilish xususiyatlari Y.V. Bertman (1990) tomonidan ilmiy jihatdan umumlashtirilgan.


Ushbu tadqiqot doirasida Molguzar maydonidagi ma’dan zonalarida amalga oshirilgan mineralogik va geokimyoviy tahlillar asosida oltin mineralizatsiyasining turli ko‘rinishlari, ularning qonuniyatlari hamda istiqbolli yo‘nalishlari baholandi.

Nurota tog‘ massivida oltinli ma’danlar asosan intruzivlar yaqinida, intruziv ustki qismida yoki undan ma’lum masofada joylashgan konlar ko‘rinishida uchraydi. Masalan, Zarmiton, Konsoy, Sarmich, Sentyabr va Marjonbuloq konlari mineralogik jihatdan turli qiyofaga ega bo‘lib, ularda vertikal geokimyoviy zonallik qatori yaqqol namoyon bo‘ladi.

Zarmiton konida Au–Bi–W–Mo–Co hamda Pb–Sb–Zn–As–Ag turkumidagi assotsiatsiyalar ajralib turadi. Konsoy konida oltin–pirit–arsenopirit va polisulfidli birlashmalar ustunlik qiladi. Sarmich konida yuqori sathlarda polisulfid (Pb, Sb, Cu), quyida esa oltin–pirit–arsenopirit birlashmalari hosil bo‘ladi. Sentyabr va Marjonbuloq konlarida kvars–arsenopiritli va polisulfidli minerallashuv qayd etilgan.

Minerallashuv ko‘p hollarda oltin bilan birga nodir metalllar (Bi, W, Mo, Co) konsentratsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ma’danlarning qimmatliligini va geokimyoviy xususiyatlarini belgilaydi.

Tadqiqot natijalari konlarda vertikal geokimyoviy qatorlarning mavjudligini ko‘rsatdi. Ular Au, Ag, As, Bi, W, Mo, Sb, Pb, Zn, Cu va Ni kabi elementlarning bir-birini almashinishi bilan xarakterlanadi. Zonalarning yuqori qismlarida ko‘p hollarda polisulfid birlashmalari, quyi sathlarda esa oltin–pirit–arsenopirit birlashmalari joylashgani kuzatildi.



Rasm. Molguzar tog‘larida o‘tkazilgan kon-burg‘ulash va geokimyoviy tadqiqotlar natijalari (T.K.Ortiqov 2022 y. ma’lumotlari asosida)

1-5-lokalizatsiyalashgan morfologik tiplari: 1-zarachali-shtokli ko‘tarilishi; 2-tomirli-shtokli va shtokli-tomirli; 3-tomirli; 4-tomirli-mayda tomirli; 5- zarachali-tomirli; 6-9 - intruziv jinslarning asosiy tiplarining nisbiy tarqalishi:6-gabbro-senitlar majmuasi, senitlar, granosienitlar (gabbro-diorit-granodiorit formatsiyasi); 7 - granit - va granodiorit-porfirit, diorit va senit-diorit porfiritlar majmuasi; 8 - lamprofirit tipidagi daykalar majmuasi; 9-asosiy tarkibli daykalar majmuasi; 10-13 - oltin mineralizatsiyasi turlari: 10-noyob metalli-kvars oltin; 11-oltin-pirit - arsenopirit; 12-oltin – yarim sulfid; 13 - (oltin) kumush; 14-rudali kvarsning parchalanish va gomogenlanish temperaturalari.

Nurota tog‘ tizmasi bo‘ylab qayd etilgan geokimyoviy anomaliyalar Kokbuloq, Karanchibuloq, Markaziy, Zargar, Laylaguin va Kattasoy zonalarida qayd etilgan bo‘lib, ularda Au, As, Bi, W, Mo va boshqa elementlarning yuqori fon darajalari kuzatilgan. Bu holat ma’dan hosil qiluvchi jarayonlarning litologik va tektonik omillar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Mineral-geokimyoviy qonuniyatlar asosida mintaqadagi ma’dan maydonlarini tipizatsiya qilish imkoni yaratildi. Oltin mineralizatsiyasi ko‘p hollarda kembriy–ordovik davri cho‘kindilari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular ma’danli elementlarni lokalizatsiya qilish uchun qulay stratigrafik sharoitlarni ta’minlaydi. Minerallashuvning yashirin va eroziyalangan shakllarini aniqlash uchun zamonaviy geokimyoviy va aero-geofizik tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish zarur.

Induktiv ravishda bog‘langan plazma–mass-spektrometriya kabi ilg‘or tahlil usullarini qo‘llash orqali yangi ma’lumotlar bazasini yaratish hamda ma’dan qidirishning zamonaviy strategiyasini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Xulosa

Molguzar maydonida olib borilgan mineralogik va geokimyoviy tahlillar natijasida oltin mineralizatsiyasi ko‘p omilli jarayon ekanligi isbotlandi. Mineral-geokimyoviy zonallik qonuniyatlari ma’dan tuzilishining asosiy mezonlarini belgilab, istiqbolli maydonlarni ajratib ko‘rsatish imkonini yaratadi. Kokbuloq, Laylaguin va Kattasoy zonalarining kesishish nuqtalari eng istiqbolli hududlardan biri sifatida ajralib turadi.

Mintaqadagi rivojlanish istiqbollari yangi avlod prognostik-geokimyoviy modellarini yaratish bilan chambarchas bog‘liq. Bu esa kelgusida yashirin oltin konlarini aniqlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ivanov G. A., Ivanova L. I. "Katta-Qo‘rg‘on seysmik tadqiqot partiya № 21/62 ishi bo‘yicha 1962 yil uchun hisobot". T., O‘z.Dav. Geol. Qo‘m. Fondi, 1963.
2. Ivanov G. A., Maxmudov B. M., Ivanova L. I. "Nurota Geofizika partiyasining 24/62, 24/63-sonli ishlari to‘g‘risida 1962-1963 yillarda Nurota tog‘lar o‘rtasidagi chuqurliklar va Sangzor daryosi vodiysi uchun yakunlangan hisobot."T., O‘z.Dav. Geol. Qo‘m. Fondi, 1964.
3. Mavlyanov S. D. "2001-2004 yillarda G‘arbiy Molguzar istiqbolli hududida oltin va boshqa foydali qazilmalarni qidirish."T., O‘z.Dav. Geol. Qo‘m. Fondi, 2004.

ҒАРБИЙ УМИД КОНИ МАЪДАНЛАРИНИНГ МИНЕРАЛОГИК ТАРКИБИ

Абдуваитов А.Қ.*, Сайитов С.С.*, Расулов Ш.М.*
“Минерал ресурслар институти” давлат муассаси, ***e-mail:***
azimjon.abduvaitov96@gmail.com, sardorsayitov@gmail.com, shohruhrasulov2019@gmail.com.

Аннотация: Ушбу тезисда Аристантау маъданли майдонининг шарқий қисмида, Умид конига нисбатан ғарбда жойлашган Ғарбий Умид конининг минералогик-петрографик хусусиятлари келтирилган. Бунга кўра тадқиқот майдонидаги маъданли минераллар ва қамровчи жинсларнинг минералого--петрографик хусусиятлари таҳлил қилинган. Оксидланган маъданлар таркибидаги олтин маданларига тўхталиб ўтилган.

Annotation: This thesis presents the mineralogical and petrographic characteristics of the Western Umid deposit, located to the west of the Umid deposit in the eastern part of the Aristantau ore field. The study analyzes the mineralogical and petrographic features of ore minerals and host rocks within the research area. Special attention is given to the gold mineralization within the oxidized ores.

Аннотация: В данном тезисе представлены минералого-петрографические характеристики Западного Умидского месторождения, расположенного западнее месторождения Умид в восточной части Аристантау рудного поля. Проведен анализ

минералого-петрографических особенностей рудных минералов и вмещающих пород исследуемой территории. Особое внимание уделено золотому оруденению в составе окисленных руд.


Ғарбий Умид кони Марказий Қизилқумнинг жанубий шарқий қисмидаги Аристантау тоғларида Аристантау маъданли майдонининг шарқий қисмида жойлашган (Э.Х. Яркулов, 2017). Майдонда ушбу кондан ташқари Аристантау, Бешаши ва Умид конлари ҳам мавжуд. Аристантау тоғ тизмасининг асосий маъдан назорат қилувчи структураси сифатида меридионал Аристан-Тўрткудуқ структурасининг субмеридионал Аристанқудуқ структураси ва Едум-Бешаши бурмаланиш зонаси билан кесишиш қисми ажратилади [1]. Ғарбий Умид кони ҳам айнан шу зонанинг бир қисми сифатида қаралади.

Ғарбий Умид конини геологик ўрганиш 2017-йилда Э.Х. Яркулов томонидан илгарилама баҳолаш ишлари орқали олиб борилган. Маъданларнинг минералогик таркибини ўрганиш бўлса “МРИ” ДМ Минералогик тадқиқотлар бўлими (В.Д. Цой) томонидан амалга оширилган. Ҳозирги кунга коннинг оксидланган маъданлари карьер услида қазиб олинган бўлиб, унинг қанотлари ва чуқур горизонтларида олтин маъданларини илгарилама ва муфассал баҳолаш ишлари олиб борилмоқда.


Коннинг асосий маъдан қамровчи жинслари томирли ва метатерриген жинслар бўлиб, улар ритмик равишда алмашиб турадиган номувофиқ қатламланган қумтошлар, алевроқумтошлар (1-расм) ва сланецлардан (2-расм) иборат. Асосан олигомикт ёки жуда кам ҳолларда полимикт таркибли (хлорит-серицит-кварцли, асосан кварцли, кварц-дала шпатли, кўмирсимон-слюдали-кварцли ва ҳ.к.) бўлади. Қумтошлар кулранг, яшилсимон-кулранг бўлиб, кварц ва кремнийли жинслар доналарининг устунлиги билан характерланади. Томирсимон жинслардан кварцнинг турли ўлчамлардаги томирли ҳосилаларини учратиш мумкин.

Тадқиқот майдонида олиб борилган минераграфик тадқиқотлар натижасида маъданли минераллардан темир гидрооксидлари, пирит, арсенопирит, халькопирит, галенит, сфалерит, хира маъдан, рутил, пиролюзит, графит кабилар аниқланди. Аншлифларни таҳлил қилиш натижасида асосий маъданли минерал сифатида оксидланиш зонасида темир гидрооксиди, бирламчи маъданларда пирит, камроқ арсенопирит ажратилган.

Маъданли минераллар асосан томирчалар, ажралмалар, уюмлар ҳолида намоён бўлади. Кўпинча темир гидрооксидлари жинс ёриқларини тўлдирганлигини кузатиш мумкин. Баъзи намуналарда темир гидрооксидларида пирит реликт сифатида учрайди (3-4-расмлар). Бу эса гидрооксид минералларининг пиритнинг иккиламчи ўзгариши натижасида ҳосил бўлганлигидан дарак беради.



1-расм. Алевроқумтошдаги кварц томирчаси (Quarts veinlet in silty sandstone). (40^{x}; ник. ||)1-кварц (quarts); 2-маъданли минераллар (ore mineraals); 3-серицит (sericite).



2-расм. Сланецдаги филлитли структура (Phyllitic structure in schist). (40^{x}; ник. X)1-серицит (sericite); 2-кварц (quarts).

Пирит намуналарда деярли 1% миқдорда қайд этилади. Зарралар ўлчами ўртача 0,01-0,8мм ўлчамларда кузатилади. Минерал кубик, изометрик, узунчоқ формаларда намоён бўлади. Арсенопирит ўлчамлари 0,01-0,3мм бўлган ромбик, призматик ва ксеноморф шаклларни намоён қилади. Галенит, халькопирит, темир гидрооксиди, сфалерит, рутил, илменит, хира маъдан, висмутин каби минераллар якка, бир нечта зарралар миқдорида қайд этилади.


Соф туғма олтин асосан оксидланган маъданларда юқори миқдорлари қайд этилиб, эркин ҳолда номаъдан массада тугунсимон, узунчоқ шаклларда намоён бўлади (5-6-расмлар). Кимёвий таҳлилларда олтиннинг миқдорлари аниқланганлигига қарамай нисбатан чуқур горизонтлардаги маъданларни минералогик тадқиқ қилиш натижасида эркин ҳолатдаги олтиннинг ҳусусий минераллари аниқланмади. Бу эса олтиннинг сульфид минераллари таркибида бўлишини ва гиперген зоналарда соф кўринишга ўтишини англатади.

Маъданларда олтин асосий фойдали компонент ҳисобланади, миқдори 3.0 г/т гача ни ташкил қилиб, олтиннинг бир мунча юқори миқдорлари оксидланган маъданларда қайд этилади (В.Д. Цой, 2017). Кейинги ўринларда метасоматитларда ва алевроқумтошларда бирмунча камроқ миқдорлари аниқланган (7-расм).

Ғарбий Умид кони маъдан қамровчи жинслари асосан метатерриген жинслардан ташкил топган бўлиб, гидротермал ўзгаришлар натижасида турли метасоматитлар ва кварц томир, томирчали ҳосилалар шаклланган. Олтин оксидланган маъданларда эркин ҳолдаги соф туғма олтин билан намоён бўлган, чуқур горизонтларда эса унинг хусусий минераллари қайд этилмади.



3-расм. Темир гидрооксидидаги колломорф структура (Collomorphic structure of iron hydroxide). (40x). 1-темир гидрооксиди (iron hydroxide).



4-расм. Темир гидрооксидидаги пирит реликти (Pyrite inclusion in iron hydroxide). (400x). 1-темир гидрооксиди (iron hydroxide); 2-пирит (pyrite)



5-расм. Соф олтин (Pure gold). (330x).



6-расм. Соф олтин (Pure gold). (330x).



7-расм. Ғарбий Умид кони жинслари таркибида олтин миқдорлари (Gold concentrations in the rocks of the Western Umid deposit)

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Сайитов С.С., Абдуваитов А. Қ. Умид кони маъданлари ва маъдан қамровчи жинсларининг минералогик-геокимёвий хусусиятлари //Геология фанлари университетит хабарлари // № 2, 2025 44-52 бетлар.

ХОРАЗМ МИНТАҚАСИДАГИ ҚУЙИ БЎР ВА ЮРА ДАВРИ ЁТҚИЗИҚЛАРИНИНГ НЕФТ-ГАЗГА ИСТИҚБОЛЛИЛИГИНИ ГЕОФИЗИК МОДЕЛЛАШ АСОСИДА БАҲОЛАШ

Абдуллаев М.С. *, Хидиров Қ.М.* , Парпиев А.А.*, Файзуллаев Т.Н.*

“Ўзбекгеофизика” АЖ, “ФГЭ” филиали, Қўқон ш., e-mail: murod_abdulla_75@mail.ru., qobuljon.hidirov@list.ru, abdulhafizparpiyev@gmail.com, fayzullaev98909977527@gmail.com.

Аннотация: Ушбу тадқиқот Хоразм регионининг қуйи бўр ва юра даври ётқизиқларининг нефтгазга истиқболлилигини баҳолашга қаратилган. Геологик-геофизик маълумотлар таҳлил қилинган ва маҳсулдор горизонтларнинг литологик ва тектоник хусусиятлари Туркманистон ҳудудида топилган углеводород конлари билан таққосланган ҳолда ўрганилган.

Аннотация: Данное исследование направлено на оценку нефтегазоперспективности нижнемеловых и юрских отложений Хорезмского региона. Проанализированы геолого-геофизические данные и изучены литологические и тектонические особенности продуктивных горизонтов в сравнении с месторождениями углеводородов, открытыми на территории Туркменистана.

Abstract: This study is aimed at assessing the oil and gas potential of the lower cretaceous and jurassic deposits of the Khorezm region. Geological and geophysical data were analyzed, and the lithological and tectonic features of the productive horizons were studied in comparison with hydrocarbon deposits discovered in Turkmenistan.

Ҳозирги вақтда жадал ривожланаётган саноатимизнинг углеводородга бўлган эхтиёжини таъминлаш учун янги истиқболли минтақаларда геология қидирув ишларини олиб бориш нефт ва газ саноатининг устувор вазифаларидан бири ҳисобланади.

Хоразм минтақаси мезозой-кайнозой қатламларининг стратиграфияси масалалари, уларнинг литологик таркиби, фациявий зоналлиги ва аккумуляция шароитлари, ҳудуднинг тектоник ривожланиш тарихи, нефт ва газ тўпланишининг жойлашиш қонуниятлари ва нефтгазлилик истиқболлари бўйича саволлар, туркман ва ўзбек геологларининг илмий ишларида ўз аксини топган (А.А. Абидов, Г.С. Абдуллаев, Н.Я. Кунин, А.В.Киршин В.В. Рубо,

Т.Л. Бабаджанов, С.Н. Зуев, Г.Б. Ким, О.А. Кузмина., Н.А. Крилов, Л.Р. Бикеева ва бошқалар) [1-4].

Бу минтақа ва қўшни ҳудудларда геологик қидирув ишларининг ривожланиши XX-аср ўрталарида бошланган. Геологик ва геофизик қидирув усулларидан фойдаланган ҳолда ҳудудни комплекс ўрганиш амалга оширилган. Ўрганилаётган ҳудуднинг материалларини умумлаштириш натижалари бўйича геологик хариталар, стратиграфик кесмалар, тектоник ва структуравий схемалар, гидрогеологик хариталар тузилган[3].

Хоразм минтақасида нефт ва газ конлари очилмаган лекин қўшни Туркманистон Республикаси ҳудудида, чегарадан унча узоқ бўлмаган масофада Ачак ва Наип гуруҳ структураларида қуйи бўр ва юқори юра терриген ётқизиқлари бўйича саноат миқёсидаги газ конлари аниқланган.

Ўрганилаётган ҳудуд Амударё чўкинди ҳавзасининг шимоли-ғарбий қисмида, Хоразм моноклинали ва Балкуин букилмаси тектоник элементларида жойлашган. Ҳудуд шарқ ва жануб томондан Султонсанжар вали ва Марказий Қорақум кўтарилмаси оралиғида жойлашган йирик тектоник элементлардан ташкил топган. Ғарбда у Дарёлиқ-Даудан букилмасидан кичик кесишмаси билан чегараланган. Амударё чўкинди ҳавзаси шимол томондан Қизилқумолди флексуро-узилишли зонаси (регионал ёриқ) билан туташган. Унинг тузилиши бурмаланган пойдевор ва платформа чехолига ажралади.

in this study [1]. Targeted band ratio algorithms analyses Sentinel-2 multispectral images to generate indices for ferric, ferrous, silica, and hydrothermal alterations, facilitating the spectral mapping of regions abundant in heavy minerals. The study involved field validation across three morphodynamic zones (A1–A3), which included the systematic collection of 90 sediment samples analyzed through Atomic Absorption Spectroscopy (AAS) and Wavelength-Dispersive X-Ray Fluorescence (WD-XRF). Tests showed higher amounts of gold in Zones A2 and A3, reaching 70.64 ppm, along with iron oxide levels up to 26.34 wt.% and titanium dioxide levels up to 4.05 wt.%, confirming the presence of magnetite, ilmenite, and rutile. Increased Al_2O_3 concentrations and the presence of secondary polymetallic assemblages (Ni, Cr, Co, Cu) indicate input from clay-rich traps and mafic-ultramafic source regions. The way the unusual elements line up with landforms and spectral features shows that combining remote sensing and GIS with field geochemistry is effective for finding promising placer areas. The results for Zones A2 and A3, marked as key areas for further exploration, create a reliable method for searching for alluvial gold in complicated river settings as reported in this study [2].

REFERENCES:

1. Ghosh, M., & Bandyopadhyay, T. K. (2020). Placer deposit characterization using geospatial and geochemical techniques: An overview. Journal of the Geological Society of India, 96(6), 637–648.
2. Mateen, A., Wahid, A., Janjuhah, H. T., Mughal, M. S., Ali, S. H., Siddiqui, N. A., Shafique, M. A., Koumoutsakou, O., & Kontakiotis, G. (2022). Petrographic and Geochemical Analysis of Indus Sediments: Implications for Placer Gold Deposits, Peshawar Basin, NW Himalaya, Pakistan. Minerals, 12(8), 1059. https://doi.org/10.3390/min12081059

TEXNOGEN CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI ZAMON MUAMMOLARI VA ULARNING MUHIM MINERAL XOMASHYO RESURSLARI SIFATIDAGI ISTIQBOLLARI

Shukurov N.*, Rajabaliyev H.*, Muxtorov Sh.*, Shukurov Sh.*, Rashidov N.*, Fayziyev F.*, Jurayev A.*, Otaboyeva N.**, Qo'yliyev M.*, Karamatova G.*, Mahammatov A.***

**H.M. Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti DM*

*** Guliston Davlat Universiteti, Sirdaryo shahri, O'zbekiston Respublikasi*

****Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti*

Texnogen chiqindilar — bu konchilik, metallurgiya, energetika va boshqa sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan, odatda ikkilamchi mahsulot sifatida qaraladigan qoldiqlardir. Bunday chiqindilar tarkibida ko‘pincha qimmatbaho metallar, foydali elementlar va sanoat uchun muhim mineral xomashyolar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni qayta ishlash jarayoni ko‘plab muammolar bilan bog‘liq. Texnogen chiqindilarni qayta ishlashning dolzarbligi bir nechta omillar bilan belgilanadi: 1) Ekologik omillar – chiqindilar tuproq, suv va havoga zararli moddalarni chiqaradi, ba’zida radiatsion xavf tug‘diradi; 2) Iqtisodiy omillar – chiqindilar tarkibida oltin, kumush, mis, molibden, nikel, kobalt, nodir yer elementlari kabi qimmatli komponentlar mavjud. Ularni ajratib olish iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishi mumkin; 3) Resurslardan oqilona foydalanish – texnogen chiqindilarni qayta ishlash tabiiy resurslardan foydalanish bosimini kamaytiradi; 4) Sanoat xomashyo bazasini kengaytirish – yangi konlarni ochish va qazib olishga nisbatan chiqindilarni qayta ishlash ko‘proq qulay va iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishi mumkin.

So‘nggi yillarda global miqyosda mineral xomashyo resurslariga bo‘lgan talab keskin ortib bormoqda. Ayniqsa, kritik va strategik minerallar – nodir yer elementlari, kobalt, litiy, volfram, molibden, oltin, kumush, platina guruh metallariga ehtiyoj yuqori. Bunday resurslarning asosiy

qismi tabiiy konlarda cheklangan va qazib olish jarayonida ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli texnogen chiqindilarni qayta ishlash va ularni muhim mineral resurslar manbai sifatida ko‘rib chiqish dolzarb yo‘nalishga aylandi.

Texnogen chiqindilarni qayta ishlash masalasi nafaqat sanoat samaradorligini oshirish, balki ekologik muvozanatni saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda ekologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlik masalalari tobora o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib bormoqda. Texnogen chiqindilarni qayta ishlashning eng muhim ekologik vazifalaridan biri – ularning atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirishdir. Chiqindilar omborlari katta maydonlarni egallaydi, tuproq va yer osti suvlarini og‘ir metallar, sulfatlar va boshqa toksik birikmalar bilan ifloslantiradi. Masalan, flotatsion chiqindilar saqlanadigan gidrotexnika inshootlarida ko‘pincha kislotalilik yuqori bo‘lib, ular tuproq unumdorligini pasaytiradi va suv resurslariga zarar yetkazadi. Ko‘mir yoqilganda hosil bo‘ladigan kul va shlaklar atmosferaga chang ko‘rinishida tarqalib, nafaqat mahalliy ekologik muammolarni, balki global iqlim o‘zgarishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ularni qayta ishlash orqali havoga chiqadigan zararli moddalar hajmi sezilarli darajada kamayadi. Chiqindilarni qayta ishlash orqali ulkan omborlar va poligonlarning hajmi kamayadi. Bu esa yangi yer maydonlarining “chiqindixonaga” aylanishining oldini oladi va qishloq xo‘jaligi yoki boshqa xo‘jalik faoliyati uchun foydalanish imkonini beradi.

Bugungi kunda texnogen chiqindilarni qayta ishlash masalasi jahon ilmiy hamjamiyati va sanoat doiralarida keng muhokama qilinmoqda. Ko‘plab davlatlarda maxsus dasturlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular chiqindilarni ikkilamchi resurs sifatida qayta ishlashni rag‘batlantirishga qaratilgan. Biroq amaliyotda ko‘plab muammolar mavjud: chiqindilarning mineralogik murakkabligi, qayta ishlash texnologiyalarining yetarli darajada samarali emasligi, iqtisodiy va huquqiy to‘siqlar. O‘zbekistonda ham ushbu masalani hal qilish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Davlat dasturlarida ekologik xavfsizlikni ta’minlash, resurslardan oqilona foydalanish va sanoat chiqindilarini qayta ishlash bo‘yicha qator vazifalar qo‘yilgan. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar texnogen chiqindilar tarkibini o‘rganish, ularni qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish va iqtisodiy samaradorligini baholashga qaratilgan. Mazkur maqolada texnogen chiqindilarni qayta ishlashning hozirgi zamon muammolari, ularning tasnifi, qayta ishlash usullari, ekologik va iqtisodiy jihatlari hamda O‘zbekiston sharoitidagi imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Dunyo bo‘yicha sanoat chiqindilarining hajmi yil sayin ortib bormoqda. Xalqaro ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, konchilik sanoatida hosil bo‘layotgan chiqindilar hajmi qazib olinayotgan foydali qazilmalar hajmidan bir necha baravar ko‘pdir. Masalan, 1 tonna mis ishlab chiqarish uchun o‘rtacha 100 tonnagacha chiqindi hosil bo‘ladi. Energetika sohasida esa issiqlik elektr stansiyalarida (IES) yoqilg‘i sifatida ko‘mir yoqilganda hosil bo‘ladigan kul va shlaklarning yillik miqdori millionlab tonnani tashkil qiladi. O‘zbekiston misolida ham vaziyat o‘ta dolzarbdir. Respublikadagi yirik kon-metallurgiya majmualari — Olmaliq va Navoiy KMK, Angren va Yangi-Angren IES, shuningdek, qator boyitish fabrikalari faoliyati natijasida yuz millionlab tonna texnogen chiqindilar hosil bo‘lgan. Bu chiqindilar maxsus saqlash joylarida yig‘ilib, katta maydonlarni egallab turibdi. Natijada nafaqat ekologik muammolar yuzaga kelmoqda, balki ularda mavjud bo‘lgan qimmatbaho metallar va foydali elementlardan foydalanilmay qolmoqda.

Texnogen chiqindilar xilma-xilligi, mineralogik va kimyoviy tarkibining murakkabligi bilan ajralib turadi. Texnogen chiqindilarni tasniflash orqali ularning turli sanoat tarmoqlarida hosil bo‘lish xususiyatlarini va qayta ishlash imkoniyatlarini aniqlash mumkin. Har bir chiqindi turi o‘ziga xos mineralogik va kimyoviy xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni qayta ishlashda individual yondashuv talab etiladi.

Konchilik va boyitish sanoati chiqindilari. Konchilik sanoatida qazib olish jarayonida ma’dan bilan birga ko‘plab foydasiz jinslar ham olinadi. Ular odatda otval ko‘rinishida yig‘iladi. Shuningdek, ma’danni boyitish jarayonida hosil bo‘ladigan flotatsion chiqindilar texnogen chiqindilarning eng yirik guruhlaridan biridir. Otval jinslari – asosan qamrovchi yondosh tog’

jinslar, magmatic, cho'kindi va metamorfik tog' jinslaridan tashkil topadi. Ularning hajmi ko'pincha milliardlab tonnani tashkil etadi. Flotatsion chiqindilar – ma'danni maydalash, maydalangan materialni flotatsiya reagentlari yordamida boyitish jarayonida hosil bo'ladi. Bu chiqindilar tarkibida ko'pincha mis, rux, qo'rg'oshin, oltin, kumush va boshqa elementlarning sezilarli qoldiqlari saqlanadi. O'zbekistonda Olmaliq va Navoiy KMKlarida hosil bo'lgan flotatsion chiqindilar katta maydonlarni egallab turibdi. Masalan, Olmaliqdagi Mis boyitish fabrikasi chiqindilari ombori bir necha yuz million tonnadan ortiq massaga ega. Mis-boyitish fabrikalari chiqindilari – oltin, kumush, molibden, rheniy, nodir metallarni o'z ichiga oladi.

Metallurgiya sanoati chiqindilari. Metallurgiya jarayonlarida shlak va boshqa qattiq qoldiqlar hosil bo'ladi. Shlaklar – temir, mis, nikel, qo'rg'oshin, rux kabi metallarni eritib olish jarayonida paydo bo'ladi. Ular tarkibida 5–10% gacha foydali komponentlar saqlanishi mumkin. Masalan, mis shlaklarida temir, rux, qo'rg'oshin va hatto nodir metallar bo'ladi. Metallurgiya chiqindilarining muhim xususiyati – ularning yuqori kimyoviy faolligi va ba'zan radioaktiv elementlarni ham o'z ichiga olishi. Metallurgiya shlaklari – mis, rux, vanadiy, titan, xrom va boshqa qimmatbaho metallar manbai hisoblanadi.

Energetika sanoati chiqindilari. Issiqlik elektr stansiyalarida (IES) ko'mir yoqilishi natijasida kul va shlak hosil bo'ladi. Kul tarkibida kremniy oksidi (SiO_2), alyuminiy oksidi (Al_2O_3), temir oksidi (Fe_2O_3), kalsiy oksidi (CaO) kabi komponentlar mavjud. Shlak – yuqori haroratda erigan jinslarning qotishi natijasida hosil bo'ladi. IES kul-shlaklari qurilish materiallari (sement, beton, g'isht) ishlab chiqarishda keng qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, ularda nodir yer elementlari (lantanoidlar, ittriy, skandiy) bo'lishi aniqlangan. Bu ularni strategik xomashyo manbasi sifatida qayta ishlashni dolzarb qiladi. O'zbekistonda Angren va Novo-Angren IES kul-shlak omborlari eng yiriklaridan bo'lib, ularning umumiy zaxirasi yuz millionlab tonnaga teng. Kul-shlak chiqindilari – germaniy, galliy, ittriy, itterbiy va boshqa nodir yer elementlariga boy.

Texnogen chiqindilar tarkibida oltin, kumush, mis, molibden, nikel, kobalt, noyob va nodir yer elementlari, titan, vanadiy kabi qimmatli komponentlar mavjud. Ularni muhim mineral xomashyo resurslarining ikkilamchi manbasi sifatida qayta ishlab olish orqali korxonalar muhim metallarning yangi konlarini ochishga nisbatan ancha arzon va tezkor xomashyo bazasini qo'lga kiritadi. Masalan, Xitoy va Rossiyada ko'plab texnogen chiqindilar nodir yer elementlari manbai sifatida qayta ishlanmoqda. Shu asosda iqtisodiy samaradorlik nafaqat qo'shimcha mahsulot olishda, balki muhim metallar importini qisqartirishda ham namoyon bo'ladi. Qayta ishlash texnologiyalari to'g'ri tanlanganda, chiqindilardan olinadigan mahsulot tannarxi tabiiy ma'danlarga nisbatan past bo'lishi mumkin. Yangi ma'danlarni qazib olish va boyitish katta miqdorda energiya, suv va boshqa resurslarni talab qiladi. Texnogen chiqindilardan foydalanish esa ushbu xarajatlarni kamaytiradi. Texnogen chiqindilarni qayta ishlash yangi sanoat yo'nalishlarini shakllantiradi. Bu esa qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga olib keladi. Natijada butun hudud iqtisodiyoti rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ko'rinib turibdiki, texnogen chiqindilarni qayta ishlash bir vaqtning o'zida ekologik muammolarni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Shuning uchun ushbu jarayonni "chiqindilar utilizatsiyasi" emas, balki "yangi resurslarni yaratish" deb baholash to'g'riroq bo'ladi. Bu yondashuv dunyo bo'yicha "aylanma yoki yashil iqtisodiyot" konsepsiyasiga mos keladi, ya'ni har qanday chiqindi yangi mahsulot ishlab chiqarish jarayonida xomashyo sifatida qaraladi. O'zbekiston uchun ham texnogen chiqindilarni qayta ishlash resurslarni tejash, sanoatni modernizatsiya qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim omilidir.

Texnogen chiqindilarni samarali qayta ishlash uchun so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlar va sanoat amaliyotida bir qator ilg'or texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Ular nafaqat qimmatli elementlarni maksimal darajada ajratib olishni, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlashni ham ko'zda tutadi. Quyida ularning eng muhim yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Gravitatsion boyitish. Texnogen chiqindilarni qayta ishlashda gravitatsion usullar ko'pincha dastlabki bosqichda qo'llanadi. Ular minerallarning zichlik farqlariga asoslanadi. Stol-

separatorlar va spiral separatorlar yordamida oltin, volfram, qalay kabi og‘ir minerallarni ajratib olish mumkin; Ushbu texnologiya oddiy, arzon va ekologik xavfsiz bo‘lib, ko‘plab chiqindilarni qayta ishlashda qo‘llaniladi.

Magnit va elektrostatik boyitish. Magnit boyitish temir, titan, vanadiy va boshqa ferromagnit minerallarni ajratib olish uchun keng qo‘llaniladi. Elektrostatik boyitish esa elektr o‘tkazuvchanligi farqlariga asoslanadi va nodir metallarni ajratishda samarali hisoblanadi.

Kimyoviy va gidrometallurgik texnologiyalar. 1) *Kislota va ishqoriy eritmalar bilan yuvish* - chiqindilar tarkibidagi metallarni eritib olish uchun sulfat, xlorid yoki nitrat kislotalaridan foydalaniladi. Masalan: - kislota yuvish – nikel, kobalt, mis kabi metallarni ajratishda qo‘llaniladi; - ishqoriy yuvish – alyuminiy va kremniy oksidlarini eritib olish imkonini beradi. 2) *Siyanidli yuvish (oltin ajratish)*- oltin chiqindilarini qayta ishlashda eng ko‘p qo‘llanadigan usullardan biri. Biroq u ekologik xavfli bo‘lgani sababli hozirda uning o‘rnini bosuvchi tiyo-ureya va tiyosulfat asosidagi eritmalar ishlab chiqilmoqda. 3) *Bioleaching (mikroorganizmlar yordamida eritish)* -bu usulda maxsus bakteriyalar (masalan, Acidithiobacillus ferrooxidans) chiqindilar tarkibidagi sulfid minerallarini oksidlab, metallarni eritmaga o‘tkazadi. Afzalligi -ekologik xavfsiz, energiya sarfi kam; Kamchiligi - jarayon sekin kechadi va yuqori namlik talab qiladi.

Pirometallurgik texnologiyalar. Texnogen chiqindilarni yuqori haroratda eritib, qimmatli komponentlarni ajratib olish imkonini beruvchi usullar: -shlaklarni qayta eritish orqali temir, marganets, vanadiy kabi elementlar olinadi; -plazmali texnologiyalar – chiqindilarni 2000 °C gacha qizdirib, metallarni to‘liq ajratib olish imkonini beradi. Bu usullar yuqori energiya sarfini talab qiladi, ammo yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi.

Sorbsion va membranali texnologiyalar. Ion-almashinish smolalari yordamida nodir yer elementlari va qimmatbaho metallar eritmalardan selektiv ajratib olinadi. Membranali usullar (nanofiltratsiya, ultrafiltratsiya) chiqindilardan hosil bo‘lgan eritmalarda ionlarni ajratib olishda qo‘llaniladi. Ushbu texnologiyalar yuqori aniqlik va selektivlikni ta’minlaydi, ammo narxi qimmat.

Nano- va plazmali texnologiyalar. So‘nggi yillarda texnogen chiqindilarni qayta ishlashda nanoo‘lchamli katalizatorlar va plazma texnologiyalaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda. Nanokatalizatorlar kimyoviy reaksiya tezligini oshiradi va metallarni ajratishda yuqori samaradorlik beradi. Plazma yordamida qayta ishlash esa murakkab tarkibli chiqindilarni bir vaqtning o‘zida tozalash va boyitishga imkon beradi.

Kompleks qayta ishlash texnologiyalari. Hozirgi zamon talablariga ko‘ra, chiqindilarni qayta ishlashda faqat bitta komponentni emas, balki ularning kompleksini ajratib olish muhim ahamiyatga ega. Masalan: - flotatsion chiqindilardan oltin, kumush, mis, rux, qo‘rg‘oshin kabi bir nechta metallarni ajratib olish; - kul-shlak chiqindilaridan nodir yer elementlari bilan bir qatorda sement va qurilish materiallari ishlab chiqarish. Bunday yondashuv nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik xavfsizlikni ham ta’minlaydi.

Yuqorida sanab o’tilgan texnologiyalarning asosiy ustunligi – chiqindilardan qimmatli komponentlarni maksimal darajada ajratib olish va ikkilamchi mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishdir. Eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri – kompleks qayta ishlash bo‘lib, u resurslardan to‘liq foydalanish va chiqindilarni minimallashtirish imkonini beradi.

Texnogen chiqindilarni qayta ishlash sohasida xalqaro tajriba va ilg‘or texnologiyalar O‘zbekiston uchun ham samarali qo‘llanishi mumkin. Dunyo bo‘yicha ko‘plab davlatlar chiqindilarni ikkilamchi resurs sifatida qayta ishlash bo‘yicha samarali tizimlarni ishlab chiqqan. Bunga misol sifatida AQShni keltirish mumkin: bu yerda 1993-yildayoq rangli metall ishlab chiqarishda ikkilamchi xomashyoning ulushi quyidagicha bo‘lgan: mis – 55%, volfram – 28%, nikel – 25% . Xuddi shu yo‘nalishda ishlar Xitoy, Rossiya, Germaniya, Shvetsiya, Frantsiya, AQSh, Kanada va boshqa mamlakatlarda ham olib borilmoqda. AQShda o‘tgan asrning 70-yillarida “Artur” va “Magna” mis-molibden fabrikalarida qo‘shimcha mis ajratib olish uchun ikkita uskuna ishga tushirilgan. Ularning umumiy quvvati kuniga 100 ming tonnani tashkil etgan bo‘lib, har kuni 97,2 ming tonna chiqindi xvostlar qayta ishlangan. Ushbu uskunalarni ishga tushirish natijasida yiliga mis ishlab chiqarish hajmi 234 ming tonnadan 259 ming tonnagacha

oshirilgan. Qo‘shimcha mis olish jarayonida chiqindi xvostlar gidrotsiklonlar yordamida o’lchamlariga qarab fraksiyalarga ajratiladi, so‘ngra qayta maydalanib, flotatsiyaga yuboriladi. Texnogen chiqindilardagi mis miqdori o‘rtacha 0,09% bo‘lsa ham, har bir uskuna kuniga 72 tonna past sifatli konsentrat ishlab chiqarishga imkon bergan.

Xitoyda issiqlik elektr stantsiyalari (IESlar) kul-shlaklarini qayta ishlashda nodir yer elementlarini ajratib olish bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot institutlari va sanoat korxonalari o‘rtasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Flotatsion chiqindilardan oltin, mis va kumushni ajratish bo‘yicha kompleks texnologiyalar joriy etilgan. Rossiyada metallurgiya va konchilik chiqindilarini qayta ishlashda gravitatsion, magnit va gidrometallurgik texnologiyalardan keng foydalaniladi. Kul-shlak chiqindilarini qurilish materiallari (sement, keramzit, g‘isht) ishlab chiqarishda integratsiyalashgan tizim mavjud. Evropa davlatlaridan Germaniya, Shvetsiya va Frantsiyada chiqindilarni qayta ishlash sohasida aylanma iqtisodiyot konsepsiyasi yo’lga qo’yilgan. Bioleaching va membranali texnologiyalar sanoat miqyosida qo‘llanilmoqda. Ekologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikni uyg‘unlashtirgan loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. AQSh va Kanadada qimmatbaho metallar va nodir yer elementlarini qazib olishda texnogen chiqindilarni ikkilamchi manba sifatida faol foydalanilmoqda. Innovatsion texnologiyalar va yuqori darajadagi monitoring tizimlari ishlab chiqilgan. Masalan, magnit suspenziya asosida ajratish, bioleaching (mikroorganizmlar yordamida metall ajratish), nanotexnologiyalar asosida sorbentlardan foydalanish, shuningdek gidro- va pirometallurgik usullarni kombinatsiyalash.

Tog‘-kon sanoati texnogen chiqindilarini samarali sanoat miqyosida qayta ishlashga to‘sqinlik qiluvchi omillar. Hozirgi vaqtda kon-metallurgiya sanoati yetarli miqdorda birlamchi ma’dan zahiralariga ega va ularni boyitish orqali qimmatbaho metallarni olish mumkin. Shu bilan birgalikda texnogen chiqindilar ham ulkan hajmda yig‘ilib bormoqda. Dunyo miqyosida ekologik vaziyatning yomonlashuvi va konditsion xomashyo tanqisligi sababli ikkilamchi xomashyo hamda qayta ishlash sanoati chiqindilaridan qimmatbaho komponentlarni qo‘shimcha ravishda ajratib olish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu tendentsiya bizning mintaqamizga ham taalluqlidir.

Tog‘-kon sanoati texnogen chiqindilarini samarali qayta ishlashga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillari quyidagilardan iborat:

1. Qayta ishlash sanoatining texnogen konlardan foydalanishga yetarli darajada e’tibor bermasligi, ya’ni birlamchi rangli va qimmatbaho metall ma’danlarini boyitish hamda qayta ishlashdan qolgan chiqindilarga resurs sifatida qaralmasligi. Bunga asosan quyidagi sabablar ta’sir qiladi: - qayta ishlash sanoati o‘zining asosiy vazifasi – oson qayta ishlanadigan birlamchi ma’danlarni qayta ishlash bilan band; - qayta ishlash sanoati uchun eng muhimi – katta hajmdagi birlamchi ma’danlarni qayta ishlab, minimal xarajat bilan ko‘proq metall olishdir. Bu jarayonda tegishli miqdorda mahsulotlar va chiqindilar hosil bo‘ladi. Ma’danlarni boyitishning bunday ekstensiv yo‘li natijasida boy ma’danlar zahiralarining kamayishiga va texnogen chiqindilarning ulkan hajmlarda to‘planishiga olib keladi.

2. Texnogen chiqindilarni qayta ishlashning aniq yo‘nalishlari, hajmlari va moliyalashtirish manbalari belgilangan maqsadli dasturlarning mavjud emasligi. Bunday dasturlar sanoat talablari darajasida ilmiy tadqiqotlarni olib borishga imkon yaratmagan.

3. Rangli va qimmatbaho metallar ma’danlarini qayta ishlashdan qolgan texnogen chiqindilarni qayta ishlash uchun samarali sanoat texnologiyalarining yo‘qligi yoki ishlab chiqilgan texnologiyalarning past iqtisodiy samaradorlikka ega ekanligi.

4. Ma’dan boyitish chiqindilarini qayta ishlash masalalarini ilmiy jihatdan o’rganishga qaratilgan tadqiqotlarning yetarlicha olib borilmaganligi.

5. Rangli va qimmatbaho metallar ma’danlarini qayta ishlashdan hosil bo‘ladigan texnogen chiqindilarni o‘rganishda ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ishlab chiqarish tizimlari o‘rtasidagi hamkorlikning past darajada ekanligi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarning hal etilishi kelajakda tog‘-kon sanoatining ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga, qazib olish jarayoniga sarflanadigan vaqt va resurslarni tejashga, chiqindilar egallab turgan ulkan maydonlarni bo‘shatishga va yaqin

atrofdagi hududlarda ekologiyani yaxshilashga imkon beradi. Buning uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim: - ishlab chiqarish ehtiyojlarini hisobga olgan holda aniq vazifalar va tadqiqot obyektlari belgilangan maqsadli dasturlarini ishlab chiqish; - tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv asosida tadqiqotlarni olib borish, bunda laboratoriya, yiriklashtirilgan laboratoriya, yarim-sanoat va tajriba-sanoat sinovlarini o‘tkazish, bu esa eng samarali texnologiyani ishlab chiqish imkonini beradi; - texnologiya ishlab chiqish va sinov o‘tkazishning har bir bosqichida ishlab chiqarish mutaxassislarini jalb qilish va doimiy nazoratni ta’minlash, bu esa tajriba almashish hamda chiqindilarni qayta ishlashning yangi usullariga silliq o‘tishni ta’minlaydi; - yetarli hajmda namunalar olish va ular bo‘yicha mavjud ma’lumotlarni to’plash va tahlil qilish orqali ishni samarali boshlash keyingi tadqiqotlarni olib borish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi; - ishlab chiqilgan texnologiyalar uchun texnik-iqtisodiy asos (TIA) tuzish va texnologik reglament ishlab chiqish zarur.

Texnogen chiqindilar nafaqat ekologik muammo, balki kritik mineral xomashyo resurslarining muhim va istiqbolli manbai hisoblanadi. Ularni o‘rganish, qayta ishlash va iqtisodiyotga qaytarish yaqin kelajakda mamlakatning mineral-xomashyo mustaqilligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR:

1. Shukurov va bshq. (2025). “Magnitli suspenziyani qo’llash asosida tog’-konchilik korxonalarining texnogen chiqindilaridan oltin va boshqa qimmatli komponentlarni qo’shimcha ravishda ajratib olish texnologiyasini yaratish” mavzusi bo’yicha yakuniy hisobot. 111 bet.
2. Brierley, C. L. (2010). Biohydrometallurgical prospects. Hydrometallurgy, 104(3–4), 324–328.
3. Kossoff, D., Dubbin, W. E., Alfredsson, M., Edwards, S. J., Macklin, M. G., & Hudson-Edwards, K. A. (2014). Mine tailings dams: Characteristics, failure, environmental impacts, and remediation. Applied Geochemistry, 51, 229–245.
4. Krausmann, F., et al. (2017). Global socioeconomic material stocks rise 23-fold over the 20th century and require half of annual resource use. PNAS, 114(8), 1880–1885.
5. Lottermoser, B. G. (2011). Mine Wastes: Characterization, Treatment and Environmental Impacts. Springer.
6. Marsden, J., & House, I. (2006). The Chemistry of Gold Extraction. SME.
7. USGS (2023). Mineral Commodity Summaries. U.S. Geological Survey.
8. Vassilev, S. V., Vassileva, C. G., & Baxter, D. (2013). An overview of the chemical composition of coal ash. Fuel, 105, 19–39.
9. Wills, B. A., & Finch, J. (2016). Wills' Mineral Processing Technology. Elsevier.
10. Xie, Q., Zhang, W., Wang, J., & Huang, X. (2019). Recovery of rare earth elements from coal fly ash: Current status and future outlook. Minerals, 9(11), 675.

TOG‘ DARYOLARIDA SUV SARFINI TURLI XIL USULDA ANIQLASH NATIJALARI

Suvonqulov S.S. *, Mamirov H.A*., Xismatullin T.I. *, Atayev S.S. *

**H.M. Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti, ssarkorbek@gmail.com*

Annotatsiya. Maqola Oygaing daryosi havzasining irmog‘i hisoblangan Tekeshsoyning quyi qismida o‘rnatilgan gidrologik postida uch xil usulda suv sarfini aniqlash ishlari olib borilgan. Mazkur usullarning afzalliklari va kamchiliklari yetarlicha yoritib o‘tilgan. Tadqiqotda yurtimizda ilk bor foydalanilgan rangli oqim usulining qo‘llanilishi keltirilgan. Barcha o‘lchov ishlari bitta gidrologik postda olib borilgan ma’lumotlar asosida o‘zaro taqqoslangan.

Аннотация. В статье рассматриваются результаты работ по определению расхода воды тремя различными методами на гидрологическом посту, установленном в нижней

части реки Текешсай, являющейся притоком бассейна реки Ойгаинг. Достаточно подробно освещены преимущества и недостатки данных методов. В исследовании приведено применение метода трассировки красителем, впервые использованного в нашей стране. Все измерительные работы были сопоставлены на основе данных, полученных на одном гидрологическом посту.

Abstract. The article presents studies on determining water discharge by three different methods at a hydrological post installed in the lower part of the Tekeshsay River, which is a tributary of the Oygaying River basin. The advantages and disadvantages of these methods are sufficiently highlighted. The study also demonstrates the application of the dye-tracing method, used for the first time in our country. All measurement works were compared based on data obtained at a single hydrological post.

Kirish. Dunyoda kechayotgan global iqlim ilishi natijasida arid iqlimli hududlarda suvning tanqisligi kuzatilmoqda. Bu esa mazkur hududlarda cho‘llanishning ortib borishiga olib kelmoqda. Shu bois ushbu hududlarda shakllanadigan daryo va soylarning suv resurslarini nazorat qilish maqsadida oqimni hisoblashning samarali usullaridan foydalanish talab etilmoqda. Suv sarflarini zamonaviy usullar yordamida aniqlash bugungi kunning **dolzarb** masalalaridan hisoblanadi.

Shunday qilib, tog‘ daryolarida suv sarfini aniqlash masalasi nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Bu yo‘nalishda olib borilgan izlanishlar suv resurslaridan oqilona foydalanish, gidrotexnik inshootlarning xavfsiz ishlashini ta’minlash, shuningdek, ekologik muvozanatni saqlash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganligi. Tog‘ daryolarining oqimini aniqlashda Y.N.Lesnik, G.E.Glazirin kabi O‘rta Osiyo olimlari tadqiqot olib borishgan. **S.P.Polonskiy** va **V.D.Shults** daryolar gidrologiyasini o‘rganishda gidrometrik usullarini qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqqan. Xorijiy adabiyotlarda bu masalaga alohida e’tibor qaratilgan. Masalan, rus olimlari A.N.Kostiakov, N.I.Makkaveyev, V.G.Gorshkov tog‘ daryolari oqim rejimining shakllanish qonuniyatlarini chuqur o‘rgangan. Ular tog‘ daryolarining gidrografik xususiyatlarini o‘rganish, suv sarfini kuzatish va hisoblash metodlarini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shganlar. Shuningdek, amerikalik olim R.E.Horton hamda L.B.Leopold tomonidan tog‘ daryolarining eroziya jarayonlari, oqim shakllanishi va gidrologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Tog‘ daryolari suv sarflarini aniqlashning samarali usullarini aniqlash, ularning metodologiyasini yoritib berish, mazkur usullarning afzalliklarini taqqoslash tadqiqot ishining asosiy **maqsadi** hisoblanadi.

Yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish uchun suv sarfini turli usullarda aniqlash hamda ularning afzalliklari yoki kamchiliklarini aniqlash kabi **vazifa**lar belgilab olindi.

Birlamchi ma’lumotlar va tadqiqot usullari. Suv sarfini aniqlashning gidrometrik parrak yordamida o‘lchash usulida EMG Velocity Meter rusumli gidrometrik parrakdan foydalanildi. Keyingi metodlardan biri ion-aralashmali suv sarfini aniqlash usulida daryo oqimiga belgilangan miqdorda tuzli aralashma eritmasi qo’shiladi. Suv sarfini yangi usul rangli oqim yordamida aniqlashda GGUN-FL30 florometr indikatori va uning maxsus bo‘yog‘i florosen qo‘llaniladi.

Asosiy natijalar va ularning muhokamasi. Tadqiqotda tog‘ daryolarida suv sarfini (Q) uch xil yondashuv orqali aniqlash, ularning aniqlik darajasi va amaliy sharoitlarda qo‘llash qulayliklarini solishtirish maqsad qilingan. So‘ngra ularning farqi va afzalliklari umumlashtiriladi va ionli eritma usuliga alohida e’tibor qaratildi.

Gidrometrik parrak yordamida o‘lchash usuli. Amaliyotda EMG tipidagi parrak yoki MGG/KL-DCB turkumidagi elektromagnit tezlik o‘lchagichlar qo‘llanadi; qurilma 0,005–10 m/s diapazonda ±1% (±0,005 m/s) aniqlikda ishlaydi, ma’lumotlarni yig‘ish intervali 10–900 s kabi sozlanadi.(1-rasm). Bu usulning afzalliklariga keladigan bo‘lsak, qurilmaning aniqlik darajasi yuqori, nazariyasi standartlashtirilgan, ko‘plab gidrometrik postlar uchun tayanch usul hisoblanadi. Biroq bu usulning tog‘ daryolaridagi bir qancha cheklovlari mavjud. Tog‘ daryolarida

suv oqimi baland turbulentlik va notekis tezlik maydoni tufayli ko‘p nuqtali o‘lchov talab etadi; qurilma uchun ko‘prik yoki shtanga zarur.



1-rasm. MGG/KL-DCB ko‘chma elektromagnit tezlik o‘lchagich

Tekeshsoyda 19-iyul kuni ertalab o‘tkazilgan dastlabki o‘lchovlarda suv sarfi 2,70 m^3/s ni tashkil etdi. Soat 15:30 ga kelib u 3 m^3/s gacha oshdi, bu esa havo haroratining ko‘tarilishi va daryoni oziqlantiruvchi muzlikning faol erishi bilan izohlanadi.

O‘sha kunning 20:30–21:10 oralig‘ida suv sarfi yana 2,70 m^3/s ni tashkil etdi. Bu vaqtda suv sathi kunduzgi o‘lchovlarga nisbatan 2 sm ga pasaydi, shunga mos ravishda chuqurlik ham kamaydi, biroq daryoning umumiy eni kengaydi. Bunday o‘zgarishlar o‘zan tubini tashkil etuvchi toshlarning oqim bo‘ylab siljishi bilan bog‘liq.

20-iyul ertalab esa suv sarfi keskin kamayib, 1,71 m^3/s ni tashkil etdi. Bu muzliklarning tun va ertalabki paytda kamroq erishi bilan izohlanadi. Suv hajmining kamayishi oqibatida oqimning daryodagi taqsimlanishi o‘zgardi, natijada daryo eni 85 sm ga qisqardi, biroq suv sathi avvalgi o‘lchovga nisbatan o‘zgarmadi (1-jadval).

1-jadval

Tekeshsoy bo‘yicha gidrometrik o‘lchov natijalari

Sana	Vaqt	H, m	b, m	$h_{o‘rt}$, m	*w*, m^2	χ, m	R, m	Q, m^3/s
19.07.2023 y	09:50-10:15	0,198	5,1	0,28	1,51	5,46	0,28	2,7
19.07.2023 y	15:30-15:45	0,198	5,1	0,34	1,75	5,34	0,33	3,0
19.07.2023 y	20:30-21:10	0,181	5,45	0,27	1,63	5,66	0,29	2,7
20.07.2023 y	9:00-9:45	0,183	4,62	0,28	1,44	4,98	0,29	1,71

Izoh*: H – balandlik, b – daryoning kengligi, $h_{o‘rt}$ - o‘rtacha chuqurlik, w - jonli kesma maydoni, χ- namlangan perimetr, R – gidravlik radius, Q – suv sarfi.


Ionli aralashma usuli. Tadqiqot davomida, 19-iyun kuni Tekeshsoyda suv sarfi ikki marta – soat 10:40 va 15:18 da – ionli aralashma usuli yordamida o‘lchandi. Bu usul kichik suv oqimlarida, shuningdek, kichik chuqurlik yoki yuqori oqim tezligi tufayli gidrometrik parrak yordamida o‘lchash qiyin bo‘lgan tog‘ daryolarida qo‘llaniladi.

Ushbu usulning asosiy afzalligi shundaki, daryoning kesim yuzasini aniqlash talab qilinmaydi. Bu esa tog‘li sharoitlarda xavfsizlik nuqtai nazaridan, o‘zan shaklining murakkabligi va yuqori o‘zgaruvchanligi tufayli ko‘pincha mumkin bo‘lmaydi. Ionli aralashma usulning yana bir afzalligi – qo‘llaniladigan qo‘shimcha eritmaning (oddiy osh tuzi – NaCl) arzonligi. Ba’zi olimlarning ta’kidlashicha, ushbu usul suv sarfi 10 m^3/s gacha bo‘lgan tog‘ daryolarida eng samarali usul hisoblanadi.

Suv sarfi ma’lum hajm va konsentratsiyaga ega bo‘lgan osh tuzi (NaCl) eritmasining bir martalik tashlanishi orqali aniqlanadi. Eritma oqimning markaziga yoki o‘qiga quyiladi. Daryoda bir oz pastroqda, teng vaqt oralig‘ida (Δt = 3 yoki 5 s) suvning elektr o‘tkazuvchanligi (k) qayd

etiladi (bizning holatda – Pro30 konduktometri yordamida, uning datchigi qattiq mahkamlangan holda). Aralashmali suv o‘lchov kesimidan o‘tayotganda elektr o‘tkazuvchanlik avval keskin ortadi, keyin esa asta-sekin kamayadi.

Bunda o‘lchov kesimi “to‘liq aralashgan kesim” deb hisoblanadi, ya’ni tuz butun kesim bo‘ylab bir tekis taqsimlangan va qayd etilgan elektr o‘tkazuvchanlik suvning o‘rtacha qiymatiga teng deb qabul qilinadi.




2-rasm. “Ionli aralashma” vaqtida suvdagi NaCl konsentratsiyasining o‘zgarish grafigi: birinchi o‘lchov (t = 10:40) va ikkinchi o‘lchov (t = 15:18)

Tekeshsoy daryosida suv sarfi qiymatlari ionli aralashma usuli bilan olingan natijalar nisbatan past bo‘ldi. Asosiy tafovutga bir qancha sabablar keltirish mumkin. Masalan, o‘lchov stvorlari orasidagi masofa yetarli bo‘lmasligi, eritmaning ortiqcha konsentratsiyaga ega bo‘lishi yoki eritmadagi tuz massasi yetarli bo‘lmaganligi bilan izohlanadi.

Rangli oqim usuli. Tadqiqot ishlari davomida ilk bor Tekeshsoy daryosida suv sarfini o‘lchashda rangli oqim usuli sinovdan o‘tkazildi. Ushbu usul shundan iboratki, daryoga ma’lum konsentratsiyaga ega bo‘lgan bo‘yoq eritmasi quyiladi, daryoda u butun suv oqimi bo‘ylab tarqaladi va maxsus qurilma– florometr suvning rang ko‘rsatkichini aniqlaydi. Umuman olganda, bo‘yoq yordamida suv sarfini o‘lchash usuli ionli aralashma usuliga ko‘p jihatdan o‘xshash, biroq o‘ziga xos bir qator xususiyatlarga ega.

Ushbu GGUN-FL30 florometr indikator florosen bilan ishlash uchun mo‘ljallangan (3-rasm). $C_{20}H_{12}O_5$ kimyoviy formulali trifenilmetan bo‘yoqlarining bu organik birikmasi to‘q sariq-qizil rangli kukun shakliga ega, suvda yomon eriydi, lekin yorqin och yashil rang bilan floresan eritma hosil qiladi. Florometr indikatori ppb qiymati birligida suv orqali o‘tgan florosenni aniqlaydi (1 ppb = 1 mkg).

Florosen analitik kimyo, tibbiyot, molekulyar biologiya, qutqaruv uskunalari, gigiyena vositalari ishlab chiqarishda qo‘llaniladi, ammo u gidrologiyada suvning harakatini o‘rganish va uning oqimini o‘lchash uchun ham ishlatilishi mumkin.



3-rasm. GGUN-FL30 florometr indikatori (GGUN-FL30 florometrining spektrofotometrik datchigi (chapda); GGUN-FL30 florometr logeri (o‘ngda)

Tekeshsoyda florometr indikatori yordamida olib borilgan suv sarfini aniqlash ishlari 19-iyul soat 12:40, 14:40 va 20-iyul soat 9:00 da o‘tkazildi. Ular uchun dastlabki eritmaning hajmi mos ravishda 300, 100 va 200 ml dan olingan. Binobarin, birinchi o‘lchov uchun ishlatiladigan bo‘yoqning massasi 15 g, ikkinchi o‘lchov uchun 5 g va uchinchi o‘lchov uchun 10 g edi. Shunga mos ravishda bo‘yoqning maksimal konsentratsiyasi 114 ppb, 37 ppb va 63 ppb ni tashkil etdi. Natijada, suv sarflari 2,77 m^3/s va 2,92 m^3/s ni tashkil qildi. (2-jadval).

2-jadval

Tekeshsoy havzasida suv sarfini Florometr yordamida hisoblangan ma’lumotlar jadvali

Dastlabki eritma uchun bo‘yoqning miqdori, g/l						50	
Sana	Vaqt	Sof eritmaning ishlatilgan hajmi, ml	Eritmadagi bo‘yoq massasi (M), g	Maksimal konsentratsiya qiymati, ppb	Kuzatuv davomiyligi	Egri chiziq ostidagi maydon (A), ppb*s	Suv sarfi Q, m^3/s
19-iyul	12:40	300	15	114	170	5410	2,77
19-iyul	14:45	100	5	37	133	1804	2,77
20-iyul	9:00	200	10	63	188	3424	2,92

Xulosa. Shuni ta’kidlash kerakki, tadqiqot davomida tog‘ daryolari uchun suv sarfini uch xil usulda aniqlash va ularning orasida qaysi birlari amaliyotda qo‘llash uchun qulay ekanligini yuzaga chiqardi. Ular orasida tog‘ daryolarining reylefi, suv oqimining beqaror turbulentlikda bo‘lishini hisobga olgan holda ion aralashma usuli va rangli oqim usullari tanlab olindi. Ionli aralashma usuli faqat ular ichida eng arzon ya’ni oddiy osh tuzi (NaCl) ishlatilishi va suv sarfini aniqlash nisbatan oson ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur usul tog‘ daryolarida suv sarfini aniqlashda noqulay bo‘lgan soylarda ham qo‘llash imkonini beradi. Shu boisdan keyingi tadqiqotlarda ion aralashma usulida olib borilgan tadqiqot ishlarini batafsil yoritish ko‘zda tutuilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бузмакова С.В., Юхно А.В., Кулешов А.А., Отчёт о научно-исследовательской работе по теме 2.2.: Развитие и модернизация технологий мониторинга водных объектов суши по гидрологическим показателям, включая технологии их метрологического обеспечения и технологий выпуска аналитических обобщений по поверхностным водам суши, Книга 2, Санкт-Петербург: ФГБУ «ГГИ», 2021
2. Boiten W., Hydrometry, the delft lecture note series, the Naylor&Francis e-Library, 2005, p.115.
3. Comina C., Lasagna M., De Luca D.A., and Sambuelli L. Discharge measurement with salt dilution method in irrigation canals: direct sampling and geophysical controls, Hydrology and Earth System Science, 10, 10035-10060, 2013
4. Day, T.J. 1977. Observed mixing lengths in mountain streams. Journal of Hydrology 35: 125- 136.

MICROBIAL CAPABILITIES TO PREVENT HEAVY METAL ACCUMULATION IN PLANTS

Usmonkulova A. *, Khalilov I.M**., Tillyaxodjayeva N.R**
**Scientific Research Institute for Quarantine and Plant Protection Tashkent, Uzbekistan*
***Institute Microbiology of Academy Sciences of the Republic of Uzbekistan*
usmonkulova.aziza@mail.ru

This study investigated the potential of using microorganisms to prevent the accumulation of heavy metals by plants growing under soil contaminated with Ni, Cd, Cr, Pb, and Cu. During our experiments, local strains were isolated, selected that exhibit strong resistance and viability to Cr, Pb, Cu and identificated 4 strains through molecular-genetic methods as *Pseudomonas aeruginosa18, Enterobacter ludwigii11Uz, Enterobacter cloacaeUz_5 and Bacillus paralicheniformis 10*. Then soil pH regulation, biosorption and biotransformation capacities, siderophores production of selected strains were investigated on the soil contaminated with 10 mM Cu, Pb, Cr, under laboratory conditions [1,2,3]. We discovered that plant growth parameters significantly increased and microbial biosorption and biotransformation were examined. Microorganisms possess cell surface structures that can bind to heavy metals, preventing their uptake by plants. According to the results of IR spectroscopy, these strains contain functional groups S=O, NH_2, COOH, which biosorb heavy metals, and that the microbial consortium reduced the mobile forms of heavy metal cations by 20-23% for 3 months.

The OD values on 10 mM Cd concentration for the strains *Pseudomonas aeruginosa18, Enterobacter ludwigii11Uz, and Enterobacter cloacaeUz_5, Bacillus paralicheniformis 10* at 630 nm were 1.515, 1.414, 1.342 and 1.313, respectively. Consequently, the ferrophilin activity values 10 mM Pb concentration of these strains were 35.2, 34.5, 39.4 and 47.9%, respectively, indicating that all strains exhibited a good siderophore production ability.

These microorganisms ehance soil conditions for reduced metal uptake by changing soil pH regulation under heavy metal condition. It was found that all strains can reduce the solubility of metals, making them less available to plants for 3- and 6-months application their consortium to the soil contaminated with heavy metals.

REFERENCES:

1. Wang, Y.; Luo, Y.; Zeng, G.; Wu, X.; Wu, B.; Li, X.; Xu, H. Characteristics and in situ remediation effects of heavy metal immobilizing bacteria on cadmium and nickel cocontaminated soil. *Ecotoxicol. Environ. Saf.* 2020, *192*, 110294.
2. Rahman, Z.; Singh, V.P. Bioremediation of toxic heavy metals (THMs) contaminated sites: Concepts, applications and challenges. *Environ. Sci. Pollut. Res.* 2020, *27*, 27563–27581. **https://doi.org/10.1007/s11356-020-08903-0.**
3. Kang, C.-H.; Kwon, Y.-J.; So, J.-S. Bioremediation of heavy metals by using bacterial mixtures. *Ecol. Eng.* **2016**, *89*, 64–69. **https://doi.org/10.1016/j.ecoleng.2016.01.023**.

NUROTA TOG‘INING ZAMONAVIY GEODINAMIK HARAKATLARINI ZILZILALAR KATALOGI ASOSIDA BAHOLANISHI

Xusainov X.A.*, Bahromov M.B.*
**O‘zbekiston Milliy Universiteti , e-mail: devonxona@nuu.uz*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Nurota tog‘ va unga yondosh hududlarida ro‘y berayotgan zamonaviy geodinamik jarayonlari zilzilalar katalogi asosida baholangan. 1960-2024-yillar davomida qayd etilgan zilzilalar katalogi asosida statistik va fazoviy tahlil ishlari olib borildi. GIS texnologiyalaridan foydalangan holda zilzilalar magnitudasi epitsentrlari fazoda tarqalishi,

magnituda va chuqurlik bo‘yicha klassifikatsiya qilinib, tadqiqot hududi uchun 3D geodinamik modeli qurilgan.

Abstract. In this article, modern geodynamic processes occurring in the Nuratau Mountains and adjacent territories are assessed based on an earthquake catalog. Based on the catalog of earthquakes recorded during 1960-2024, statistical and spatial analysis was carried out. Using GIS technologies, the magnitude of earthquake epicenters was classified by spatial distribution, magnitude, and depth, and a 3D geodynamic model was constructed for the study area.

Аннотация. В данной статье на основе каталога землетрясений оценены современные геодинамические процессы, происходящие в Нуратинских горах и прилегающих территориях. Статистический и пространственный анализ проводился на основе каталога зарегистрированных землетрясений за 1960-2024 годы. С помощью ГИС-технологий были классифицированы эпицентры магнитуд землетрясений по пространственному распределению, магнитуде и глубине, а также построена 3D геодинамическая модель района исследований.

Kirish. Zamonaviy geodinamik jarayonlar O‘zbekiston hududida tektonik faollik va seysmik xavf zonalarining shakllanishida muhim ro‘l o‘ynaydi.Nurota tog‘ oldi va unga yondosh hududlar, murakkab tektonik tuzilishi va nisbatan yuqori seysmik faolligi bilan ajralib turadi. Ushbu hudud O‘zbekistonning seysmik rayonlashtirish xaritasida 6–7 ballik zilzilalar xavfi mavjud bo‘lgan zona sifatida baholangan [1]. Geodinamik kuchlanish zonalarini aniqlash va ularni mavjud tektonik tuzilmalarga bog‘lash ilmiy jihatdan dolzarb muammodir. Bu kabi ma’lumotlarning yetishmasligi seysmik xavfni to‘g‘ri baholash va yerosti inshootlarini loyihalashda noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda va unga qo‘shni mintaqalarda seysmologik, tektonik evolyutsiya bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va hozirgi kungacha davom etmoqda [1]. Zilzilalar katalogidan geodinamik baholashda asosiy manba sifatida foydalanish tobora keng qo‘llanilmoqda (masalan, Pomir-Olay tizimi bo‘yicha tadqiqotlar). Biroq, Nurota hududi uchun bu boradagi ishlanmalar yetarli emas. Aynan shu sababli, zamonaviy uslublar – masalan, GIS texnologiyalari va izostaziya nazariyasi asosidagi yondashuvlar asosida to‘liq tadqiqot o‘tkazish zarurati tug‘iladi.


Nurota tog‘i va unga yondosh hududlarida 1960–2024 yillar davomida sodir bo‘lgan zilzilalar katalogi asosida zamonaviy geodinamik jarayonlarni baholash, faollik zonalarini aniqlash va yer po‘stining zamonaviy geodinamik rivojlanish mexanizmlarini chuqurroq tushunishga ilmiy asos yaratadi. Amaliy nuqtai nazardan, mazkur tahlillar seysmik xavfni baholash, infratuzilma obyektlarini barpo etish, monitoringni takomillashtirish va ehtimoliy tabiiy ofatlarning oqibatlarini kamaytirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Nurota tog‘i va unga yondosh hududlarda zamonaviy geodinamik jarayonlarning baholanishi uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Metodologik asos sifatida kosmik tasvirlar, seysmologik va geologik ma’lumotlar uyg‘unlashtirildi. Quyidagi bosqichlarda tadqiqot ishlari olib borildi:

Amerikaning geologiya xizmati usgs.earthquake saytidan olingan zilzilalar katalogi ma’lumotlari asosida 1960–2024 yillar oralig‘ida sodir bo‘lgan zilzilalarning magnituda, chuqurlik va joylashuv koordinatalari bo‘yicha tahlil qilindi. Bu ma’lumotlar zamonaviy tektonik faollikni aniqlashda asos bo‘ldi.

Zilzila magnitudasi epimarkazlari, yer yoriqlari, geologik chegaralar va relyef modeli asosida ArcGIS dasturi yordamida hududning uch o‘lchamli modeli yaratildi. 3D modellashtirish orqali zilzilalar magnitudasi fazoviy joylashuvi hamda ular bilan bog‘liq tektonik bloklar o‘rtasidagi nisbatlar ko‘rsatildi. Bu usul faollik darajasi yuqori bo‘lgan bloklarni ajratib ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Hududda joylashgan yirik bloklar (Shimoliy va janubiy Nurota, Pistalitog‘, Darvoza va boshqalar) aniqlanib, ularning o‘zaro nisbiy harakati va deformatsiya xususiyatlari baholandi. Har bir blok doirasida seysmik faollik darajasi, yoriqlar soni va joylashuvi, relyef xususiyatlari hisobga olindi.




1-rasm. Tadqiqot hududining magnitudalar episentr joylashuv xaritasi

Zamonaviy eksperimental ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, gorizontal yo‘nalishda yer qobig‘i zichligining o‘zgarishi mavjud bo‘lganligi kabi, Moxorovichich yuzasida ham “cho‘kishlar” mavjud, bu esa relyef bilan bog‘liq, ya’ni, Eyri va Pratt muvozanat holati modellari bilan ta’minlanadi.

Ushbu ma’lumotlar asosida zilzilalar magnituda va chuqurlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil qilindi. Zilzilalar magnitudasi quyidagi toifalarga ajratildi: 2 magnitudagacha, 2–3, 3–4, 4–5, va 5 dan yuqori. Eng ko‘p uchragan zilzilalar 2–3 magnitudali bo‘lib, ular asosan faollik jihatidan o‘rta darajadagi strukturalar bilan bog‘liq. 5 va undan yuqori magnitudali zilzilalar esa son jihatidan kam bo‘lsa-da, ularning fazoviy taqsimoti geodinamik faolligi yuqori zonalar – xususan, Shimoliy Nurota yer yoriq atrofida to‘plangani bilan ajralib turadi.

Zilzilalarning chuqurligi 5 km dan 65 km gacha bo‘lib, eng chuqur va kuchli zilzilalar tog‘li hududlarga – ayniqsa Nurota tizmasi, janubiy Tiyan-shan va janubiy- g‘arbiy Tyan-Shan o‘rtasidagi to‘qnashuv zonalariga to‘g‘ri keladi. Tekislik zonasida esa seysmik faollik nisbatan sust, past magnitudali va sayoz chuqurlikda joylashgan epitsentrlar bilan tavsiflanadi. Bu esa hududdagi deformatsion kuchlanishlarning asosan tog‘li zonalarda jamlanganidan dalolat beradi.

Modellashtirish natijalarida bu strukturalar o‘zaro bir nechta yirik tektonik yoriqlar orqali ajratilgan. Xususan, Shimoliy Nurota yoriq zonasi chuqurligi 25 km gacha yetgan va u Markaziy hamda janubiy Tyan-shanni ajratuvchi yirik tektonik uzilma sifatida yaqqol ajralib turadi. Ushbu yoriq zonasi atrofida yuqori zichlikdagi, o‘rta va kuchli magnitudali zilzilalarning tizimli joylashuvi kuzatilgan. Bu esa uning zamonaviy geodinamik faolligini tasdiqlaydi.



2-rasm. Tadqiqot hududining zilzila episentri magnitudasining fazoviy joylashuvi asosida tuzilgan geodinamik modeli. *a) Tadqiqod hududining g‘arbiy tamondan ko‘rinishi, b) Tadqiqot hududining sharqdan ko‘rinishi.*

3D modelda yoriqlarning makoniy konfiguratsiyasi, struktura elementlari (burmalar) va seysmik epitsentrlar fazoviy uyg‘unlikda joylashgani aniqlangan. Bu fazoviy bog‘liqliklar geologik tuzilmalar, deformatsion zonalar va hozirgi zamon geodinamik harakatlari o‘rtasidagi aniq aloqalarni namoyon etadi.

Tuzilgan 3D geodinamik modelda aniqlangan deformatsion zonalar, seysmik faollik markazlari va yirik yer yoriqlari joylashuvi 2020-yilda yaratilgan neotektonik xaritalar asosida aniqlangan vertikal harakatlar bilan yuqori darajada mos keladi. Jumladan, Neogen va To‘rtlamchi davrlar davomida:

- Janubiy Tyan-Shan (Nurota tizmasi) hududida 0,5 dan 2 km gacha bo‘lgan ko‘tarilishlar,
- Markaziy Tyan-Shanda esa 0,1 dan 0,3 km gacha bo‘lgan pasayishlar.

Tadqiqot hududida chuqur va kuchli zilzilalarning asosan tog‘li zonalarda, xususan Shimoliy Nurota tizmasi, Markaziy va Janubiy Tyan-shan burmali-struktura zonalarida to‘planganligi izostatik muvozanat qonuniyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Bu borada, klassik Eyri va Pret (Airy–Pratt) izostaziya teoremalari tog‘ massalarining Yer po‘sti ichki qatlami bilan muvozanatdagi holatini izohlashda asosiy nazariy platforma sifatida xizmat qiladi.

Eyri modeliga ko‘ra, Yer po‘sti tog‘li hududlarda qalinroq bo‘lib, mazkur tog‘lar go‘yo muzli aysbergning suvdan chiqib turgan qismini eslatadi: ko‘rinib turgan balandlikning ostida 10–15 barobar chuqurlikkacha cho‘zilgan, zichligi nisbatan pastroq, lekin hajmi katta “ildiz” mavjud bo‘ladi. Tadqiqot hududida bu qonuniyat o‘z tasdig‘ini topgan: masalan, Shimoliy Nurota tizmasining eng baland cho‘qqilari 2000 metr balandlikda joylashgan bo‘lsa-da, u bilan bog‘liq seysmik epitsentrlar 25 km gacha bo‘lgan chuqurliklarda aniqlangan. Bu esa Nurota tog‘ tizmasining ostida zichligi nisbatan kichik, ammo katta hajmdagi “po‘st osti ildizi” mavjud ekanini ko‘rsatadi. Ushbu “ildiz” Yer mantiyasiga chuqurroq cho‘zilgan bo‘lib, seysmik energiyaning to‘planishiga va kuchli zilzilalarning aynan ushbu zonalarda yuzaga kelishiga sharoit yaratadi.

Hududdagi 3D model natijalari ham ushbu izostatik yondashuvlarni tasdiqlaydi: kuchli, chuqur zilzilalar aynan geologik jihatdan baland struktura (antiklinallar, orogenik zonalar) ostida, yer yoriqlari bilan chegaralangan chuqur ildizlar joylashgan zonalarda yuzaga kelmoqda. Bu esa hudud tektonikasi va zamonaviy geodinamik holatni izostatik muvozanat buzilishi, ya’ni bosimlarning asosan tog‘ osti qatlamlarda to‘planishi natijasi ekanini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADADBIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ибрагимов Р.С. Урта Тянь-Шань сеймоген зоналари. - Т.: Фан, 1978.
2. И.С.Алламбердиев, А.Б.Гоипов, З.Ф.Шукуров, Ф.Ғ.Тухтамешов Геодинамическая модель Чаткало-Кураминского региона на аснове изучения данных о землетрясениях//

Геология фанлари хабарлари. -Т., 2023. -№4. -Б. 46-51.
3. Ибрагимов Р.Н. Сейсмогенний зоны и прогноз места и силы землятрасений. АН ИС РУз. Ташкент. 2010.

CARLIN-TYPE GOLD IN KYRGYZSTAN: THE CHAUVAICASE

Zhaanbaeva A.*, Hu R.*, Djenchuraeva R.*, Kirwin D.*, Gao W.*
**Institute of Geochemistry, Chinese Academy of Sciences,99 West Lincheng Road,Guiyang, Guizhou, China, e-mail: orogeny.geo@mail.ru*

Carlin-type gold deposits have produced more than ~ 9 % of annual global gold and have become one of the world's most important gold suppliers. They are mainly identified in Nevada, USA (Wells & Mullens, 1973; Radtke et al., 1980; Hofstra & Cline, 2000), the Youjiang Basin of southwestern China (Hu et al., 2002; Su et al., 2009) and more recently the Yukon of northwestern Canada (Arehart et al., 2013; Tucker et al., 2013). After decades of intense study, key characteristics for the Carlin-type deposits have been identified, including tectonic setting, host rocks petrography, alteration style, mineral paragenesis, presence of ionic gold in arsenian pyrite rims, and the Au – As – Sb – Hg – Tl ±Te – Cu – W element association (Arehart et al., 1993; Hofstra & Cline, 2000; Cline, 2001; Hu et al., 2002). Being the second largest accumulation of gold in the world, the Carlin-type gold deposits are best known for their huge gold endowment, promoting exploration to find this type of deposit in the other regions of the world.

The territory of Kyrgyzstan is of great interest from a geological point of view.The Tien Shan in Kyrgyzstan is traditionally divided into three tectonic mega zones: the North-, the Middle-, and the South Tien Shan, that are cut by the northwest-southeast striking Talas-Fergana fault, which results an eastern and western zones formation. The Kyrgyz South Tien Shan consists of easternKokshaal and western Turkestan-Alay zone. Among, the Turkestan-Alay segment was considered one of the most economically developed regions of the country. This area was extensively mined during the Soviet era for antimony and mercury. Owing to low Au prices during that era, Au exploration was limited, and no deposits were developed. Recently, this district is gaining recognition as a potentially major Carlin-type Au district (Kirwin et al., 2017; Djenchuraeva&Zhaanbaeva, 2019; Nevolko et al., 2019; Zhaanbaeva, 2020).

The Chauvai deposit is one of the largest sedimentary rock hosted antimony-mercury with gold deposit of the Turkestan-Alay. It is hosted in Carboniferous argillaceous limestone and carbonaceous shale. The contact zone between them is strongly silicified and brecciated and contains abundant disseminated pyrite, mercury, antimony, realgar, and orpiment mineralization.

Identification of fine-grained gold bearing arsenian pyrite at the Chauvai deposit made it possible to make significant progress and find possible answers to some previously unexplored questions. For instance, arsenian pyrite grains from the Chauvai deposit have distinct texture, morphology and chemistry. These pyrites are usually fine grained, characterized by core and rim textures, yellow color, low relief and have low reflectivity; the rims enriched in Au – As – Sb – Hg – Tl ± (Cu – Te – W) elements associationand modal analyses demonstrate that gold is mainly occurring as a solid solution (Au^{+1})on the rim of arsenian pyrite.

Integrated systematic studies including, tectonic history, geological conditions, structure and lithology, alteration assemblages, mineral paragenesis, pyrite geochemistry, and gold occurrence atthe Chauvai deposit further demonstrate typical "Carlin-type" characteristics. From this standpoint, authors believe that the findings presented here will help geologists and prospectors to evaluate overall potential gold resources of the region.

REFERENCES:

1. Arehart, G.B., Chryssoulis, S.L., Kesler, S.E., 1993, Gold and arsenic in iron sulfides from sediment-hosted disseminated gold deposits: implications for depositional processes: Economic Geology, v. 88, p. 171 – 185.

2. Arehart, G.B., Ressel, M.V., Carne R., Muntean J.L., 2013, A Comparison of Carlin-type Deposits in Nevada and Yukon: Economic Geology, Special Publication, v. 17,p. 389 – 401.
3. Cline, J.S., and Hofstra, A.H., 2001, Ore-fluid evolution at the Getchell Carlin-type gold deposit, Nevada, USA: European Journal of Mineralogy, v. 12, p. 195 – 212.
4. Cline, J.S., Hofstra, A.H., Muntean, J.L., Tosdal, R.M., Hickey, K.A., 2005, Carlin-type gold deposits in Nevada: Critical geological characteristics and viable models: Economic Geology 100th Anniversary Volume, p. 451 – 484.
5. Hofstra, A.H., Cline, J.S., 2000, Characteristics and models for Carlin-type gold deposits. In: Hagemann, S.G., Brown, P.E. (Eds.), Gold in 2000: Reviews in Economic Geology, v. 13, p. 163 – 220.
6. Djenchuraeva, R.D., Zhaanbaeva, A.A., 2019, Antimony-mercury and gold deposits are initial and last members in a single continuous row of a jasperoid ore deposits in Tien Shan: Bulletin of Academy of Sciences, Bishkek, Special issue, v. 3, p. 78 – 101 (in Russian).
7. Hu, R.Z., Su, W.C., Bi, X.W., Tu, G.Z., Hofstra, A.H., 2002, Geology and geochemistry of Carlin-type gold deposits in China, Mineralium Deposita, v. 37, p. 378 – 392.
8. Kirwin, D.J. Becker, A., Bandurak, I., Lueck, B., 2017, The Carlin-type Hg, Sb, As, Au, F, Tl deposits of the southwest Kyrgyz Republic: Econ. Geol. Newsletter, v. 110, p. 14 – 18.
9. Nevolko P.A., Hnylko O.M., Mokrushnikov V.P., Gibsher A.S., RedinYu.O., Zhimulev F.I., Drovzhak A.E., Svetlitskaya T.V., Fomynikh P.A., Karavashkin M.I., 2019, Geology and geochemistry of the Kadamzhai and Chauvai gold-antimony-mercury deposits: Implications for new province of Carlin-type gold deposits at the Southern Tian Shan (Kyrgyzstan): Ore Geology Reviews, v. 105, p. 551 – 571.
10. Radtke, A.S., Rye, R.O., and Dickson, F.W., 1980, Geology and stable isotope studies of the Carlin gold deposit, Nevada: Economic Geology, v. 75, p. 641 – 672.
11. Tucker, M.J., Hart, J.R., Carne, R., 2013, Geology, alteration, and mineralization of the Carlin-type Conrad zone, Yukon. Yukon exploration and geology, 2013, MacFarlane, K.E., Nordling M.G., and Sack P.J. (eds.), Yukon Geological Survey, p.163 – 178.
12. Wells, J.D., and Mullens, T.E., 1973, Gold-bearing arsenian pyrite determined by microprobe analysis, Cortez and Carlin gold mines, Nevada: Economic Geology, v. 68, p. 187 – 201.
13. Zhaanbaeva, A.A., 2020, Comparative geology and geochemistry between the Carlin-type gold deposits and Chauvai Au-Sb-Hg deposit, SW Kyrgyzstan: Ph.D. thesis, Guiyang, 182 p. (unpublished).

МИКРОБИОЛОГИЧЕСКАЯ РЕМЕДИАЦИЯ ПОЧВ, ЗАГРЯЗНЕННЫХ ТЯЖЕЛЫМИ МЕТАЛЛАМИ

Кадырова Г.Х.
Институт микробиологии АН РУз, Ташкент, kadirovagul@mail.ru

Аннотация. В условиях нарастающего техногенного загрязнения почв тяжёлыми металлами (ТМ) особую актуальность приобретает разработка экологически безопасных и эффективных методов их ремедиации. В данном исследовании из почв Кашкадарьинской, Самаркандской и Ташкентской областей Узбекистана, характеризующихся различной степенью загрязнения ТМ, были выделены и идентифицированы устойчивые бактериальные штаммы родов *Bacillus*, *Enterobacter*, *Pseudomonas*, *Lactobacillus* и *Acinetobacter*. Идентификация проводилась на основе морфолого-культуральных, физиолого-биохимических характеристик и анализа 16S рРНК гена.

Наиболее устойчивыми к кадмию, меди, свинцу, кобальту, никелю и хрому оказались штаммы *Enterobacter cloacae* 5, *Bacillus licheniformis* 10, *Bacillus pumilus* 3, *Enterobacter ludwigii* 11, минимальные ингибирующие концентрации (МИК) которых достигали 1098

мг/л и выше. В модельных почвенных экспериментах показано, что интродукция отдельных и ассоциированных культур значительно снижает подвижность ионов ТМ (на 45–65%) и способствует повышению минерализации органических веществ. Полученные результаты демонстрируют потенциал использования местных микроорганизмов для биологической ремедиации загрязнённых ТМ почв в условиях Узбекистана.

Абстракт. Тупроқларнинг оғир металлар (ОМ) билан техноген ифлосланишининг кучайиши шароитида уларни қайта ишлашнинг экологик хавфсиз ва самарали усулларини ишлаб чиқиш алоҳида аҳамиятга эга. Ушбу тадқиқотда ОМ билан ҳар хил ифлосланиш даражаси билан ажралиб турадиган Ўзбекистоннинг Қашқадарё, Самарқанд ва Тошкент вилоятлари тупроқларидан *Bacillus*, *Enterobacter*, *Pseudomonas*, *Lactobacillus* ва *Acinetobacter* авлодларининг ОМ ларга чидамли бактерия штаммлари ажратилди. Бактерияларни идентификацияси уларнинг морфологик ва културал, физиологик ва биокимёвий хусусиятлари ва 16S рРНК - генини таҳлил қилиш асосида амалга оширилди. *Enterobacter cloacae* 5, *Bacillus licheniformis* 10, *Bacillus pumilus* 3, *Enterobacter ludwigii* 11 штаммлари кадмий, мис, қўрғошин, кобалт, никел ва хромга энг чидамли бўлиб, металларнинг минимал ингибиторлик концентрацияси (МИК) 1098 мг/л ва ундан юқори бщлиши кузатилди. Тупроқнинг намунавий тажрибалари шуни кўрсатдики, тупроққа индивидуал ва культураларнинг ассоциациясини киритиш ОМ ионларининг ҳаракатчанлигини сезиларли даражада камайтиради (45-65%) ва органик моддаларнинг минераллашувини оширишга ёрдам беради. Олинган натижалар Ўзбекистонда ОМ билан ифлосланган тупроқларни биологик тозалаш учун маҳаллий микроорганизмлардан фойдаланиш имкониятларини кўрсатади.

Abstract. In the context of increasing anthropogenic contamination of soils with heavy metals (HMs), the development of environmentally safe and efficient remediation methods is of particular importance. In this study, bacterial strains resistant to HM ions were isolated from soils with varying levels of contamination in the Kashkadarya, Samarkand, and Tashkent regions of Uzbekistan. The isolates were identified as belonging to the genera *Bacillus*, *Enterobacter*, *Pseudomonas*, *Lactobacillus*, and *Acinetobacter* based on morphological, cultural, physiological-biochemical properties, and 16S rRNA gene sequence analysis.

The most resistant strains—*Enterobacter cloacae* 5, *Bacillus licheniformis* 10, *Bacillus pumilus* 3, *Enterobacter ludwigii* 11—showed high tolerance to cadmium, copper, lead, cobalt, nickel, and chromium, with minimum inhibitory concentrations (MICs) reaching up to 1098 mg/L and higher. Soil microcosm experiments demonstrated that the introduction of individual and consortium cultures significantly reduced the mobility of heavy metal ions (by 45–65%) and enhanced the mineralization of soil organic matter. The results highlight the potential of native microbial strains for application in the bioremediation of heavy metal-contaminated soils in Uzbekistan.

Введение. Загрязнение почв тяжёлыми металлами (ТМ) представляет серьёзную экологическую проблему, особенно в районах с развитой промышленностью, сельским хозяйством и добычей полезных ископаемых. Тяжёлые металлы, такие как кадмий (Cd), свинец (Pb), никель (Ni), цинк (Zn), медь (Cu), хром (Cr) и кобальт (Co), накапливаются в почвах, нарушая её структуру, биологическую активность и плодородие, а также создавая угрозу для здоровья человека и животных через пищевые цепи [1–3]. Микробиологическая ремедиация, основанная на способности микроорганизмов трансформировать, иммобилизовать или накапливать ионы ТМ, является одним из перспективных и экологически безопасных методов очистки почв [4]. Среди разнообразных микробных групп особый интерес представляют бактерии родов *Bacillus*, *Pseudomonas*, *Enterobacter*, *Lactobacillus* и *Acinetobacter*, демонстрирующие высокую устойчивость к ионам тяжёлых металлов и способность к их биотрансформации [5, 6].

В Узбекистане, где индустриальные и сельскохозяйственные районы активно развиваются, проблема загрязнения почв ТМ актуальна особенно в Кашкадарьинской, Самаркандской и Ташкентской областях. Однако в Республике локальные штаммы

микроорганизмов с высоким ремедиативным потенциалом до сих пор изучены недостаточно.

Цель исследования. Выделение и идентификация устойчивых к тяжёлым металлам бактерий из почв с различной степенью загрязнённости в Узбекистане и оценка их потенциала для микробиологической ремедиации.

Материалы и методы. Из образцов почв Кашкадарьинской, Самаркандской и Ташкентской областей были выделены бактериальные культуры с использованием селективных сред, содержащих повышенные концентрации солей тяжёлых металлов. Морфолого-культуральные и физиолого-биохимические характеристики были изучены стандартными методами. Видовая принадлежность определялась методом анализа 16S рРНК гена. Оценка устойчивости проводилась путём определения минимальной ингибирующей концентрации (МИК) солей ТМ.

Результаты и обсуждение. В результате скрининга было выделено несколько устойчивых штаммов микроорганизмов, преимущественно принадлежащих к родам *Bacillus*, *Enterobacter*, *Pseudomonas*, *Lactobacillus* и *Acinetobacter*. Наиболее высокую устойчивость показали штаммы:

- *Enterobacter cloacae* 5: МИК для $CdCl_2$ – 1098 мг/л, $CuSO_4$ – 472 мг/л, $Pb(NO_3)_2$ – 911,1 мг/л, K_2CrO_4 – 4,48 мг/л;
- *Enterobacter ludwigii* 11: МИК для Cd^{2+} – 1098 мг/л, Co^{2+} – 1124 мг/л.

Эти показатели свидетельствуют о высоком адаптационном потенциале штаммов к экстремальным концентрациям ионов тяжёлых металлов.

В условиях лабораторной инкубации интродуцированные в загрязнённую почву штаммы демонстрировали значительное снижение подвижности ионов ТМ. Так, в течение трёх месяцев штаммы:

- *Bacillus pumilus* 3, *Bacillus licheniformis* 10 и *Enterobacter ludwigii* 11 снизили подвижность кобальта на 55%, 45% и 70% соответственно;
- *Bacillus cereus* 14 уменьшил подвижность свинца на 46,3%.

Особенно эффективной оказалась ассоциация культур (*Pseudomonas aeruginosa* 18, *Enterobacter ludwigii* 11, *Enterobacter cloacae* 5, *Bacillus licheniformis* 10 и *Bacillus cereus* 14), которая в искусственно загрязнённой никелем почве (191,41 мг/кг, что в 10 раз выше ПДК) снижала подвижность металла на 65% по сравнению с контролем.

Дополнительно было показано, что при инкубации *Bacillus atrophaeus* 17 и ассоциации вышеуказанных культур в течение пяти месяцев происходило увеличение минерализации гумуса на 4,9% и 3,3% при концентрациях свинца 28,8 мг/л и никеля 48,0 мг/л соответственно. Это указывает на восстановление биологической активности почвы.

Выводы:

1. В почвах Узбекистана идентифицированы местные штаммы бактерий, обладающие высокой устойчивостью к ионам тяжёлых металлов и потенциалом для использования в биоремедиации.
2. Наиболее перспективны культуры *Enterobacter*, *Bacillus* и *Pseudomonas*, способные снижать подвижность ионов Cd, Ni, Co, Pb и Cr.
3. Применение ассоциированных культур (*P. aeruginosa* 18, *E. ludwigii* 11, *E. cloacae* 5, *B. licheniformis* 10 и *B. cereus* 14) усиливает эффект ремедиации и способствует восстановлению почвенного органического вещества.

Использованная литература

1. Usmonkulova, A.; Malusa, E.; Kadirova, G.; Khalilov, I.; Canfora, L.; Abdulmyanova, L. Ni2+ and Cd2+ Biosorption Capacity and Redox-Mediated Toxicity Reduction in Bacterial Strains from Highly Contaminated Soils of Uzbekistan. Microorganisms 2025, 13, 1485. https://doi.org/10.3390/microorganisms13071485

2. Liu, L.; Quan, S.; Li, L.; Lei, G.; Li, S.; Gong, T.; Zhang, Z.; Hu, Y.; Yang, W. Endophytic Bacteria Improve Bio- and Phytoremediation of Heavy Metals. *Microorganisms* 2024, *12*, 2137.
3. Kelany, M.S., El-sawy, M.A., El-Gendy, A.R. *et al.* Bioremediation of industrial wastewater heavy metals using solo and consortium *Enterobacter* spp.. *Environ Monit Assess* **195**, 1357 (2023). https://doi.org/10.1007/s10661-023-11951-x
4. Liang B, Feng Y, Ji X, Li C, Li Q, Zeng Z and Wang Y (2025) Isolation and characterization of cadmium-resistant Bacillus cereus strains from Cd-contaminated mining areas for potential bioremediation applications. Front. Microbiol. 16:1550830. doi: 10.3389/fmicb.2025.1550830
5. Zhang Y, Peng J, Wang Z, Zhou F, Yu J, Chi R and Xiao C (2025) Metagenomic analysis revealed the bioremediation mechanism of lead and cadmium contamination by modified biochar synergized with Bacillus cereus PSB-2 in phosphate mining wasteland. Front. Microbiol. 16:1529784. doi: 10.3389/fmicb.2025.1529784
6. Ali, R.; Bashir, K.; Ahmad, S.; Ullah, A.; Shah, S.F.; Ali, Q.; Yasmin, H.; Ahmad, A. Bioremediation of Heavy Metals from Industrial Effluents Using *Bacillus pakistanensis* and *Lysinibacillus composti*. *Sustainability* **2023**, *15*, 7591. https://doi.org/10.3390/su15097591

ТОШКЕНТОЛДИ ҲУДУДИДА ЗИЛЗИЛАЛАРНИНГ ТАКРОРЛАНИШ ҚОНУНИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ

Каримова Н.Х.*, Хусанбаев Д.Д.**
**Ҳ.М. Абдуллаев номидаги Геология ва геофизика институти*
***М.Улуғбек номли Ўзбекистон Миллий университети*

Аннотация. Тезисда Тошкентолди ҳудудида зилзилаларнинг такрорланиш қонуниятини ўрганиш бўйича тадқиқот натижалари келтирилган. Ҳудуднинг геологик ва геофизик ўрганилганлиги талқини билан бирга зилзилалар такрорланишини тадқиқ этишда ҳудуд учун характерли кучсиз зилзилалар бўйича Гутинберг-Рихтер қонунининг баъзи хусусиятлари ёритилган. Чорвоқ сув омбори қурилгунча ва ундан фойдаланиш давридаги турли вақт интерваллариға зилзилалар сони ва энергетик миқдорларининг ўзгариши талқин қилинган.

Annotation. The article presents the results of a study of earthquake recurrence patterns in the Tashkent region. Along with a geological and geophysical study of the region, some features of the Gutenberg-Richter law for weak earthquakes characteristic of the region are highlighted when studying earthquake recurrence. Changes in the number of earthquakes and their energy for various time intervals before the construction of the Charvak reservoir and during its operation are interpreted.

Тошкент шаҳри Тошкент-Пскем сейсмоген зонасининг марказий қисмида жойлашган Сейсмоген зонанинг геологик асосини Пскем, Каржантау ёриқлари ва Тошкентолди флексура-ёриқ зонаси ташкил этади. Инструментал ва тарихий маълумотлар, шунингдек, палеосейсмик дислокациялар ушбу сейсмоген зонада юқори сейсмик фаолликни кўрсатади. Унинг чегараларида ўтган давр мобайнида 4 та M≥6.0, 4 та M≥5.0 ва 5 тадан ортиқ M≥4.5 зилзилалар содир бўлган. Эътиборлиси, M≥6,0 бўлган тўртта зилзиладан учтаси Тошкентга энг яқин ҳудудларда содир бўлган. Улардан энг яқини 1868-йил 4-февралда M=6,0 билан ҳозирги шаҳар чегарасидан 35-40 км масофада, кейингиси эса ўша йилнинг 4-апрелида M=6,0 билан Тошкентдан 4-6 км узоқликда бўлган. Чирчиқ ва Оҳангарон ҳавзаларида аниқ сезиладиган зилзилалар ҳудуднинг жуда сейсмик фаоллигини

ифодалайди. Турли интенсивликдаги ер ости силкинишлар вақти-вақти билан ҳозирги кунда ҳам давом этмоқда.

Гутенберг-Рихтер қонунининг моҳияти ва методикаси. Гутенберг-Рихтер қонуни – бу сейсмологияда энг асосий қонунлардан бири бўлиб, у зилзилаларнинг магнитудаси ва уларнинг содир бўлиши частотаси орасидаги статистик боғлиқликни ифодалайди.

Ушбу қонун 1944-йилда америкалик олимлар Бено Гутенберг ва Чарльз Франсис Рихтер томонидан Калифорния ҳудудида кузатилган зилзилаларга асосланиб ишлаб чиқилган.

Бу қонун қуйидаги формула билан ифодаланади:

$$\mathrm{Log}_{10}N=a-bM \text{ ёки } N=10^{a-bM}.$$

бу ерда: N – берилган магнитудадан катта бўлган зилзилалар сони, M – магнитуда, a ва $б$ – статистик параметрлар (а - умумий сейсмик фаоллик, б - магнитуда тақсимоти нисбати).


Гутенберг-Рихтер қонуни маълум фазо-вақт ҳажмида содир бўладиган зилзилалар сони ва уларнинг магнитудаси ўртасидаги логарифмик чизиқли муносабатни тавсифлайди. Бунда ушбу ўхшашлик хусусияти зилзилалар пайдо бўладиган ёриқлар тизимининг фрактал тузилишини акс эттиради деб қабул қилинган. Сейсмик хавф ва хавфни баҳолаш контекстида ушбу қонун асосий ҳисобланади.

Тошкентолди ҳудудида зилзилаларнинг такрорланиш қонуниятларини математик-статистик модели.


Тадқиқотда Гутенберг-Рихтер қонуниятларидан фойдаланилган ҳолда Тошкентолди ҳудуднинг сейсмик фаоллигига, яъни ҳудудда кучсиз зилзилалар содир бўлишига техноген объект – Чорвоқ сув омборининг таъсири таҳлил қилинган. Чорвоқ сув омбори 1974-1975 йиллардан бошлаб тўлиқ циклда ишлай бошлаган. Сув омбори ҳудуди йиллик содир бўлган зилзилалар сонига кўра Республикамизнинг қолган ҳудудларига нисбатан анча сейсмофаол эканлиги тасдиқланган. Бу ердаги зилзилаларнинг чуқурлиги 30 км дан ошмайди, лекин зилзилаларнинг асосий содир бўлиш чуқурлиги Ер юзасидан 15 км гача чуқурлик орасида эканлиги аниқланган. Тадқиқот гипотезаси агар сув омборининг тўлдирилиши натижасидаги ер қобиғининг деформациялари зилзила келтириб чиқариши мумкин бўлса, у ҳолда такрорланиш қонуниятини сув омбори қурилгунча ва ишга тушгандан кейинги графикларини таҳлил қилиш керак. Юритган фаразимиз ўринли бўлса, тадқиқотнинг иккинчи босқичида бўлиб ўтган зилзилаларни статистик таҳлил қилиб, бутун олинган даврларда ойлар бўйича тақсимланишини таҳлил қилиш лозим.

Тадқиқот ишида Фавқулодда Вазиятлар Вазирлиги Сейсмопрогностик мониторинг республика маркази (СМРМ) зилзилалар каталогидан фойдаланилган. Ушбу каталог инструментал давр (1955-2025) йиллар оралиғи маълумотлари мавжуд. Тадқиқот ишида 40.30-43.30 шимолий кенглик, 68.30-70.30 шарқий узунлик бўйича олинган ҳудуд маълумотларидан фойдаланилди. Зилзилалар энергетик класс бўйича 8, 9 ва 10 классга тақсимланди. Ҳудудимизда ушбу класс зилзилаларининг умумий сони 1707 та ни ташкил этди.

Маълумотларни талқин қилиш. Тошкент олди ҳудуди учун умумий – 1955-2025 йй., 1955-1974 йй. ва 1975-2017 йиллар оралиғи учун Гуттенберг–Рихтер қонуни бўйича таҳлил ўтқазилди. Умумий – 1955-2025 давр учун ҳудудда умумий 1707 та зилзила содир бўлган, улардан 10 – класс 377 та, 9 - класс 821 та ва 8 – класс 509 тани ташкил этди. Ўртача ҳисобда 1 йил давомида 10- классли зилзила 6,2 марта, 9 – класс 13,7 марта ва 8 – класс зилзила 17 марта содир бўлиши аниқланди. Уларнинг график кўриниши 1- расмда берилган:




1 - расм. Умумий 1955-2025 йй. зилзилаларнинг такрорланиш графиги.



2-расм. Сув омбори қурилгунча 1955-1974 йй. зилзилаларнинг такрорланиш графиги.

Бу графикдан кўришимиз мумкин-ки Тошкент олди ҳудудида 10, 9 ва 8- класс зилзилалар бир текис тартибга тўғри келди b коэффициент 0,4 га тенглиги аниқланди. Сув омбори қурилгунча 1955-1974 йиллар оралиғида зилзилалар умумий сони 131 та бўлиб: 10-класс 40та, 9- класс эса 91 тани ташкил этди. 8- класс зилзилаларни қайд қилиш имконияти бу йилларда бўлмаган. Бир йилда содир бўлиши 10- класс 2,2 марта; 9- класс эса 5,1 марта содир бўлган (2 - расм).

Бу графикдан, олинган вақт оралиғида 10 – класс зилзилалар сони нисбатан кўпроқлигини аниқлашимиз мумкин b коэфициент 0,5 лиги аниқланди. 1975-2017 йиллар оралиғида зилзилар сони 634 та содир бўлган. 10 – класс сони 92 та, 9 – класс 302 та ва 8 – класс 240 тани ташкил этади. 10 – класс 2,2 марта, 9 – класс 7,2 марта, 8 – класс эса 8 марта ўртача бир йил давомида содир бўлган (3 - расм).




3 - расм. Сув омбори қурилгандан сўнги 1975-2017 йй. зилзилаларнинг такрорланиш графиги.

Бу графикда зилзилар тартибли тарқалган лекин энергияси паст классдаги зилзилалар улуши нисбатан ортганини b коэффициент кичиклигидан аниқлашимиз мумкин.

Тадқиқотимиз натижасида Тошкентолди ҳудудида зилзилаларниг такрорланиши Рихтер – Гуттенберг қонунияти бўйича олинган графикларни таҳлил қилиш, ўрганилаётган ҳудудда зилзиларнинг ўртача йиллик сони ўзгаришига сув омбори таъсири борлигини кўрсатди. 1975 йилдан кейинги вақтда ҳудуднинг сейсмик фаоллиги ошганлигини кўрамиз.

Қуйида зилзилалар сонини ойларга боғлиқлик графиги келтирилган улар ҳам ушбу йиллар даврига мос тузилган. Ажратиб олинган зилзилалар айлана-диаграммасига туширилган. Бу айлана-диаграммаларда қайси ойларда нечта зилзила содир бўлгани яҳши акс этган (4 – 6 - расмлар).

1955-2025 йй.	
Ой	Зилзила сони
Январ	138
Феврал	122
Март	151
Апрел	136
Май	119
Июн	101
Июл	112
Август	150
Сентябр	163
Октябр	163
Ноябр	160
Декабр	192




4 - расм. Умумий давр 1955-2025 йй. учун тузилган айлана-диаграммаси.

4 - расмда жадвал ва айлана-диаграмма келтирилган. 1955-2025 йиллар оралиғида зилзилалалр қайси ойларга қанча тўғри келиши акс эттирилган. Энг кам зилзила июнга энг кўпи эса декабрга тўғри келган.


5 - расмда 1955-1974 йилларда зилзилаларнинг ойлар бўйича тақсимоти энг кам зилзила декабрга энг кўп и эса сентябр ва ноябрга тўғри келганлигини кўрсатмокда.

1955-1974 йй.	
Ой	Зилзила сони
Январ	13
Феврал	9
Март	12
Апрел	10
Май	12
Июн	9
Июл	10
Август	9
Сентябр	14
Октябр	12
Ноябр	14
Декабр	8



5 - расм. Сув омбори қурилгунча 1955-1974 йй. учун тузилган айлана-диаграммаси.

1975-2017 йй.	
Ой	Зилзила сони
Январ	60
Феврал	50
Март	44
Апрел	60
Май	45
Июн	38
Июл	41
Август	45
Сентябр	51
Октябр	60
Ноябр	46
Декабр	94



6 - расм. Сув омбори қурилгандан сўнг 1975-2017 йй. учун тузилган айлана-диаграммаси.

Ҳулоса. Ушбу ҳудудда зилзилар ўртача йиллик сони ўзгаришига сув омбори таъсири бор деган фикрни айтишимиз мумкин. Бунга бир қанча ишоралар мавжуд сув омбори ишга тушишига қадар бўлган давр учун ҳисобланган b коэффициент сув омбори қурилгандан сўнг ва умумий давр учун ҳисобланган b коеффициентга нисбатан юқори чиққан. 1975 – йилдан бошлаб яъни сув омбори ишга тушгандан сўнг зилзилаларни ойларга тақсимланишидаги кескин ўзгариш бу боғлиқлик ҳақиқатда мавжудлигини яна бир маротаба исботлади. 1975 – йилга қадар зилзилалар энг кам содир бўлган ой декабр бўлса, 1975 - йилдан кейин айнан шу ойда энг кўп бўлгани аниқланди. Буни қуйдагича изохлашимиз мумкин сув омборида сув сатҳини пасайиши одатда сентябр ойига тўғри келади зилзилалар уларга таъсир қилаётган куч олинишидан кейин содир бўлиши ҳақида фикрлар мавжуд.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Абдуллабеков К.Н. Электромагнитные явления в земной коре. - Ташкент: Фан. -1989.-232с.
2. Ибрагимов Р.Н. Сейсмогенные зоны Среднего Тянь-Шаня. Ташкент: Фан,1978.-148 с.
3. Ризниченко Ю.В., 1985. Избранные труды. Проблемы сейсмологии. Изд. АН СССР, М.

ЎРТА БАРҚИРОҚ МУЗЛИГИ МАЙДОНИНИНГ ТУРЛИ ДАВРЛАР МОБАЙНИДАГИ ЎЗГАРИШИ

Сувонқулов С.С. *, Акбаров Ф.Н. *, Петров М.А. *
**Ҳ.М. Абдуллаев номидаги Геология ва геофизика институти, ssarkorbek@gmail.com*

Аннотация. Мақолада Ўрта Барқироқ музлиги майдонининг сўнгги даврлардаги ҳолати ўрганилган. Тадқиқот таҳлилларининг натижаларига кўра мазкур музликнинг 1770 – 2024 йиллар оралиғидаги майдони $F_м$ = 6 км² дан 2,49 км² гача камайгани, узунлиги эса $L_м$ = 5231 метрдан 1720 метргача қисқарганлиги аниқланди. Бунинг натижасида музликнинг ўртача йиллик чекиниши 13,8 метрни ташкил этмоқда. ўрганилаётган даврлар

оралиғи 250 йилни ташкил этади. Шу боисдан мазкур муддат давомида иқлим ўзгаришининг музликлар деградациясига таъсири батафсил ёритиб берилган.

Аннотация. В статье исследуется современное состояние ледника Баркрак Средний по результатам последних наблюдений. Согласно результатам исследования, площадь этого ледника в период с 1770 по 2024 год уменьшилась с $F_л$ = 6 км² до 2,49 км², а его длина сократилась с $L_л$ = 5231 метра до 1720 метров. Таким образом, среднегодовое отступление ледника составляет 13,8 метра. Рассматриваемый в работе временной интервал охватывает 220 лет. Подробно освещено влияние изменения климата на деградацию ледников в течение данного периода.

Abstract. The article examines the modern state of the Barkrak Middle glacier area based on the results of the recent surveys. It was evaluated that the area of this glacier decreased from 6 km² to 2.49 km² between 1770 and 2024, and its length shortened from 5,231 meters to 1,720 meters. As a result, the average annual glacier retreat is 13,8 meters. The study covers a period of 220 years. The impact of climate change on glacier degradation during this timeframe has been explored in detail.

Сўнгги ўн йилликларда глобал иқлим ўзгаришлари таъсирида Ўрта Осиё тоғ музликлари тез суръатларда қисқариб бормоқда. Бу жараён сув ресурслари ва ҳудуд экологияси учун муҳим аҳамият касб этади. Шу боисдан Ўрта Барқироқ музлигининг турли даврлардаги морфометрик кўрсаткичларини ўрганиш долзарб илмий аҳамият касб этади.

Тадқиқотнинг асосий мақсади – Ўрта Барқироқ музлиги майдонининг тарихий даврлардаги ўзгаришини аниқлаш ва уларнинг асосий сабаблари ҳамда динамикасини баҳолашдир.

Тадқиқот объекти сифатида Писком ҳавзасида жойлашган Ўрта Барқироқ музлиги танлаб олинган. Тадқиқотнинг предметини эса музликнинг морфометрик кўрсаткичлари – майдони, узунлиги, баландлиги ва морфологик белгилардаги ўзгаришлар ташкил этади.

Тадқиқотда дала кузатувлари, морфометрик ўлчовлар, лихенометрик таҳлил, тарихий хариталар, радиокарбон маълумотлари ҳамда замонавий масофавий зондлаш (космик суратларни қайта ишлаш, ГАТ технологиялари) усулларидан фойдаланилди.


Тоғ музликлари иқлим ўзгариши таъсирини ўзида акс эттирадиган индикаторлардан биридир. Глобал миқёсда ҳаво ҳароратининг кўтарилиб бориши натижасида Писком ҳавзаси музликларининг майдони қисқариб борган. Кузатишлар шуни кўрсатадики, ўтмишда Ўрта, Ўнг ва Чап Барқироқ музликлари ягона музликни ташкил қилган, кейинчалик музликнинг қисқариши натижасида уларнинг парчаланишига олиб келган [4]. Радиокарбонлардан олинган намуналарнинг таҳлилларига кўра бу жараён эрамизнинг 1-2 минг йилликларида содир бўлган [5, 6]. Бу даврда иқлим ҳозирги ҳолатга яқин бўлиб, музликлар майдони қисқариши кузатилган. Кейинчалик 12-19-асрларда содир бўлган кичик музлик даври бошланганида, музликларнинг мутлақ баландлиги ҳозиргидан 150-300 метр пастроқда жойлашган. Буни О.С.Савоскул томонидан ўтказилган радиокарбонли ва лихенометрик усуллардан олинган натижалар тасдиқлайди [6].

Ўрта Барқироқ музлигининг морфометрик хусусиятларидаги ўзгаришларни баҳолаш мақсадида 1993 йилда бир қатор ҳалқаро ҳамда маҳаллий тадқиқотчилар томонидан дала тадқиқот ишлари олиб борилди. Ушбу тадқиқотлар давомида музлик ётқизиқларининг сурилиши сабабли ҳосил бўлган ўзига хос релъеф, тик ташқи ён бағирлар, қадимги музлик ётқизиқларининг ўсимлик қоплами билан ёпилилиши натижасида ҳозиргисидан ажралиб туриши, қадимий музликларнинг қоялар ёнбағирларини силлиқлаган излари каби бир қатор морфологик ҳусусиятларини қайд этишган.

Бундан ташқари тадқиқотчилар музлик ётқизиқлари юзасида лихонометрик тадқиқотларни олиб боришган, Яъни лишайникларнинг тури ҳамда четки ҳалқасининг диаметридан музлик ётқизиқларининг ёшини аниқлашган. Улар тақиқот ўтқазиш учун камида 50 см бўлган ҳарсанг тошларни танлаб олган. Тақиқот давомида жами 127 та намуна

кўриб чиқилган. Таҳлил натижаларига кўра, Ўрта Барқироқ музлигининг қуйи қисмида шаклланган музлик ётқизиқлари 220 ёшга тўғри келиши аниқланган.

Булардан энг дастлабки кузатув ишлари А.С.Шетинниковга мансуб бўлиб, унинг тадқиқотлари экспедицион ҳамда аерофотосуратларни қайта ишлашга иҳтисослашган. Кузатув давридаги сўнгги тадқиқот ишида ҳам деярли шундай тадқиқот усулларидан фойдаланилган. Бироқ, фарқли равишда сифатли космик суратлардан фойдаланилган. 2024 йилда мазкур музликнинг майдони 22 йил муқаддам GLIMS (Global Land Ice Measurements from Space) томонидан олиб борилган тадқиқот қийматларидан каттароқ эканлигини кўриш мумкин [1; 2]. Бунга сабаб ушбу йилнинг ёз фасли нисбатан салқин келганлиги боис, ҳавзадаги қор қоплами яҳши сақланиб қолган. Бунинг натижасида, қоя ёнбағирларининг қор билан қопланиб ётган қисмлари ҳам музлик майдони сифатида белгиланган. Шунга қарамай музликнинг қисқариб борётганлигини унинг узунлигидан кузатиш мумкин.



1-расм. Ўрта Барқироқ музлиги майдонининг турли даврлардаги ҳолати

Юқоридаги тадқиқот натижаларидан келиб чиқиб 1770 йиллардаги Ўрта Барқироқ музлигининг майдони ГАТ технологиялари ёрдамида қайта тиқланди. Бундан ташқари дала тадқиқот натижалари ҳамда космик суратларни қайта ишлаш натижасида, музликнинг 2024-йилдаги майдони аниқланди. Ўрта Барқироқ музлигининг икки ҳил даврдаги майдони 1-расмда акс этган. Музликнинг мазкур майдонлари орасидаги давр 254 йилга тўғри келади. Бу даврда музликнинг тил қисми $L_м = 3511$ метрга чекиниб, майдони эса $F_м = 3{,}51$ км² га қисқарган. Музликнинг қисқариши йилига ўртача $L_м = 13{,}8$ метрга тўғри келса, унинг майдони $F_м = 13818$ м² га қисқариб бораётгани ҳисоблаб чиқилган.

Ўтган асрнинг иккинчи ярмидан музликларнинг морфологик ҳамда морфометрик кўрсаткичлари батафсил ўрганила бошланди. А.С.Шетинников томонидан яратилган Писком ҳавзаси музликлари каталоги ҳам шулар жумласига киради [7]. Қуйида Ўрта Барқироқ музлигининг аввалги тадқиқот натижаларида келтирилган шакл ва ўлчам кўрсаткичларини таққослаш мақсадида уларнинг қийматлари келтирилди (1- жадвал).

Олинган натижаларни таҳлил қилган ҳолда қуйидаги хулосаларга келиш мумкин.

Ўрта Барқироқ музлигининг морфометрик кўрсаткичлари сўнгги 250 йилда, майдони 60 % га, узунлиги эса қарийб 70% га қисқарган. Бу жараён глобал иқлим ўзгариши жараёнида минтақавий иқлим шароитларига бевосита боғлиқ эканлигини кўрсатади.

Олинган натижалар тоғ музликлари асосий сув манбаи бўлган Ўрта Осиё ҳудудида сув ресурсларини башоратлашда, гидрологик моделлаштиришда ва экологик хавфсизликни таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

1-Жадвал

Ўрта Барқироқ музлигида кузатилган деградация натижалари

№	Йиллар	Майдони $F_м$, км^2	Узунлиги $L_м$, м	Қуйи қисми баландлиги $H_{мин}$, м	Манба
1	1770	6	5231	3167	Савоскул
2	1968	2,9	3200	3450	Шетинников
3	1993	-/--	3125	3375	Петров
4	2024	2,49	1720	3496	Муаллиф

Музликларнинг янада аниқ мониторингини йўлга қўйиш учун юқори аниқликдаги масофавий зондлаш маълумотларидан мунтазам фойдаланиш, музлик масса баланси ва гидрологик режимга таъсирини комплекс ўрганиш тавсия этилади. Шунингдек, дала кузатувларини кенгайтириш ва автоматлаштирилган мониторинг тизимларини жорий этиш муҳимдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Авсюк Г.А. Ледники плоских вершин. в кн: Работы Тянь - Шаньской физико - геогр. станции (Тр, Институтa Географии, XLV). М. Л. АН СССР, 1950. С. 45-68.
2. Алёшинский З.В., Бондораев Л.Г., Чигарев Н.В., Шумова Г.М. О тектонике, климате и оледенении Тянь-Шаня в плейстоцене. Проблеме обшей физической геогрофии и палеографии. М. 1978, с. 198-210.
3. Алёшинский З.В., Баков Е.К., Мелникова А.П., Палеография и динамика ледников Тянь-Шаня в голоцене. - МГИ. в. 52. 1985. с. 162-16.
4. Савоскул О.С. Колебания ледников преферийных и внутренных областей Тянь-Шаня в голоцени. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата географических наук. Москва. 1994 г. 24 с.
5. Юрьев А.А. Древнеледниковые отложения в долине Соха. Известия Узбекского филиала Геограческого общества. изд. АН УзССР. т. 11. Ташкент. 1956. с. 100-122.
6. Baumler R., Zech W., Savoskul O., Petrov M., Ni A.A. Soil geographical, studies on Pleisticene and Holocane deposits of the northwestern Tien- Shan (Uzbekistan). Geosiences in High Asia. Proceedings of a simposium held in Dushanbe. Bayreuth. 1999. pp. 99-126.
7. Щетинников А.С., Подкапаева Л.Д. Каталог ледников СССР. - Том 14. Средняя Азия. Выпуск 1. Сырдарья. Часть. Бассейн р. Пскем. Гидрометеоиздат, 1968. -41 с.

ДУНЁ МИҚЁСИДА ЁНУВЧИ СЛАНЕЦЛАРНИНГ ГЕОЭКОЛОГИЯГА ТАСИРИ

Турдиев Т.А. [*] ***Хақназаров А.Т*** [**]

[*] *Ҳ.М. Абдуллаев номидаги Геология ва геофизика институти, tuychi.turdiev@ent-en.com*

[**] *“Ғозғон майдалаш-саралаш мажмуаси” МЧЖ, alisher.khaknazarov@ent-en.com*

Ёнувчи сланецларнинг геологик-стратиграфик хусусиятлари, уларнинг Ўзбекистондаги намоён бўлиш жойлари ва конлари (Қоракўрғон, Жонтуар, Косчека, Маъданли, Актау ва бошқалар) асосида таҳлил қилинган. Мавзу доирасида дунёда ёнувчи сланецларнинг энергетик ресурс сифатидаги долзарблиги ҳамда улардан фойдаланишнинг

экологик оқибатлари кўриб чиқилган. Атмосфера, сув ва тупроқ муҳитига таъсир қилувчи омиллар, чиқиндиларнинг заҳарли таркиби ва табиий экотизимларга бўлган хавфлар илмий манбалар асосида ўрганилган. Мақолада сланецларни қазиб олиш ва қайта ишлаш жараёнларини экологик хавфсиз усуллар билан ташкил этиш зарурлиги таъкидланган.

Ёнувчи сланецлар —органик моддага бой бўлиб, улардан ёнилғи олиш имконияти катта. Қуйида уларнинг дунёдаги аҳамиятини кўрсатувчи асосий жиҳатлар санаб ўтилади: - ҳозирги кунда ёнилғига бўлган талабнинг ортгани ва анъанавий нефть ресурсларининг чекланганлиги сабабли, ёнувчи сланецлар алтернатив ёнилғи манбаи сифатида катта аҳамият касб этмоқда. Масалан, АҚШ, Хитой, Россия ва Эстония каби давлатлар сланецлардан ёнилғи ишлаб чиқариш бўйича катта салоҳиятга эга; - янги технологиялар ва қайта ишлаш усулларининг ривожланиши билан ёнувчи сланецлар ёнилғи захиралари кўплаб мамлакатларда иқтисодий жиҳатдан манфаатли бўлиб бормоқда; - ўз ресурсларига эга бўлиш энергетика мустақиллигини таъминлашга ёрдам беради, бу эса давлатларнинг иқтисодий ва сиёсий барқарорлигига таъсир кўрсатади.

Ёнувчи сланецларни қазиб олиш ва қайта ишлаш жараёнлари бир қанча экологик муаммоларни келтириб чиқаради. Ёнувчи сланецларни қайта ишлашда CO_2, SO_2, NOx ва майда заррачалар (PM2.5) чиқади. Бу парник газлари ва ҳаво сифатига салбий таъсир кўрсатиб, глобал исишни кучайтиришга сабаб бўлади. Сланецларни қайта ишлашда катта миқдорда сув сарфланади. Қазиб олиш ва қайта ишлаш жараёнлари сув омборлари ва ер ости сувларини заҳарли моддалар билан ифлослантириши мумкин. Қазиб олишда пайдо бўладиган чиқиндилар радиоактив ва заҳарли элементларни ўз ичига олиши мумкин. Улар ер ва сувни ифлослантириб, биологик турларга зарар етказади. Қазиш ишлари ер юзи бузилишини келтириб чиқаради, бу эса биологик хилма-хилликнинг камайишига ва экосистемаларнинг бузилишига олиб келади.

Дунёдаги энг кўп сланецга асосланган электр энергияси ишлаб чиқарувчи давлатлар бу АҚШ, Хитой, Россия, Эстония, Бразилия. Эстония амалда 80% энергияни ёнувчи сланецлардан олади. Экологик оқибатлари - Нарва дарёсининг ифлосланиши, кислотали чиқиндилар; АҚШнинг Колорадо, Юта ва Вайоминг штатларида ёнувчи сланецларнинг катта захиралари мавжуд. Шеврон, Shell каби компаниялар in-situ технологиясини қўллаган ҳолда энергия ишлаб чиқармоқда. Экологик хавотирлар туфайли айрим лойиҳалар тўхтатилган; Хитойда қайта тикланувчи энергия билан бир қаторда ёнувчи сланецлардан фойдаланиш ривожланмоқда. Ҳаво ифлосланиши, сув танқислиги ва хомашё захираларининг номувофиқлиги муаммо бўлмоқда.

1-жадвалда келтирилганидек ёнувчи сланецларни қазиб олишда қўлланиладиган очиқ усул ер юзида катта бузилишларга, ландшафтнинг ўзгаришига ва биологик турлар мувозанатининг бузилишига олиб келади. Сланецларни қазиб олиш ва қайта ишлаш жараёнлари ер ости сувларининг пастга тушишига, сув омборларининг ифлосланишига ва сув ресурсларининг камайишига сабаб бўлиши мумкин. Ёнувчи сланецни қайта ишлаш учун катта миқдорда сув сарфланади. Масалан, ҳар бир литр сланец учун 0.7–1.2 литр сув талаб этилади. Қайта ишлаш жараёнида чиқиндилар, заҳарли моддалар ва металл элементлар сувга ўтган ҳолда сув омборларини ифлослантиради.

Қайта ишлаш жараёнида майда заррачалар (PM2.5) ҳосил бўлиб, нафас олиш тизимига зарар етказиши мумкин. Қайта ишлаш жараёнида катта миқдорда чиқиндилар ҳосил бўлади, уларда заҳарли моддалар ва радиоактив элементлар бўлиши мумкин. Чиқиндилар қайта ишланмаса, улар ер, сув ва ҳавони ифлослантиради, бу эса инсон саломатлигига салбий таъсир кўрсатади. Қайта ишлаш ва ёниш жараёнида CO_2, SO_2, NOx, HCl ва майда заррачалар (PM2.5) чиқади, бу глобал иқлим ўзгариши ва ҳаво ифлосланишига олиб келади.

1 – жадвал. Ёнувчи сланецлардан фойдаланилганда келиб чиқувчи экологик хавфлар

Таъсир соҳаси	Сабаб	Экологик оқибатлар
Атмосфера	CO_2, SO_2, NO_x чиқиндиси	Парник эффекти, кислотали ёмғирлар
Сув ресурслари	Ифлос сув, кислотали оқава сувлар	Ер ости ва усти сувларининг ифлосланиши
Тупроқ ва ландшафт	Карьер қазиш, чиқиндилар	Тупроқ эрозияси, унумдорликнинг йўқолиши
Биота	Озуқа занжирининг бузилиши	Хилма-хилликнинг йўқолиши
Инсон саломатлиги	Зарарли газлар, заррачалар	Нафас йўллари касалликлари, саратон хавфи, аллергия

Ўзбекистонда ёнувчи сланец конлари асосан Навоий, Жиззах, Наманган ва Сурхондарё вилоятларида жойлашган бўлиб, улар геологик жиҳатдан Перм-триас ва Юра даври осадочний тошларида шаклланган. Бу сланецлар органик моддага бой бўлиб, ёнилғи ишлаб чиқаришда истиқболли ҳисобланади. **Сангрунтов кони** - Навоий вилоятида жойлашган ёнувчи сланес конидир. Унинг захиралари 47 миллиард тоннага баҳоланган; **Жонтуар кони** - Навоий вилоятида жойлашган. Геология-қидирув ишлари натижасида уран захиралари 8,025 тоннага баҳоланган. 2024 йилда 1,689 минг метр технологик бурғилаш ва 906 минг метрдан ортиқ геология-қидирув бурғилаш ишлари амалга оширилган. 3D моделлар яратиш ишлари олиб борилмоқда; **Косчека кони** - Навоий вилоятида жойлашган. Ушбу конда ҳам уран захиралари мавжуд бўлиб, геология-қидирув ишлари давом этмоқда; **Маъданли кони** - Навоий вилоятида жойлашган. Бу конда ҳам геология-қидирув ишлари олиб борилмоқда ва 3D моделлар яратиш ишлари амалга оширилмоқда; **Актау кони** - Нурота ва Конимех туманларида жойлашган. Бу конда ҳам геология-қидирув ишлари амалга оширилмоқда. **Қорақўрғон кони** - Наманган вилоятида жойлашган. Бу конда ҳам геология-қидирув ишлари олиб борилмоқда; **Бойсун кони** - Сурхондарё вилоятида жойлашган. Бу конда ҳам геология-қидирув ишлари амалга оширилмоқда; Ёнувчи сланецларни қазиб олиш ва қайта ишлаш жараёнлари атроф муҳитга салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Улар ер юзи ва ландшафтнинг бузилиши, сув ва ҳаво ресурсларининг ифлосланиши каби экологик муаммоларни келтириб чиқаради. Шу боис, Ўзбекистондаги сланец конларини самарали ва экологик хавфсиз бошқариш учун замонавий технологияларни жорий этиш, атроф муҳитни муҳофаза қилиш чораларини кучайтириш зарур.

Шу тарзда, ёнувчи сланецлар Ўзбекистоннинг энергетика салоҳиятини оширишда муҳим аҳамиятга эга бўлган ресурслар қаторига киритиш мумкин, аммо улардан оқилона ва барқарор фойдаланиш — экологик мувозанатни сақлашнинг асосий омилларидан биридир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. М.У. Исоков, А.Х. Туресебеков, С.И. Борминский, Б.Б. Василевский, Х.Т. Шарипов, Е.К. Дерюгин. Геохимия и минералогия горючих сланцев Узбекистана. ГП ИМР, Ташкент 2013. С 78.
2. Садиков Р.А. ва бошқалар, *Ўзбекистоннинг ёнувчи сланец конларининг геологияси ва энергетик салоҳияти*, Тошкент, 2018.
3. Ҳасанов И.И., *Сланецлар геологияси ва уларнинг иқтисодий аҳамияти*, "Геология ва минералогия" журнали, 2020.
4. Smith J. et al., *Geochemical characterization of oil shale in Central Asia*, Journal of Petroleum Geology, 2019.

5. Encyclopaedia Britannica. *Oil shale: Environmental issues*. URL: https://www.britannica.com/science/oil-shale/Environmental-issues
6. Karjalainen K. et al., *Environmental impacts of oil shale industry and technologies for mitigation*, Applied Sciences, MDPI, 2023. URL: https://www.mdpi.com/2076-3417/13/13/7657
7. Environmental Health Perspectives. *Airborne particulate matter from shale oil processing and its health impacts*, 2016. URL: https://ehp.niehs.nih.gov/doi/10.1289/isee.2016.3179
8. ScienceDirect. *Toxicity and environmental fate of oil shale waste*, 2018. URL: https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0160412018322487
9. International Energy Agency (IEA). *Oil Shale and Energy Security*. 2023. URL: https://www.iea.org/reports/oil-shale-and-energy-security
10. United States Environmental Protection Agency (EPA). *Oil Shale Extraction and Environmental Impact*. 2022.URL: https://www.epa.gov/oil-shale
11. Karjalainen K. et al., *Environmental impacts of oil shale industry and technologies for mitigation*, Applied Sciences, MDPI, 2023. URL: https://www.mdpi.com/2076-3417/13/13/7657
12. Smith J.et al., *Geochemical characterization of oil shale in Central Asia*, Journal of Petroleum Geology, 2019.

КАТАЛОГИЗАЦИЯ МОРЕННЫХ КОМПЛЕКСОВ ЧАТКАЛО-КУРАМИНСКОГО РЕГИОНА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Хисматуллин Т.И. *, Петров М.А. *, Акбаров Ф.Н. *, Мамиров Х.А. *, Суванкулов С.С. *

**Институт геологии и геофизики им. Х.М. Абдуллаева Министерства горнодобывающей промышленности и геологии РУз, Ташкент, timkhism@gmail.com*

Annotatsiya. 5-sonli “Muzlik yotqiziqlarining geologik xususiyatlarini o‘rganish va ma’danlashuvni bashorat qilish” geologik-qidiruv ishlari loyihasi doirasida “O‘zbekiston Respublikasi morena komplekslari katalogining Chotqol-Qurama mintaqasi (Pskom, Ko‘ksuv, Oqbuloq, Ohangaron daryolari havzalari)” 1-qismi tuzildi. Ushbu ishda O‘zbekiston Respublikasining Chotqol-Qurama mintaqasi hududida shakllangan hozirgi muzlik yotqiziqlari ro‘yxatga olindi. Mazkur tadqiqotni bajarish metodikasi Chotqol-Qurama mintaqasi muzliklarini Yerni masofadan zondlash ma’lumotlari asosida kataloglashtirish jarayonida yaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘rganilayotgan hududda umumiy maydoni 74,4 km² bo‘lgan 257 ta morena kompleksi aniqlandi. Shulardan 101 tasida morena osti muzliklarining (gletcherning) belgilari mavjudligi ma’lum aniqlandi.

Аннотация. В рамках проекта геологоразведочных работ №5 «Изучение геологических особенностей ледниковых отложений и прогнозирование оруденений» создан «Каталог моренных комплексов Республики Узбекистан. Часть 1. Чаткало-Кураминский регион (бассейны рек Пскем, Коксу, Акбулак, Ахангаран)». В данной работе проведена инвентаризация новейших ледниковых отложений на территории Республики Узбекистан в пределах Чаткало-Кураминского региона. Основы для данной работы были заложены в процессе каталогизации ледников Чаткало-Кураминского региона по данным дистанционного зондирования Земли. По результатам работы на исследуемой территории насчитано 257 моренных комплексов общей площадью 74,4 км^2, из которых 101 имеют явные признаки каменного глетчера.

Annotation. Within the framework of the geological exploration project No. 5 "Study of geological features of glacial deposits and forecasting of mineralization" the "Catalogue of moraine complexes of the Republic of Uzbekistan. Part 1. Chatkal-Kuramin region (basins of the Pskem, Koksu, Akbulak, Akhangaran rivers)" was created. In this work, an inventory of the newest glacial deposits on the territory of the Republic of Uzbekistan within the Chatkal-Qurama region was carried out. The foundations for this work were laid in the process of cataloguing glaciers of

the Chatkal-Qurama region using remote sensing data. As a result, 257 moraine complexes with a total area of 74.4 km^2 were estimated in the study area, of which 101 have clear signs of being a rock glacier.

Ледники в регионе Центральной Азии являются важнейшим резервуаром пресной воды, обеспечивающим дополнительное водоснабжение в период вегетации сельскохозяйственных культур. Мониторинг их состояния с целью оценки водозапаса и прогноза ледникового стока является одной из приоритетных задач для устойчивого развития в регионе. Освещению этой проблемы посвящено большое количество публикаций в области гляциологии. В то же время, вопросу запасов грунтовых льдов, возникших в результате деградации оледенения в нивально-гляциальной зоне Республики Узбекистан, уделяется гораздо меньше внимания. С целью лучшего понимания и отображения динамики оледенения, и для применения в последующих палеогеографических, геоморфологических и геохимических исследованиях нивально-гляциальной зоны, параллельно с каталогизацией ледников коллективом Центра гляциальной геологии Института геологии и геофизики имени Х.М. Абдуллаева принято решение произвести учёт возникших в результате ледниковой деятельности моренных комплексов. В виду труднодоступности объектов исследования, основным методом их изучения являются данные дистанционного зондирования Земли (ДЗЗ) с последующей их обработкой в геоинформационных системах (ГИС). Данный метод предоставляет возможность провести учёт и оценку большого количества объектов, их каталогизацию и картографирование, с локализацией полевых исследований на одном-двух репрезентативных объектах, более доступных логистически. В Республике Узбекистан работы подобного рода в таком масштабе ещё не проводились.

Основной целью данного исследования является каталогизация моренных комплексов в районах активного оледенения в пределах Чаткало-Кураминского геологического региона, включающего в себя хребты Пскемский, Чаткальский, Угамский, Майдантальский и Таласский. В гидрологическом контексте (актуальном при исследованиях ледников) данный регион включает в себя территории в пределах бассейнов рек Ахангаран, Акбулак, Коксу и Пскем (являющийся крупнейшим узлом оледенения на территории Республики Узбекистан). Для достижения этой цели были поставлены и решены следующие задачи: 1. Каталогизация ледников; 2. Анализ районов современного оледенения с целью выявления моренных комплексов, как примыкающих к существующим ледникам, так и явно являющихся погребёнными ледниками, либо более старыми генерациями моренных отложений. В виду гораздо большей инертности объектов данного исследования по сравнению с ледниками, активно использованы снимки высокого (до 0,5 м) разрешения (поставщик – Maxar), предоставляемые в качестве «подложки» (Basemap -> Imagery) в программном комплексе ArcGIS Pro; 3. Оцифровка обнаруженных комплексов, присвоение им атрибутов, включающих название (на основании такового для ближайшего ледника или долины реки, где расположен моренный комплекс), морфометрические параметры, наличие признаков каменного глетчера, относительную генерацию и т.д.; 4. Организация электронной базы геоданных каталога с возможностью публикации информации о моренных комплексах в картографическом (рис. 1) и табличном видах.

С использованием программного комплекса ArcGIS Pro создана база геоданных моренных комплексов Чаткало-Кураминского региона в формате .gdb (экосистема ESRI). На её основе в 2025 году подготовлена к публикации Часть 1 Каталога моренных комплексов Республики Узбекистан, охватывающая Чаткало-Кураминский регион, по образцу Части 1 Каталога ледников. Каталог насчитывает 257 моренных комплексов общей площадью 74,4 км2, из которых 101 имеют явно дешифрируемые на космическом снимке признаки каменного глетчера. Этими признаками являются: валы и ложбины подковообразной конфигурации на поверхности объекта, а также крутые фронтальный и боковые откосы, визуально отличающиеся от поверхности более светлым оттенком [1]. На

основании полевых наблюдений каменного глетчера, берущего начало у ледника Баркрак Средний (рис. 2), по яркой выраженности вышеописанных дешифровочных признаков, можно с уверенностью сделать вывод, что эти каменные глетчеры активные, то есть обладающие собственным движением, подобно ледникам.




3. Поликарпов А.А. и др Отчет по теме №12-05. «Опытно-методические работы по полевой геотермической и газохимической съемкам для разработки диагностических критериев картирования ареалов ювенильных флюидов каналов глубинного тепломассопереноса в западной части Бухаро-Хивинского палеорифта». Ташкент: ОАО «ИГИРНИГМ». 2006.
4. Мамадалиев Т.Д. «Обобщение и Переинтерпретация результатов поисковых сейсморазведочных работ ОГТ в пределах Бешкентского прогиба и восточной части Денгизкульского поднятия выполненной тематической партией № 28/92-95 за 1992-1998 г.г», пос. Яккабаг 1998 г.,фонды ЯГЭ.

UCHQULOCH MAYDONINI TOG‘ JINSLARINING MAGNIT XOSSALARI

Isroilov I.O.*, Mengniyozov F.H.*, Luqmonov O.H.*, Jo‘rayev Sh.S.*

**O‘zbekiston Respublikasi, “Mineral resurslar insitituti ”1isroilov_i@nuu.uz,*

Annotatsiya: Mazkur tezis Temirkon-Uchquloch ma’danli maydoni tog‘ jinslarining magnit xossalarini va geofizik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot jarayonida hududning geologik-tektonik tuzilishi hisobga olingan holda magnetometriya, aeromagnit va dala kuzatuvlari amalga oshirildi. Olingan geofizik ma’lumotlar geologik ma’lumotlar bilan integratsiya qilinib, jinslarning litologik tarkibi va strukturaviy xususiyatlari bilan bog‘lanishda tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, cho‘kindi-metamorfik jinslarda magnitlanish

darajasi juda past ekanligi aniqlangan bo‘lsa, effuziv va intruziv jinslarda yuqori magnit qiymatlari qayd etildi. Ushbu natijalar mad’anli tanalarning magnit xususiyatlarini ochib beradi.

Аннотация: Настоящая тезис посвящена анализу магнитных свойств горных пород и результатов геофизических исследований в пределах Темиркон-Учкулочского рудного узла. В ходе исследования с учетом геолого-тектонического строения территории были проведены магниторазведка, аэромагнитная съёмка и полевые наблюдения. Полученные геофизические данные были интегрированы с геологической информацией и проанализированы в контексте литологического состава и структурных особенностей пород. Согласно результатам, установлено, что осадочно-метаморфические породы обладают крайне низкой намагниченностью, в то время как эффузивные и интрузивные породы характеризуются высокими значениями магнитной восприимчивости. Полученные данные раскрывают магнитные свойства рудных тел.

Abstract: This thesis is devoted to the study of the magnetic properties of rocks and the analysis of geophysical research results of the Temirkon-Uchquloch ore field. During the research, taking into account the geological-tectonic structure of the area, magnetometry, aeromagnetic surveys, and field observations were carried out. The obtained geophysical data were integrated with geological information and analyzed in relation to the lithological composition and structural characteristics of the rocks. The results show that sedimentary-metamorphic rocks have very low magnetization, while effusive and intrusive rocks exhibit high magnetic values. These findings reveal the magnetic characteristics of the ore-bearing bodies.

Temirkon-Uchquloch ma’danli maydoni O‘zbekistonning geologik va geofizik jihatdan murakkab hududlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maydonning litologik tarkibi, tektonik tuzilishi va ma’danlashish jarayonlarini o‘rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, tog‘jinslarining magnit xossalarini aniqlash va ularni geofizik ma’lumotlar bilan integratsiyalangan holda tahlil qilish, ma’danli maydonlarning shakllanish qonuniyatlarini tushunishga imkon beradi. Tadqiqot hududida geofizikaviy izlanishlar 1956-yildan boshlab olib borilgan. Ular turli miqyosda va turli yillarda bajarilgan: magnit-qidiruv, elektr-qidiruv, metallometriya usullarini o‘z ichiga olgan (Sh.A.Chembarisov 1956-1958 yy., N.G.Degtyarev va L.V.Kvasova, 1958 y., 1961 y., 1963-1969 yy., A.G.Karelin, A.Umarov 1959 Yu.G.Miroshnichenko, 1960 y. va boshqalar). 1977-1979-yillarda L.N.Kotlyarevskiy va boshqalar tomonidan Nurota va Molg‘uzor tog‘larida 1:25 000 miqyosdagi aeromagnit tasvirlash ishlari samaradorligini oshirish bo‘yicha tajriba-uslubiyot ishlari o‘tkazilgan. Tasvirlash ishlari intruziv va effuziv komplekslarni, cho‘kindi-metamorfik hosilalarni va tektonik buzilish zonalarini xaritalash maqsadida bajarilgan. Uning natijasida paleozoy poydevorining strukturaviy plani, moddiy tarkibi aniqlangan va joylashish chuqurligi baholangan.

2020-2022 yillarda O‘zbek geologiya qidiruv” AJ tomidan 1:25000 miqyosdagi tadqiqot qidiruv ishlari o‘tkazilgan. Hozirda “Mineral resurslar instituti’ DM tomonidan “G‘arbiy O‘zbekistondagi etalon obyektlarni o‘rganish va tajriba-uslubiy izlanishlarga asoslanib, yopiq hududlarda ma’danli foydali qazilmalarga istiqbolli maydonlarni bashoratlash maqsadida geologik qidiruv ishlarini olib borish uchun vaqtinchalik uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish” tomonidan GSM 19T (Kanadada ishlab chiqarilgan) magnitometr bilan o‘lchov ishlari amalga oshirilmoqda (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqot maydoni va dala ishlarini o‘tkazish uslubiyati

a) geologik karta (Usmonov 1984) *b) magnitorazvedka profillar konturi (250 m)*
c) protonli GSM-19T qurilmasi *d) dala sharoitida magnit maydonni qayd etish*

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida geologik qidiruv ekspeditsiyalari tomonidan burg‘u quduqlaridan olingan tog‘ jinslarining namunalarini magnitlanganlik darajasi ham batafsil o‘rganilib chiqilgan. Ikkinchi guruh magnitlanganlik darajasining qiymatlari $1200*10^{-6}$ SGS gacha va undan yuqori bo‘lgan. Qumbuloq, Uzunquduq, Uchquloch svitalari tog‘ jinslari va boshqa o‘xshash hududlarga ajratilgan (1-jadval). P.G.Axmatov va boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, paleozoy kompleksining cho‘kindi jinslari ohaktosh, marmar, qumtosh va turli xil slaneslardan tashkil topgan bo‘lib, ular deyarli magnitlanganlik darajasiga ega emas, ularning magnitlanganlik darajasi $J=20-30*10^{-6}$ SGS ga teng. Qoldiq magnitlanganlik darajasi past, minerallashgan magnetit tog‘ jinslari, kvarsit va slaneslar bundan mustasno. Vulkanagen qatlamlarda magnit maydonning anomal ta’siri chuqurlik bo‘yicha joylashgan ma’dan tanasining hajmiga, magnitlanganlik darajasiga va yotish burchagiga bog‘liq. Effuziv tog‘ jinslarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular ustida doimiy magnit maydonlari bo‘lib, kuzatish ishlari yer usti magnit qidiruv ishlariga muvofiq olib boriladi.

1-jadval

Tog‘ jinslari nomi	O‘rtacha zichligi, δ (g/sm^3)	Magnitlanganlik darajasi J (10^{-6} SGS)
Cho‘kindi-metamorfik kompleks		
slaneslar	2, 67	0-100
qumtoshlar, alevrolitlar, kvarsitlar	2,65	0-100
ohaktoshlar, marmarlar	2,68-2,72	0-100
konglomeratlar	2,64	0-100
dolomitlar	2,76	0-100

Effuziv tog‘ jinslari		
kvarsli tog‘ jinslari va boshqa nordon effuziflar	2,62	0-100
diabazli porfiritlar, spilitlar, o‘rta va asos tarkibli effuziflar	2,70-2,98	0-1000
Intruziv tog‘ jinslari		
granitlar	2,58-2,61	0-100
sienitlar	2,65	0-100
granodioritlar	2,61-2,64	0-100
diortitlar, kvarsli dioritlar	2,71-2,76	0-100
gabbro, diabazlar	2,80-2,90	0-100
piroksintlar	2,80-3,10	500 va yuqori
serpentinitlar	2,5-3,2	500 va yuqori
amfibolitlar	3,05	500 va yuqori

Paleozoy shaklining zichligi tog‘ jinslarning tarkibi, yoshi va metamorfizm darajasiga bog‘liq. Umuman olganda tadqiqot hududidagi tog‘ jinslari asosan slaneslar, qumtoshlar, konglomeratlardan tashkil topgan (1-jadval). Yuqori zichlikka ega bo‘lgan karbonat tog‘ jinslari o‘rta va asos tarkibli jinslardan iborat bo‘lib, effuziv tog‘ jinslari dolomitlar, ohaktoshlar, minerallashgan marmarlashgan tog‘ jinslarini o‘z ichiga oladi.

Effuziv kislotali tog‘ jinslarining tarkibi kuchsiz magnitlangan bo‘lib, tubabergan, yilmesach, sagruntov va band svitalari shakllanishiga tegishli bo‘lgan diabazlar, siyenitlar, bazaltlarning magnitlanganlik darajalari o‘rtacha $1200*10^{-6}$ SGS qiymatga teng. Shimoliy Nurota hududining geologik-tektonik tuzilishi, stratigrafiyasi, litologiyasi, yer yoriqlari, mavjud svita va yaruslari, hududning geofizik o‘rganilganligi bo‘limida qo‘llanilgan aeromagnit, gravik-qidiruv, seysmik-qidiruv tadqiqot natijalari to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar berilgan. Tadqiqot hududi tektonik jihatdan Janubiy Tyan Shan bilan O‘rta Tyan Shanning tutashgan zonasi tarkibidaligi hududning nihoyatda murakkab tektonik-strukturaviy tuzilishga ega ekanligidan dalolat beradi. Geofizikaviy izlanishlar (aeromagnit, yer magnit qidiruv, gravik va seysmik qidiruvlar) hududda katta hajmda va uzoq yillar davomida olib borilganligiga qaramay, aeromagnit usulidan tashqari boshqa usullar maydoni bo‘yicha kichik-kichik hududlarda o‘tkazilgan. Yechilgan masalalar ham tor doiradagi maqsadlarni hal qilishga qaratilgan. Biz olib borgan tadqiqotlarimizda yuqorida keltirilganlardan farqli ravishda katta miqyosdagi magnit qidiruv izlanishlari o‘tkazilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рудные месторождения Узбекистана / Отв. ред. Н.А. Ахмедов. – Т.: ИМР, 2001 – 661 с.
2. Якубов Д.Х., Ахмеджанов М.А., Борисов О.М. Региональные разломы Срединного и Южного Тянь-Шаня // Ташкент: Фан, 1976. - 148 с.
3. Шукуров З.Ф., Юсупов В.Р., Ядигаров Э.М. Каржантов ва Товоқсой ер ёриқлари кесишган ҳудуддаги ер сатҳи вертикал ҳаракатининг таҳлили // Геология ва минерал ресурслар. - 2017. - № 3. - Б. 55-58.
4. Ишбаев Х.Д., Смирнов А.Н., Косбергенов К.М., Акбаров Ф.Н. Состав и генезис пород Чимкурганской свиты Писталитау (Северный Нуратау, Срединный Тянь-Шань) // Геология и минеральные ресурсы. - 2019. - №6. - С. 3-11.

ANGREN KAOLIN-QO‘NG‘IR KO‘MIR KONINING MINERALOGIK VA GEOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI VA XOM-ASHYONING NOANANAVIY TURLARI

Jamalova G.N.*, Muxtorov Sh.Z.*
**H.M. Abdullaeva nomidagi Geologiya va geofizika instituti*
e-mail: jamalova77@list.ru

O‘zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati Ohangaron tumanida, Toshkent shahridan 100-110 km janubi-sharqda joylashgan Angren kaolin-qo‘ng‘ir ko‘mir koni qo‘ng‘ir ko‘mir (taxminan 1,86 milliard tonna o‘rganilgan) va kaolin xomashyosi (“birlamchi kaolinlar” – million 45,6 million tonna) yirik konidir (1486,7 mln.t.). Markaziy Osiyoda kon negizida yirik energetika va tog‘-kon kompleksi tashkil etilib, ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturiga muvofiq ko‘mir qazib olishni rejalashtirilgan ko‘p karra oshirish va kaolin xomashyosining bozor qiymati oshishi bilan yer qa’ridan kompleks foydalanish masalasi birinchi o‘ringa qo‘yildi. Foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlashga zamonaviy sharoitlardan kelib chiqqan holda kompleks yondashuv zamonaviy fan va amaliyotning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, moddaning tuzilishi va xossalarini bilish, uni sifat va miqdoriy baholashga asoslanadi. Shunday qilib, tanlangan mavzuning dolzarbligi Angren koni uchun noan’anaviy bo‘lgan yangi turdagi xom ashyoning geokimyoviy va mineralogik xususiyatlarini o‘rganishni belgilaydi. Sanoat uchun muhim elementlar (IEE) kontsentratsiyasini o‘z ichiga olgan konlar - Ge, Mo, W, Pb, Zn (shuningdek, kam o‘rganilgan, bashorat qilinadiganlar - Re, Au, Zr, radioaktiv, noyob tuproq, platina guruhi metallari, V, Be, Sc, Ga, Ti va boshqalar) zamonaviy sanoatning tarqalish imkoniyatlari doirasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan konlar radiatsiyaviy bo‘lmagan mahsulotlar hisoblanadi.

Ishning maqsadi - sharoitlarni mineralogik va geokimyoviy o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan PVE kontsentratsiyasi, tarqalish xususiyatlari va mavjudligi shakllari, shuningdek, Angrenning noan’anaviy turdagi xom ashyo (mezozoy metal saqlovchi qatlamlari) genezisi masalalari depozitlar.

Angren cho‘qqisini o‘rab turgan Chotqol-Qurama tog‘ strukturasida asos va qoplama jinslar aniq ajralib turadi. Zarar ko‘rgan hududlarga yuqori paleozoyning vulkanogen majmuasi va o‘rta va quyi paleozoyning barcha konlari kiradi. Bu jinslar katlama jarayonlari va ko‘p sonli intruziyalar bilan mustahkamlangan va eng so‘nggi burma harakatlariga zaif bo‘lgan qattiq asosni ifodalaydi.

Metamorlashmagan yoki zaif metamorflashgan mezozoy kaynozoy jinslari yuradan hozirgi kungacha. O‘rtasidagi bog‘liqlik ob-havo qobig‘i asos va qopqoq bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, hududning mintaqaviy tuzilishi ikki darajaga ega: quyi strukturaviy sathi paleozoy va yuqori qismi mezozoy-kaynozoydir. Quyidagi stratigrafik birliklarning tavsifi ko‘p jihatdan umumiy ko‘rinishga ega bo‘lib, faqat o‘sha stratigrafik komplekslar tavsiflanadi, ular asosan Chotqol-Qurama mintaqasining O‘zbekiston qismida rivojlangan bo‘lib, geologik shakllanishlarning moddiy tarkibiga alohida e’tibor beriladi.

O‘rganilayotgan hudud (Angren daryosining o‘ng qirg‘og‘i) doirasidagi pastki paleozoy, differensiatsiyalanmagan (shartli ordovik) tuzilmalari biotit-amfibol gneyslari, shoxli va kristalli muskovit-seritsit-biotit shistlari bilan ifodalangan bo‘lib, devon davri yotqiziqlari bilan mos kelmaydigan yotqizilgan.

Quyi devonga mansub bo‘lgan o‘rta paleozoy vulkanogen to‘plami daryo vodiysining ikki tomonida rivojlangan. Angren va andezitlar, kamroq andezit-bazaltlar, tuflar, tuf lavalari, tuf konglomeratlari bilan ifodalangan, konglomeratlar, vulkanogen qumtoshlar bilan o‘ralgan, svitaning yuqori qismi deyarli hamma joyda ohaktoshlar bilan ifodalangan, svitaning qalinligi 600 m.

Kaolin tabiiy mineral bo‘lib, asosan kremniy dioksidi (SiO_2) va alyuminiy oksidi (Al_2O_3) dan tashkil topgan loy turidir. Kaolin odatda oq rangga ega va sanoatda keng qo‘llaniladi:

1. Keramika sanoatida (chinni va chinni buyumlar ishlab chiqarish)
2. Qog‘oz sanoatida (qog‘ozni oqroq va qalinroq qilish uchun)
3. Uy kosmetikasida (masalan, cho‘tkalar uchun)
4. Kimyo sanoatida va boshqa sohalarda

Kaolin tabiiy boylik bo‘lib, uning yuqori sifatli navlari katta sanoat ahamiyatiga ega.

Angren kaolin-qo‘ng‘ir ko‘mir konini mineralogik va geokimyoviy o‘rganish natijalarini tahlil qilish bir qator nazariy va amaliy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Dastlabki bosqichda Angren konining mintaqasi va maydonining tuzilishi, qatlamlarning moddiy tarkibi va geologik rivojlanish xususiyatlarini (struktura, paleofatsiya, mineralogik-geokimyoviy va boshqalar) uzoq muddatli o‘rganish materiallari tahlili o‘tkazildi.

Shuningdek, ish davomida Yuradan keyingi vulkanogen shakllanishlar aniqlandi va o‘rganildi, bu esa mezozoy qatlamlarining vulkanogen-cho‘kindi tabiati haqidagi taxminlarni tasdiqlash imkonini berdi. Bu birinchi taxmin sifatida mezozoy metalli konlari geneziyatsining umumiy rasmini taqdim etishga imkon berdi, xususan:

Angrenda keng tarqalgan mezozoy va kaynozoy qatlamlari triasning nurash qobig‘i, yura, bo‘r, uchlamchi va to‘rtlamchi davr yotqiziqlari bilan ifodalanadi. Ular mohiyatan Angren kaolin-qo‘ng‘ir ko‘mir konining to‘liq stratigrafik kesimini harakterlaydi, uning xususiyatlari asosan yuqori paleozoy vulkanogen qator tog‘ jinslarining dastlabki tarkibiga kiritilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Далимов Т.Н., Ганиев И.Н. Исследование верхней возрастной границы магматических процессов в Срединном Тянь-Шане // “Geologiya va mineral resurslar“ 1999, №1, - С. 7-14
2. Задорина С.Н., Климанов Е.В. О “молодом” вулканизме в Ангренском районе // “Geologiya va mineral resurslar “ 2000. №6, - С.8-18.
3. Захаревич В.А. Условия образования угленосной толщи Ангрена. / Труды Государственного Союзного геолого-разведочного треста Средазуглеразведка”. - Т., 1950.
4. Вып. I. - С.11-77 Захаревич В.А. Очерк геологии Ангренского каолино-угольного месторождения. Т., Изд. “Фан” УзССР. 1966, - 122 с.

AUMINZATOV TOG‘I IRIQTI KESMASINING EOTSEN YOTQIZIQLARI STRATIGRAFIYASI

***Musayeva N.A.* ***

***** *“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ, e-mail: nigora.musayeva.2020@bk.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Auminzatov tog‘ining sharqiy qismi Iriqti tepaligi atrofida tuzilgan litologik – stratigrafik kesmasi eotsen yotqiziqlari taqdim etilgan, qatlamlarning chegarasi o‘rganilayotgan kesmaning foraminifer majmuasiga asoslangan.

Annotation. This article presents the Eocene deposits of the lithological-stratigraphic section of the eastern part of the Auminzatau Mountain, which is represented by the Irikti hill with eocene deposits, the boundary of the layers is based on the foraminiferal complex of the section under study.

Аннотация. В этой статье представлен литолого-стратиграфический разрез эоценовых отложений восточной части Ауминзатауских гор в районе возвышенности Ирикти, граница слоев установлена по комплексу фораминифер изученного разреза.

Respublikamizda eotsen yotqiziqlarining yoshini ishonchli aniqlash va noma’dan konlarini izlash kabi geologik omillar va mezonlarga alohida e’tibor berilib, ularda ijobiy natijalarga erishilmoqda.

2002-2005 yillarda A.A. Abdusamatov Markaziy Qizilqumdagi paleogen yotqiziqlarini litobiofatsial kesmasini tuzgan. Ushbu natijalar biostratigarafik va fatsial tahlilga asoslangan bo‘lib, kesmalarning turlari, ularning tarqalishi, fosforitli qatlamlarning hosil bo‘lish sharoiti va stratigrafik bog‘liqligini aniqlashga imkon berdi va Qizilqumda paleogen yotqiziqlari keng rivojlanganligiga ishora qilganlar.

2017-2020 yillar N.V. Averburg, N.A. Musayevalar paleogen va neogen chegarasi yotqiziqlari bo‘yicha biostratigrafik va biofatsial tadqiqotlar olib borganlar. Tadqiqot natijasida neogen va chegaraviy paleogen-neogen yotqiziqlaridan stratigrafik sathlarni belgilashda bioreperlar sanaluvchi kesmada bir-birini ketma-ket almashtiruvchi foraminifera va ostrakodalar komplekslari yig‘ilgan va o‘rganilgan.

2020-2023 yillar N.A. Musaeva “Quljuqtov tog‘lari va unga yondosh hududlari paleogen yotqiziqlarining foraminiferalar tomonidan biostratigrafik bo‘linishi” mavzusidagi hisobotida paleogen yotqiziqlarining stratigrafiyasini takomillashtirish va muvofiqlashtirish uchun foraminiferalar majmualarini batafsil aniqlagan [1, 2, 3, 4].

Kaynozoy erasi,
paleogen sistemasi Ꝑ,
eotsen bo‘limi
ipr, lyutet va barton yaruslari
sugrali svitasi

Aumizatov tog‘larining eotsen bo‘limi yotqiziqlari uchta kichik bo‘limlar bilan ifodalanadi va tarkibidagi foraminiferalar bilan yaxshi ajralib turadi. Quyi bo‘lim – ipr yarusi, o‘rta bo‘lim – lyutet va barton yaruslari, yuqori bo‘lim priabon yarusi bilan ifodalaniladi.

Eotsen bo‘limi yotqiziqlari litologik va faunistik xususiyatlariga ko‘ra quyidagi svitalarga ajratilgan: sugrali svitasi – quyi eotsen (ipr yarusi) va o‘rta eotsen (lyutet yarusi), qultabon svitasi – (barton yarusi) va moral svitasi – yuqori eotsen (priabon yarusi).

Quyi va o‘rta eotsen bo‘limi ipr, lyutet yaruslari

Sugrali svitasi R.K. Makarova va E.F. Satsir tomonidan1960yil Markaziy Qizilqumda Sugrali qudug‘i nomiga qo‘yilgan. Stratotipi Sugrali qishlog‘idan 8 km janubda (Tomditov tog‘lari) joylashgan.

Ipr yarusi

Iriqti atrofida tuzilgan litologik stratigrafik kesmada asosan, kulrang, och kulrang alevrolitli gil va oq sariq dog‘li mergellardan iborat (1- rasm).


To‘q kulrang gillarda foraminiferalar qoldiqlaridan Haplophragmoides grzybowskii Mjatl., Recurvoides caucasicus (Schuts.), Karreriyella zolkayensis (Schuts.), Gaudryina novarroana Cushm., Gaudryina globosa Kapt., Dorothia postbuletta Balakhm., Marginulina eofragaria Balakhm., Cibicidoides gissarensis N.Byk., Asterigerina subprimaria Bugr., Coleites unicus Bugr., Spirosigmoilina ex gr. decorate (Cushm.), Nodosaria spinescens Reuss., Nodosaria ewaldi Reuss., Anomalina granosa (Hantk.), Anomalina prayeacuta Vass., Eponides prayeumbonatus Mjatl., Asterigerina trumpyi Nutt., Globigerina pseudoeocayena Subbotina, Globigerina eocayena Terquyem, Acarinina triplex Subbotina, Globorotalia marginodentata Subb., Globorotalia subbotinaye Moroz. va boshqalar uchraydi, kesmaning quyi qismi och jigarrang, sariq rangli, gips qatlamli gil jinsi mavjud. Aniqlangan foraminifera qoldiqlaridan Uvigerinella compacta (Balakhm.), Euvigerina prayecompacta (Balakhm.), Brotzenella acuta discoidea Balakhm., Brotzenella pseudoacuta J.Nik., Hopkinsina compacta Balakhm., Nodosaria bacillum Defr., Falsoplanulina subbotinaye (Balakhm.), Acarinina pseudotopolensis Subb., Acarinina pentacamerata Subb., Acarinina acarinata Subb., topilgan bo‘lib, o‘rta eotsenning ipr yarusi sugrali svitasi uchun xarakterlidir. Gil qatlam qalinligi 10-24 metrgacha.



1-rasm. Kulrang gil jinsi joylashishining umumiy ko‘rinishi.

Lyutet– barton yaruslari

Kesmaning o‘rta qismi oq, och jigarrang mergel, sariq dog‘li gil, qatlamchali va yashil, to‘q kulrang, kulrang, kichik o‘lchamdagi sariq dog‘li, yupqa qatlamli, sho‘r gillardan va kulrang, och kulrang, sarg‘ish tusdagi, mayda donali, polimiktik tuzilishdagi qumlardan iborat (2- rasm).




2-rasm. Sariq gil jinsi joylashishining umumiy ko‘rinishi. MBS-9 binokulyar yordamida suratga olingan.

Foraminiferalar: Lenticulina cavellieri Taxier., Bolivina mitgarziana Balakh., Margulinopsis fragaria (Gumb.) Robulus limbosus (Reuss), Bifarina millepunctata Tutk., Pseudohastigerina micra (Cole), Planorotalites vesiculus Averburg, Bulimina mitgarziana Balakhm., Brotzenella acuta taurica (Sam.), Dentalina inornata Orb. Globigerina eocaeninca Terq., Pseudohastigerina micra (Cole), Brotzenella acuta taurica (Sam.), Hopkinsina compacta Balakhm., Acarinina pentacamerata Subb., Robulus dualis Bugr., Globigerina triloculinoides Chal., Globigerina frontosa Subb., Globigerina ex gr. turgida Bolli., Globigerina inaequspira

Subb., Uvigerina hospida Schwag. va ko‘p miqdorda radiolyariya qoldiqlari topilgan. Qatlam qalinligi 40 m.

Kesmaning yuqori qismi, yashil-kulrang gillardan iborat (3- rasm).




a b

3-rasm. Gil jinsi joylashishining umumiy ko‘rinishi. MBS-9 binokulyar yordamida suratga olingan.

Gil qatlamidan aniqlangan foraminifera qoldiqlari Textularia carinatiformis (Morozov), Robulus roemeri (Reuss), Robulus dualis Bugrov., Robulus calcar (Linne), Bulimina uzbekistanensis N.Byk., Bulimina aksuatica Moroz., Fursenkoina dubolensis Cushm. et Appl. Uvigerinella compacta Balakhm., Uvigerina costellata Moroz., Bifarina millepunctata Tutkowki, Globigerina sp., Globigerina triloculinoides Plumm., Globigerina contorta Schutzk., Globigerina inaequispira Subbotina, Globigerina eocaena Terquem, G. inaequispira Subb., Globigerina pseudoeocaena Subb., Acarinina triplex Subbotina, Acarinina bullbrooki (Bolli.), Truncorotaloides rohri Bronn. et Berm., va radiolyariya, baliq qoldiqlari topilgan.

Gil qatlami qalinligi 73 m (4- rasm).

Shu kungacha Markaziy Qizilqumda (Auminzatov) eotsen yotqiziqlarida keng ko‘lamli izlanishlar olib borilgan bo‘lsa ham, paleogen davri yotqiziqlaridagi chegaralarni aniqlashda to‘liq paleontologik, stratigrafik masalalar o‘zining to‘liq yechimini topmagan. Olingan yangi biostratigrafik ma’lumotlar asosida Auminzatov tog‘larining paleogen davri yotqiziqlarining yangilangan stratigrafik sxemasi ishlab chiqiladi va u mintaqaning geologik tuzilishiga oid zamonaviy qarashlarni aks ettiradi.



4- rasm. Litologik – stratigrafik ustun. Iriqti tepaligi. (Aumizatov tog‘ining sharqiy qismi) (Tuzuvchi: N.A. Musayeva, 2022y.)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musaeva N.A. Granitsa paleogena i neogena po foraminiferam v rayone kolodsa Sarbatir (Sentralnie Кызылkum) // Geologiya imineralnie resursi. №2, Tashkent 2020, 20-24 s.
2. Musaeva N.A. Quljuqtov eotsen yotqiziqlarining foraminiferalar bo‘yicha stratigrafiyasi (Markaziy Qizilqum) // Dissertatsiya, Neft va gaz konlari qidiruvi instituti. Toshkent, 2022. 22-30 b.
3. Stratigraficheskiy slovar Uzbekistana. //Tr. IMR. Tashkent,GIDROINGEO, 2001.
4. O‘zbekiston fanerozoy tosh qotgan faunalari atlasi //II jild, Mezozoy va kaynozoy. 213b.

PALEOGEN DAVRI QUYI EOTSEN YONUVCHI SLANESLARINING KIMYOVIY TARKIBI VA ULARNING KARAKATA BOTIQLIGIDA TARQALISH XUSUSIYATLARI

Nurtayev B.X.

* O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi,

E-mail: nurtayevburxon@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Paleogen davri quyi eotsen yotqiziqlaridagi yonuvchi slaneslarning kimyoviy tarkibi va ularning hosil bo‘lish xususiyatlari haqida bir nechta ma’lumotlar keltirilgan. Markaziy Qizilqumdagi Sangruntau va Aktau konlarida olib borilgan geologik-tadqiqot ishlari, yonuvchi slaneslarning kimyoviy xususiyatlarini aniqlash uchun korreliyatsion tahlil usullari qo‘llanilgan hamda yonuvchi slaneslarning xususiyatlari aniqlangan. Yonuvchi slaneslarning kimyoviy xususiyatlarini aniqlash yonuvchi slanes konlarini hosil bo‘lish sharoitlarini hamda yondosh foydali qazilmalarni aniqlashga imkon yaratadi.

Paleogen davridagi metalli yonuvchi slaneslar aralash tarkibli choʻkindi jinslarga kiradi, ularda yuqori miqdorda SO2,N2O, N2O, K2O, MgO, R2O, CaO, S sulf., Sorg mavjud. Ushbu komponentlarning mavjudligiga koʻra, komponentlar yigʻindisi 50% dan ortiq boʻlgan yonuvchi slaneslarni murakkab va koʻp komponentli gidroksidli-magneziap-karbonat-uglerod-sulfat-fosfat-sulfidli geo-kimyoviy tizim deb tasniflash mumkin. Shuning uchun ularni aralash choʻkindi jinslar mikstolitlar deb tasniflash maqsadga muvofiq. (Yudovich, Ketris, 1988). Ushbu geokimyoviy tizim, nafaqat organizmlar tufayli, balki ular bilan paragenik suyak elementlari tufayli ularning birgalikdagi oʻzaro ta'siri natijasida va yonuvchi slaneslarga aylanishining turli bosqichlarida paydo boʻlishi mumkin. Ushbu jarayon koʻplab kimyoviy moddalarni, shu jumladan, kam uchraydigan va tarqalgan elementlarni yonuvchi slaneslarda toʻplashning muhim omillaridan biridir. Ular tarkibida V, Mo, Re va boshqalarning nisbatan yuqori konsentratsiyasi mavjud, ammo kimyoviy elementlarning toʻplanish usullari va ayniqsa, ularning suyak va organik moddalarda fiksatsiya shakllari koʻp hollarda mavjud emas. Shu sababi, bizning tadqiqotimizda paleogen yotqiziqlaridagi yonuvchi slaneslarni elementar oʻrganish bir muncha qiyinchilik tugʻdiradi. Ushbu muommolarni mikroskop yoʻli orqali tekshirishning iloji yoʻq, chunki ular geterogen-karbonat-fosfat-oksid-sulfid va mineral organogen-gil mineral tizimlarining aralashmasi boʻlib, bu yerda modda mikroultratonik-dispers nana oʻlchovli komponent bilan ifodalanadi. Elementlar va minerallarning tarkibini oʻrganishimiz uchun eng yangi fizik-kimyoviy va instrumental usullardan foydalanilgan.

1.JXA-8800 P "Superprobe elektron-zond mikroanalizatori" (Жеол. Yaponiya) - rentgen mikroanalizatori va elektron zond va skanerlash elektron mikroskopining imkoniyatlarini birlashtirgan yangi avlod qurilmasi. Rentgen spektrometrlari yordamida yuqori fazoviy oʻlchamlari (0,02 mikrongacha) boʻlgan namuna maydonida elementar tarkibni miqdoriy va sifatli tahlil qilish amalga oshiriladi, 11 mikrongacha boʻlgan mikro qismlarda 0,005 dan 100% gacha boʻlgan konsentrasiyalar oraligʻida 70 ga yaqin elementlarning (boʻrdan urangacha) tarkibi baholanadi. Shu bilan birga, moddaning nozik xususiyatlari va tuzilishini oʻrganish uchun x40 dan x 25000 gacha boʻlgan kattalashtirish oraligʻida aks ettirilgan va soʻrilgan Benn elektronlarida yuqori sifatli sirt tasvirlari olinadi. Elektron zond bilan rentgen-spektr mikroanalizlari makro va mikroskopik oʻlchamdagi tahlil qilinadigan moddaning kimyoviy tarkibi va morfologiyasini aniqlash, moddadagi fazoviy taqsimotni oʻrganish uchun ishlatiladi.

2. ICP- mass spektrometr Elan DRS-II davriy tizimning koʻpgina elementlari uchun suyuq va qattiq moddalarni aniq elementar va izotopik tahlil qilish uchun zamonaviy yuqori sezgir, toʻliq avtomatlashtirilgan asbobdir.

3. Difraktometri DRON-2 qattiq moddalarni rentgen fazali tahlil qilish uchun, yonuvchi slaneslardan tayyorlangan koʻplab namunalar va preparatlarni oʻrganishda ishlatilgan. Mineralogik, kimyoviy, spektral, difraktometrik va boshqa turdagi tadqiqotlar "Mineral resurslar instituti" davlat muassasasi, "Markaziy laboratoriya" davlat korxonasi, geologiya va geofizika instituti, Davlat qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar zaxiralarini shakllantirish jamgʻarmasi instrumental-tahliliy bazasi yordamida olib borilgan.

Oʻzbekistonda yonuvchi slaneslarning tarkibidagi oʻrtacha elementlar miqdori ISP-MS tahlil natijalariga koʻra, asosiy elementlar , quruq moddalar uchun g/t (* %)da ular quyidagicha koʻrinishda boʻladi:

1-jadval

Element	**Fe**	**V**	**Mo**	**Zn**	**Ni**	**Sr**	**Cu**	**Zr**	**Rb**	**Ce**	**La**	**U**	**∑Me**
g/t(*%)	*4.0	*0,12	850	270	270	250	120	70	93	52	31	57	*4.33.

Yonuvchi slaneslarning tarkibidagi oʻrtacha elementlar miqdori **(**ICP-MS tahlil natijalariga koʻra)

2-jadval


Sangruntau va Boysunning yonuvchi slaneslarining kimyoviy tarkibi (%)

Oksid	O‘rtacha miqdor%	Namuna				
		B-1	B-2	B-3	B-4	SN-1
SiO_2	39,43	48,24	33,95	30,86	54,0	40,36
Al_2O_3	15,36	14,98	10,15	12,18	23,0	16,39
K_2O	1,40	1,21	0,86	1,28	1,6	1,59
CaO	13,32	7,57	16,16	14,23	19,2	9,29
Na_2O	0,42	0,66	0,29	0,29	0,6	0,28
MgO	2,60	3,57	1,63	2,07	3,6	20,14
P_2O_3	2,44	0,79	4,02	3,80	n/o	1,25
TiO_3	0,62	0,76	0,48	0,58	n/o	0,68
MnO	0,038	0,036	0,046	0,040	n/o	0,029
S	8,80	6,57	10,33	10,97	8,3	8,24
Fe	6,50	4,78	6,26	7,49	n/o	7,36

Eslatma: ICP ga tahlillar O‘zR Davlat qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar zaxiralarini shakllantirish jamg‘armasining Elan DRS II mass-spektrometrida amalga oshirilgan noaniq elementlar aniqlanmadi.; Namunalar B-1, B-2, B-3, B-4- Boysun, SN-1- Sangruntau.

O‘zbekiston hududidagi yonuvchi slaneslar past issiqlik effekti bilan ajralib turadi va qatlamga qarab yonish issiqligi, uchastka va konga qarab keng diapazonda o‘zgarishi mumkin: 4 dan 25 MJ/kg gacha, o‘rtacha 8-12 MJ/kg. Shuning uchun, slanes asosan neftni qayta ishlash zavodlari uchun smolalar fraksiyalarini ishlab chiqarish uchun xomashyo bo‘lib xizmat qiladi, bu yerda yuqori issiqlik ta’siriga ega su’niy neft olinadi.

Yuqori oltingugurtli slanes (bu yerda oltingugurt 6% dan yuqori) jahon amaliyotida, shu jumladan, farmakologik va veterinariya preparatlarini ishlab chiqarish uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator tiofenlarning turli xil birikmalarini, shuningdek, nodir fizik xususiyatlarga ega poliorganosiloksanlarni ishlab chiqarish uchun kimyoviy xomashyo sifatida ishlatiladi.



1-rasm. Sangruntau va Boysunning yonuvchi slaneslar tarkibidagi oksidlar miqdorining foiz qiymati diagrammasi.

XULOSA

1. Olingan namunalarning og‘ir fraksiyalari uran yo‘ldosh elementlarining sulfid-lari (stronsiy, molebden, selen va irridiy) bilan keskin boyitish ularning endogen oreollarda bo‘lishining asosiy shakli sulfidlar ekanligini ko‘rsatadi.

2. Yonuvchi slanes asosan neftni qayta ishlash zavodlari uchun smolalar fraksiyalarini ishlab chiqarish uchun xomashyo bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan dabiyotlar

1. Исоков М.У., Туресебеков А.Х., Борминский С.И., Василевский Б.Б., Шарипов Х.Т., Дерюгин Е.К. Геохимия и минералогия горючих сланцев Узбекистана. Ташкент. ГП «НИИМР». 2013. 78 С.

2. Курбанов Ш.М. Разработка технологии переработки горючих сланцев Кызылкумов //Автореф. диссерт. на соискание ученой степени к.т.н.: - Навои: 2011г. -20 с.

3. Мирзаев А.У. Нерудные полезные ископаемые Кызылкумского горнорудного региона. Журнал «Горный вестник Узбекистана» -2 Навоий. № 53, 2013., С. 82-87.

4. Нуртаев Б.Х. Результаты анализов органической части эоценовых отложения (на примере Каракатинской впадины, Узбекистан) // “Новые идеи в науках о Земле” Международная научно-практическая конференция. Москва, 2023. -С.127-130.

5. Нуртаев Б.Х., Назаров У.Х. Анализ условий размещения горючих сланцев на месторождении Сангрунтау Каракатинской впадины // “Новые идеи в науках о Земле” Международная научно-практическая конференция. Москва, 2023. -С.123-127.

6. Нуртаев Б.Х., Яндашев Р.Э., Юсупов Ҳ.Р., Муродуллаева М.У. Геологические строение горючих сланцев в Западом Узбекистане // «Universum: технические науки» 12(117). Москва-2023. -С.22-27.

DALA SHPATI XOMASHYOSINI QAYTA ISHLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH ISTIQBOLLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIK OMILLARI

Rahimov B.Z.*, Qurbonov A.F.*, Rustamjonov R.R.*, Badalov F.A.*
**O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi*

Annotatsiya. Maqolada dala shpati xomashyosini qayta ishlashda zamonaviy optik separator texnologiyasining qo‘llanilishi, xalqaro tajribalari va iqtisodiy samaradorlik omillari tahlil qilinadi. Optik separatorlar minerallarning rangi yoki yoritilishiga asoslanib keraksiz komponentlarni ajratib tashlaydi, natijada mahsulot sifati oshadi va xarajatlar kamayadi.

Аннотация. В статье рассматриваются перспективы применения современных оптических сепараторов при переработке полевого шпата и факторы их экономической эффективности. Оптические сепараторы отделяют нежелательные минералы (например, содержащие железо) на основе их цвета или отражающих свойств, что повышает качество конечного продукта и снижает затраты.

Dala shpati xomashyosi keramik va shisha sanoatida muhim bo‘lib, uning oq rangi va kimyoviy tarkibi mahsulot sifatini belgilaydi. Biroq dala shpati tarkibida kvars va rangli minerallar (masalan, temir oksidlari) bo‘lishi mumkin, ularni oddiy jarayonlarda ajratib olish qiyin. Shu sababli, sensorli (optik) separator texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Optik separatorlar zarrachalarni ularning rangi yoki yuzasi bo‘yicha guruhlarga ajratib, keraksiz qismlarni chiqarib tashlaydi va mahsulot sifatini yaxshilaydi [2]. Bu texnologiya dala shpati qiymatini oshirish va qayta ishlash xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Optik separator texnologiyasining tahlili

Optik separatorlar materialni konveyer bo‘ylab taqsimlab, har bir zarrachani kameralarga yoki boshqa yorug‘lik sensori orqali yoritadi. Sensorlar infraqizil, ultrabinafsha, lazer va rentgen kabi turli to‘lqin uzunliklarida harakat qilib, zarracha xossalarini o‘lchaydi. Ushbu ma’lumotlar asosida kompyuter tizimi boyitmaga yoki chiqindiga yuboriladigan zarrachani aniqlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, optik saralash 80–95% aniqlik bilan zarrachalarni to‘g‘ri taqsimlab, kerakli minerallarni 70–90% gacha yig‘ishga imkon beradi [3]. So‘nggi yillarda ushbu uskunalarda sun’iy intellekt (SI) va mashinaviy o‘qitish algoritmlari keng tatbiq qilinmoqda. ASI yordamida sensorlar faqat rang yoki yorug‘lik aksini emas, balki zarrachalarning murakkab spektral, shakl va tekstura parametrlarini ham o‘rganib, real vaqt rejimida yanada aniqroq saralash imkonini beradi. Masalan, mashinaviy o‘qitilgan dasturiy ta’minot ayrim minerallarning mayda farqlarini inson ko‘zi yoki oddiy kamera sezolmaydigan darajada aniqlab, boyitish samaradorligini oshiradi. Sun’iy intellekt joriy etilganda noto‘g‘ri tasniflash ehtimoli kamayadi, chiqindiga ketadigan foydali komponentlar hajmi keskin qisqaradi va butun jarayonning ishlab chiqarish unumdorligi oshadi. Natijada optik separatorlarning iqtisodiy samaradorligi yanada yuqori bo‘lib, ularni katta hajmdagi konlarni kompleks qayta ishlashda qo‘llash imkoniyatlari kengayadi.

Xalqaro tajribada dala shpati va boshqa sanoat minerallarini boyitishda optik separatorlardan keng foydalanilmoqda. Quyidagi jadvalda turli davlatlarda qo‘llanilayotgan separator turlari, ularni ishlab chiqaruvchi kompaniyalar va boyitish yo‘nalishlari keltirilgan..

Davlat / Mintaqa	Kompaniya / Brend	Separator turi	Qo‘llanish maqsadi
Italiya (Sardiniya)	Maffei Sarda (MikroSort)	Rangli kameralar (CCD)	Granit va pegmatitlardan oq dala shpati konsentrati olish; temir oksidlarini ajratish
Germaniya	Steinert	Rang + NIR sensorlar	Pegmatit konlaridan yuqori oq dala shpati ajratish, temir va slyuda aralashmalarini chiqarish
Xitoy	AMD (KGS5)	Ikki tabaqali optik separator	Kaliyli dala shpati va kvartsni ajratish, oq rangni oshirish
Norvegiya	TOMRA Sorting Solutions	CCD + SI asosidagi sensorli separator	Keramika sanoati uchun yuqori tozalikka ega dala shpati ishlab chiqarish
Turkiya	REDWAVE	Rangli va infraqizil separator	Dala shpati va kvars aralashmalarini ajratib, shisha sanoati uchun oq boyitma tayyorlash
AQSh	Bühler AG (filial)	SI asosidagi optik saralash moduli	Granit asosidagi dala shpati boyitishda temir aralashmalarini kamaytirish

Iqtisodiy samaradorlik omillari. Optik separatorlar iqtisodiy samaradorlikni ham sezilarli darajada oshiradi. Saralash bosqichida past sifatli materiallar ajratib olinish sababli ortiqcha maydalash va flotatsiya jarayonlariga sarflanadigan energiya, suv va reagentlar miqdori kamayadi [5]. Natijada elektr energiyasi va reagentlarga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada pasayadi, chiqindilar hajmi kamayadi.

Tejamkorlik. Ilk bosqichda chiqindi materiallarning chiqarib tashlanishi qayta ishlanishi lozim bo‘lgan massa hajmini kamaytiradi. Bu elektr energiyasi, suv va reagentlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirib, ishlab chiqarish xarajatlarini tejashga yordam beradi [5]. Amaliy hisob-kitoblarga ko‘ra, optik saralash bosqichini joriy etish ishlab chiqarish tannarxini o‘rtacha 10–15 foizga kamaytirishi mumkin.

Mahsulot qiymati. Yuqori tozalikka ega dala shpati boyitmasi bozor narxi yuqori bo‘ladi. Oq va toza mahsulot korxona daromadini oshiradi va yangi bozor segmentlariga chiqish imkonini beradi [5]. Masalan, oddiy dala shpati tonnasi shisha sanoati uchun o‘rtacha 60–70 AQSh dollaridan baholansa, yuqori oq va temirsiz boyitma 110–130 dollargacha baholanadi.

Ishlab chiqarish samaradorligi. Rangli separatorlar bir vaqtning o‘zida katta hajmda materialni tezkor qayta ishlaydi. Ularning yuqori o‘tkazish qobiliyati ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlaydi, qisqa amortizatsiya muddati esa investitsiyani tez qaytaradi [5]. Yirik zavod sharoitida optik separatorlar yiliga yuz minglab tonna xomashyoni boyitish imkoniga ega bo‘lib, bu esa klassik flotatsion sxemaga qaraganda sezilarli ustunlik beradi.

Ekologik samaradorlik. Chiqindi hajmining kamayishi atrof-muhitga ijobiy ta’sir qiladi. Saralashdan tashqarida qolgan zararli komponentlar hajmi kamaygani sababli chiqindi omborlari yuklanishi va chiqindilarni boshqarish xarajatlari pasayadi. Shuningdek, kimyoviy reagentlarning kamroq qo‘llanishi ekologik xavflarni kamaytiradi, suv resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

O‘zbekiston sharoitida dala shpati xomashyosini qayta ishlashda zamonaviy optik separatorlardan foydalanish bir qator muhim yutuqlarga erishish imkonini beradi. Bugungi kunda respublikada dala shpati xomashyosiga talab kundan kunga oshib bormoqda, mavjud zahiralar esa chegaralangan. Shu sababli dala shpatiga alternativ xomashyo manbalarini topish va ularni chuqur qayta ishlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizdagi granit va pegmatit massivlari dala shpati bilan bir qatorda temir oksidlari, slyuda va boshqa zararli minerallarni ham o‘z ichiga oladi, bu esa mahsulot sifatini pasaytirib, ko‘plab konlarning sanoat miqyosida o‘zlashtirilishini cheklab qo‘yishi mumkin. Optik separator texnologiyasi yordamida ana shunday komponentlarni yuqori aniqlikda ajratib tashlash mumkin bo‘lib, oq rangli va yuqori tozalikka ega

dala shpati boyitmasini olish imkoniyati yaratiladi. Bu, o‘z navbatida, keramik, shisha va kimyo sanoati uchun eksportbop mahsulot ishlab chiqarishga sharoit yaratadi. Eng muhimi, ilgari “kam sifatli” deb hisoblanib foydalanilmagan granit va pegmatit konlari ham iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ravishda o‘zlashtirilishi mumkin, bu esa mamlakatning xomashyo bazasini sezilarli darajada kengaytiradi. Shuningdek, ishlab chiqarish hajmining ortishi va yuqori sifatli boyitma eksporti O‘zbekistonning xalqaro bozordagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, chiqindi hajmining kamayishi, suv va kimyoviy reagentlardan foydalanishning qisqarishi ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Shu asosda aytish mumkinki, optik separator texnologiyasining keng miqyosda tatbiqi O‘zbekistonda dala shpati sanoatining iqtisodiy samaradorligini, eksport salohiyatini va ekologik xavfsizligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Zamonaviy optik separator texnologiyasi dala shpati xomashyosini qayta ishlashda yuqori sifatli oq konsentrat olish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu usul dala shpati tarkibidagi temir oksidlari, slyuda va boshqa rangli minerallarni yuqori aniqlik bilan ajratib, keramik, shisha va kimyo sanoati talablariga mos bo‘lgan mahsulot olish imkonini beradi. Jarayonning dastlabki bosqichidanoq keraksiz tog‘ jinslarini chiqarib yuborilishi natijasida energiya, suv va reagent sarfi sezilarli darajada kamayadi, bu esa ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi va mahsulot qiymatini oshiradi. Muhimi, optik separatorlarda so‘nggi yillarda sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish algoritmlaridan foydalanish imkoniyati joriy etilmoqda. Sun’iy intellekt yordamida zarrachalarning nafaqat rang va yorug‘lik aks ettirish xususiyatlari, balki shakl, tekstura va spektral imzolari ham chuqur tahlil qilinadi. Bu esa noto‘g‘ri saralash holatlarini keskin kamaytirib, foydali minerallarni yig‘ish darajasini oshiradi, chiqindiga ketadigan foydali komponentlar hajmini qisqartiradi va ishlab chiqarish unumdorligini yuqori bosqichga olib chiqadi. Natijada, optik separatorlarning dala shpati boyitishdagi qo‘llanilishi nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki texnologik yangilik, eksport salohiyatini kengaytirish va sun’iy intellekt asosidagi kelajak texnologiyalarini mamlakat sanoatiga tatbiq etish nuqtayi nazaridan ham istiqbolli yechim sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Peukert D., Xu C., Dowd P. *A Review of Sensor-Based Sorting in Mineral Processing: The Potential Benefits of Sensor Fusion*. Minerals, 2022, 12(11): 1364.

2. Harbeck H. *Optoelectronic separation in feldspar processing at Maffei Sarda*. 2001.

3. SIX-S GmbH. *Sensor-based ore sorting* [Internet]. 2023 [cited 20 Aug 2025]. Available from: https://www.six-s.com/knowledge-base/article/sensor-based-ore-sorting/

4. REDWAVE (BT-Wolfgang Binder GmbH). *Color sorting machine ROX* [Internet]. [cited 20 Aug 2025]. Available from: https://www.directindustry.com/

5. GoldenSorter. *Why potassium feldspar need color sorting* [Internet]. 2023 [cited 20 Aug 2025]. Available from: https://goldensorter.com/why-potassium-feldspar-need-color-sorting.html

QORATEPA TOG‘LARINING G‘ARBIY QISMIDA OLIB BORILGAN ''ELEKTR QIDIRUVI VP-G'' GEOFIZIK TADQIQOTLAR NATIJALARI

Rashidov Sh.R.*

**Tashkent davlat texnika universiteti, rashidovshaxzodbek382@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu tezisda “Markaziy geologiya-geofizika ekspeditsiyasi” davlat korxonasida olingan ma’lumotlar to‘plangan materiallar shunga tayanib temir, nikel, oltingugurt foydali qazilmalarni ixtisoslashtirilgan qidiruv ishlariga qaratilgan.

Аннотация. Данный тезис, основанный на материалах, собранных государственным предприятием "Центральная геолого-геофизическая экспедиция," направлен на специализированные поисковые работы по месторождениям железа, никеля и серы.

Annotation. This thesis is based on the data and collected materials from the Central Geological-Geophysical Expedition state enterprise, and it is focused on specialized exploration of useful minerals such as iron, nickel, and sulfur.

Geofizik usullarning integratsiyasi geologik muammolarni hal qilish Qashqadaryo 2000-2003-yillarda razvedka boshqarmasining Yakkabog‘ geofizika davlat korxonasi tomonidan Qoratepa tog‘larining g‘arbiy qismida olib borilgan ilg‘or ixtisoslashtirilgan temir, nikel, oltingugurt oltin qidiruv ishlari natijasida intensiv minerallashgan jinslarning qalin va cho‘zilgan zonasini aniqlash va Elektr qidiruv usulini qo‘llash o‘z samarasini berib kelmoqda. 100x10 m tarmoq bo‘ylab VP-G gradienti va magnit qidiruvidan foydalangan holda elektr qidiruv usullaridan foydalangan holda, shuningdek, alohida batafsil profillar bo‘yicha VP-TZ nuqtali zondlash yordamida geofizik tadqiqotlar majmuasi o‘tkazildi, buning natijasida qutblanish anomaliyalari, past va pasaytirilgan qarshilik aniqlandi.

Geofizik usullarda sulfidli minerallashuv zonasi ilgari taxmin qilinganidan kattaroq ekanligi aniqlandi, u yer usti geologik ma’lumotlariga qo‘shimcha ravishda g‘arbiy va sharqiy yo‘nalishlarda 4 km uzunlikdagi cho'kindi qatlamlari ostida kuzatilgan, uzunligi kamida 10 km; uning qalinligi 30-40 dan birinchi yuzlab (100-400 m) gacha kengayishi va saytdan tashqarida g‘arbiy qismida davom etadi.

Olingan geofizik anomaliyalar va istiqbolli pozitsiyalar asosida anomaliyalarning xarakterini tasdiqlash uchun tog‘-kon va burg‘ulash ishlari olib boriladi.

Maydonning G‘arbiy qismida joylashgan VP-TZ 84 profili bo‘ylab, 80-90 piketlar oralig‘ida, past va past qarshilik zonasida joylashgan 6,5 dan 9,5% gacha intensivlikdagi qutblanish anomaliyasi aniqlandi. Sulfid minerallashuvining kutilayotgan zonasini xaritalash. Polarizatsiya anomaliyasining intensivligi chuqurlik bilan ortadi, bu sulfid minerallashuvi kontsentratsiyasining oshishini ko‘rsatishi mumkin.

Maydonning sharqiy qismida joylashgan VP-TZ 88 profili bo‘ylab, 35-95 piketlar oralig‘ida, 6,5 dan 10,5% gacha intensivlikdagi qutblanish anomaliyasi aniqlandi, u pasaytirilgan maydon ichida joylashgan qarshilik, sulfid minerallashuvining kutilayotgan zonasini xaritalash. Anomaliya kunduzgi sirtga yetib bormaydi (uning yuqori qirrasi taxminan 50-100 m chuqurlikda joylashgan). Polarizatsiya anomaliyasining intensivligi chuqurlik bilan ortadi, bu sulfid minerallashuvi kontsentratsiyasining oshishini ko‘rsatishi mumkin. Geoelektrik uchastkalarda aniqlangan zonalar VP-G usulidan foydalangan holda hududiy tadqiqotlar natijalari bilan belgilangan qutblanishning anomal zonalariga mos keladi.

VP-TZ usulidan foydalangan holda elektr qidiruvining asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Sulfidli minerallashuv zonalari geoelektrik kesmalarda yaqqol ko‘rinadigan qutblanish, past va pasaytirilgan qarshilikning intensiv anomaliyalari bilan yaxshi chizilgan.

2. Kesimlardan, shuningdek, hududiy o‘rganishdan ma’lum bo‘ldiki, uchastkaning sharqiy qismida sulfidli minerallashuv zonasi ikkiga bo‘linib, ikkita subparallel shoxchalar hosil qiladi.


3. Uchastkalarda qutblanishning eng kuchli anomaliyalari va shunga mos ravishda sulfidlar konsentratsiyasi eng yuqori bo‘lgan sulfidli minerallashuv zonalari uchastkaning markaziy va g‘arbiy qismlarida aniqlanadi.

4. Aniqlanganki, ko‘pchilik uchastkalarda qutblanish anomaliyalarining intensivligi va ularning kuchi chuqurlik bilan ortib boradi.

Dala kuzatish ma’lumotlari skanerlash, tahrirlash, vektorlashtirish, tahlil qilish yo‘li bilan kompyuterga kiritiladi va quduq kesimi bo‘ylab geologik ustunni qurish bilan ularning geologik va geofizik talqini amalga oshiriladi. Agar kerak bo‘lsa, ish joylari uchun ro‘yxatga olish parametrlarining ma‘lumotlar bazasi yaratiladi.

Mehnat va shaxsiy kompyuter xarajatlarini aniqlashda analoglar tajribasidan foydalanilgan ish va 2009-yil 25-martdagi "Elektron xaritalarni yaratish uchun mehnat va shaxsiy kompyuter xarajatlarining vaqtinchalik me'yorlari ...". Bajarilgan ish uchun o'lchov birligi 1 m diagramma lentasi, kengligi deb qabul qilinadi. 20 sm (20 dm2), bu 200 l.m ga to'g'ri keladi.

Ko'rinib turgan qutblanish kontur xaritasi



1-rasm. VP-G (gradient o'rnatish) va VP-TZ (nuqtalarni o'rnatish) usullaridan foydalangan holda elektr qidiruv materiallarini yakuniy ofis qayta ishlash dala ishlari tugagandan so'ng, ofis davrida amalga oshiriladi va to'liq muvofiq ravishda amalga oshiriladi. "Elektr qidiruvi bo'yicha ko'rsatmalar".

Dala ishlari davomida VP-G usuli yordamida dala materiallarini birlamchi qayta ishlash amalga oshirildi, bu uzluksiz sifat nazorati va dastlabki so'rov natijalarini tezda olishni ta'minladi. Mintaqani qazib olish paytida dala elektr tekshiruvlari natijalari (ṗk va ɳk parametrlarining qiymatlari) Microsoft Excel dasturida yaratilgan VP-G elektr qidiruv ma'lumotlar bazasiga zudlik bilan kiritildi, shundan so'ng ushbu parametrlarning alohida xaritalari tuzildi. Surfer-8 dasturiy paketidan foydalangan holda kompyuter izoliniyalarning kesimi erishilgan o'lchov aniqligiga muvofiq tanlangan.

Ofis ishiga quyidagilar kiradi:

Haqiqiy geofizik qidiruv ishlari				
1.Dizayn	so'm			**4270**
2.Tayyorgarlik ishlari,jami, shu jumladan	so'm			**764**
3.matnning bir qismini ajratib, fond adabiyotini o'rganish	sahifa	500	1.37	683
4.Nusxa olish uchun kartografik material tanlash	ahmoq	45	0,11	5
5.Fotosuratga buyurtma berish	buyurtma	45	0,18	8
6.Birlamchi arxiv materiallarini o'rganish	sahifa	50	1.36	68
2.1Geologik yo'llar				8010
2.2Geologik yo'llar	km	70	95,87	6711
2.3.Ishlab chiqarish guruhlarining piyodalar o'tish joylari	km	17	4.24	72
2.4.Geologik marshrutlarni dala stolida qayta ishlash	km²	7.0	175.29	1227

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Никель. Москва, ВИМС, Госгеолтехиздат, 1961. 2. Корин И.З.. Как искать руды никеля. Москва. Госгеолтехиздат, 1962.

2. Шадрин В.Л. Отчёт по результатам предварительной разведки Западного участка месторождения Каратюбе и поисков вольфрама в Каратюбинском рудном районе за 1973-76гг. Фонды ГП «Центральная ГГЭ», 1977.
3. Хмелёвский В.К, Горбачёв Ю.И, Калинин А.В, Попов М.Г, Селиверстов Н.И, Шевнин В.А. Геофизические методы исследований Изд. Камчатского ГПУ 2004 г.

THE RAW MATERIAL BASE OF THE VODIL BROWN COAL DEPOSIT AND THE FACTORS OF ITS FORMATION

Shafayziev Kh.Kh.*, Turdieva S.A.*
**Institute of Geology and Geophysics named after Kh.M. Abdullaev, shoshh@list.ru*

Abstract. Currently, the republic's demand for brown coal energy fuel stands at 100%, of which only 30-35% has been supplied. The remaining 70-65% of the energy fuel needs are fulfilled through the purchase of coal on a contractual basis from neighboring countries, specifically Kazakhstan and Kyrgyzstan. This reliance on external sources is due to coal being a primary fuel for power plants (GRES) and thermal power plants (TPP). To address these challenges, the geological exploration of brown coal deposits, which have not been comprehensively studied as potential reserves, involves a thorough reevaluation of exploration efforts and economic assessments. The goal is to ascertain their conformity with industry requirements and standards, thereby mitigating the current energy supply issues.

Таким образом, совокупность данных указывает на то, что наиболее перспективными с точки зрения локализации золоторудной минерализации являются участки, представленные кварцево-сульфидными жилами и метасоматитами, характеризующиеся аномально высокими концентрациями арсена при наличии золота и серебра. Эти участки могут рассматриваться как ключевые объекты для дальнейшего детального минералого-геохимического и бурового опробования с целью выявления скрытых рудных тел и уточнения промышленного потенциала Зармитанского рудного поля.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Арипов Х.Н., Халиков Ш.Ш. Геология и золоторудная минерализация Зармитанского рудного узла. – Ташкент: Фан, 2010.

2. Карпов Г.Н., Шаталов В.И. Метасоматизм и рудообразование. – М.: Недра, 1988.

3. Усманов Н.К., Хожиматов Б.А. Современные методы минералого-геохимических исследований в поисках скрытых месторождений. – Ташкент: Университет, 2015.

4. Материалы полевого дешифрирования и наблюдений по Зармитанскому рудному полю (2025).

БЕШКЕНТ БОТИҚЛИГИДАГИ ЮРА ДАВРИДАГИ СУВ БОСИМЛИ МАЖМУАСИДА ҚАТЛАМ СУВЛАРИНИ ГИДРОКИМЁВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Самадова М.Х.*, Саотов М.Х.*, Бобохўжаев О.Т.*, Хушваков Б.Б.*
**«Яккабоғ геофизика экспедицияси» филиали, Яккабоғ, E-mail: madinasamadova23@gmail.com*

Аннотация. Ушбу тезисда Бешкент ботиқлигида жойлашган нефт-газга истиқболли майдонларнинг юра давридаги сув босимли мажмуасининг минерализацияланиш тавсифи, зоналарга ажратилиши, гидрокимёвий хусусиятлари, метаморфизмга учраши ва сульфатланиши ҳамда юқори концентрацияга эга бўлган сувлар кўп ҳолларда нефт-газ конларига мос келиши ёритилган.

Аннотация. В данном тезисе дана характеристика минерализации юрского водонапорного комплекса, перспективных на нефть и газ площадей, расположенных в Бешкентской впадине, его зональное разделение, гидрохимические особенности, процессы метаморфизации и сульфатизации, а также то, что воды с высокой минерализацией во многих случаях совпадают с нефтегазовыми месторождениями.

Annotation. This thesis examines the mineralization characteristics of the Jurassic aquifer system within the prospective oil and gas fields of the Beshkent depression. It discusses the zonal differentiation, hydrochemical features, processes of metamorphism and sulphatization, and emphasizes that waters with high mineral concentrations are often associated with oil and gas reservoirs.

Ҳозирги глобал иқтисодий ва энергетик тараққиёт шароитида нефт ва газ заҳираларини барқарор ошириш масаласи стратегик аҳамият касб этмоқда. Заҳираларни ўсишини таъминлашнинг асосий йўналишлари сифатида геология-қидирув ишлари самарадорлигини ошириш, хусусан, илмий тадқиқотлар натижаларини амалиётга кенг татбиқ этиш ва углеводород хомашёси қидируви ҳажмини кенгайтиришлар қайд этилади. Саноатнинг турли жабҳаларида табиий газ ва нефтга бўлган эҳтиёжнинг изчил ўсиши углеводород ресурс базасини мустаҳкамлаш заруратини келтириб чиқаради. Шу боисдан, мавжуд геологик маълумотлар таҳлилига асосланган ҳолда, айниқса гидрогеологик тадқиқотлар ёрдамида нефт ва газга истиқболли янги ҳудудларни аниқлаш нефт ва газ геологияси фани ва амалиётининг устувор вазифаларидан бири сифатида намоён бўлмоқда.

Бешкент ботиқлиги Ўзбекистоннинг жанубий қисмида жойлашган бўлиб, республикадаги йирик нефт-газга истиқболли ҳудудлардан бири бўлиб ҳисобланади. Бу ерда юра тизими қатламлари кенг тарқалган бўлиб, уларнинг сувга тўйинганлиги асосан қумтош, алевролит, оҳактош ва ангидритли қатламлар билан боғлиқ. Ер ости сувларининг гидрокимёвий хусусиятлари нафақат гидрогеологик шароитларни, балки нефт-газга маҳсулдорлик истиқболларини ҳам баҳолашда муҳим аҳамият касб этади.

Юра давридаги сув босимли мажмуаси шимоли-ғарб йўналиши бўйлаб минерализация даражаси ва метаморфик коэффициенти (rNa/rCl) қийматлари асосида бир неча гидрокимёвий зоналарга ажратилади. Тадқиқотлар натижаларига кўра, ушбу мажмуа қуйидаги асосий зоналардан иборат: минерализацияси 50 г/л дан кам бўлган ва метаморфик коэффициенти 1,0-6,5 ни ташкил этувчи зона; минерализацияси 50-100 г/л ва коэффициенти 0,64-0,85 оралиғидаги зона; минерализацияси 100-150 г/л ва коэффициенти 0,53-0,83 бўлган зона ҳамда минерализацияси 150-200 г/л ва коэффициенти 0,57-0,85 ни ташкил этувчи зона.

Бироқ ушбу гидрокимёвий зоналар тузилиш жиҳатидан бир хил эмас. Юра қатлам сувларида минерализация ва метаморфизмнинг умумий ўсиш тенденцияси кузатилишига қарамасдан, айрим локал тузилмаларда юқори минераллашган аномал майдонлар қайд этилган. Жумладан, Қулбешкак ва Қандим кўтарилмалари ҳамда Бешкент ботиқлиги ҳудудларида минерализация даражаси 270-330 г/л га етса, Эшонқудуқ майдонида (1-қудуқ) ушбу кўрсаткич 407 г/л ни ташкил этади. Ушбу аномал кўрсаткичлар чуқур қатламлардаги тузли рапалар таъсирида шаклланган ўта минераллашган сувларнинг мавжудлиги билан изоҳланади.

Бешкент ботиқлигининг сувга тўйинган қатламлари қуйи-ўрта юра терриген формацияси қумтош ва алевролитларида, шунингдек юқори юра карбонат ва туз-ангидрит тузилмаларида шаклланган. Қуйи-ўрта юра қатламларида асосан юқори минераллашган хлорид-кальцийли сувлар кенг тарқалган бўлиб, улар турли даражада метаморфизацияга учраган.

Минераллашуви 50 г/л дан паст бўлган сувлар фақат Оқназар конларида (46,8 г/л) қайд этилган. Булар хлорид-кальцийли турдаги сувлар бўлиб, метаморфизация коэффициенти +0,81 ни ташкил этади.

Минераллашуви 50-100 г/л бўлган гидрокимёвий зона Жилин, Манғит ва Қамаши майдонларида тарқалган. Бу сувлар хлорид-кальцийли турга мансуб бўлиб, метаморфизация коэффициенти 0,75-0,82 орасида ўзгаради.

Асосий майдонларда минераллашуви 100-150 г/л, 150-200 г/л ва ундан юқори бўлган қатлам сувлари учрайди. Масалан, Алачаван (104,7 г/л), Бозбичкон (113,6 г/л), Иймон (121,8 г/л), Шимолий Оқназар (121,2 г/л) майдонларида минераллашган сувлар аниқланган. Шимолий Ғузор, Шакарбулоқ, Шимолий Нишон ва Илим конларида эса 162,2-246,0 г/л минераллашувга эга сувлар қайд этилган.

Айрим майдонларда 250 г/л дан ортиқ минераллашувга эга сувлар ҳам учрайди. Жумладан, Шўртан (284,0 г/л), Нишон (330,3 г/л) ва Изганча (333,5 г/л) майдонларида кучли тузли сувлар тарқалган. Бу сувларнинг юқори минераллашуви кўп ҳолларда кўмилган туз қатламлари таъсири билан изоҳланади.

Нефт-газ маҳсулдорлигининг билвосита кўрсаткичи сифатида ер ости сувларининг сульфатланиш даражаси катта аҳамиятга эга. Бешкент ботиқлигининг қуйи-ўрта юра қатламларида сувларнинг сульфатланиш даражаси (rSO_4/rCl) 0,021 дан 0,0005 гача бўлиб, жуда паст кўрсаткичга эга. Бу ҳолат турғун гидрогеологик режим мавжудлигини ва углеводородлар тўпланиши учун қулай шарт-шароит яратилишини кўрсатади.

Юра сувларида йод (46,6-57,7 мг/л), бром (38,7-835,0 мг/л), аммоний (200-300 мг/л) моддаларининг юқори миқдори ҳам кузатилади. Йод-бром кўрсаткичларини нефт-газ маҳсулдорлик харитаси билан таққослаганда, юқори концентрацияга эга бўлган сувлар кўп ҳолларда нефт-газ конларига мос келиши қайд этилган.

БХНГҲ конлари ва майдонларининг Юра давридаги сув босимли мажмуасида микроэлементларнинг тарқалиши

Микроэлементлар буйича (мг/л)

Жадвал 1

Майдон	J (мг/л)	Br (мг/л)	B_2O_3 (мг/л)
Довтепа	61,0	383,6	-
Қулбешкак, Ҳаққул	27,5-15,35	591,5-1292,9	337,0-1003,9
Ш. Сузма	35,7	436	619,2
Ж. Зекри	116	1265	2440
Ш. Ўртабулоқ	55,6	329	1989

Ж. Кемачи	20,6	1207	1014
Хаузак	41,4	372	534,4
Зеварди	77,6	1571	898
Алан	17,4	1229,9	224,8
Пирназар	70,35	373,9	473
Шўртан	54	357,8	1337
Ш. Денгизкўл, Умид, Чандир, Жарчи, Манғит, Нишон, Илим, Янги Қоратепа	22,7-91,9	244,8-1650,0	270,0-1436,0

Камёб элементлар бўйича (мг/л)

Жадвал 2

Майдон	
Ш. Сузма	Li=50; Rb=4,5; Cs=1,5; Sr=1500
Ш. Қулбешкак	Rb=2,6; Ge=4
Ҳаққул	Li=43,0; Sr=1500; Ge=1
Қумли	Rb=2,9; Au=0,016; W=7
Денгизкўл	Rb=42
Ш. Ўртабулоқ	Li=25,5; Rb=2,15; Au=0,01
Ж. Ўртабулоқ	Li=15; Rb=1,5; Co=11
Алан	Rb=13; Au=0,027; Ga=0,5; Mn=100
Ш. Култак	Rb=3,3; Mn=47
Ш. Оқназар	Au=1,3
Ш. Ғузор	Li=5,9; Rb=3,3; Au=0,008; Cs=1,3
Ҳамал	Rb=6,2; W=5,5; Mo=3

Юқори юра қатламларида ҳам асосан минераллашуви 100-200 г/л ва ундан юқори бўлган хлорид-кальцийли сувлар кенг тарқалган. Улар турли даражада метаморфизимга учраган бўлиб, айрим майдонларда 250-400 г/л минераллашувга эга аномалиялар қайд этилган. Масалан, Илим (270,1 г/л), Чунагар-2 (251,9 г/л), Гирсан-6 (265,2 г/л), Нишан-1 (330,3 г/л) ва Эшонқудуқ-1 (407,2 г/л).

Бу сувларда сульфатланиш даражаси ҳам паст бўлиб, (0,01-0,0005) орасида ўзгаради. Бу ҳолат углеводород захиралари шаклланиши ва сақланиши учун қулай гидрокимёвий шароит мавжудлигини кўрсатади. Фақат Таваккал майдонида сульфатланиш юқори ($rSO_4/rCl = 0,255$) бўлиб, бу ҳолат карбонатли қатламлардаги ангидрит қўшилмалари билан боғлиқ.

Бешкент ботиқлигининг юра сув манбалари мажмуаси ер ости сувлари асосан юқори минераллашган ва турли даражада метаморфизацияга учраган хлорид-кальцийли турдаги сувлардан иборат. Улар кўп ҳолларда илгариги гидрогеологик босқичлардан мерос қолган бўлиб, турғун сув айланиши зонасида шаклланган.

Фақат ботиқликнинг четки қисмида, Ҳисор тоғ тизмасининг жануби–ғарбий этаклари билан туташган ҳудудларда, замонавий ва қадимги инфильтрацион сувлар таъсири сезилади. Умуман олганда, Бешкент ботиқлиги юра қатлам сувлари нефт-газ ҳосил бўлиши ва тўпланиши учун қулай гидрокимёвий шароит яратади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ахмедов Б.Ж., Абдуллаев А.Ю. *Гидрогеология Ўзбекистана*. – Тошкент: Фан, 1990.
2. Жураев, Ш. Ю. *Геология и минеральные ресурсы Узбекистана* / Ш. Ю. Жураев. – Ташкент: Университет, 2005.
3. Каримов, Х. Т. *Гидрогеологические условия Бешкентского прогиба* / Х. Т. Каримов. – Ташкент: Фан, 2010.
4. Шоймуратов, Т. Х. *Гидрохимическая зональность подземных вод юрских и меловых отложений Бухаро-Хивинского региона и оценка перспектив их нефтегазоносности* // Узбекский журнал нефти и газа. – 2014. – № 3. – С. 27–34.

ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА КОСМОГЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР ЎТКАЗИШ ТАЖРИБАСИ (ҒАРБИЙ ЎЗБЕКИСТОН)

Тогаев И.С.*

**Ўзбекистон Миллий университети, Togaev_is @ mail.ru*

Аннотация. Замонавий технологияларни қўллаб, космик суратга олиш материалларидан фойдаланган ҳолда Ерни масофадан зондлаш асосида ўрганилаётган ҳудудда турли олинадиган структуравий-дешифровка комплексларини ажратишдан иборат. Матнда структуравий-дешифровка қилинадиган комплекслар асосида геологик тузилмаларни аниқлаш учун масофадан зондлаш материалларидан фойдаланиш бўйича ортирилган тажрибалар ва қисман тадқиқот натижалари келтирилган. Бунда турли сунъий йўлдош тизимларидан олинган Ер юзасининг замонавий рақамли космик суратларидан фойдаланилган. Рақамли космик суратлар кўринишидаги Ерни масофадан зондлаш (ЕМЗ) материаллари узоқ вақтдан бери минтақавий геологик-тасвирлаш, структуравий-геологик тадқиқотлар, фойдали қазилмаларни қидиришда фундаментал ва амалий геологиянинг бошқа кўплаб йўналишларида кенг қўлланиб келинмоқда.

Кириш. Ерни масофадан зондлаш (ЕМЗ) материаллари узоқ вақтдан буён минтақавий геологик-тасвирлаш, структуравий-геологик тадқиқотлар, фойдали қазилмаларни қидириш ҳамда фундаментал ва амалий геологиянинг бошқа кўплаб йўналишларида кенг қўлланиб келинмоқда. Улар асосида ЕМЗ материалларини геологик талқин қилишнинг қатор тажриба усуллари ишлаб чиқилган.

Фан техника тараққиётиниг ривожланиши натижаси уларок, космик тадқиқотлар аллақачон геология фани ва техникасининг ривожланиш суръатларини тезлаштиришга сезиларли таъсир кўрсатмоқда ва катта иқтисодий самара келтирмоқда.

Геологиянинг бугунги кундаги замонавий қиёфаси ва геология-қидирув ишлаб чиқаришида истиқболли майдонларни баҳолаш мезони сифатида хизмат қиладиган янги маълумотларни олишга ва маблағларнинг минимал сарфи билан маъданлиликни маҳаллий башорат қилишга имкон берадиган янги технологиялар ва ишланмаларсиз тасаввур этиб бўлмайди [1].

Шундай йўналишлардан бири геологиянинг амалий ва илмий-мавзули масалаларини ечишда Ерни масофадан зондлаш (ЕМЗ) маълумотларидан фойдаланишни тақоза этади. ЕМЗ материаллари эса эндоген ва экзоген жараёнлар ҳамда нисбатан чуқурда ёки ёпиқ тузилмалар таъсирида ҳосил бўлган тузилмавий шаклларнинг белгиларини геологик-геофизик ва геокимёвий маълумотлар билан биргаликда хариталаш имконини берадиган объектив ахборотни ўз ичига олади.

Геологик объектларни тасвирларда дешифровка қилиш усули - бу объект ёки ҳодисани муайян мезонлар асосида аниқлаш, таниб олиш ва талқин этишдир.

Бугунги кунда тоғ ва тоғолди ҳудудларининг геологик хусусиятларини ўрганиш учун масофадан зондлаш материаллари қўллаш усуллари ишлаб чиқилган ва геология-

қидирув ишлаб чиқаришларига муваффақиятли татбиқ этилган. Турли тоғ-кон минтақаларида олиб борилган космогеологик тадқиқотлар натижасида катта тажриба тўпланган, амалий геология масалаларини ҳал этиш учун энг мақбул бўлган суратга олиш вақти, спектр оралиғи ва миқёс қатори каби тажриба йўли билан аниқланган.

Рақамли тасвирларнинг пайдо бўлиши билан масофадан зондлаш материаллари асосида бажариладиган ишлар бутунлай янгича тус олди ва геологик тадқиқотларнинг минтақавий ҳамда маҳаллий даражаларида кенг қўлланила бошланди. Табиий равишда, бу билан бир қаторда, масофадан зондлаш материалларини қўллаш имкониятлари ҳам анча кенгайди ва геологик дешифрлаш услубияти сезиларли даражада такомиллашди.

Бироқ, қидирув-баҳолаш ишлари йўналишининг қопланган белгилар бушоқ ётқизиқлар (чўкинди қатлами) билан қопланган ҳудудларга ўзгариши, бутунлай бошқача мезонларни талаб этмоқда. Замонавий дастурий воситалар ёрдамида ёпиқ ҳудудларни ўрганиш ва чуқурликдаги истиқболли “яширин” геологик тузилмаларни аниқлаш учун масофадан зондлаш материалларини геологик-геофизик ва геокимёвий маълумотлар билан биргаликда таҳлил қилиш зарур бўлмоқда. Бу замонавий геологиянинг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Ҳудудни хариталаш давомида масафавий хариталар яратилади. Масофавий асосга эга космогеологик хаританинг афзаллиги шундаки, у ҳудуд геологиясини янги нуқтаи назардан тушунтириб беради ва бошқа усуллар билан аниқлаб бўлмайдиган элементларни юзага чиқаришга кўмаклашади. Масофадан зондлаш материалларида ажратиладиган асосий геологик бирликлар чизиқли ва ҳалқасимон тузилмалар ҳамда структуравий-дешифровка қилинадиган комплекслар (СДК) ҳисобланади. Булар ўрганилаётган ҳудуднинг эндоген тузилиши асосини ташкил этиб, янги авлод геологик, космогеологик ва бошқа хариталарни тузишда таянч вазифасини бажаради [2-5].

Ҳозирги кунда турли сунъий йўлдошлардан олинган рақамли космик тасвир материаллари ҳамда уларни таҳлиллаш услуби янги турдаги космогеологик хариталар - масофавий асосларни яратилишига олиб келди.

Юқори аниқликдаги ва турли миқёсдаги масофадан зондлаш материалларини қўллаш геологик маълумотларнинг ишончлилигини оширишни таъминлаши ҳамда амалий геологик масалаларни ечишга кўмаклашиши лозим. Ғарбий Ўзбекистон ҳудудида космоструктуравий хусусиятларини тавсифлаш учун ENVI 4.7, ERDAS 9.2 ва ArcGIS 9.2 каби дастурий маҳсулотлар ёрдамида Landsat ва Aster космик тасвирларидан фойдаланилган.

Геология илм-фан ривожланишида ва соҳа сифатида амалий масалаларни ечиш учун турли хил таҳлил ва моделлаштириш усулларига эҳтиёж сезади. Ўтган асрнинг 70-йилларидаёқ фазовий геологик маълумотларни қайта ишлаш ва тақдим этишнинг яхлит технологиялари асослари белгиланган бўлиб, улар замонавий GAT дастурий таъминотининг яратилиши билан ўз аксини топди.

Геология Ер ҳақидаги фан сифатида ГАТнинг барча афзалликларидан фаол фойдаланади ва ГАТ технологияларининг ривожланишига ҳисса қўшади. ГАТ ривожланиши XX асрнинг 60-70 йилларида бошланган бўлса-да, улар фақат сўнгги ўн йилликда кенг тараққий этди. Бу биринчи навбатда замонавий дастурий воситаларни такомиллашуви билан боғлиқ.

Минерал хомашё ресурсларини башорат қилиш, қидириш ва разведка қилишнинг самарали усуллари, ерни масофадан зондлаш маълумотлари ва компьютер технологияларидан фойдаланиш геология-қидирув ишлари амалиётига мустаҳкам ўрнашиб бормоқда ва уларнинг таркибида ГАТ технологияларини қўллаш босқичига ўтмоқда. (А.К.Глух, А.Р.Авезов ва бошқ., 2009).

Ерни масофадан зондлаш (инглизча “remote sensing” атамаси) кенг маънода Ер ёки бошқа сайёралар юзасини сезиларли масофадан ўрганишни англатади. Бу жараён олинган тасвирлар ёрдамида амалга оширилади ва ўрганилаётган объектларни тадқиқ қилиш ҳамда мавзули хариталаш мақсадида қўлланилади. Масофадан зондлашнинг турли жиҳатлари

орасида, айниқса геологик тадқиқотларда, Ерни аэро ва космик суратга олиш алоҳида аҳамият касб этмоқда.

Геологияда масофавий усуллар литосферанинг тузилиши ва ривожланиши қонуниятларини турли масофавий воситалардан туриб визуал ёки турли ускуналар ёрдамида Ернинг ҳажмий майдонини дешифрлаш орқали ўрганиш технологиялари ва усуллари мажмуасидан иборат.

Ҳозирги вақтда масофадан зондлаш маълумотларини таҳлил қилишда (ГАТ) усулларини қўллаш, геологик маълумотлар (хариталар, тасвирлар, схемалар, матнлар, жадваллар ва бошқалар) билан самарали ишлаш имконини беради [4-6].

Ғарбий Ўзбекистон ҳудудида космогеологик тадқиқотлар тажрибаси космогеологик хариталарнинг масофавий асосини яратиш ва структуарвий-дешифровка мажмуалари бўйича ҳудуднинг геологиясини янги нуқтаи назардан тушунтиради, бошқа усуллар билан аниқланмайдиган элементларни аниқлашга ёрдам беради.

Масофадан зондлаш материалларида ажратиладиган асосий геологик бирликлар чизиқли ва ҳалқасимон структуралар, структуравий-дешифровка қилинадиган комплекслар (СДК) ҳисобланади. Булар ўрганилаётган ҳудуд тузилишининг эндоген ҳолатини акс эттириб, янги авлод геологик, космогеологик ва бошқа хариталарни тузишда асос бўлиб хизмат қилади.

Айнан структуравий-дешифровка қилинадиган комплекслар (СДК) - масофадан зондлаш материаллари асосида дешифровка қилинадиган геологик табиатли объектларнинг сифат хусусиятлари бўлиб, улар фототон характери, тасвир кўриниши ва спектрал ёркинлик даражаси орқали геологик структураларни аниқлашга ёрдам беради.

Космогеологик хаританинг масофавий асосини яратиш бир нечта асосий усулларни ўз ичига олади, жумладан: битта тасвирдаги объектларни таққослаш ва солиштириш ҳамда уларни мантиқий талқин қилиш. Бундай ҳолатда майдон ёки чизиқли геологик тузилмалар - комплекслар ва уларнинг чегараларини аниқлаш (структуравий жиҳатдан дешифровка қилинадиган комплекслар) ҳамда структуравий-тектоник элементларни ажратиш (узилма бузилишлар, тектоник блоклар, эзилиш зоналари, ёриқлар, ҳалқасимон ва бурма тузилмалар кабилар) имконини беради.

ГАТ технологияларини қўллаган ҳолда Ерни масофадан зондлаш материалларининг ролини баҳолашда шуни таъкидлаш керакки, бу усул, айниқса геофизик, геокимёвий усуллар билан биргаликда, минтақавий геологик ишларда геологлар олдида турган барча асосий вазифаларни ечишда қўлланилади. Дешифровка қилинган космик суратлар ҳамда дала ишларидан олинган барча натижалар - ёриқлар, структуравий дешифровка комплекслари ва уларнинг чегаралари геология-қидирув ишларини режалаштиришни ўтказиш учун асосий хариталардан бири ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Борисов О.М., Глух А.К. Кольцевые структуры и линеаменты Средней Азии.- Т.:1982.-123с.

2. Губин В. Н. Дистанционные методы в геологии: Учеб. пособие для студентов спец.−Мн.: БГУ, 2004.− 138 с.

3. Кашкин В.Б., Сухинин А.И. «Дистанционное зондирование земли из Космоса». Цифровая обработка изображений: Учебное пособие. - М.: Логос, 2001.

4. Нурходжаев А.К., Тогаев И.С., Шамсиев Р.З. Методическое руководство по составлению космогеологической карты Республики Узбекистан на основе цифровых космоснимков. - ГП «Центр ДЗЗ и ГИС-технологий». - Т.:ГП «ИМР», 2017.

5. Нурходжаев А.К. Опыт составления дистанционных основ для решения прогнозно-поисковых задач геологии. Вестник НУУз 3/1. 2018 С.377-379

6. Нурходжаев А.К., Тогаев И.С. К вопросу создания дистанционных основ по структурно-дешифровочным комплексам. // Мат-лы науч.-техн. конф. Институт геология и геофизика им.Х.М.Абдуллаева АНРУз. Ташкент-2017.

МАРМАР ТАБИЙ ТОШИНИ ХОСИЛ БЎЛИШИ ВА ҚУРИЛИШ ХОМАШЁСИ СИФАТИДА ИШЛАТИЛИШИ

Турдиев Т.А.*, Озодбеков А.У.*, Исраилов В.М.*Жамалова Г.Н.*
**Х.М. Абдуллаев номидаги Геолгия ва геофизика институти*
turdiyevtoychi033@gmail.com

Аннотация. Мармар — ҳарорат ва босим ўзгариши таъсирида охактош ҳамда доломитдан ҳосил бўлган табиий тош ҳисобланади. Мармардан фойдаланиш тарихи қадим даврларга бориб тақалади. Инсоният бундан аввал ҳеч қачон ўзида бундай ажойиб хусусиятларни мужассам этган материални билмаган: табиий гўзаллик, ишлов беришнинг осонлиги, мустаҳкамлик ва узоқ муддатлилик. Мармар — чиройли ва мустаҳкам тош бўлиб, катта оғирликни кўтара олади. Бундай материал инсониятга қадим замонлардан бери маълум. Қадимги Юнон ва Римда унинг гўзаллиги ва табиий ёлтиқлаши учун қадрлашган ҳамда қурилиш ва меъморликда фаол қўллашган. Бу тош жинсининг номи ҳам бежиз эмас: қадимги юнон тилида “мармарос” сўзи “ёлтирайдиган тош” маъносини англатади, шу сўздан ҳозирги “Мармар” атамаси келиб чиққан. Мармар — бу метаморфизм жараёнида кальцит ёки доломитдан ҳосил бўладиган тоғ жинсидир. Оддий охактош — яъни кальций карбонатидан (кальцит) ёки доломит (кальций ва магнийнинг CO_3 билан бирикмаси) дан иборат жинс юқори ҳарорат ва босим таъсирида ўзининг кристалл панжарасини ўзгартиради. Шу тарзда Мармар ҳосил бўлади.Табиатда Мармарнинг жуда кўп турлари мавжуд. Улар ранги, тузилиш хусусиятлари ва доначалар ўртасидаги боғланишга қараб таснифланади.

Рангига қараб Мармар шартли равишда соф оқ Мармар ва рангли Мармар деб иккига бўлинади. Ранги бошланғич материалдаги қўшимчалар (қорама-қўшлар)га боғлиқ. Масалан, Мармарни қизил (ёки зангга ўхшаш) рангга бўяш темир оксиди орқали юз беради, сариқ ранг лимонит ёки марганец карбонати мавжудлиги сабабли пайдо бўлади. Темир сульфати Мармарни кўк-қора рангга бўяйди. Графит ёки битум қўшимчалари эса Мармарни турли серафи, кўк ва қора ранглар соясида бўяйди.

Доначаларнинг ўлчамига қараб, Мармар:

- Майда доначали Мармар,
- Ўртача доначали,
- Йирик доначали турларга бўлинади.
- Ишлов беришда майда доначали мармар осонроқ бўлгани учун, у бошқаларга нисбатан кўпроқ қадрланади.

Мармар тош зиқиқ қатламларда учрайди, баъзи ҳолларда уларнинг қалинлиги юзлаб метрларга етади. Кальцитдан иборат Мармар Моос шкаласи бўйича 3 даражали қаттиқликка эга, шу сабабли осон кесилади ва ишлов берилади. Унинг нисбатан паст қаттиқлиги ва етилиши сабабли, Мармар ҳайвонлар учун емга кальций қўшимчаси сифатида ҳам ишлатилади.

Мармарнинг умумий физик хусусиятлари:

- Сиқилишда мустаҳкамлик – 1800 дан 2100 кг/см² гача
- Зичлик – 2,5–2,65 кг/см³
- Қаттиқлик (Моос шкаласи бўйича) – 3 дан 4 гача
- Сув сингдириши – 1%дан кўп эмас
- Гўралик (пористость) – 0,6% дан 3,5% гача
- Ёйилиш (истираемость) – 0,4 дан 3,2 г/см² гача

Мармарнинг кимёвий формуласи — $CaCO_3$ (кальций карбонати). Модда молекуласи таркибида углерод, кислород ва кальций атомлари мавжуд. Метаморфик тоғ жинси бўлган Мармар об-ҳаво таъсирига чидамли, лекин кислоталарга нисбатан сезувчан. Кислота Мармарни шикастлайди, чунки кальций карбонати кислоталар билан реакцияга киришиб,

углекислота ($CO_2 + H_2O$) ажратади. Шунинг учун уксус, лимон кислотаси ва шунга ўхшаш моддалар Мармарга тегиши қатъиян тавсия этилмайди.

Мармарнинг яна бир қадрли томони — осон сайқалланиши. Унинг пластиклиги (мослашувчанлиги) туфайли шлифовкадан сўнг ажойиб ялтироқ юза ҳосил бўлади, бу қурилиш ва интерьер безакларида катта аҳамиятга эга.

Мармар юқори ҳароратларга чидамли, шунинг учун камин, печка каби қурилмаларда қоплама сифатида ишлатилади. Шунингдек, Мармар совуқни ҳам яхши кўтаради, совуқда ёриқлар ҳосил бўлмайди.

Сўнгги вақтларда қуйма (сунъий) Мармар кенг тарқалмоқда. Бу экологик тоза материал бўлиб, Мармар чиқиндиси/кварц қуми ва полиэфир ёпиштирувчи қатрон асосида ясалади. Унинг хусусиятлари бироз фарқли:

- Зичлик: 1,8–2,2 кг/см³
- Ёйилиш: 0,45 г/см²
- Сув сингдириш: 0,15% – 0,7%

Мармарни очиқ усулда ва шахтали усулда қазиб олишади. Қазиб олиш технологияси тошнинг жойлашуви ва қимматлигига боғлиқ. Мармар ўртача қаттиқликка эга, шунинг учун уни қазишда асосий вазифа — тозалигини ва структурасини сақлаш.

Бу усулларда перфоратор орқали тешиклар очилади, кейин уларга ҳаво, сув ёки кенгаядиган қўшилмалар қўйилади, ва тешиклар бўйича тўш ёрилади. Бундай усуллар иқтисодий жиҳатдан фойдали, аммо маҳсул сифат жиҳатдан камнерез машиналарига қараганда пастроқ бўлади.

Сўнгги йилларда Мармар:

- Қурилишда
- Ҳайкалсозликда
- Интерьер безакларида кенг қўлланилади. Мармар плита ва тошлардан:
- Ошхоналар учун стол устлари
- Пол қопламалари
- Зинапоялар, подоконниклар ясалади. Мармар ҳар қандай интерьерга оригинал ва нозик гўзаллик бағишлайди. Унинг ранг ва нақшлар хилма-хиллиги уни ўзига хос қилади.

Мармар — буюк бойлик ва шоҳоналик рамзи. У бино фасадлари, хоналар интерьерлари ва амалий санъат учун ишлатилади.

Мармар — барча керакли хоссаларга эга бўлган ажойиб материал. У дизайнерлар, меъморлар ва ҳайкалтарошлар учун универсал восита. Мармар гранитга нисбатан камроқ ташқи деворларни қоплашда ишлатилади, бироқ ҳожатхона ва ванна хонасида кенг қўлланилади. Мармар ҳонани нозик гўзаллик ва шинамлик билан тўлдиради. Унинг табиий, эксклюзив нақшлари уни мислсиз қилади. Мармар гранитга қараганда илиғроқ, шунинг учун пол қопламалари учун анча қулай.

Гранит ва Мармар бутун дунё бўйлаб ишончли қоплама материаллари сифатида тан олинган. Мармар буюмлар хонага "тирик энергия" бағишлайди. У ҳар қандай интерьерга мослашади ва беқиёс гўзалликка эга. Мармар ёзиқда жуда чиройли кўринади ва яхши сайқалланади, шу боисдан асосий қоплама материалларидан бири ҳисобланади.

БАРИТ ХОМАШЁСИНИ ДОЛЗАБЛИГИ ВА УНИНГ ДУНЁ САНОАТИДА ИШЛАТИЛИШИ

Шафайзиев Хусан Х.* Шафайзиев Хасан Х.*
**Х.М. Абдуллаев номидаги Геология ва геофизика институти*

Аннотатция. Барит ($BaSO_4$) ер қаърида турли геологик жараёнлар таъсирида ҳосил бўладиган муҳим сульфат минерали бўлиб, у кўпинча гидротермал, чўкма ва метаморфик муҳитларда тўпланади. Барий ва сульфат ионларининг ечимда бириккан ҳолдаги тўйиниши натижасида минералнинг кристалланиши содир бўлади. Гидротермал конларда барит кварц, флюорит ва сульфид минераллари билан, чўкма муҳитларда эса гипс, ангидрит ва доломит қатламлари билан боғлиқ ҳолда учрайди. Ҳосил бўлиш қонуниятлари асосан ечимнинг кимёвий таркиби, температура, босим ва муҳитнинг pH даражаси билан белгиланади. Баритнинг кенг тарқалиши ва саноатдаги юқори аҳамияти уни геологияда стратегик аҳамиятга эга минераллар қаторига киритади.



Барит ($BaSO_4$) – табиий барий сульфати бўлиб, саноатда энг кўп ишлатиладиган минераллардан бири ҳисобланади. Уни нефть-газ қазиб чиқаришда, кимё, металлургия, фармацевтика ва бошқа соҳаларда қўллашади. Қуйида барит ҳақида тўлиқ маълумот, жаҳон тенденцияси ва долзарблиги келтирилган.

Баритнинг пайдо бўлиши ер қаридаги барий элементларининг (асосан барий ионлари – Ba^{2+}) сульфат ионлари (SO_4^{2-}) билан қўшилиши натижасида содир бўлади. Бу жараён одатда: **- гидротермал жараёнлар**да – магмадан ажралган сульфатли ечимлар барийга бой ечимлар билан реакцияга киришганда; **- чўкинди жараёнлари**да – чўкма ҳавзаларда сульфатларга бой сувлар таъсирида; **- метаморфик жараёнлар**да – илгари ҳосил бўлган баритли конлар қайта кристалланганда.

Барит ҳосил бўлишида асосий қонуният — барий ва сульфатнинг концентрацияси етарли даражада бўлиши ва ечимдаги температура, босим ҳамда pH даражаси мувозанатда туриши зарур.

Ишлатилиш соҳалари: Баритнинг энг асосий ишлатилиш йўналиши - бурғулаш аралашмаларини оғирлаштириш. Барий сульфати юқори зичликка эга бўлгани учун бурғулаш эритмаларини оғирлаштириб, бурғулаш қудуғи босимини барқарор сақлайди. Дунёда ишлатилаётган баритнинг 70–80% нефть-газ соҳаси ҳиссасига тўғри келади; Кимё ва металлургия соҳасида баритдан барий хлорид, барий карбонат ва бошқа кимёвий маҳсулотлар ишлаб чиқарилади. Оптик ойналар, махсус ойна маҳсулотлари тайёрлашда, металлургияда барий тузлари флюс сифатида ишлатилади; Фармацевтикада барий сульфати рентген диагностикасида “рентген контраст модда” сифатида ишлатилади; Қурилиш ва бошқа соҳаларда баритдан цементга қўшимча сифатида радиациядан ҳимоя қилиш, пластмасса, резина, қоғоз ишлаб чиқаришда пигмент сифатида фойдаланилади.

Баритнинг дунё бўйича йирик захиралари Хитой, Ҳиндистон, АҚШ, Марокаш, Туркия, Россия, Мексикада топилган. Хитой бфритнинг дунёдаги асосий ишлаб чиқарувчиси ҳисобланади (жами ҳажмнинг 35–40%). Марокаш ва Ҳиндистон — асосий экспортчи давлатлар қаторига киради. Жаҳон бўйича барит ишлаб чиқариш ҳажми йилига тахминан 9–10 млн тонна.

Энергетика ва нефтегаз саноатидаги ўсиш баритга талабни оширмоқда. Ҳозирги кунда газ ва нефть қазиб олишда барит талабининг кескин ўсиши кузатилмоқда. Экология ва иқтисодиёт сабабли қайта ишланган баритга қизиқиш ортиб бормоқда.

Хитойда экспорт чекловлари, логистика харажатларининг ўсиши сабабли сўнгги йилларда баритнинг нархи ошиб бормоқда. Барий асосидаги инновацион маҳсулотлар (барий титанат, барий сульфат наноматериаллари) юқори технология соҳаларида юқори талабга эга.

Баритнинг жаҳон бозоридаги нархи $100 – $300 / тонна (сифати ва йўналишига қараб). Юқори зичликли ва тозаланган барит маҳсулотлари — қимматроқ. 2030-йилга қадар баритга талаб 20–30% ўсиши башорат қилинмоқда. Нефть-газ тармоғидаги баритга бўлган барқарор талаб — асосий омил ҳисобланади. Қурилишда ва фармацевтикадаги ишлатилиши тобора ортиб бормоқда. Барий кимёси инновациялари — келажакдаги асосий тенденция (электроника, батареялар).

Жаҳон барит ишлаб чиқаришининг катта қисми атиги уч давлат ҳиссасига тўғри келади. Хитой — 4,1 млн т (43%), Ҳиндистон -2,0 млн т (21%), Марокаш-1,1 млн (12%). Таъминот манбаларининг юқори даражада жамланганлиги — экспорт чекловлари, логистикадаги узилишлар ёки сиёсий қарорлар орқали глобал бозорда қийинчиликлар келтириб чиқариши мумкин. Барит бурғулаш эритмаларининг 80% дан ортиғида асосий оғирлаштирувчи сифатида ишлатилади. Барий сульфати зичлиги (SG ≥ 4,2) босимни барқарор сақлаш ва қудуқ деворларини муҳофаза қилиш учун оптимал ҳисобланади. Ўрнини босувчи алтернатив минераллар (гематит, илменит) мавжуд, аммо қиммат ва техник жиҳатдан баритдек қулай эмас. API Spec 13A стандарти нефт-газ саноатида асосий оғирлаштирувчи сифатида фақат баритдан фойдаланишни белгилайди.

1 - жадвал. Барит хомашёсига бўлган иқтисодий талабнинг ўсиб бориши

1	Нефть-газ бурғулаш	81%,
2	Химия саноати	10%
3	Медицина	4%
4	Шиша, керамика ва лак-боёқ	5%

OECD ва USGS маълумотларига кўра, 2023–2035 йилларда талабнинг ўртача йиллик ўсиши 3–4% бўлиши кутилмоқда.

Барит ($BaSO_4$) юқори зичликка, кимёвий барқарорликка ва ноёб физик-кимёвий хусусиятларга эга бўлган стратегик аҳамиятли минерал ҳисобланади. Унинг асосий қўлланилиш йўналиши — нефть ва газ саноатида бурғулаш шламларини оғирлаштириш бўлиб, бу соҳада у энг муҳим материаллардан бири саналади. Шунингдек, барит кимё саноатида (барий бирикмалари ишлаб чиқариш), металлургияда, ядровий технологияларда ва махсус оптик асбоблар тайёрлашда қўлланилади.

Жаҳон миқёсида барит ишлаб чиқариш ва экспорти юқори даражада бир неча давлатларда жамланган. Хитой, Ҳиндистон ва Марокаш умумий бозорнинг 75–80 % ни таъминлайди. Бундай концентрация глобал таъминот барқарорлигига таъсир кўрсатиши мумкин, чунки геосиёсий вазиятлар, савдо сиёсатидаги ўзгаришлар ёки логистикадаги муаммолар барит етказиб бериш занжирини издан чиқариши эҳтимоли юқори.

Баритнинг критик минераллар рўйхатига киритилиши унинг иқтисодий ва стратегик аҳамиятини тасдиқлайди. Шу сабабли, миллий даражада барит захираларини илмий асосда ўрганиш, қайта ишлаш технологияларини такомиллаштириш ва таъминот манбаларини диверсификация қилиш орқали барқарор таъминлаш устувор вазифа бўлиб ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. US Geological Survey (USGS)**.** *Mineral Commodity Summaries: Barite*. – Reston, Virginia: US Department of the Interior, 2024.
2. British Geological Survey (BGS). *World Mineral Production 2018–2022*. – Keyworth, Nottingham: BGS Publications, 2023.
3. European Commission. *Study on the Critical Raw Materials for the EU*. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2023.

4. Gupta, C.K., & Krishnamurthy, N. *Extractive Metallurgy of Rare Earths*. – CRC Press, 2005.
5. Губин, А. И., Шмат, В. Н. *Барит и его промышленное использование*. – Москва: Недра, 1987.
6. Shedd, K.B. *Barite Statistics and Information*. – US Geological Survey, Mineral Resources Program, 2024.
7. Roskill. *Barite: Global Industry, Markets & Outlook to 2031*. – London: Roskill Information Services Ltd., 2022.
8. International Energy Agency (IEA). *The Role of Critical Minerals in Clean Energy Transitions*. – Paris: IEA Publications, 2023.
9. Ministry of Energy and Industry of Uzbekistan. *Report on Nonmetallic Mineral Resources of Uzbekistan*, 2022.
10. Хамидов, Ш.Қ. *Ўзбекистон минерал-хомашё базаси ва унинг иқтисодий аҳамияти*. – Тошкент: Фан, 2021.

ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ ПАЛЕОТЕКТОДИНАМИЧЕСКОЙ ЭВОЛЮЦИИ ЗЕМНОЙ КОРЫ ЗАПАДНОЙ ЧАСТИ ТЯНЬ-ШАНЯ В MZ-KZ

Умурзаков Р.А.*
**Ташкентский государственный технический университет им.И.Каримова*

Аннотация. Приводятся результаты реализации разработанной автором методики палеотектодинамического анализа. На основе ритмохронологического анализа погрубения и утонения литологического состава пород в разрезах скважин в MZ-KZ истории установлено три ритма первого ранга, включающие три «активных» и две «пассивных» фаз изменения деформационных режимов западной части Тянь-Шаня. Для выделенных интервалов выполнена реконструкция палеотектонических напряжений. К началу новейшего этапа произошел переход от сбросового поля напряжений к взбросовому и взбросо-сдвиговому типам напряжённого состояния, которые находят отражение в механизмах очагов землетрясений.

Annotatsiya. Maqolada ishlab chiqilgan paleotektodinamik tahlil metodikasini amalga oshirish natijalari keltirilgan. MZ-KZ tarixda quduqlarning kesimlarida tog‘ jinslarning litologik tarkibini dag‘allashishi va maydazarraligini o‘zgarishining ritmoxronologik tahlil qilish asosida Tyan-Shanning g‘arbiy qismidagi deformatsiyon rejimlarining uchta «faol» va ikkita «passiv» fazasidan tarkib topgan uchta birinchi darajali ritm aniqlangan. Ajratilgan geologic intervallar uchun paleotektonik kuchlanishlarining oqlari rekonstruksiya qilindi. Neotektonik bosqichning boshlanishi bilan kuchlanish maydoni cho‘zilish turidan ko‘tarilma va ko‘tarilma siljish turiga o‘zgargan va ular zilzila o‘choqlari mexanizmlarida o‘z aksini topmoqda.

Abstract. The results of implementation of the paleotectodynamic analysis method developed by the author are presented. Based on the rhythmochronological analysis of rock roughening and thinning in the well sections in MZ-KZ history, three rhythms of the first rank were established, including three "active" and two "passive" phases of change in the deformation modes of the western part of the Tien Shan. Paleotectonic stresses were reconstructed for the selected intervals. By the beginning of the newest stage, there was a transition from the fault stress field to the upsetting and upsetting-shear types of the stressed state, which are reflected in the mechanisms of earthquake foci.

Общеизвестно, что «структурный фактор» имеет одно из основных значений при формировании и распределении месторождений полезных ископаемых. Этот фактор исследуется и в рудной геологии, и в нефтегазовой геологии, и в сейсмологии (сейсмотектонике). До недавнего прошлого «структура» (в том числе и её кинематика, и особенности развития в геологическое время) - являлась основным объектом изучения

геотектоники. В настоящее время, с развитием и внедрением в геологию тектонофизических методов исследований стала очевидной необходимость внедрения новой методологии, пересмотр и определение объектов геологических исследований, с акцентом на комплексное изучение «физических» особенностей геологических процессов не только «статики» и «кинематики», но и «динамики». Можно считать, что именно поэтому «геотектоника» объединилась с «геодинамикой». Однако, нельзя игнорировать тот факт, что в недрах «тектонофизической геодинамики» во второй половине прошлого столетия в «недрах» МГУ появились «ростки» нового направления – «тектодинамики», автором которого является П.Н.Николаев. Это направление объединило все новые методологические разработки того времени: и системный подход, и результаты экспериментального и теоретического моделирования в геотектонике, и тектонофизические разработки касательно кинематики и динамики геологических процессов. Была предложена системная модель тектоносферы, где основным элементом является «тектодинамическая система» (Николаев, 1992), в которой главное значение имеет «поле тектонических напряжений» (рис.1).

Тектодинамическая система (ТДС) представляет собой генетическую системную модель взаимодействия тектонических напряжений, деформаций и движений, протекающих в объеме горных пород, характеризующемся эмерджентными (целостными) свойствами (Николаев, 1982, 1992). Именно изменение поля тектонических напряжений является критерием выделения тектодинамической системы. К настоящему времени изучены особенности новейших тектодинамических систем трёх рангов западной части Тянь-Шаня. Результаты были опубликованы в печати. В данной работе кратко рассмотрим методику и результаты выделения различных этапов действия палеотектодинамических систем в мезозойско-кайнозойской истории региона (рис. 1).




Рис.1. Обзорная карта-схема территории западной части Тянь-Шаня с элементами геологии

Стратиграфические комплексы: 1 – палеозоя, 2 – мезозоя, 3- кайнозоя. Пункты полевых наблюдений в разновозрастных обнажениях горных пород: 4 – четвертичных, 5- неогеновых, 6-палеогеновых, 7-меловых, 8-юрских, 9 – палеозойских; 10- разрывные нарушения, нашедшие отражения в геологических картах.

Для выявления палеотектодинамических систем нами разработана **методика рангового палеотектодинамического анализа**, позволяющая установить рубежи перестроек деформационных режимов и реконструкцию палеотектонических напряжений в геологической истории. Методика включает следующие этапы: 1. Оценка масштабных параметров тектодинамических систем и определение действующего их числа; 2. Ритмохронологический анализ по скважинным данным погрубения и утонения литологического состава пород в разрезе мезозоя и кайнозоя (или другому изучаемому интервалу) (рис. 2); 3. Анализ ритмограмм, выделение различных составляющих спектра колебаний (разных рангов) (для западной части Тянь-Шаня установлено проявление трёх

рангов ТДС); 4. Определение временных интервалов действия разноранговых составляющих; 5. Построение ранговых карт тектонической деформаций для установленных интервалов; 6. Полевые статистические замеры трещин в обнажениях разновозрастных пород в пределах исследуемого региона; 7. Статистическая обработка трещин с использованием прямоугольной матрицы по методике П.Н.Николаева: по всем пунктам наблюдений с определением максимумов плотности; по сводным данным максимумов для каждого возрастного интервала; 8. Поэтапное освобождение наложенной трещиноватости, определение ассиметричного разброса для каждого возрастного интервала; 9. Графическое определение на сетке Вульфа ориентировок осей напряжений для каждой возрастной группы.




Рис. 2. Проявление деформационных режимов разных рангов западной части Тянь-Шаня в MZ-KZ

1 – известняк, 2 – глина, 3 – мергель, 4 – алевролит, 5 – глинистый песчаник (с преобладанием глин), 6 – песчаник глинистый (с преобладанием песчаника), 7 – песчаник, 8 – конгломерат, 9 – конгло-брекчия, 10 – соляно-ангидритовая толща. 11 - перерывы в осадконакоплении; 12 – в графиках: направление изменения литологии пород: влево –утонение, вправо – погрубение; 13-15 – ритмограммы: 13- I ранга: а- «активная» фаза; б –«пассивная» фаза , 14- II ранга, 15 – III ранга;16-18 – границы начала ритмов (фазы воздымания): 16 –I ранга: а – установленные, б- предполагаемые; 17 – II ранга: в – установленные, г - предполагаемые; 18 – III ранга: д – установленные, е – предполагаемые.

На первом этапе на основе изучения особенностей распределения разрывных нарушений и очагов землетрясений были установлены масштабные параметры действующих ТДС. Здесь мы не будем останавливаться на этих результатах. Сразу перейдём ко второму этапу. На рисунке 2 представлена диаграмма ритмохронологического анализа и выделения интервалов разноранговых ритмов, длительность которых связывается с действием ТДС разных рангов. Для каждой скважины были построены ритмограммы, методом декомпозиции выделены три разных спектральных составляющих, соответствующих разным интервалам длительности геологического времени.

Как видно в MZ-KZ истории выделено три ритма первого ранга, 11 ритмов второго ранга, 17 ритмов третьего ранга. Каждый ритм состоит из фазы «активной» (воздымания) и «пассивной» (опускания). Коричневым цветом отмечены «активные» фазы (воздымания),

зелёным цветом отмечены «пассивные» фазы (опусканий). В последующем для этих временных интервалов строятся ранговые карты деформаций. Построение их требует отдельного времени. Поэтому мы пока не будем затрагивать этот вопрос. В данной статье нашей задачей является рассмотрение методики и результатов реконструкций полей напряжений для выделенных интервалов геологического времени.

Для этого мы используем данные статистических замеров трещин в пунктах наблюдений исследуемой территории (рис. 1). В таблице приведена статистика распределения пунктов наблюдений по возрастам горных пород. В каждом пункте выполнено около 100 замеров азимутов и углов падений трещин.

По каждому пункту наблюдений соотвествующего возрастного интервала на прямоугольной матрице проводился подсчёт плотности трещин, определение максимумов, нанесение их на сводную матрицу. Получены сводные матрицы для всех возрастов, которые в последующем использованы для реконструкции осей главных нормальных напряжений. Полученные диаграммы показаны на первом столбце рисунка 3, рядом с ритмами. Построения выполнены на верхней полусфере сетки Вульфа, залиты секторы сжатия. Эти диаграммы ориентировок осей напряжений полученные длят горных пород. Однако, они ещё не отражают соответствующий возраст поля напряжений. Единственное что можно извлечь из этого – полученное общее сводное поле (диаграмма 1) соответствует региональному полю напряжений позднекайнозойского возраста. Об этом свидетельствуют и диаграммы 2 (N) и 6 (Q). Судя по сравнению с диаграммой 12, полученной по механизмам очагов землетрясений это поле напряжений соврменное, и вероятно современное унаследовано от неоген-четвертичного времени. Для определения сводного поля напряжений для возрастного интервала напрмер, для неогенового времени необходимо освободиться от наложенной трещиноватости в четвертичное время, т.е. от сводных данных плотности трещин неогена вычесть данные по чевертичному времени. Полученная таким образом диаграмма приводится под номером 7 (жёлтая). Такая же процедура выполняется для последующих возрастных интервалов. Следует помнить, что определения необходимо выполнять для соответсвующих фаз ритмов первого (в данном случае) ранга. Полученные «чистые» от последующего влияния диаграммы расположены по диагонали этой «геохронологической шкалы палеонапряжений» (рис. 3).

Таблица 1. Данные по статистике пунктов наблюдений массовых замеров трещин

Возраст	Нурата-Кызылкум	Туркестан-Зарафшан-Гиссар	ЮЗ отроги Гиссара	Всего
KZ	37	64	38	139
в т.ч. Q	14	27	9	50
N	16	21	14	51
Pg	7	16	15	38
MZ	8	19	17	44
в т.ч.	8	15	11	34
K	-	4	6	10
J T	-	-	-	0
PZ	62	96	12	170
Всего	107	179	67	353

Таким образом, реконструкции полей напряжений отдельных выделенных этапов MZ-KZ позволяют установить рубежи их перестроек, которые соответствуют границам «активных» и «пассивных» фаз выделенных этапов I ранга. Всего за период от позднего палеозоя до новейшего их насчитывается пять. К началу олигоцена приходится, самый

поздний, пятый рубеж перестройки общерегионального поля напряжений, который соответствует началу новейшего этапа. Произошел переход от сбросового поля напряжений к взбросовому и взбросо-сдвиговому типам, определяющим общее воздымание территории и преобладание положительных структурных элементов. Оно продолжается в четвертичное время, и в современный период, отражаясь в очагах землетрясений. С указанными фазами соответствующих этапов I ранга связывается время действия тектодинамических систем - для каждой из них свойственны свое поле напряжений, свои особенности тектонических движений и деформаций.




Рис. 3. Геохронологическая шкала палеонапряжений западной части Тянь-Шаня по данным статистических замеров трещин (составил Р.А.Умурзаков, 2008 г.).

Круговые диаграммы стереографические проекции ориентировок осей напряжений, построенные на верхней полусфере сетки Вульфа: 1 – сводная по данным всех пунктов наблюдений, 2 – по неогеновым, 3 – по палеогеновым, 4 – по меловым, 5 – по юрским, 6 -по четвертичным, 7 – по «чистым» неогеновым, 8 – по «чистым» палеогеновым, 9 - по «чистым» верхнемеловым, 10 - по «чистым» раннемеловым. Диаграммы полей напряжений соответствующие выделенным фазам ритмов первого ранга А и Б – последней, «активной» (позднеолигоцен-четвертичной) фазы: А – основная, Б – сопутствующая; В – «пассивной» (палеогеновой) фазы, Г – «активной» (меловой) фазы.

ФАЦИАЛЬНО-ПАЛЕОГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОБСТАНОВКИ И УСЛОВИЯ НАКОПЛЕНИЯ ОСАДКОВ СЫРДАРЬИНСКОГО БАССЕЙНА В ПАЛЕОГЕНОВУЮ ЭПОХУ

Шоймуротов Т.Х.*

**ГУ «Институт геологии и разведки нефтяных и газовых месторождений» Министерства горнодобывающий промышленности и геологии Республики Узбекистан*

Аннотация. В статье рассматривается палеогеография, палеотектонические и палеоклиматические условия осадконакопления и история геологического развития Сырдарьинской впадины и прилегающих районов в палеогеновую эпоху. Описаны закономерности распределения в разрезе и пространстве различных типов пород. Впервые для закрытых территорий применен принцип динамического фациального анализа и проведено фациально-палеогеографическое картирование. Следовательно, определен полный цикл этапов осадкообразования палеоценового и эоценового времени, отражающий направленность эволюции палеогенового осадочного бассейна исследуемого района, в дальнейшем способствующий возможности для разработки территории в новой стратегии

прогнозирования поиска перспективных залежей, проявлений и месторождений полезных ископаемых.

До последнего времени основными спорными вопросами геологии палеогена Сырдарьинской впадины оставались надежность корреляции восточных и западных районов, увязка стратиграфической схемы палеогена Средней Азии со средиземноморской мировой шкалой. Эти трудности сопоставления разрезов усугублялись новыми представлениями о глобальной стратификации отдельных ярусов и зон, в частности, изменением их границ (International Stratigraphic Chart). В соответствии с зональностью осадочно-седиментационных бассейнов палеогена выделяются несколько типовых разрезов: на востоке – тянь-шаньского типа, характеризующиеся эндемичностью фауны, мелководностью осадочных комплексов, широким развитием устричных известняков и сульфатов (Ферганской и Афгано-Таджикской межгорной впадины и Приташкентский прогиб), в средней части их сменяют разрезы кызылкумского типа, представленные накоплениями более удаленных частей бассейна. Наконец, на западе палеоген представлен разрезами устюртского типа с преобладанием мергельно-карбонатных и глинистых глубоководных морских образований. Таким образом, Сырдарьинской впадины является связующим звеном между западным и восточным седиментационно-осадочными бассейнами Средней Азии. Поэтому возникает вопрос определения места впадины в этой системе бассейнов в палеогеновый период.

